

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIV VA O‘RTA MAXSUS TA‘LIM VAZIRLIGI
O‘RTA MAXSUS, KASB-HUNAR TA‘LIMI MARKAZI

TURSUNOV YULDASH, USMANOVA MUBORAK

AHOLIGA IJTIMOIIY MUHOFAZA YORDAMINI TASHKIL ETISH

Kasb-hunar kollejlari uchun darslik

TOSHKENT
«NISO POLIGRAF»
2016

UDK: 316.6(075)

KBK 65.272.

T 95

Taqrizchilar:

X.V. Burxonxodjayeva – *yuridik fanlar nomzodi, dotsent*

G.M. Murodova – *Budjetdan tashqari Pensiya jamg'armasining Toshkent shahar Sirg'ali tumani bo'limi boshlig'i, yuridik fanlar nomzodi*

Oliy va o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi o'quv metodik birlashmalar faoliyatini muvofiqlashtiruvchi Kengash nashrga tavsiya etgan.

Tursunov Y.

T 95 **Aholiga ijtimoiy muhofaza yordamini tashkil etish.**

Y.Tursunov, M.Usmanova. Kasb-hunar kollejlari uchun darslik.

– T.: «NISO POLIGRAF», 2016. – 184 b.

Inson manfaatlari eng oliy qadriyat sifatida e'zozlanayotgan, fuqarolar uchun hech kimdan kam bo'lmagan farovon va to'kis hayot sharoitini barpo qilish o'zining oliy maqsadi ekanini butun jahonga e'lon qilayotgan bizning davlatimiz va jamiyatimiz uchun bu tabiiy holdir. Kuchli ijtimoiy muhofazalash siyosatini real ta'minlay oladigan huquqiy negiz va zarur tizim yuzaga keltirilgan ekan uning samarali ishlashini amalda ta'minlash, davlatimiz ijtimoiy siyosatini real ro'yobga chiqarishda mutaxassis kadrlar muhim o'rin tutadi.

Mazkur darslik bu sohada zarur zamonaviy bilim va ko'nikmalarga ega bo'lgan malakali o'rta bo'g'in mutaxassislarini tayyorlashga qaratilgan.

Darslikda aholini ijtimoiy muhofaza qilishning shakl va usullari, bu sohada faoliyat yuritadigan davlat organlari, fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari, jamoat birlashmalari, ijtimoiy muhofaza shakllari va ularni amalga oshirilishiga taalluqli masalalar atroflicha yoritiladi.

Darslik 3380104-Yurisprudensiya mutaxassisligi uchun Namunaviy dasturga muvofiq tayyorlandi.

Darslikdan Pensiya jamg'armasi, fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish idoralari, huquqni muhofaza qilish organlari xodimlari, ijtimoiy muhofaza masalalari bilan qiziquvchi keng kitobxonlar foydalanishlari mumkin.

UDK: 316.6(075)

KBK 65.272.

ISBN 978-9943-4464-7-2

© «Davriy nashriyoti», 2012

© «Niso Poligraf», 2016.

KIRISH

Mamlakatimiz o‘z mustaqil taraqqiyotining dastlabki kunlaridanoq inson huquqlari keng e’tirof etiladigan va har tomonlama kafolatlanadigan davlat sifatida jahonga tanildi hamda fuqarolar farovonligi, tinchlik-osoyishtaligi, haq-huquqlari to‘la ta’min etiladigan demokratik jamiyat barpo etish, hech kimdan kam bo‘lmagan yuksak turmush darajasini yaratish o‘zining oliy maqsadi ekanini e’lon qildi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti I.A.Karimovning tashabbusi va bevosita rahbarligi ostida ishlab chiqilgan va amalga oshirilayotgan O‘zbekistonning bozor munosabatlariga o‘tish sohasidagi milliy modeli mamlakatimizni sotsial ziddiyatlarsiz, barqarorlikni ta’minlagan holda bosqichma-bosqich, evolyutsion yo‘l bilan bozor munosabatlariga o‘tishining ilmiy asoslangan strategiyasini va tamoyillarini belgilab berdi.

Milliy modelning asosiy tamoyillaridan biri – o‘tish davrida aholini kuchli ijtimoiy himoya qilishdan iborat. Zero, Prezident I.A.Karimov alohida ta’kidlaganidek, «Bozor iqtisodiyotini barpo etish shunchaki bir maqsad emas. Barcha demokratik, siyosiy islohotlarning pirovard maqsadlarining o‘zi, bu, eng avvalo, inson uchun munosib turmush va faoliyat sharoitlarini yaratishdir»¹

Yuqoridagilarga ko‘ra, islohotlarning ijtimoiy va huquqiy zaminini zamon talablariga mos ravishda va ijtimoiy-iqtisodiy islohotlarimiz natijalariga hamohang takomillashtira borish taraqqiyotimizni ta’minlashning muhim shartlaridandir.

Bozor munosabatlariga asoslangan huquqiy demokratik davlat va fuqarolik jamiyatini barpo etish chog‘ida ijtimoiy himoya mamlakatning taraqqiy topishi, tinchlik, osoyishtalikni saqlashning asosiy omillaridan sanaladi.

¹Karimov I.A. Bizdan ozod va obod Vatan qolsin. Asarlar to‘plami, 2-jild. – T.: O‘zbekiston. 1996. 14-bet.

Mamlakatimizda ijtimoiy zaif, yordamga muhtoj aholi qatlamlari haqida alohida g'amxo'rlik qilinishi tabiiy holdir. Demak, ijtimoiy himoya tushunchasi, obyektlari va subyektlari haqida aniq-ravshan tushunchalarga ega bo'lish bo'lg'usi mutaxassis kadrlar saviyasini shakllantirilishida muhim ahamiyat kasb etishi shubhasizdir. Ijtimoiy himoya xalqimizning milliy, axloqiy qadriyatlaridan ekanligi ham bu haqdagi axloqiy hamda ularning milliy qonunchilik normalarimizda o'z ifodasini topganligi haqidagi tushunchalar yoshlarimiz ongiga singdirilishi lozimligi o'z-o'zidan tushunarlidir.

Aholini ijtimoiy muhofazalash sohasida katta hajmdagi keng qamrovli ishlar amalga oshirilayotganiga va bu sohada maxsus qonunchilik tizimi shakllanganiga qaramasdan, bu bilimlar shu paytgacha umumlashtirilmagan va tushunchalari ta'riflanmasdan qolayotgan edi. Yagona tizimga solingan, ijtimoiy muhofaza ishlarini yaxlit holda tavsiflab beradigan maxsus adabiyotning yo'qligi esa ijtimoiy muhofaza masalalari bilan shug'ullanuvchi o'rta bo'g'in mutaxassis kadrlar tayyorlash ishiga salbiy ta'sir qilar, ularda yaxlit va izchil bilimlar hosil bo'lishiga, amaliyotda yuz beradigan voqea-hodisalarga to'g'ri baho berishlariga, davlatimiz ijtimoiy siyosati, shu jumladan, kuchli ijtimoiy muhofazalash siyosati maqsad-mohiyatini har doim ham to'g'ri anglashlariga xizmat qilmas edi.

Kadrlar tayyorlash Milliy dasturida ta'kidlanganidek: «Inson, uning har tomonlama uyg'un kamol topishi va farovonligi, shaxs manfaatlarini ro'yobga chiqarish sharoitlarini va ta'sirchan mexanizmlarini yaratish, eskirgan tafakkur va ijtimoiy xulq-atvorning andozalarini o'zgartirish respublikada amalga oshirilayotgan islohotlarning asosiy maqsadi va harakatlantiruvchi kuchidir. Xalqning boy intellektual merosi va umum-bashariy qadriyatlar asosida, zamonaviy madaniyat, iqtisodiyot, fan, texnika va texnologiyalarning yutuqlari asosida kadrlar tayyorlashning mukammal tizimini shakllantirish O'zbekiston taraqqiyotining muhim shartidir.

Kadrlar tayyorlash Milliy dasturi «Ta'lim to'g'risida»gi O'zbekiston Respublikasi Qonunining qoidalariga muvofiq holda tayyorlangan bo'lib, milliy tajribaning tahlili va ta'lim tizimidagi jahon miqyosidagi yutuqlar asosida tayyorlangan hamda yuksak umumiy va kasb-hunar madaniyatiga, ijodiy va ijtimoiy faollikka, ijtimoiy-siyosiy hayotda mus-

taqil ravishda mo‘ljalni to‘g‘ri ola bilish mahoratiga ega bo‘lgan, istiqbol vazifalarini ilgari surish va hal etishga qodir kadrlarning yangi avlodini shakllantirishga yo‘naltirilgandir»¹.

Ushbu yuksak talablarning bajarilishi uchun zamonaviy axborot texnologiyalari, kompyuterlashtirish va kompyuter tarmoqlari negizida ta‘lim jarayonini axborot bilan ta‘minlashni rivojlantirish, ta‘lim jarayonida ommaviy axborot vositalarining mavqeyi oshib borishini ta‘minlash, fan va ta‘limning nashriyot bazasini rivojlantirish, o‘quv, o‘quv-uslubiy, ilmiy, qomusiy adabiyotlar va ma‘lumotnomalar bilan ta‘minlashning barqaror tizimini shakllantirish vazifalari ilgari suriladi.

Mazkur darslik O‘zbekiston Respublikasining «Kadrlar tayyorlash Milliy dasturi to‘g‘risida»gi Qonuni talablari hisobga olingan holda aholini ijtimoiy muhofazalash bilan shug‘ullanuvchi davlat va nodavlat muassasalarida faoliyat yuritishlari lozim bo‘lgan o‘rta bo‘g‘in yurist mutaxassislar tayyorlashda ularga «Aholiga ijtimoiy muhofaza yordamini tashkil etish» kursidan ta‘lim dasturiga muvofiq bilim berish maqsadida tayyorlandi. Darslikda mualliflar tomonidan davlatimizning ijtimoiy siyosati va unda aholi muhtoj qatlamlarini ijtimoiy muhofaza qilishga doir davlat va nodavlat organlari faoliyatining huquqiy asoslari, ijtimoiy muhofazalashning asosiy shakl va usullari, uni amalga oshirish shartlari va tartibi, bunda har bir idoraning tutgan o‘rni, muhtoj aholi va uning alohida toifalari, ularga tabaqalangan holda yondashish masalalari tizimli tarzda, izchil yoritildi hamda bunda ijtimoiy muhofazalashga oid qonunchilik tizimi va uning alohida elementlari atroflicha tavsiflandi.

Darslik zamonaviy bilimga, yuksak ma‘naviy-axloqiy xislatlarga, amaliy malaka va ko‘nikmalarga ega yurist kadrlar tayyorlash ishiga hissa qo‘shish orqali mamlakatimiz taraqqiyotiga, islohotlarimizning yana ham jadal sur‘atlar bilan davom etishiga, fuqarolarimiz ijtimoiy muhofazasi samaradorligi ortishiga, bu sohada qonuniylik va ijtimoiy adolat tamoyillarini yana ham chuqur qaror topishiga xizmat qiladi, deb umid qilamiz.

¹O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Axborotnomasi. 1997. 11–12-son, 295-modda.

Mazkur ish mamlakatimiz tarixida birinchi marta amalga oshirilganligi sababli unda ayrim nuqson va kamchiliklar bo‘lishi, noaniq talqinlar uchrashi mumkin. Shu sababli darslik haqida o‘z xolis fikr-mulohazalari bilan o‘rtoqlashgan o‘quvchilarimizga oldindan minnatdorchilik bildiramiz.

I BOB.
«AHOLIGA IJTIMOY MUHOFAZA YORDAMINI TASHKIL ETISH» O‘QUV KURSI, UNING PREDMETI VA ASOSIY VAZIFALARI

1.1. «Aholiga ijtimoiy muhofaza yordamini tashkil etish» o‘quv kursining predmeti, uslubi va tizimi

O‘zbekistonda ijtimoiy himoya yo‘lga qo‘yilar va uning huquqiy asoslari yaratilar ekan, Birlashgan Millatlar Tashkiloti, Xalqaro Mehnat Tashkiloti hamda boshqa nufuzli xalqaro insonparvar tashkilotlar tomonidan ishlab chiqilgan xalqaro standartlar talablariga tayanilgan holda ish ko‘rishga harakat qilindi.

Bunda BMTning Inson huquqlari umumjahon Deklaratsiyasi¹, Iqtisodiy-ijtimoiy va madaniy huquqlar haqidagi xalqaro Pakt², Fuqarolik va siyosiy huquqlar haqidagi xalqaro Pakt va uning fakultativ Protokoli³, Yevropa Ittifoqi xalqaro huquqiy hujjatlari, Xalqaro Mehnat Tashkilotining ijtimoiy ta’minot va ijtimoiy himoyaga oid xalqaro Konvensiyalari hamda tavsiyalari, Mustaqil Davlatlar Hamdo‘stligi doirasida tuzilgan ikki tomonlama va ko‘p tomonlama bitimlar qoidalariga va tamoyillariga tayanildi.

Birlashgan Millatlar Tashkiloti tomonidan 1948-yil 10-dekabrda qabul qilingan Inson huquqlari umumjahon Deklaratsiyasida: «Har bir inson jamiyat a’zosi sifatida ijtimoiy ta’minotga va o‘zining qadr-qimmatini saqlash, shaxsning erkin rivojlanishi uchun zarur bo‘lgan iqtisodiy, ijtimoiy va madaniy sohalardagi huquqini milliy sa’y-harakatlar hamda xalqaro hamkorlik orqali va har bir davlatning tuzilishi, shuningdek, re-

¹Qarang: Международные конвенции по защите прав человека и борьбы с преступностью. Сб. международных соглашений и рекомендаций. –Т.: ИПК «Шарк». 1995. С.9.

²Qarang: yuqoridagi manba: 9-bet.

³Qarang: yuqoridagi manba: 33-bet.

surslariga muvofiq amalga oshirishga haqli» deb belgilangan (22-modda). Mazkur umumbashariy ahamiyatga ega xalqaro hujjatning 25-moddasida esa «Har bir inson o'zining hamda oilasining salomatligi va farovonligini ta'minlash uchun zarur bo'lgan turmush darajasiga, jumladan kiyim-kechak, oziq-ovqat, tibbiy xizmat va zarur ijtimoiy xizmatga ega bo'lishga hamda ishsizlik, kasallik, nogironlik, bevalik, qarilik yoki unga bog'liq bo'lmagan sharoitlarga ko'ra tirikchilik uchun mablag' bo'lmay qolgan boshqa hollarda ta'minlanish huquqiga ega ekanligi belgilangan»¹.

O'zbekiston Respublikasi Inson huquqlari umumjahon Deklaratsiyasi va inson huquqlariga oid boshqa muhim xalqaro standartlarni ratifikatsiya qilgan davlat sifatida o'z fuqarolari ijtimoiy himoyasiga birinchi darajali vazifa sifatida e'tibor qaratib kelmoqda.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti tomonidan 2008-yil 1-mayda e'lon qilingan «Inson huquqlari umumjahon Deklaratsiyasi qabul qilinganligining 60 yilligiga bag'ishlangan tadbirlar Dasturi to'g'risida»gi Farmonida qayd etilganidek: «Inson huquqlari umumjahon Deklaratsiyasi O'zbekiston Respublikasi mustaqillikka erishganidan keyin qo'shilgan birinchi xalqaro-huquqiy hujjat bo'ldi. Demokratik, huquqiy davlat, kuchli fuqarolik jamiyati barpo etish yo'lini tanlagan O'zbekiston inson huquqlari va manfaatlarini jamiyatni rivojlantirish va davlat qurilishining, butun ichki va tashqi siyosatining eng ustuvor yo'nalishi etib belgiladi.

Istiqlol yillarida mamlakatimiz inson huquqlari bo'yicha 60 ta asosiy hujjatga qo'shildi, BMT tomonidan bu sohada qabul qilingan oltita asosiy xalqaro shartnoma qatnashchisiga aylandi.

Inson huquqlari umumjahon Deklaratsiyasining qoidalari O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi, insonning siyosiy, iqtisodiy, ijtimoiy va madaniy huquq va erkinliklarining ishonchli himoya qilinishini ta'minlaydigan milliy qonunchilik me'yorlarida o'z ifodasini topgan»².

Inson huquqlari umumjahon Deklaratsiyasining olamshumul ahamiyati shundan iboratki, unda demokratik va sivilizatsiyalashgan jami-

¹O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Axborotnomasi.2008. 5-son, 253-modda.

²O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi palatalari Axborotnomasi. 2008. 5-son, 253-modda.

yatda insonning huquqiy statusi qanday bo‘lishi kerak, davlat va jamiyat o‘z fuqarolari oldida qanday majburiyatlarga ega degan savollarga aniq-ravshan javob berish bilan birga inson huquqlariga oid xalqaro hamda milliy qonunchilik tizimlari vujudga kelishi va rivojlanib borishi uchun mustahkam zamin bo‘lib xizmat qildi.

Ijtimoiy muhofaza sohasida amalga oshirib kelinayotgan izchil va kuchli ijtimoiy siyosatimiz natijasida xalqimizning moddiy farovonligi va ertangi kunga ishonchi tobora mustahkamlanib bormoqda va bunda ijtimoiy ehtiyojmand aholi turmush darajasini yuksaltirish ustuvor vazifa sifatida e‘tiborda tutib turilibdi.

«Biz ishlab chiqqan va bugungi kunda hayotga tatbiq etayotgan ushbu modelning ma’no-mazmuni – davlat qurilishi va konstitutsiyaviy tuzumni tubdan o‘zgartirish va yangilash, iqtisodiyotni mafkuradan holi etish, uning siyosatdan ustunligini ta’minlash, davlatning bosh islohotchi vazifasini bajarishi, ya’ni islohotlar tashabbuskori bo‘lishi va ularni muvofiqlashtirib borishi, qonun ustuvorligini ta’minlash, kuchli ijtimoiy siyosat yuritish, islohotlarni bosqichma-bosqich va izchil olib borish tamoyillariga asoslanadigan siyosiy, iqtisodiy va ijtimoiy islohotlarni amalga oshirishdan iboratdir»¹, – deb ko‘rsatib o‘tdi Prezident I.A.Karimov. Shuningdek, mazkur ma’ruzada qayd etilganidek, qariyb yigirma yillik mustaqil taraqqiyotimiz mobaynida O‘zbekistonda yalpi ichki mahsulotning o‘sishi 3,5 barobarni, aholi jon boshiga hisoblaganda esa 2,5 barobarni, aholining real daromadlari 3,8 barobarni tashkil etgani e‘tiborga sazovordir. Ayniqsa, ijtimoiy-gumanitar sohada erishilgan maralar – aholini ijtimoiy himoya qilish uchun yo‘naltirilgan davlat xarajatlarning 5 barobar ko‘paygani, turmush darajasining sezilarli ravishda yaxshilangani va buning natijasida onalar o‘limi 2 barobardan ko‘proq, bolalar o‘limi 3 barobar kamaygani, odamlarning o‘rtacha umr ko‘rishi 67 yoshdan 73 yoshga, jumladan, ayollarning o‘rtacha umr ko‘rishi 75 yoshga yetganligi biz ko‘zlagan maqsadimiz tomon to‘g‘ri yo‘ldan ildam odimlar bilan olg‘a borayotganimizni tasdiqlaydi. Bularning barchasi hayotimiz sifat jihatdan yaxshilana boshlagani, muhtoj aholi tabaqalarini moddiy-ijtmoiy qo‘llab-quvvatlash yangi bosqichga o‘tganidan darak beradi.

¹Karimov I.A.. Mamlakatimizda demokratik islohotlarni yanada chuqurlashtirish va fuqarolik jamiyatini rivojlantirish konsepsiyasi. «Xalq so‘zi». 2010-yil 12- noyabr.

Jahon miqyosida yuz bergan va davom etayotgan moliyaviy-iqtisodiy inqiroz tufayli barcha resurslardan, shu jumladan moliyaviy mablag'lardan ham tejab-tergab, o'rinli foydalanish zaruratini olg'a surmoqda. Shu sababli ijtimoiy ta'minot va ijtimoiy himoya sohasida ham boqimandalikka yo'l qo'ymagan holda aniq maqsadli va samarali ish olib borilishi dolzarb vazifa sifatida taqozo etilmoqda.

Shu munosabat bilan fuqarolarning pensiya ta'minotini amalga oshiruvchi davlat organlari tizimida tub islohotlar amalga oshirildi va bunda moliyaviy resurslar aniq hisobga olinadigan, ulardan o'rinli va samarali foydalanish ustidan samarali monitoring o'rnatish imkonini beradigan yangicha tarkibiy o'zgarishlar sodir bo'la boshladi¹.

«Aholiga ijtimoiy muhofaza yordami ko'rsatish va uning tashkiliy-huquqiy asoslari»ning predmeti bo'lib, aholiga ijtimoiy muhofaza yordamini amalga oshirish jarayonida vujudga keluvchi ijtimoiy munosabatlarni huquqiy tartibga solish, shu munosabat ishtirokchilari huquqlari hamda majburiyatlari, ularni ro'yobga chiqarilishi bilan bog'liq bo'lgan aloqalar, javobgarlikka oid masalalar sanaladi.

«Aholiga ijtimoiy muhofaza yordamini tashkil etish» o'quv kursining predmeti sanaluvchi munosabatlar moliyaviy mablag'larni aholining muhtoj tabaqalarini ijtimoiy muhofazalash maqsadlariga yo'naltirish, bu mablag'larni taqsimlash, o'z manziliga aniq yetkazish, ijtimoiy yordamning moddiy va natural xizmatlar ko'rinishida amalga oshirilishiga erishish, ijtimoiy imtiyoz va yangilliklar berish orqali muhtojlarga yordam ko'rsatish kabi yo'nalishlarda yuzaga kelishi mumkin.

Aholiga ijtimoiy muhofaza yordami ko'rsatish va uni tashkil etish davlatning ijtimoiy himoyani amalga oshirish vazifasi yuklangan vakolatli organlari, fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish idoralari, nodavlat notijorat tashkilotlari, korxonalar va tashkilotlar hamda yordamga muhtoj fuqarolar (oilalar) o'rtasidagi ijtimoiy munosabatlardan iborat

¹O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2007-yil 19-martdagi PF-3864- sonli «Aholini ijtimoiy himoya qilish tizimini yanada takomillashtirish va mustahkamlashga oid chora-tadbirlar to'g'risida»gi Farmoni. O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to'plami, 2007-yil, 12-son, 105-modda. Shuningdek, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2009-yil 30-dekabrda PF-4161-sonli «Fuqarolarning pensiya ta'minoti tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida»gi Farmoni. «Xalq so'zi», 2009-yil 31-dekabr.

bo‘lib, davlat tegishli qonunlar va qonun hujjatlari qabul qilish orqali bu munosabat ishtirokchilarining statusini aniq belgilab qo‘yadi va shu orqali bunday munosabatlarda qat‘iy tartib o‘rnatilishiga, ijtimoiy adolat va qonuniylik ta‘minlanishiga erishadi.

Aholiga ijtimoiy muhofaza yordami ko‘rsatish va uni tashkil etishga oid munosabatlar o‘z xususiyatlariga ko‘ra turli-tumandir va ularni shartli ravishda quyidagicha tasniflash mumkin:

1. *Ijtimoiy muhofazani tashkil etishga oid tashkiliy-huquqiy munosabatlar.* Bunday munosabatlar davlat hokimiyati va boshqaruvi organlarining turli bo‘g‘inlari, fuqarolarning o‘zini o‘zi boshqarish idoralari, korxonalar va tashkilotlar o‘rtasida ana shu maqsad uchun zarur moliyaviy mablag‘larni shakllantirish, taqsimlash va sarf-xarajat qilish, ijtimoiy xizmatlarni tashkil etish, muhtoj aholiga natural ko‘rinishdagi ijtimoiy yordamlarni yetkazish chog‘ida yuzaga keladi.

2. *Ijtimoiy muhofaza yordami ko‘rsatish chog‘ida bunday yordam ko‘rsatishni amalga oshiruvchi muassasa va idoralar bilan fuqarolar (oilalar) o‘rtasidagi munosabatlar.* Bu munosabatlar davlat yoki nodavlat idoralari tomonidan ijtimoiy yordam vazifalarini bajarish, fuqaro (oila) tomonidan esa bunday yordamni olish huquqidan foydalanish bilan bog‘liq holda yuz beradi.

3. *Ijtimoiy muhofaza yordamining ayrim turlarini pensiyalar, na-faqalar, moddiy yordamlar bilan ta‘minlash, ijtimoiy yordamning natural ko‘rinishlaridan foydalanish, ehtiyojmand shaxslarga ijtimoiy muhofaza xizmatlarini ko‘rsatish bilan bog‘liq munosabatlar.*

4. *Ijtimoiy muhofazani amalga oshirilishi chog‘ida yo‘l qo‘yilgan qonunbuzarliklar va javobgarlik qo‘llash bilan bog‘liq munosabatlar.*

5. *Nizolarni hal etishga doir munosabatlar, shu jumladan protsessual munosabatlar va boshqa munosabatlar.*

Ijtimoiy muhofaza yordamini ko‘rsatishga oid munosabatlar odatda davlatning imperativ norma va qoidalariga asoslanadi va bu hol kurs uslubining o‘ziga xosligini belgilaydi.

«Aholiga ijtimoiy muhofaza yordamini tashkil etish» o‘quv kursining uslubi davlat majburloviga, qat‘iy belgilab qo‘yilgan qoidalarga og‘ishmasdan rioya etilishiga asoslanadi. Bunda ko‘p hollarda taraf-

lar o‘rtasida kelishuv orqali munosabat o‘rnatish, tartib-qoidalarni o‘zgartirish mumkin emas.

O‘quv kursining tizimi umumiy va maxsus qismlardan, ushbu sohaga taalluqli asosiy tushuncha va institutlardan iboratdir.

1.2. «Aholiga ijtimoiy muhofaza yordamini tashkil etish» o‘quv kursining tamoyillari va manbalari

«Aholiga ijtimoiy muhofaza yordamini tashkil etish» o‘quv kursining tamoyillari, bu ijtimoiy muhofaza yordamini amalga oshirilishiga oid g‘oyalar, eng avvalo, umume’tirof etilgan universal xalqaro huquqiy standartlar sanalmish BMTning Inson huquqlari umumjahon Deklaratsiyasi, Iqtisodiy, ijtimoiy va madaniy huquqlar to‘g‘risidagi xalqaro Paktga, boshqa yetakchi xalqaro huquqiy hujjatlarga asoslanuvchi tushuncha va qoidalarni o‘z ichiga oladi.

«Aholiga ijtimoiy muhofaza yordamini tashkil etish» o‘quv kursining tamoyillari umumhuquqiy hamda turli shakllardagi ijtimoiy ta’minotning amalga oshirilishiga bevosita taalluqli bo‘lgan o‘ziga xos tamoyillardan iboratdir.

Ijtimoiy himoyaning amalga oshirilishida qonuniylikka amal qilish, kamsitishga yo‘l qo‘yilmaslik, insonparvarlik, demokratizm kabi umumhuquqiy tamoyillar so‘zsiz amal qiladi. Bu tamoyillarning ro‘yobga chiqarilishi Respublikamiz Konstitutsiyasi va boshqa qonunlar bilan to‘la kafolatlangan bo‘lib, ulardan qandaydir tarzda chekinish inson huquqlarini poymol etilishi sifatida baholanadi hamda qonun hujjatlarida nazarda tutilgan huquqiy javobgarliklarni keltirib chiqaradi.

Yuqoridagilardan tashqari, ijtimoiy muhofaza kursining o‘ziga xos maxsus tamoyillari ham mavjud bo‘lib, bu tamoyillar ijtimoiy ta’minotning amalga oshirilishiga, u yoki bu shakldagi ijtimoiy yordam xususiyatlariga va boshqalarga taalluqli bo‘ladi.

O‘quv kursining maxsus tamoyillari jumlasiga quyidagilarni kiritish mumkin:

1. Ijtimoiy ta’minotning umumiyliigi va keng qamrovli tusga egaligi.
Bunda fuqarolarning millati, jinsi, ijtimoiy mavqeyi va boshqa farqlari-

dan qat'i nazar muayyan ko'rsatkichlar mavjud bo'lgani taqdirda teng asoslarda ijtimoiy ta'minot olishlari tushuniladi.

2. Ijtimoiy himoyaning manzilli va aniq yo'naltirilganligi hamda boqimandalikka yo'l qo'yilmasligi.

Ijtimoiy ta'minotning yetarli darajada bo'lishi tamoyili BMTning 1966-yil 19-dekabrda Iqtisodiy, ijtimoiy va madaniy huquqlar to'g'risidagi xalqaro Paktning 11-moddasi, 1-bandida nazarda tutilgan: «Ushbu Paktga ishtirok etuvchi davlatlar har bir kishi o'zi va oilasi uchun yetarli oziq-ovqat, kiyim-kechak va uy-joy hamda turmush sharoiti to'xtovsiz yaxshilanib borishini o'z ichiga oladigan yetarli turmush darajasi bo'lishi huquqini e'tirof etadi» degan bosh qoidaga asoslanadi.

3. Ijtimoiy ta'minotning amalga oshirilishida fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari, korxonalar va tashkilotlar, jamoat birlashmalarining bevosita ishtirok etishlari tamoyili.

4. Mamlakatimizda ijtimoiy ta'minot xilma-xil shakllarda amalga oshirilishi tamoyili. Ijtimoiy ta'minotga oid qonunchilik hujjatlarida ta'minot har xil shakllarda, xususan, pensiyalar, bir martalik moddiy yordamlar, ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish, muayyan imtiyozlar va yengilliklar ko'rinishida amalga oshirilishi nazarda tutilgan. Kelgusida ijtimoiy yordam ko'rsatish shakllari yanada xilma-xillashuvi shakllanib mukammallashib borishi kutilmoqda.

Ijtimoiy ta'minotning qaysi shaklda amalga oshirilishi masalasi aniq shart-sharoitlar hisobga olingani holda qonun hujjatlari bilan belgilab qo'yiladi.

5. Ijtimoiy ta'minotni nodavlat, homiylar mablag'lari hisobidan amalga oshirilishining davlat tomonidan har tomonlama rag'batlantirilishi va qo'llab-quvvatlanishi tamoyili.

6. Ijtimoiy ta'minotning amalga oshirilishi ustidan davlat va jamoat nazoratining o'rnatilganligi tamoyili. Ijtimoiy ta'minotga oid mablag'larni o'z vaqtida va to'liq hajmda to'lanishi maqsadga muvofiq va to'g'ri sarflanishi, ijtimoiy ta'minotni amalga oshiruvchi davlat hamda jamoat organlari, ularning mansabdor shaxslari faoliyatining qonuniyligi ustidan umumiy nazoratni O'zbekiston Respublikasi prokuratura organlari amalga oshiradi.

Prokuratura organlari tomonidan amalga oshiriladigan nazorat shakllari, usullari va vositalari «Prokuratura to'g'risida»gi qonunda nazarda tutilgan.

O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi hamda uning huzuridagi Budjetdan tashqari Pensiya jamg'armasi nazorat qilish funksiyasini amalga oshirish mexanizmlari idoraviy me'yoriy hujjatlar bilan belgilab qo'yiladi.

Ijtimoiy ta'minotning to'g'ri amalga oshirilishi ustidan ta'sirchan va samarali nazorat o'rnatilishi bu sohada qonuniylikni ta'minlash, mablag'larni o'z egalariга yetib borishini ta'minlashning asosiy kafolatlaridan sanaladi.

Huquq manbasi deganda ijtimoiy munosabatlarni davlat tomonidan tartibga solinishida qo'llaniladigan huquqiy shakllar nazarda tutiladi. Davlat huquq normalari vositasida ijtimoiy munosabatlar maromiga, unda ishtirok etayotgan shaxslar xulq-atvoriga ta'sir etadi, huquq normalarini qabul qilish orqali jismoniy va yuridik shaxslarga o'zlariga tegishli huquq va erkinliklardan foydalanish, bu huquqlarga uchinchi shaxslar tomonidan tajovuz qilingani taqdirda esa ularni himoya qilish choralari va usullarini nazarda tutadi. Qonun davlat erkini qonun hujjatlari orqali moddiylashgan holda ifodalanish shaklidan iboratdir.

«Aholiga ijtimoiy muhofaza yordami ko'rsatish va uning tashkiliy - huquqiy asoslari» o'quv kursining manbalari bo'lib quyidagilar sanaladi:

1. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi fuqarolarning ijtimoiy-iqtisodiy statusini belgilovchi, asosiy ijtimoiy, iqtisodiy, madaniy huquqlarni o'zida mustahkamlovchi va ularning amalga oshirilish kafolatlarini nazarda tutuvchi oliy yuridik kuchga ega bo'lgan hujjat sanaladi.

O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 39-moddasi ijtimoiy ta'minot olish huquqi va uning kafolatlarini bevosita belgilaydi. Konstitutsiyaning boshqa ko'pgina moddalari fuqarolar erkinliklari, shaxs daxlsizligi, fuqaroning uzviy huquqlaridan sanalmish shaxsiy va daxlsiz huquqlariga oid normalarni nazarda tutadi va ular ham ijtimoiy ta'minot huquqlarining amalga oshirilishida muhim o'rin egallaydi. Jumladan, Konstitutsiyaning 18-moddasiga ko'ra: «O'zbekiston Respublikasida barcha fuqarolar bir xil huquq va erkinliklarga ega

bo‘lib, jinsi, irqi, millati, tili, dini, ijtimoiy kelib chiqishi, e‘tiqodi, shaxsi va ijtimoiy mavqeyidan qat’i nazar, qonun oldida tengdirlar.

Imtiyozlar faqat qonun bilan belgilab qo‘yiladi hamda ijtimoiy adolat prinsiplariga mos bo‘lishi shart».

Konstitutsiyaning 43-moddasiga binoan esa «Davlat fuqarolarning Konstitutsiya va qonunlarda mustahkamlangan huquqlari va erkinliklarini ta‘minlaydi».

O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi ijtimoiy ta‘minotga oid qonunchilik tizimi shakllanishi va rivojlanishi uchun ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy yuridik zamin bo‘lib xizmat qiladi.

2. O‘zbekiston Respublikasining qonunlari;

a) *O‘zbekiston Respublikasining Mehnat kodeksi. Kodeksning 16 bobi (282–294-moddalari).*

b) «*Fuqarolarning davlat pensiya ta‘minoti to‘g‘risida*»gi O‘zbekiston Respublikasi Qonuni¹. Mazkur qonun O‘zbekiston Respublikasi Oliy Kengashi tomonidan 1993-yil 3-sentabrda qabul qilingan va 1994-yil 1-iyuldan boshlab amalga kiritilgan. Tarkibiy tuzilishiga ko‘ra, Muqaddima, 9 bob va 67 moddadan iborat.

v) *O‘zbekiston Respublikasining «Fuqarolarning jamg‘arib boriladigan pensiya ta‘minoti to‘g‘risida*»gi Qonuni².

g) «*O‘zbekiston Respublikasida nogironlarni ijtimoiy himoya qilish to‘g‘risida*»gi qonun (yangi tahriri). Mazkur Qonunning yangi tahriri O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi tomonidan 2008-yil 11-iyulda qabul qilingan va u 8 bob, 36 moddani o‘z ichiga oladi.

Ushbu qonunda nogironlarni ijtimoiy ta‘minlash va ularga ijtimoiy xizmatlar ko‘rsatish yuzasidan kafolatlar nazarda tutilgan.

d) «*Homiylik to‘g‘risida*»gi qonun. Bu qonun 2007-yil 2-mayda qabul qilingan bo‘lib, uning maqsadi homiylik sohasidagi munosabatlarni tartibga solishdan iborat³.

e) «*Ish beruvchining fuqarolik javobgarligini majburiy sug‘urta qilish to‘g‘risida*»gi O‘zbekiston Respublikasining 2009-yil 16-apreldagi

¹O‘zbekiston Respublikasi Oliy Kengashi Axborotnomasi. 1993. 9-son, 338-modda.

²O‘zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to‘plami. 2004. 51-son, 512-modda.

³O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi palatalarining Axborotnomasi. 2007. 5-son, 218-modda.

qonuni¹. Ushbu Qonunning maqsadi ish beruvchining fuqarolik javobgarligini majburiy sug'urta qilish sohasidagi munosabatlarni tartibga solishdan iborat.

- z) O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi palatalarining qarorlari;
- i) O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmonlari va Qarorlari;
- k) O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qarorlari;
- l) Vazirliklar, davlat qo'mitalari va idoralarning hujjatlari;
- m) Mahalliy davlat hokimiyati organlarining qarorlari.

Korxonalar va tashkilotlar tomonidan o'z xodimlari va ularning oilalarini ijtimoiy muhofaza qilishda ular qabul qilgan lokal me'yoriy hujjatlar ham muhim o'rin tutadi.

Ijtimoiy muhofaza yordami tashkil etilishi bilan bog'liq qonun hujjatlarini vaqt, hudud va shaxslar o'rtasida amal qilishga doir norma va qoidalar O'zbekiston Respublikasining 2000-yil 14-dekabrda qabul qilingan «Normativ-huquqiy hujjatlar to'g'risida»gi Qonuni bilan nazarda tutilgan².

O'zbekiston Respublikasi ratifikatsiya qilgan xalqaro huquqiy hujjatlar ham o'quv kursining manbasi bo'lib xizmat qilishi mumkin.

1.3. «Aholiga ijtimoiy muhofaza yordamini tashkil etish» o'quv kursining boshqa fanlar bilan aloqadorligi

«Aholiga ijtimoiy muhofaza yordami ko'rsatishni tashkil etish» o'quv kursi fan sohasi sifatida boshqa bir qator huquqiy hamda iqtisodiy fanlar bilan chambarchas bog'liq bo'lib, ularning yutuqlaridan foydalanadi hamda umumiy tushunchalarga ega bo'ladi.

«Aholiga ijtimoiy muhofaza yordamini tashkil etish» o'quv kursi, eng avvalo, Mehnat huquqi fani bilan bog'liqdir. Fuqarolarda ijtimoiy ta'minot olishga bo'lgan huquq ko'pchilik hollarda uning avvalgi davrlarda mehnat faoliyati bilan shug'ullanganligi faktiga asoslanadi.

¹O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi palatalarining Axborotnomasi. 2009. 4-son, 137-modda.

²O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Axborotnomasi. 2001. 1-2-son, 8-modda.

Ijtimoiy ta'minot olish huquqining yuzaga kelishigina emas, balki uning miqdori ham avvalgi mehnat faoliyatiga bog'liq bo'ladi. «Aholiga ijtimoiy muhofaza yordami ko'rsatishni tashkil etish» o'quv kursi ham mehnat huquqi fani foydalanadigan mehnat staji, o'rtacha ish haqi miqdori, ishlab chiqarishda sog'liqqa zarar yetkazilishi, kasb kasalliklari kabi bir qator umumiy tushunchalardan foydalanadi. Ijtimoiy ta'minot olish huquqi xodim mehnat faoliyati yuritgan davrda davlat ijtimoiy sug'urtasi fondiga badal to'langanligi bilan bog'langan.

Shu bilan birga ushbu ikki huquq sohasi o'ziga xos xususiyatlarga ham ega bo'lib, ularni alohida huquqiy fan ekanligini tavsiflaydi. Xususan, mehnat huquqining predmeti xodim va ish beruvchi o'rtasidagi mehnat munosabatlari bo'lsa, «Aholiga ijtimoiy muhofaza yordamini tashkil etish» o'quv kursining predmeti, odatda, o'tgan davrda mehnat munosabatida bo'lgan, zarur mehnat stajiga ega bo'lgan fuqaro bilan davlat yoki jamoat ijtimoiy ta'minot organlari o'rtasidagi munosabat sanaladi.

Mehnat huquqiy munosabatlari ixtiyoriylikka, tomonlar tengligiga asoslangan holda yuzaga kelsa, ijtimoiy ta'minot munosabatlari zarur yuridik tarkib mavjud bo'lganida ijtimoiy ta'minot organi xohishiga bog'liq bo'lmagan tarzda yuzaga kelaveradi, ammo uning ishtirokchilari teng huquqli bo'lmaydi.

Ushbu ikki huquq sohasi qo'llaydigan usullar ham turlichadir. Mehnat huquqiy munosabatlari ixtiyoriylik va tenglikka asoslanishi tufayli ko'proq xususiy huquqiy usullarda tartibga solinsa, ijtimoiy ta'minot huquqi davlat ishtirokidagi munosabatlar bo'lganligi tufayli ma'muriy-huquqiy usullarda, ya'ni davlat majburlovidan foydalanilgani holda tartibga solinadi.

Mehnat huquqi va ijtimoiy ta'minot huquqi o'z maqsadlari, oldidagi vazifalari, qo'llaydigan huquqiy-tashkiliy vositalari boshqa ko'plab jihatlari bilan ham o'zaro farqlanadi hamda alohida, mustaqil fan sifatida namoyon bo'ladi.

«Aholiga ijtimoiy muhofaza yordamini tashkil etish» o'quv kursining huquqi fuqarolik huquqi bilan ko'pgina umumiy xususiyatlarga ega. Xususan, huquq va muomala layoqati, uning paydo bo'lishi, cheklanishi, muomalaga layoqatsiz deb topish, yetkazilgan zarar va uning qoplanishi, yuridik shaxs va uning maqomi masalalarida fuqarolik

qonunchiligi tushunchalaridan hamda qoidalaridan keng foydalaniladi. Ayniqsa, hozirgi paytda paydo bo'layotgan va keng tarqala boshlagan xayr-ehson qilish yo'li bilan ijtimoiy ta'minotda ishtirok etish masalalari fuqarolik qonunlari bilan tartibga solinadi. Turli yuridik va jismoniy shaxslar ko'rsatadigan insonparvarlik yordamlarining huquqiy asoslari fuqarolik qonunchiligi sanaladi.

«Aholiga ijtimoiy muhofaza yordamini tashkil etish» o'quv kursi oila huquqi bilan yaqindan bog'liq va unda keng qo'llaniladigan qarindosh-urug'lar, homiylik va vasiylik organlari qaramog'ida bo'lganlik kabi qator yuridik tushunchalar oila qonunchiligi normalari bilan nazarda tutilgan. Muayyan ijtimoiy ta'minot turlaridan fuqaro foydalana olishi uchun uning moddiy ta'minlashga majbur bo'lgan yaqin qarindoshlari mavjud bo'lmashligi talab etiladi. Moddiy ta'minlashga majbur bo'lgan yaqin qarindoshlar tushunchasi va doirasi oila qonunchiligi normalariga binoan belgilanadi.

«Aholiga ijtimoiy muhofaza yordamini tashkil etish» o'quv kursi ma'muriy huquq bilan o'zaro o'xshash, chunki ijtimoiy ta'minot sohasini boshqarish va ijtimoiy ta'minotning amalga oshirilishida ma'muriy huquqiy usullardan foydalaniladi.

Shuningdek, «Aholiga ijtimoiy muhofaza yordamini tashkil etish» o'quv kursi moliya huquqi fani bilan bog'liq bo'lib, davlat budjeti xarajat qismiga kiruvchi faoliyatning bir turidan iborat bo'ladi. Ammo moliya huquqi umuman davlat moliyaviy faoliyatiga taalluqli bo'lsa, ijtimoiy ta'minot huquqi faqat uning bir kichik tarmog'igagina taalluqli bo'ladi.

«Aholiga ijtimoiy muhofaza yordamini tashkil etish» o'quv kursi mamlakat milliy boyligi bir qismini qayta taqsimlanishida qatnashuvchi fan sohasi sifatida fundamental iqtisodiy fanlar – iqtisodiyot nazariyasi, davlat va mahalliy organlar moliyasi kabilar bilan chambarchas bog'liqdir va ushbu iqtisodiy fanlar erishgan yutuqlardan ular ishlab chiqqan nazariy va amaliy tushunchalar, vositalardan foydalanadi. Iqtisodiyot nazariyasi, davlat va mahalliy organlar moliyasini bilish ijtimoiy ta'minot manbalari mohiyatini uning vazifalarini chuqur anglab olishga yordam beradi.

Fan va texnika taraqqiyoti tufayli ijtimoiy ta'minot huquqining boshqa huquqiy fanlar bilan aloqadorligi kuchayib boraverishi kuzatilmoqda.

1.4. Aholiga ijtimoiy muhofaza yordami ko'rsatish bilan bog'liq ijtimoiy munosabatlar va uning subyektlari

Huquqiy munosabatlar – davlat tomonidan himoya qilinadigan, odatda, qonun normalarining kishilar xatti-harakatlariga ta'siri natijasida yuzaga keladigan va uning qatnashchilarida subyektiv huquqlar, yuridik majburiyatlar mavjudligi bilan tavsiflanadigan ijtimoiy munosabatlardir.

Yuqoridagi ta'rifdan huquqiy munosabatlarga xos quyidagi xususiyatlarni anglab olish mumkin:

a) huquqiy munosabat, bu – insonlar faoliyati, xulq-atvori bilan bog'liq bo'lgan ijtimoiy munosabatlardir;

b) huquqiy munosabat – yuridik va jismoniy shaxslarning subyektiv huquqlari va yuridik majburiyatlarini ro'yobga chiqarish natijasida yuzaga keluvchi ijtimoiy munosabatlardir;

v) huquqiy munosabat – shaxslar o'rtasidagi irodaviy, ongli munosabatlardir;

g) huquqiy munosabat – davlat tomonidan, qonunlar vositasida muhofaza qilinadigan munosabatlardir.

Aholiga ijtimoiy muhofaza yordami ko'rsatishga oid huquqiy munosabatlar yuzaga kelishiga asos bo'ladigan yuridik faktlar – yuridik oqibat keltirib chiqarishga layoqatli bo'lgan irodaviy-ongli harakatlar ham, muayyan voqea-hodisalar ham bo'lishi mumkin. Bunday yuridik faktlar jumlasiga:

a) muayyan davr davomida mehnat munosabatida bo'lganlik – mehnat stajiga egalik fakti;

b) nogiron bo'lib qolganlik fakti;

v) qaramog'ida bo'lganlik fakti;

g) mehnatga yaroqsizlik fakti;

d) kasb kasalligiga chalinganlik yoki ishlab chiqarishda jarohat olganlik fakti va boshqalar kiritilishi mumkin.

Aholini ijtimoiy muhofazalashga oid huquqiy munosabatlar ijtimoiy jarayon, voqelikning bir ko'rinishi sifatida o'z elementlari tarkibiy qismlariga ega bo'ladi va bu elementlar quyidagilardan iborat bo'ladi:

Aholini ijtimoiy muhofazalashga oid huquqiy munosabatning obyektleri. Huquqiy munosabat obyektleri moddiy boyliklar, nomulkiy-

shaxsiy neʼmatlar, muayyan mulkiy yoki nomulkiy huquqlardan iborat boʻlishi mumkin.

Aholini ijtimoiy muhofazalashga oid huquqiy munosabat obyekti boʻlib pensiyalar va boshqa ijtimoiy yordamlar, turli imtiyozlarga nisbatan fuqarolarda boʻlgan huquqlar sanaladi.

Aholini ijtimoiy muhofazalashga oid huquqiy munosabat tarkibining ikkinchi muhim elementi – bu munosabatning subyektlari qatnashchilaridir. Huquqiy munosabatning subyektlari sifatida har doim subyektiv huquqlar, yuridik majburiyatlarga ega boʻlgan jismoniy va yuridik shaxslar hamda davlatning oʻzi (oʻz organlari va muassasalari orqali) ishtirok etadi.

Shaxs huquq subyekti sifatida huquqiy munosabatlarda qatnasha olishi uning huquq subyektlilik layoqatiga ega ekanligiga bogʻliq boʻladi.

Aholini ijtimoiy muhofazalashga oid munosabatlarda munosabat subyekti boʻlib quyidagilar qatnashadilar:

1. Fuqarolar (tegishli hollarda chet el fuqarolari, fuqaroligi boʻlmagan shaxslar);
2. Yuridik shaxslar (mulkchilik shakli, xoʻjalik yuritish usulidan qatʼi nazar);
3. Yuridik shaxs maqomiga ega boʻlmagan yakka tadbirkorlar, dehqon xoʻjaligining aʼzolari;
4. Davlat (oʻzining ijtimoiy taʼminotini amalga oshiruvchi, ijtimoiy taʼminot tizimini boshqaruvchi organlari, muassasalari orqali);
5. Fuqarolarning oʻzini oʻzi boshqarish organlari;
6. Oila – yaxlit, bir butun holda.

Aholini ijtimoiy muhofazalash sohasidagi huquqiy munosabatlarda qatnashuvchi shaxslarning huquq layoqatlari va muomala layoqatlari, vakolatlari, majburiyatlari hamda javobgarliklari hajmi fuqarolik qonunlarida, korxonalarining Nizomlarida va boshqa qonunchilik aktlarida belgilab qoʻyiladi.

Aholini ijtimoiy muhofazalashga oid huquqiy munosabat mazmuni uchinchi elementni tashkil etadi va u munosabat ishtirokchilarining huquqlari hamda subyektiv majburiyatlaridan tashkil topadi. Ijtimoiy taʼminotga oid huquqiy munosabat mazmuni qonun hujjatlariga koʻra uning subyektlariga

berilgan huquqlar hamda vakolatlar, yuklatilgan majburiyatlarga ko'ra belgilanadi.

Aholini ijtimoiy muhofazalashga huquqiy munosabatlar qatnashchilarining huquqlari va manfaatlari qonunlarga muvofiq ma'muriy usulda (yuqori turuvchi davlat yoki jamoat organi orqali) yoki sud tartibida himoya qilinishi mumkin.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2007-yil 6-aprelda qabul qilgan «Aholi bandligini oshirish hamda mehnat va aholini ijtimoiy muhofaza qilish organlari faoliyatini takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida»gi PQ-616-sonli Qaroriga ko'ra¹ aholi daromadlari va farovonligi darajasini o'stirishning g'oyat muhim omili sifatida uning bandligini oshirish uchun zarur shart-sharoitlar yaratish, mehnat bozori infratuzilmasini yanada rivojlantirish, odamlarni ijtimoiy himoya qilish tizimini mustahkamlash, ushbu masalalarni hal etishda mehnat va aholini ijtimoiy muhofaza qilish organlarining rolini faollashtirish hamda javobgarligini kuchaytirish, shuningdek, ular faoliyatini tashkil qilishni takomillashtirish maqsadida ijtimoiy ta'minot organlari tizimi va ularning ish faoliyati takomillashtirildi.

Aholini ijtimoiy muhofazalashga va ijtimoiy yordamni tashkil etish yuzasidan huquqiy munosabatlarning obyekt bo'lib fuqarolarga bu sohada berilgan huquqlar va ularning amalga oshirilishi jarayonida yuz beruvchi qonun hujjatlari bilan tartibga solinishi sanaladi.

Aholini ijtimoiy muhofazalashga oid munosabat ishtirokchilarining bu munosabatlar chog'idagi o'ziga xos o'rni va yuridik statusini to'g'ri belgilash qonunlarni to'g'ri tatbiq etilishiga, huquqbuzarlik holatlarining oldi olinishiga yordam beradi.

Fuqarolar (oila) ijtimoiy ta'minot huquqi subyekti sifatida. Ijtimoiy ta'minot sohasida fuqarolarga teng huquq layoqati berilgan bo'lib, yoshi, jismoniy va ruhiy holatidan qat'i nazar teng huquq layoqatidan foydalanadilar. Tegishli hollarda homila holida bo'lgan fuqarolarning huquqlari tan olinishi mumkin (masalan, marhum boquvchi tirikligi paytida homila holida bo'lgan va u vafot etganidan so'ng tirik tug'ilgan farzandi).

¹O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to'plami. 2007. 15-son, 156-modda.

Fuqarolarning ijtimoiy ta'minot sohasidagi huquqlari voyaga yetganlaridan so'ng bevosita o'zlari tomonidan amalga oshiriladi.

Voyaga yetmagan, ruhiy kasalligi yoki aqli zaifligi tufayli, shuningdek, jismoniy nuqsonlar mavjudligi sababli o'z huquqlarini bevosita amalga oshira olmaydigan fuqarolarning ijtimoiy ta'minot olish huquqlari ularning homiylari, vasiylari, qonuniy vakillari tomonidan ishonchnomaga asosan amalga oshiriladi.

Ishonchnomaga, qonunga, sud qaroriga yoki vakil qilingan davlat organining hujjatiga asoslangan vakolat bilan bir shaxs (vakil) tomonidan boshqa shaxs (vakolat beruvchi) nomidan tuzilgan bitim vakolat beruvchiga nisbatan fuqarolik huquq va majburiyatlarini bevosita vujudga keltiradi, o'zgartiradi va bekor qiladi.

Ijtimoiy ta'minotga oid munosabatlarda ham qonun hujjatlarida belgilab qo'yilgan tartibga muvofiq ishonchnoma asosida yuridik harakatlar sodir etilishi mumkin.

O'z xarakteriga ko'ra faqat shaxsan tuzilishi mumkin bo'lgan bitimni, shuningdek, qonunlarda nazarda tutilgan boshqa bitimlarni vakil orqali tuzishga yo'l qo'yilmaydi.

Vakil o'ziga vakolat bergan shaxs nomidan shaxsan o'ziga nisbatan ham, u ayni bir vaqtda vakili bo'lgan boshqa shaxsga nisbatan ham bitimlar tuzishi mumkin emas.

Qonun hujjatlarida yoki bitimda belgilangan, shuningdek, sud tomonidan tayinlanadigan muddat kalendar sana yoxud yillar, oylar, haftalar, kunlar yoki soatlar bilan o'lchanadigan vaqt davrining o'tishi bilan belgilanadi.

Muddat muqarrar yuz berishi kerak bo'lgan voqeani ko'rsatish bilan ham belgilanishi mumkin.

Da'vo muddati – shaxs o'zining buzilgan huquqini da'vo qo'zg'atish yo'li bilan himoya qilishi mumkin bo'lgan muddatdir.

Umumiy da'vo muddati – uch yil.

Ayrim turdagi talablar uchun qonunlarda umumiy da'vo muddatiga qaraganda qisqartirilgan yoki uzaytirilgan maxsus da'vo muddatlari belgilanishi mumkin.

O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi huzuridagi Budjetdan tashqari Pensiya jamg'armasi ijtimoiy ta'minot huquqi subyekti si-

fatida. Aholini ijtimoiy himoya qilish bo'yicha chora-tadbirlarni amalga oshirishda aniq yo'naltirilgan va tabaqalashgan yondashuvni yanada kuchaytirish, kam ta'minlangan oilalarni zarur moddiy yordam ko'rsatish orqali qo'llab-quvvatlashni ta'minlash, ijtimoiy xizmat ko'rsatish tizimi xodimlari mehnatini rag'batlantirish va haq to'lash mexanizmini takomillashtirish, shuningdek, aholini ijtimoiy himoya qilish muassasalarining moddiy-texnika bazasini mustahkamlash maqsadida O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi, Mehnat va aholini ijtimoiy muhofaza qilish vazirligi, Qoraqalpog'iston Respublikasi Vazirlar Kengashi, viloyatlar va Toshkent shahar hokimliklarining viloyatlar, shaharlar va tumanlarda O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi huzuridagi Budjetdan tashqari Pensiya jamg'armasi bo'linmalarini tashkil etish to'g'risidagi taklifiga ko'ra, ijtimoiy ta'minot, pensiyalar, shuningdek, ijtimoiy, kompensatsiya va boshqa to'lovlarni tayinlash, moliyalashtirish, ularning to'lanishini hisobga olish va monitoringini yuritish 2010-yilning 1-yanvaridan boshlab Pensiya jamg'armasining tegishli hududiy bo'linmalari tomonidan amalga oshiriladi.

Fuqarolarni o'zini o'zi boshqarish organlari ijtimoiy ta'minot huquqining subyekti sifatida. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 1996-yil 10-dekabrda «Bolali oilalarni davlat tomonidan qo'llab-quvvatlashni yanada kuchaytirish to'g'risida»gi Farmoni qabul qilinishi bilan 1997-yil 1-yanvardan boshlab bolali oilalarga fuqarolarni o'zini o'zi boshqarish organlari tomonidan ijtimoiy yordam tayinlanishi va to'lanishi tartibi joriy etildi. Keyinchalik fuqarolar o'zini o'zi boshqarish organlari rolini, ayniqsa aholini ijtimoiy himoyalashdagi ahamiyati yanada oshira borildi. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 1999-yil 13-yanvardagi «Aholini aniq yo'naltirilgan ijtimoiy madad bilan ta'minlashda fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari rolini oshirish to'g'risida»gi Farmoniga ko'ra ishlamaydigan onalarga bolasi ikki yoshga yetguniga qadar uni parvarishlash, o'zgarlar parvarishiga muhtoj bo'lgan yolg'iz pensionerlarni asosiy oziq-ovqat mahsulotlari bilan ta'minlash vazifalari ham fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari zimmasiga yuklatildi. Ularga yosh oilalarga moddiy madad ko'rsatish vazifasi ham topshirildi.

1999-yil 14-aprelda O‘zbekiston Respublikasining yangi tahrirdagi «Fuqarolarning o‘zini o‘zi boshqarish organlari to‘g‘risida»gi Qonuni qabul qilinishi bilan¹ ularning mavqeyi yanada oshirildi.

NAZORAT UCHUN SAVOLLAR

1. «Aholiga ijtimoiy muhofaza yordami ko‘rsatish va uning tashkiliy-huquqiy asoslari» o‘quv kursining predmeti bo‘lib sanaladigan ijtimoiy huquqiy munosabatlar nimalarga qaratiladi?
2. «Aholiga ijtimoiy muhofaza yordami ko‘rsatish va uning tashkiliy-huquqiy asoslari» kursining vazifalari nimalardan iborat?
3. «Aholiga ijtimoiy muhofaza yordami ko‘rsatish va uning tashkiliy-huquqiy asoslari» o‘quv kursi uslublari haqida nimalarni bilasiz?
4. «Aholiga ijtimoiy muhofaza yordami ko‘rsatish va uning tashkiliy-huquqiy asoslari» o‘quv kursi manbalari haqida so‘zlab bering.
5. «Aholiga ijtimoiy muhofaza yordami ko‘rsatish va uning tashkiliy-huquqiy asoslari» o‘quv kursi qaysi huquqiy fanlar bilan o‘zaro aloqadorlikda bo‘ladi?

¹O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Axborotnomasi. 1999. 5-son, 110-modda.

II BOB.

AHOLIGA IJTIMOIIY YORDAM TASHKIL ETISH TUSHUNCHASI VA UNING TIZIMI

2.1. O‘zbekiston Respublikasida ijtimoiy siyosat, mohiyati va unda aholini kuchli ijtimoiy muhofaza qilish siyosatining tutgan o‘rni

O‘zbekistonning bozor munosabatlariga asoslangan yangi davlat va jamiyat qurish modelidagi bosh tamoyillaridan biri – kuchli ijtimoiy siyosat yuritishdan iborat bo‘lib, uning maqsad-mohiyati jamiyatda tinchlik, barqarorlik va osoyishtalikni ta‘minlash, inson va uning huquqlari, erkinliklari va manfaatlarini ro‘yobga chiqarilishi uchun qulay shart-sharoit yaratish, bu huquqlar samarali muhofaza etilishiga erishish, xullas, inson haqida g‘amxo‘rlik qilishdan iborat.

Yurtimizda an‘anaga aylanib borayotgan har bir yangi yilni ijtimoiy himoyaning muhim yo‘nalishlarini o‘zida ifodalovchi, aholining muayyan qatlamlari muhofazasini nazarda tutuvchi nomlar bilan atalishi hamda shunga mos keluvchi Davlat dasturlarining qabul qilinishi va izchil ro‘yobga chiqarila borishi davlatimizning sotsial yo‘naltirilganligini anglatadi.

Davlat ijtimoiy siyosati deganda aholi hayot kechirish darajasini shakllantirish, inson kapitalini qayta yaratish, ijtimoiy xizmatlar ko‘rsatish, ijtimoiy infratuzilmalarni barpo etish, ularning bir maromda faoliyat yuritishini ta‘minlash sohasida muayyan davlat tomonidan olib borilayotgan ichki siyosat yo‘nalishi nazarda tutiladi. Fuqarolarning asosiy konstitutsiyaviy huquqlari davlat ijtimoiy siyosati orqali ro‘yobga chiqariladi. Bunda davlat turli ijtimoiy dasturlar ishlab chiqish va amalga oshirish, moliyalashtirish normativlarini belgilash, ijtimoiy-iqtisodiy andozalar, qonunlar, boshqa me‘yoriy hujjatlar qabul qilish kabi vositalardan keng foydalanadi.

Jahondagi 27 mamlakat aholisi moddiy farovonligi qiyosiy o‘rganilganida mamlakatimiz bu sohada oldingi o‘rinlarda turishi ma‘lum bo‘ldi. Shuni qayd etish joizki, O‘zbekistonda mustaqillikka erishil-

ganidan avval 1000 nafar chaqaloqdan 38,1 foizi nobud bo‘lgan bo‘lsa, mustaqillik yillarida bu ko‘rsatkich 18,3 foizga tushdi. Ilgari har 100 ming homilador ayoldan 42,8 foizi tug‘ish chog‘ida vafot etsa, bugungi kunga kelib bu ko‘rsatkich 33,5 foizgacha kamaydi. Holbuki, bu ko‘rsatkich Qozog‘iston Respublikasida 50, Qirg‘izistonda 43,8 va Tojikistonda 45,4 foizni tashkil etadi.

Jismoniy imkoniyati cheklangan shaxslar haqidagi g‘amxo‘rlik davlatimiz ijtimoiy siyosatining muhim jabhasini tashkil qiladi.

O‘zbekiston insonparvar, demokratik huquqiy davlat sifatida jismoniy yoki ruhiy kamchiliklari tufayli to‘laqonli yashash imkoniyatiga ega bo‘lmagan shaxslar ijtimoiy muhofazasi, ularning jamiyatda hech qanday kamsitishlarsiz, teng huquqli a‘zo sifatida qatnashishlariga qaratilgan ijtimoiy-siyosiy, iqtisodiy, madaniy va huquqiy shart-sharoitlarni ta‘minlash yo‘lida ijtimoiy siyosat olib bormoqda. Bunday siyosatning huquqiy asoslari yaratilgan bo‘lib, bu asoslar xalqaro me‘yorlar hamda standartlarga tayanadi. Bugungi kunda imkoniyatlari cheklangan shaxslarni to‘laqonli hayot kechirishlariga taalluqli bo‘lgan qonunchilikni yanada rivojlantirish hamda takomillashtirish har yili qabul qilinadigan ijtimoiy himoyaga oid davlat dasturlarining markazida turadi. Shunga ko‘ra, keyingi yillarda bu sohada salmoqli ishlar amalga oshirildi. Bular orasida 2008-yil 11-iyulda qabul qilingan «O‘zbekiston Respublikasida nogironlarni ijtimoiy himoyalash to‘g‘risida»gi Qonun yetakchi o‘rinda turadi.

Ushbu qonun nogironlar ijtimoiy-huquqiy himoyasi masalalarini hal etar ekan, bunda universal tusdagi xalqaro-huquqiy hujjatlar: BMTning Inson huquqlari umumjahon Deklaratsiyasi, Iqtisodiy, ijtimoiy va madaniy huquqlar haqidagi xalqaro Pakt, Kamsitishlarni taqiqlovchi Konvensiyalar, Xalqaro mehnat tashkilotining bu sohaga oid hujjatlariga tayanib ish ko‘rildi.

Nogironlik va jismoniy imkoniyati cheklanganlik tushunchalari birbiriga yaqin tursa-da, bizning nazarimizda ular o‘z hajmiga ko‘ra farq qiladi, chunki imkoniyati cheklanganlik har doim ham fuqaroni nogiron deb topilishiga asos bo‘lavermasligi mumkin.

Jismoniy imkoniyati cheklanganlikning obyektiv sabablari—shaxsning keksaligi yoki voyaga yetmaganligi, muayyan surunkali kasallikka chalingani yoxud jarohat tufayli erkin harakatlanish imkoniyati

pasaygani, to‘shakdagi bemor yoki nogiron shaxs parvarishi bilan bandligi kabi holatlar sanalishi mumkin. Jismoniy imkoniyati cheklangan shaxslarga g‘amxo‘rlik ko‘rsatish nogironlar haqida qayg‘urish singari davlat va jamiyatning burchi bo‘lib qolmog‘i kerak, zero, insonparvar va demokratik davlat, mehr-muruvvatli jamiyat deya tanilgan ekanmiz, sabablaridan qat‘i nazar o‘jizlarga yordam qo‘lini cho‘zishga har doim tayyor bo‘lishimiz hamda imkoniyati cheklangan shaxslarni qo‘llab-quvvatlashimiz lozim.

Shu sababli bizning qonunlarimiz nafaqat nogiron deb e‘tirof qilingan shaxslarni, balki nogiron deb topish uchun yetarli asoslar mavjud bo‘lmasa-da, jismoniy imkoniyatlari cheklangan fuqarolarni ham himoyalashni, ularga normal turmush sharoiti yaratib berishni nazarda tutmog‘i lozim.

Davlatimiz tomonidan yuritilayotgan manzilli va aniq yo‘naltirilgan ijtimoiy himoyalash jismoniy yoki boshqa tUSDagi nuqsonlari tufayli imkoniyatlari cheklangan barcha shaxslarga, ular uchun qo‘shimcha kafolatlar yaratishga qaratilgandir.

Mamlakatimizda amalga oshirilayotgan ijtimoiy himoya jarayonida davlat tuzilmalari bilan bir qatorda nodavlat-notijorat tashkilotlari, korxonalar, savobtalab fuqarolar, xorijiy, yuridik va jismoniy shaxslar tobora keng ishtirok etmoqdalar. Davlatimiz rahbari tomonidan ham nodavlat ijtimoiy himoyaga alohida e‘tibor qaratilib, uning huquqiy asoslari asta-sekin yaratila boshlandi. O‘zbekiston Respublikasining «Homiyluk to‘g‘risida»gi Qonuni qabul qilinishi mamlakatimizda keng miqyosda amalga oshirilayotgan nodavlat ijtimoiy himoya faoliyatini qonuniy asosga qo‘ydi.

Jismoniy imkoniyatlari cheklangan shaxslarni kasb-kor egallashlari, egallagan kasblariga ko‘ra mehnat faoliyatini amalga oshirishlari sohasidagi huquqlari ham tegishli qonunlarda mustahkamlab qo‘yilgan. Jumladan, O‘zbekiston Respublikasining «Aholini ish bilan ta‘minlash to‘g‘risida»gi Qonunida nogironlarni ish bilan ta‘minlash yuzasidan bir qator qo‘shimcha kafolatlar hamda imtiyozlar nazarda tutilgani diqqatga sazovordir.

Bizning fikrimizcha, ijtimoiy ta‘minot va ijtimoiy himoyaga oid, bola huquqlariga, nogironlar ijtimoiy himoyasiga, bemorlar huquqlariga taalluqli qonunlar va boshqa qonun hujjatlariga «Jismoniy imkoniyati

cheklangan shaxslar» atamasi kiritilishi, bunday shaxslarni aniqlash mezonlari ishlab chiqilishi hamda ularga beriladigan moddiy va ijtimoiy kafolatlar majmuining minimal doirasi nazarda tutib qo'yilmog'i kerak.

Davlatimiz tomonidan yuritilayotgan kuchli ijtimoiy himoya siyosatining muhim yo'nalishi bolalar haqida g'amxo'rlik qilishga qaratilgandir. Bunda, ayniqsa, nogiron bolalar haqida qayg'urish yetakchi o'rinda turadi. O'zbekiston Respublikasining Oila kodeksida, «Bola huquqlarining kafolatlari to'g'risida»gi Qonunida va boshqa qonun hujjatlarida jismoniy imkoniyati cheklangan bolalar uchun boshqa sog'lom bolalar bilan teng imkoniyat hamda sharoitlar yaratib berish bilan bog'liq huquqiy choralar nazarda tutilgan. Xullas, jismoniy imkoniyati cheklangan shaxslarning o'zgalardan kam bo'lmagani holda to'laqonli yashashlari, ilm olishlari, kasb-hunar o'rganishlari, o'zlarining jismoniy va aqliy salohiyatlarini to'liq ishga solish uchun zarur bo'lgan moddiy hamda huquqiy baza yaratilgan.

Ayni paytda davlatimiz va jamiyatimiz taraqqiyotiga monand ravishda bu sohadagi qonunchilik tizimimiz ham takomillashtirib borilishi zarur. Respublikamiz Prezidenti I.A.Karimov ta'kidlaganidek: «Ammo biz o'zimizning pirovard maqsadimizga erishish uchun zamon qanday tez va shiddat bilan o'zgarayotganini hisobga olgan holda, voqelikning ortida emas, balki uning oldida yurishimiz, taraqqiyotimiz va demokratik yangilanish zaminini belgilab beradigan qonunlarni o'z vaqtida qabul qilishimiz, ularga hayot taqozo etayotgan o'zgartirish va qo'shimchalarni kiritishimiz zarurati bugun nechog'lik dolzarb ekanini anglash, tushunish qiyin emas»¹.

Amalga oshirilayotgan huquqiy islohotlarimiz Respublikamiz Prezidentining yuqorida qayd etilgan g'oyasiga hamda jamiyatni yangilash, mamlakatni modernizatsiya qilish maqsadlariga yo'naltirilgandir.

Ijtimoiy himoyaning huquqiy negizlarini yangilash va takomillashtirish sohasidagi faoliyatimiz ham fuqarolarimiz huquqlari hamda manfaatlarini tez o'zgarib borayotgan sharoitga mos ravishda samarali muhofaza qilishga qaratilgandir. Bunda mavjud qonun hujjatlari tizimini yanada takomillashtirish bilan bir qatorda zamon talablariga mos ravish-

¹Karimov I.A. Inson manfaatlarini ta'minlash, ijtimoiy himoya tizimini takomillashtirish ustuvor vazifamizdir. – T.: O'zbekiston. 2007. 8-bet.

da yangi qonunlarni ishlab chiqish va qabul qilish ham oldimizda turgan dolzarb vazifa ekanligini chuqur anglab yetmog‘imiz lozim.

Ijtimoiy ehtiyojmand shaxslar ijtimoiy himoyasi va ijtimoiy ta‘minoti umumiy qonunchilik aktlari bilan tartibga solib kelinmoqda, lekin qonun hujjatlarida ularning toifalari birmuncha kengdir. Jumladan, nogiron deb topilgan fuqarolar bilan bir qatorda nogironligi e‘tirof qilinmagan bo‘lsa-da, o‘zining jismoniy nuqsonlari tufayli normal hayot faoliyatiga ega bo‘la olmaydigan shaxslar mavjudligi real haqiqat bo‘lib, ular huquqlarini himoyalashga qaratilgan maxsus normalar nazarda tutilishi lozim. Bunda milliy qadriyatlarimiz bilan bir qatorda taraqqiy topgan xorijiy mamlakatlar hamda MDH bo‘yicha yaqin hamkorlarimiz bo‘lgan ayrim davlatlar qonunchilik tizimiga e‘tibor bersak, ular bu sohada muayyan ijobiy tajriba to‘plaganliklariga guvoh bo‘lish mumkin. Ularning ijobiy tajribasini o‘rganish, millatimiz va xalqimizga xos xususiyatlarga e‘tibor berish natijasida jismoniy imkoniyatlari cheklangan shaxslar ijtimoiy himoyasi masalalarini maxsus tartibga soluvchi qonunlar qabul qilinishi lozim degan xulosaga olib keladi.

Ijtimoiy himoya, bu davlat tomonidan fuqarolar moddiy turmush sharoitlarini belgilangan me‘yorlar darajasida bo‘lishini ta‘minlashga qaratilgan chora-tadbirlar majmuyi bo‘lib, bugungi kunda jamiyatning obyektiv sabablarga ko‘ra yordamga ehtiyojmand tabaqalariga aniq yo‘naltirilgan holda amalga oshirib kelinmoqda.

O‘zbekiston Respublikasidagi ijtimoiy siyosat jamiyat ijtimoiy hayotini odamlar manfaatiga mos ravishda tartibga solish, fuqarolar uchun qulay turmush sharoitlarini yaratish, ularning ta‘lim, tibbiy yordam olish, shinam turarjoy sharoitlariga ega bo‘lish kabi sohalardagi huquqlarini ro‘yobga chiqarishga qaratilgan chora-tadbirlaridan iboratdir.

Ijtimoiy siyosat jamiyatda zarur ijtimoiy infratuzilmalarni yaratish va ularning barqaror ishlab turishini ta‘minlashga qaratilgandir.

Ijtimoiy himoya siyosati ijtimoiy siyosatning muhim yo‘nalishlaridan biri sifatida keng ma‘noda barcha fuqarolar uchun zarur turmush sharoitlarini yaratib berish, Konstitutsiyada va boshqa qonunlarda nazarda tutilgan huquqlarning amalga oshirilishiga ko‘maklashish yuzasidan davlat faoliyatidan iborat.

Tor ma‘noda ijtimoiy himoya siyosati ijtimoiy zaif va ehtiyojmand fuqarolarni moddiy va ijtimoiy muhofaza qilish, ularga turli ijtimoiy yor-

damlar ko'rsatish, ijtimoiy muhofaza tuzilmalari va infratuzilmasining ishini ta'minlashga qaratilgan tadbirlarni o'z ichiga oladi.

2.2. Bozor munosabatlari qaror topayotgan sharoitda aholining ehtiyojmand tabaqalarini kuchli ijtimoiy muhofaza qilishning zarurligi

Mamlakatimiz rahbari haqli ravishda ta'kidlaganidek: «Davlat o'z aholisini ijtimoiy himoya qilgan taqdirdagina insonparvar hisoblanadi.

...kishilarni ijtimoiy himoyalash va uni kafolatlashning kuchli, ta'sirchan mexanizmi bo'lgandagina bozor iqtisodiyotiga sobitqadamlik bilan o'tishni ta'minlash, tarkibiy qayta qurishni amalga oshirish, ijtimoiy-siyosiy barqarorlikni saqlagan holda ishlab chiqarish munosabatlarini tubdan isloh qilish mumkin»¹.

Respublikamizda ijtimoiy ta'minot va uning huquqiy tizimlari barpo etilishi shartli ravishda bir necha bosqichlarga bo'linishi mumkin hamda bu bosqichlar mamlakatimizning mustaqillik yillaridagi taraqqiyoti davri xususiyatlarini o'zida obyektiv tarzda aks ettiradi.

Bu bosqichlar quyidagicha taqsimlanadi:

Birinchi bosqich. Mamlakat mustaqil deb e'lon qilingan – 1991-yil 31-avgustdan O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi qabul qilingan – 1992-yil 8-dekabrgacha bo'lgan davrni o'z ichiga oladi.

Bu davr mustaqil davlat organlari, shu jumladan ijtimoiy ta'minotni amalga oshirish sohasidagi davlat organlari, ular kundalik faoliyatining huquqiy asoslari shakllantirilishi davri ekanligi bilan, sobiq ittifoq davridagi davlat tuzilmalari o'z faoliyatini amalga oshirishda davom etayotgan, sobiq ittifoq qonunchilik hujjatlari amal qilib turganligi bilan, ayni paytda davlatchilikning milliy tizimlari tez sur'atlar bilan barpo etilayotgan, yangi-yangi farmonlar, qarorlar qabul qilinayotgan davr ekanligi bilan tavsiflanadi.

Ikkinchi bosqich. O'zbekiston Respublikasining 1992-yil 8-dekabrda yangi – mustaqil davlat sifatidagi Konstitutsiyasi qabul qilingan sanadan

¹Karimov I.A. O'zbekiston: milliy istiqlol, iqtisod, siyosat, mafkura. Asarlar to'plami. 1-jild. –T.: O'zbekiston. 1996. 119-bet

boshlangan va taxminan 1994-yilning o'rtalarigacha davom etgan ikkinchi bosqich yangi konstitutsiyaviy zaminga tayanilgan holda davlat va huquq tizimlarini qaytadan shakllantirila boshlanganligi, pensiya ta'minoti sohasida milliy qonunning qabul qilinishi, ijtimoiy ta'minotni sun'iy tenglashtirilgan holda amalga oshirilishidan tobora aniq yo'naltirilgan ko'rinishga ega bo'lib borayotganligi, zaif aholi qatlamlari ijtimoiy himoyasini asta-sekin kuchaytirila borishi bilan diqqatga sazovordir.

Uchinchi bosqich. 1994-yilning ikkinchi yarmidan 2001-yilgacha bo'lgan vaqt oralig'ini qamrab olgan. Bu davrda ijtimoiy ta'minot sohasidagi qonunchilik tizimlari asosan barpo etib bo'lindi; aniq yo'naltirilgan ijtimoiy himoyalash tizimlari va mexanizmlari yaratildi; ijtimoiy ta'minotni amalga oshirish manbalari sanaluvchi moliyaviy mablag'lar, ularning shakllantirilishi, sarflanishi sohasidagi davlat va jamiyat tizimlari yuzaga keltirildi hamda ularni bir maromda ishlashi ta'minlandi.

To'rtinchi bosqich. Bu bosqich 2000-yil oxirlaridan boshlangan bo'lib, 2005-yilgacha bo'lgan davrni qamrab oladi.

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2000-yil 15-noyabrdagi «O'zbekiston Respublikasida pensiya ta'minoti tizimlarini takomillashtirishga oid chora-tadbirlar haqida»gi qarorining qabul qilinishi va shu asosda pensiya jamg'armasining tizimlari qayta tashkil etilishi, yakka tadbirkorlar va yakka dehqon xo'jaliklari pensiya ta'minoti masalalarining soddalashtirilishi, aholini ijtimoiy himoyaga muhtoj qatlamlarini aniq yo'naltirilgan tarzda qo'llab-quvvatlashning 2002–2003-yillarga mo'ljallangan hukumat dasturining qabul qilinishi va ro'yobga chiqarilishiga qaratilgan qonun hujjatlarining qabul qilinishi, ijtimoiy yordam oluvchi fuqarolar doirasining kengaytirilishi hamda moddiy yordam miqdorlarining ko'paytira borilishi kabilar ushbu bosqichning o'ziga xos xususiyatlaridan sanaladi.

2005-yildan keyingi yangi bosqich pensiya qonunchiligini takomillashtirish, uni Moliya vazirligi huzuridagi Budjetdan tashqari Pensiya jamg'armasi tasarrufiga o'tkazish va shu orqali ijtimoiy muhofaza maqsadlariga ajralgan moliyaviy mablag'lardan yana ham samaraliroq foydalanish, bu jarayon ustidan monitoring olib borishni kuchaytirish, ijtimoiy yordam choralarining aniq manzilliligini oshirish, bu sohada

faoliyat yuritadigan davlat organlari tizimini ixcham va harakatchanligini oshirish sari yo‘l tutilayotgani bilan tavsiflanishi mumkin.

Mamlakatimizning bozor munosabatlariga o‘ta boshlashi, shubhasiz, yuksak tarixiy taraqqiyot bo‘lsa-da, ammo shu bilan birga o‘tish davrining muayyan salbiy omillari ta’siri natijasida (demografik, ijtimoiy-iqtisodiy vaziyat, boqimandalik kayfiyati va bozor munosabatlari sharoitida yashash ko‘nikmalari yo‘qligi va h.k.) u yoki bu qiyinchiliklar yuz berishiga, aholi ijtimoiy zaif qatlamlarining og‘ir iqtisodiy sharoitga duchor bo‘lishiga obyektiv ravishda olib keldi. Ana shunday sharoitda o‘tish davrining qiyinchiliklari oddiy fuqarolar zimmasiga tushishiga yo‘l qo‘ymaydigan, yordamga muhtoj fuqarolarni ijtimoiy hamda iqtisodiy jihatdan qo‘llab-quvvatlashni ta’minlaydigan ijtimoiy siyosatni amalga oshirish dolzarb vazifa bo‘lib qoldi. Zeroki, zarur ijtimoiy himoyalash choralarini amalga oshirmasdan turib, ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyotni ham, jamiyatdagi barqarorlikni ham ta’minlab bo‘lmas edi.

Milliy modelning asosiy tamoyillaridan biri – o‘tish davrida aholini kuchli ijtimoiy himoya qilishdan iborat. Zero, Prezident I.A.Karimov alohida ta’kidlaganidek, «Bozor iqtisodiyotini barpo etish shunchaki bir maqsad emas. Barcha demokratik, siyosiy islohotlarning pirovard maqsadlarining o‘zi, bu, eng avvalo, inson uchun munosib turmush va faoliyat sharoitlarini yaratishdir»¹.

Ijtimoiy himoya bozor munosabatlariga o‘tish sharoitida davlatning eng muhim ijtimoiy funksiyalaridan biri ekanligi har tomonlama asoslab berilgan.

Bozor munosabatlariga asoslangan huquqiy demokratik davlat va fuqarolik jamiyatini barpo etish chog‘ida ijtimoiy himoya mamlakatning taraqqiy topishi, tinchlik, osoyishtalikni saqlashning asosiy omillaridan sanaladi.

Mamlakatimizda ijtimoiy zaif, yordamga muhtoj aholi qatlamlari haqida alohida g‘amxo‘rlik qilinishi tabiiy holdir. Demak, uning nazariy asoslarini o‘rganish, ijtimoiy himoya tushunchasi, obyektlari va subyektlari haqida ilmiy izlanishlar olib borilishi zarur. Ijtimoiy himoya,

¹Karimov I.A. Bizdan ozod va obod Vatan qolsin. Asarlar to‘plami, 2-jild. – T.: O‘zbekiston. 1996.14-bet.

xalqimizning milliy, axloqiy qadriyatlaridan ekanligi ham faktlarga tayanilgani holda ko‘rsatib berildi. Ijtimoiy himoyaning amalga oshirilishi, maqsadi, mohiyati tadqiq etilib, uning ilmiy tasniflanishiga e‘tibor qaratildi. Ijtimoiy himoyaning davlat tomonidan ko‘rsatiladigan ijtimoiy himoya va nodavlat tashkilotlari amalga oshiradigan ijtimoiy himoya, davlat mablag‘lari va nodavlat tashkilotlari manbalari hisobidan amalga oshiriladigan ijtimoiy himoya ko‘rinishlari o‘zaro farqlandi.

2.3. Aholini ijtimoiy muhofaza qilish vazifasi yuklatilgan davlat organlari, ularning tizimi, vazifalari va vakolatlari

Bozor munosabatlariga o‘tish sharoitida aholini ijtimoiy muhofaza qilish tinchlik va barqarorlikni ta‘minlash, taraqqiyotga erishishning muhim shartlaridan bo‘lgani sababli bu vazifani bajarish davlatning muhim ijtimoiy funksiyalari jumlasiga kiradi.

Keng ma‘noda ijtimoiy muhofazaga doir faoliyatni amalga oshirish O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisidan tortib, to mahalliy davlat hokimiyat organlarigacha bo‘lgan barcha darajadagi davlat organlarining ishi sanaladi. Ularning har biri o‘z oldiga qo‘yilgan maqsad va vazifalar, berilgan vakolatlar doirasida bu sohada ish olib boradi. Masalan, O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi ijtimoiy muhofaza masalalariga oid qonunlar va qarorlar qabul qilish, davlat dasturlarini ko‘rib chiqish hamda ma‘qullash, qonunlarning bajarilishini nazorat qilish yo‘li bilan bu vazifalarning bajarilishiga hissa qo‘shsa, O‘zbekiston Respublikasi hukumati bu sohadagi davlat siyosatining ro‘yobga chiqarilishi, tashkil etilishi, moliyaviy jihatdan ta‘minlanishi, muvofiqlashtirilishi, ijro etilishi uchun javobgar bo‘ladi va shu sohada tegishli qarorlar qabul qiladi, ularning bajarilishini nazorat qiladi. Vazirliklar va idoralar o‘z tarmoqlari yoki maxsus funksional sohalari bo‘yicha ijtimoiy muhofazalash ishlarini amalga oshiradilar, shu tarmoq xodimlari, ularning oila a‘zolari ijtimoiy muhofazasi masalalari bilan shug‘ullanadilar. Mahalliy davlat hokimiyat idoralari esa o‘z viloyat va tumanlari hududi doirasida ushbu hududda istiqomat qiluvchi fuqarolar ijtimoiy himoyasiga doir muammolarni hal etishga qaratilgan ishlarni amalga oshiradilar.

Yuqoridagi davlat orgalarining aholini ijtimoiy muhofaza qilish sohasidagi vazifalari va vakolatlari tegishli qonunlar va qonun hujjatlarida belgilab berilgan¹.

Aholini ijtimoiy muhofaza qilish sohasida maxsus vakolat berilgan va aniq vazifalarni bajaradigan, davlatimiz ijtimoiy himoya siyosatini bevosita ro'yobga chiqarilishi bilan shug'ullanuvchi hamda ushbu vazifalarga mas'ul bo'lgan davlat organlari tizimi faoliyat yuritadi.

Bunday davlat organlari jumlasiga quyidagilar kiritiladi :

O'zbekiston Respublikasi Mehnat va aholini ijtimoiy muhofaza qilish vazirligi hamda uning joylardagi organlari tizimi. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2010-yil 2-fevraldagi 29-sonli qaroriga ko'ra² «O'zbekiston Respublikasi Mehnat va aholini ijtimoiy muhofaza qilish vazirligi to'g'risidagi Nizom» tasdiqlangan bo'lib³, ushbu Nizomga binoan mazkur vazirlik mehnat, bandlik, aholini ijtimoiy muhofaza qilish va ijtimoiy ta'minlash sohasidagi siyosatni amalga oshiruvchi respublika davlat boshqaruvi organi hisoblanadi.

Vazirlik o'ziga yuklangan vazifalar va funksiyalarni bajarish uchun quyidagi huquqlarga ega:

– davlat boshqaruvi organlari, mahalliy davlat hokimiyati organlarining aholini ish bilan ta'minlash va ijtimoiy muhofaza qilish sohasida davlat siyosatini amalga oshirish masalalaridagi faoliyatini belgilangan tartibda muvofiqlashtirish;

– O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasiga mehnatga haq to'lash va aholini ijtimoiy muhofaza qilish tizimini boshqarishni takomillashtirish va rivojlantirish, mehnat va ijtimoiy ta'minot organlarining moddiy-texnika bazasini mustahkamlash va ular uchun malakali kadrlar tayyorlash bo'yicha takliflar kiritish;

–vazirlik vakolatiga kiradigan masalalarni hal etish uchun davlat boshqaruvi organlari va mahalliy davlat hokimiyati organlaridan axborotlarni belgilangan tartibda so'rash va olish;

¹Qaralsin: «O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Qonunchilik palatasi to'g'risida» O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyaviy Qonuni. O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Axborotnomasi. 2002. 12-son, 215-modda.

²O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to'plami. 2007. 19–20-son, 195-modda.

³O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to'plami. 2009. 5-son, 39-modda.

– hay’at majlislarida vazirliklar va idoralar, mahalliy davlat hokimiyati va boshqaruvi organlari, korxonalar, muassasalar va tashkilotlar mas’ul xodimlarining vazirlik vakolatiga tegishli masalalar bo’yicha hisobotlarini eshitish;

– korxonalar, muassasalar, tashkilotlar rahbarlariga mehnat va aholini ish bilan ta’minlash to’g’risidagi qonun hujjatlari buzilganligi uchun qonun hujjatlarida belgilangan tartibda ma’muriy jazolar berish;

– belgilangan tartibda noshirlik faoliyatini amalga oshirish;

– ilmiy muassasalarni, olimlar va mutaxassislarni, shu jumladan xorijiy olimlar va mutaxassislarni vazirlik vakolatiga tegishli masalalarni hal qilishga shartnoma asosida jalb etish;

– davlat va xo’jalik boshqaruvi organlari hamda tashkilotlarning mehnat, ish bilan ta’minlash, mehnatni muhofaza qilish, pensiya ta’minoti, nogironlarni ijtimoiy muhofaza qilish to’g’risida amaldagi qonun hujjatlari buzilgan holda qabul qilingan buyruqlari va boshqa hujjatlarini bekor qilish yuzasidan belgilangan tartibda takliflar kiritish;

– vazirlik vakolatiga kiruvchi masalalar bo’yicha tegishli xorijiy davlatlar va xalqaro tashkilotlar bilan xalqaro hamkorlikni amalga oshirish va boshqalar.

Viloyatlar (Toshkent shahri)dagi boshqarmalar hamda tuman (shahar)lardagi Bandlikka ko’maklashish markazlari zimmasiga ham aholini ijtimoiy muhofaza qilish yuzasidan vazifalar yuklatilgan bo’lib, ular o’z vakolatlari doirasida mazkur hududda istiqomat qiluvchi fuqarolarni ijtimoiy himoyalash bilan shug’ullanadilar. Mamlakatimizda amalga oshirilayotgan pensiya va nafaqalar bilan ta’minlash sohasidagi islohotlar natijasida aholini ijtimoiy muhofazalash va uni moliyaviy jihatdan ta’minlashni tashkil etish masalalari Mehnat va aholini ijtimoiy muhofaza qilish vazirligidan O’zbekiston Respublikasi Moliya vazirligiga, xususan, uning Budjetdan tashqari Pensiya jamg’armasi zimmasiga o’tkazib borilmoqda.

O’zbekiston Respublikasi Prezidentining 2009-yil 30-dekabrda PF-4161-sonli¹ «Fuqarolarning pensiya ta’minoti tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to’g’risida»gi Farmoniga ko’ra: «Fuqarolarning davlat pensiya ta’minoti to’g’risida» O’zbekiston

¹«Xalq so’zi», 2009-yil 31-dekabr.

Respublikasi Qonuniga muvofiq hamda pensiya ta'minoti tizimining tashkiliy tuzilmasini yanada takomillashtirish, pensiyalar va ijtimoiy nafaqalarni Budjetdan tashqari Pensiya jamg'armasidan o'z vaqtida moliyalashtirish hamda ularni to'liq hajmda to'lash, shuningdek, respublika fuqarolarining pensiya ta'minotiga yo'naltiriladigan mablag'lardan maqsadli foydalanilishi ustidan nazoratni kuchaytirish maqsadida Qoraqalpog'iston Respublikasi Vazirlar Kengashi, viloyatlar va Toshkent shahar hokimliklarining viloyatlar, shaharlar va tumanlarda O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi huzuridagi Budjetdan tashqari Pensiya jamg'armasi bo'linmalari tashkil etildi.

O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi zimmasiga qo'shimcha ravishda:

- fuqarolarning pensiya ta'minoti sohasida davlat siyosatining asosiy yo'nalishlarini ishlab chiqish;

- Budjetdan tashqari Pensiya jamg'armasi daromadlari va xarajatlaring mutanosibligini ta'minlash;

- Budjetdan tashqari Pensiya jamg'armasi o'z zimmasiga yuklangan vazifalar va funksiyalarni, xususan, pensiyalar hamda boshqa tegishli to'lovlarni tayinlash va to'lashda o'rnatilgan qoidalarni qo'llanish qismida ularning bajarilishini muvofiqlashtirish va nazoratni amalga oshirish vazifalari yuklandi.

Ushbu Farmonga ko'ra, O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi huzuridagi Budjetdan tashqari Pensiya jamg'armasining hududiy bo'linmalari fuqarolarning pensiya ta'minoti va tibbiy-mehnat ekspertizasi masalalarining butun kompleksi uchun javobgar hamda ushbu sohada avval Mehnat va aholini ijtimoiy muhofaza qilish vazirligi tizimiga kiruvchi funksiyalarni to'laligicha o'z zimmasiga oldi.

O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi huzuridagi Budjetdan tashqari Pensiya jamg'armasi zimmasiga qo'shimcha ravishda:

- fuqarolarning davlat pensiya ta'minotini tashkil qilish, fuqarolarga pensiyalar, ijtimoiy nafaqalar, kompensatsiya va boshqa to'lovlarni tayinlash, qonun hujjatlarida belgilangan tartibda pensiyalar hamda boshqa to'lovlarning miqdorlari qayta hisoblab chiqilishini ta'minlash;

- pensiyalar hamda boshqa to'lovlarni to'liq hajmda moliyalashtirish va to'lanishini tashkil qilish, ular bo'yicha hisob va hisobotni yuritish;

- pensiyalar tayinlanishi va qayta hisoblab chiqilishini tizimli asos-

da doimiy tahlil qilish va monitoringini olib borish, fuqarolarning pensiya ta'minotiga yo'naltiriladigan mablag'lardan qat'iy maqsadli foydalanilishini ta'minlash;

– mehnat mayibliги yoki kasb kasalligi oqibatidagi nogironlik bo'yicha tayinlangan pensiyalarni to'lashga mablag'larni da'volar bo'yicha aybdor yuridik va jismoniy shaxslardan belgilangan tartibda undirib olishni tashkil qilish;

– tibbiy-mehnat ekspertizasi xizmati faoliyatini tashkil etish vazifalari ham topshirildi.

Farmonga asosan Moliya vazirligining Bosh nazorat-taftish boshqarmasi tarkibida Budjetdan tashqari Pensiya jamg'armasi mablag'laridan maqsadli foydalanilishi ustidan nazorat boshqarmasi va uning hududiy bo'linmalarida tegishli bo'limlar tashkil qilindi va unga:

– yangi tayinlangan pensiya va nafaqalarning hisoblab chiqilishi, shuningdek, qonun hujjatlarida nazarda tutilgan imtiyozlar qo'llanilishi to'g'riligini, shu jumladan, fuqarolarning pensiyaga oid hujjatlar yig'majildida birlamchi hujjatlarning to'liqligi va ishonarliligini tekshirish yo'li bilan yoppasiga tekshiruvlarni amalga oshirish;

– mulkchilik shaklidan qat'i nazar, korxonalar, tashkilotlar, muassasalar tomonidan ishlovchi pensionerlarga pensiyalar hamda nafaqalarning hisoblab yozilishi va to'lanishi to'g'riligini reja asosida tekshirib turish;

– fuqarolarga pensiya va nafaqalar, shu jumladan, bank va pochta muassasalari tomonidan o'z vaqtida va to'liq to'lanishining tizimli monitoringini olib borish, qoidabuzarliklar aniqlanganda qonun hujjatlarida nazarda tutilgan choralarni ko'rish;

– tibbiy-mehnat ekspert komissiyalari tomonidan berilgan tekshiruv hujjatlari va xulosalarni, zarurat tug'ilganda, mustaqil ekspertlarni jalb etgan holda takroriy ekspertizalarni o'tkazish vazifalari yuklatildi.

Aholini ijtimoiy muhofazalash masalalari bilan bevosita Budjetdan tashqari Pensiya jamg'armasining tuman (shahar) bo'linmalari, ixtisoslashgan maxsus tashkilotlar va idoralar shug'ullanadilar va ularning faoliyati belgilangan tartibda tasdiqlanadigan Nizomga ko'ra tartibga solinadi.

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2010-yil 19-fevralda qabul qilingan 30-sonli «Moliya vazirligi huzuridagi Budjetdan tashqari Pensiya jamg'armasi to'g'risidagi Nizomni tasdiqlash haqida»gi

qarori¹ bilan mazkur jamg'armaning yangi huquqiy holati hamda tashkiliy tuzilmasi belgilab berildi.

2.4. Fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari va ularning aholi ijtimoiy muhofazasida tutgan o'rni

Kuchli davlatdan kuchli jamiyatga tomon rivojlanish, fuqarolik jamiyati va huquqiy davlat barpo etish konsepsiyasida fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari mavqeyini izchil mustahkamlab borish, ularning jamiyat hayotiga ta'sirini kuchaytira borish orqali jamiyatni yangilash, mamlakatni modernizatsiya qilish ustuvor taraqqiyot yo'li sifatida belgilangan.

Fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari zimmasiga sotsial sohada avval davlat organlariga taalluqli funksiyalarni bosqichmabosqich o'tkazila borilayotgani, o'z hududida ijtimoiy infratuzilmalar faoliyatiga doir ishlarni amalga oshirish, aholi ehtiyojlariga mos keluvchi tadbirlarni o'tkazish vakolatlari berilayotgani va bu vakolatlar kengaytirib borilayotgani yuqoridagi konsepsiyaga mos keladi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 1999-yil 13-yanvardagi PF – 2177-sonli «Aholini aniq yo'naltirilgan ijtimoiy madad bilan ta'minlashda fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari rolini oshirish to'g'risida»gi Farmoniga ko'ra aholini ijtimoiy himoya qilishni ta'minlashda fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari rolini yanada oshirish, uning aniq yo'naltirilishini kuchaytirish, hududlarni ijtimoiy rivojlantirish borasidagi chora-tadbirlarni amalga oshirishda ushbu organlarning vakolatlarini va ma'suliyatini kengaytirish maqsadida, shuningdek, muhtoj oilalarga aniq yo'naltirilgan ijtimoiy madad ko'rsatish borasida to'plangan ijobiy tajribani e'tiborga olib, ishlamaydigan onalarga bolasi ikki yoshga yetgunga qadar uni parvarish qilish bo'yicha nafaqalar tayinlash va to'lash, o'zgalarning parvarishiga muhtoj bo'lgan yolg'iz pensionerlarni asosiy oziq-ovqat mahsulotlari bilan ta'minlash vazifalari ular zimmasiga o'tkazildi. Keyinchalik

¹O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to'plami. 2010. 8-son, 61-modda.

fuqarolarning aholi ijtimoiy muhofazasini bevosita ta'minlash sohasidagi vakolatlari kengaytirila bordi.

O'zbekiston Respublikasining 1999-yil 14-apreldagi «Fuqarolarning o'zini o'zi boqarish organlari to'g'risida»gi (yangi tahriri) Qonuniga ko'ra,¹ shaharcha, qishloq, ovul fuqarolar yig'ini hamda shahardagi mahalla fuqarolar yig'ini tegishli ravishda shaharcha, qishloq, ovul fuqarolar o'zini o'zi boqarish organlari, fuqarolar o'zini o'zi boqarish organining faoliyat dasturini va xarajatlar smetasini, hududni kompleks rivojlantirishni ta'minlash, aholi punktlarini obodonlashtirish va ularning sanitariya holatini yaxshilashga qaratilgan tadbirlar rejalarini tasdiqlaydi.

Obodonlashtirish ishlarini o'tkazish, umumiy foydalanishdagi joylarni ta'mirlash, shuningdek, kam ta'minlangan oilalarning uylari va kvartiralarini ta'mirlashda yordam ko'rsatish uchun aholidan ixtiyoriylik asosida mablag' yig'ish to'g'risida qarorlar qabul qiladi.

Shahardagi mahalla fuqarolar yig'ini nazarda tutilgan vakolatlardan tashqari, kam ta'minlangan oilalarga moddiy yordam ko'rsatish va bolali muhtoj oilalarga nafaqalar tayinlash masalalarini hal etadi, oilalarni davlat tomonidan ijtimoiy qo'llab-quvvatlash maqsadlari uchun qonun hujjatlarida belgilangan tartibda ajratiladigan mablag'lardan o'z o'rnida va samarali foydalanilishini ta'minlaydi.

Shaharcha, qishloq va ovuldagi mahalla fuqarolar yig'ini ham pul mablag'larining sarflanishi ustidan nazoratni tashkil etadi, fuqarolar yig'inining taftish komissiyasini saylaydi, komissiya to'g'risidagi nizomni tasdiqlaydi, yilning har choragida uning hisobotlarini eshitadi. Kam ta'minlangan oilalarga moddiy yordam ko'rsatish va bolali muhtoj oilalarga nafaqalar tayinlash masalalarini hal etadi, oilalarni davlat tomonidan ijtimoiy qo'llab-quvvatlash maqsadlari uchun qonun hujjatlarida belgilangan tartibda ajratiladigan mablag'lardan o'z o'rnida va samarali foydalanilishini ta'minlaydi.

Fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari tarkibiga kiruvchi organlar (Fuqarolar yig'ini umumiy majlisi, Oqsoqoli, Kengash va uning

¹O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Axborotnomasi. 1999. 5-son, 110-modda.

a'zolari, komissiyalar va ularning a'zolari) vakolatlari ham qonun bilan belgilangan va bu vakolatlarining asosiy qismi aholini ijtimoiy muhofaza qilish vazifalariga yo'naltirilgandir.

NAZORAT UCHUN SAVOLLAR

1. Aholini kuchli ijtimoiy muhofazalash siyosati mazmun-mohiyati haqida nimalarni bilasiz?
2. «Ijtimoiy muhofaza» atamasi nimani anglatadi?
3. Bozor munosabatlariga o'tish sharoitida aholi muhtoj tabaqalarini ijtimoiy muhofazalashning zarurligi nimada?
4. Ijtimoiy muhofazaning manzilli ekani nimani anglatadi?
5. Ijtimoiy muhofazalashning davlat va nodavlat shakllari haqida nimalarni bilasiz?
6. Ijtimoiy muhofazani amalga oshirish bilan qaysi davlat organlari shug'ullanadi?
7. Aholini ijtimoiy muhofazalashda nodavlat notijorat tashkilotlari qanday o'rin tutadi?
8. Fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari aholini ijtimoiy himoyalash sohasida qanday vazifalarni bajaradi?
9. Aholini ijtimoiy muhofazalashning qanday shakllarini bilasiz?

III BOB.

AHOLINI IJTIMOIIY MUHOFAZALASH SHAKLLARI VA USULLARI

3.1. Aholiga ko‘rsatiladigan ijtimoiy muhofaza yordami tushunchasi va ularning tasnifi

Ijtimoiy himoya– ijtimoiy-iqtisodiy hodisa bo‘lib, u bozor iqtisodiyoti sharoitida muhtoj fuqarolarni moddiy jihatdan qo‘llab-quvvatlash maqsadini ko‘zlaydi. Mazkur ijtimoiy-iqtisodiy voqelik huquqiy jihatdan tartibga solinishi va uning huquqiy asoslari taraqqiyotimizga mutanosib ravishda takomillashtirib borilmog‘i obyektiv zaruratdir. Inson va fuqarolar huquqlari ta‘min etilishi lozimligi, jamiyatda ijtimoiy adolat hamda barqarorlikni ta‘minlash ehtiyoji ushbu zaruratni yuzaga keltiradi.

Ijtimoiy himoya va muhtoj fuqarolarga ijtimoiy ko‘mak ko‘rsatish huquqiy qarashlar sifatida milliy-huquqiy prinsiplar tizimidan o‘rin olishi lozim.

Ijtimoiy himoya munosabatlarining aktiv (ijtimoiy yordam ko‘rsatishni tashkil qiluvchi va bunday yordamni ko‘rsatuvchi) hamda passiv (ijtimoiy himoyaga muhtoj bo‘lgan, bunday yordam ko‘rsatiladigan) subyektlarning fuqarolik-huquqiy maqomi aniq belgilab qo‘yilishi, ijtimoiy himoya prinsiplari, shartlari va mezonlari mukammal ishlab chiqilishi darkor.

Ijtimoiy himoyaga muhtoj fuqarolar toifalari farqlanishi lozim va bunda:

a) yoshi, salomatligi ahvoli va boshqa jihatlariga ko‘ra bunday yordamga obyektiv ravishda doimiy muhtoj shaxslar (nogironlar, yolg‘iz qariyalar, yetim-yesirlar);

b) hayotning kutilmagan voqea-hodisalari (tabiiy yoki texnogen ofatlar, sotsial silkinishlar) natijasida vaqtincha yordamga muhtoj bo‘lib qolganlar;

v) ishsizlik (doimiy yoki vaqtincha) tufayli qiyin ahvolga tushib qolgan shaxslar e‘tiborda saqlanmog‘i kerak.

Ularga ijtimoiy yordam ko'rsatishning tabaqalangan prinsiplari va qoidalari huquqiy jihatdan belgilanishi, fuqarolik-huquqiy normalarda bu hol hisobga olinishi lozim.

Aholiga ko'rsatiladigan ijtimoiy muhofaza yordami deganda avvalgi mehnat faoliyati davri va uning sifat ko'rsatkichlarini hisobga olgan yoki olmagan holda davlat mablag'lari, shuningdek, nodavlat mulkchiligidagi korxonalar va tashkilotlar, maxsus xayriya va homiylik jamg'armalari, xorijiy tashkilotlar, fuqarolar tomonidan ayrim shaxslar yoki oilalarga beriladigan pul, tovar-moddiy ko'rinishlardagi yordamlar, ijtimoiy xizmat va ko'mak shakllari, ijtimoiy-iqtisodiy imtiyozlar nazarda tutiladi.

Aholiga ko'rsatiladigan ijtimoiy muhofaza yordami bu yordamni ko'rsatish manbayiga ko'ra:

a) davlat budjeti mablag'lari hisobiga amalga oshiriladigan (Budjetdan tashqari Pensiya jamg'armasi mablag'laridan va davlat budjeti mablag'lari hisobidan);

b) nodavlat-notijorat xayriya va homiylik tashkilotlari mablag'lari hisobidan amalga oshiriladigan;

v) korxonalar va tashkilotlar, boshqa tadbirkorlik subyektlarining olgan sof foydasi hisobiga amalga oshiriladigan;

g) chet el xayriya tashkilotlari, chet ellik fuqarolar tomonidan qonun hujjatlarida belgilangan tartibda amalga oshiriladigan;

d) ayrim savobtalab xususiy fuqarolar, metsenatlar tomonidan o'z mablag'lari hisobidan amalga oshiriladigan ijtimoiy muhofaza yordami.

Aholiga ko'rsatiladigan ijtimoiy muhofaza yordami shakllariga ko'ra ular:

a) pul shaklida beriladigan;

b) tovar-mahsulot va qulaylik tug'diruvchi asbob-anjom ko'rinishida (nogironlik kolyaskalari, texnik vositalar va boshqalar) beriladigan;

v) natural holda ko'rsatiladigan ijtimoiy xizmatlar tarzidagi (yolg'iz qariya yoki nogironning uyiga borib xizmat ko'rsatish, ularni parvarishlash, kuzatib borish va boshqalar, ularni «Muruvvat» va «Saxovat» uylariga joylashtirish, u yerda moddiy-ijtimoiy ta'minlash, xizmatlar ko'rsatish va boshqalar);

g) ayrim toifadagi shaxslarga reabilitatsiya va sihat-salomatliklarini saqlash bilan bog'liq xizmatlar (sanatoriy-kurortlarda davolash,

sogʻliqlarini tiklash, rehabilitatsiya markazlari va muassasalarida xizmatlar koʻrsatish va b.)

d) dori-darmon va farmatsevtika vositalari bilan taʼminlash;

e) ijtimoiy va iqtisodiy imtiyoz hamda yengilliklar berish (masalan, soliqlar, majburiy yigʻimlar, davlat boj toʻlovlari va boshqa masalalarda) kabi turlarga boʻlinishi mumkin.

Ijtimoiy muhofaza yordami oluvchi subyektlarga koʻra, quyidagicha tasniflanishi mumkin:

a) ayrim fuqaroga koʻrsatiladigan;

b) oilaga koʻrsatiladigan.

Shuningdek, bir martalik va muntazam tUSDagi (muayyan muddat davomida uzluksiz va koʻp marta koʻrsatiladigan) ijtimoiy muhofaza yordamlari ham nazarda tutilmogʻi kerak.

Xayriya va homiylik yordamlari ijtimoiy muhofazani amalga oshiruvchi yoki ijtimoiy yordam koʻrsatishga ixtisoslashgan davlat yoki nodavlat muassasalariga, maxsus jamgʻarmalarga ham keyinchalik aholining muayyan toifasiga moddiy-ijtimoiy yordam koʻrsatilishi sharti bilan berilishi mumkin. Nodavlat ijtimoiy himoyaning jamiyatdagi oʻrni va ahamiyatini oshirib borish ustuvor vazifa sifatida baholanayotgan bugungi kunda nodavlat mablagʻlarini turli koʻrinishda ijtimoiy himoya maqsadlari uchun jalb etilishi davlat va jamiyat tomonidan har tomonlama ragʻbatlantirilmoqda.

Ijtimoiy himoyani amalga oshirish chogʻida uning ishtirokchilari erkinligi va munosabatga kirishning ixtiyoriyligi tamoyillariga tayangan holda, ular oʻrtasida begʻaraz yordam munosabatlarini yuzaga keltiradi. Bunday munosabatlarning avj olishi davlat ijtimoiy himoyasi bilan birga, nodavlat ijtimoiy himoyasining ham keng tarqalishiga olib kelmoqda.

3.2. Davlat yoʻli bilan koʻrsatiladigan ijtimoiy muhofaza va uning shakllari

Aholining muhtoj qatlamlarini ijtimoiy muhofazalash ishlarida davlat mablagʻlari va davlat ijtimoiy himoyalash tizimlari ustuvor oʻrinda turishi shubhasizdir. Zeroki, bozor munosabatlari qaror topishi davrida kuchli ijtimoiy himoya yangi jamiyat barpo etishning ustuvor tamoyillari va yoʻnalishlaridan biri sifatida taraqqiyotning «oʻzbek modeli»da na-

zarda tutilgan ekan, davlat sotsial vazifalarni o‘zining eng muhim funksiyadan ekanini chuqur anglagani holda ish ko‘rishi tabiiydir.

Bugungi kunda mamlakatimizda ijtimoiy yordam ko‘rsatish va aholining ehtiyojmand qismini qo‘llab-quvvatlashning davlat organlari tizimi va bu sohaning qonunchilik bazasi zamon talablariga mos ravishda shakllantirildi, ushbu tashkiliy-boshqaruv va huquqiy tizim samarali ishlab turibdi hamda davlatimizning kuchli ijtimoiy himoya siyosatidan kelib chiquvchi vazifalarni samarali bajarilishini, ijtimoiy himoya uchun ajratilayotgan davlat mablag‘larini manzilli ravishda taqsimlanishi, egalariga yetib borishini ta’minlamoqda.

Davlat yo‘li bilan ko‘rsatiladigan ijtimoiy muhofaza deganda davlatning ana shu maqsadlari uchun tashkil etilgan maxsus organlari (muassasa va tashkilotlari) tomonidan, vakolat berilgan hollarda esa fuqarolarning o‘zini o‘zi boshqarish idoralari va boshqa nodavlat tashkilotlari orqali davlat moliyaviy mablag‘lari hisobiga fuqarolarni va muhtoj oilalarni qonun hujjatlarida belgilangan shartlar va tartiblarda pul, natura yoki turli ijtimoiy xizmatlar, moddiy va ijtimoiy imtiyozlar tarzida qo‘llab-quvvatlash nazarda tutiladi.

Davlat ijtimoiy muhofaza yordami quyidagi davlat organlari tomonidan ko‘rsatilishi mumkin:

1. O‘zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi huzuridagi Budjetdan tashqari Pensiya jamg‘armasi va uning joylardagi hududiy organlari;
2. O‘zbekiston Respublikasi Mehnat va aholini ijtimoiy muhofaza qilish vazirligi tizimidagi hududiy organlar tomonidan;
3. Sog‘liqni saqlash vazirligi tizimidagi davlat tibbiy muassasalari tomonidan;
4. Davlat soliq xizmati organlari tomonidan (davlat soliqlari va boshqa majburiy yig‘imlarini undirish chog‘ida soliq imtiyozlarini ta’minlab berish orqali).

Shuningdek, davlat ijtimoiy muhofazasini amalga oshirilgan budjet mablag‘lari hisobidan ijtimoiy qo‘llab-quvvatlash vazifasi va vakolati fuqarolarning o‘zini o‘zi boshqarish organlariga ham yuklatilganidir.

Davlat yo‘li bilan ko‘rsatiladigan ijtimoiy muhofaza ko‘rinishlari xilma-xildir va qayd etilganidek, ularning soni bugungi kunda yuzdan ortiq bo‘lib, pul shaklida, natural holda, turli ijtimoiy xizmatlar shaklida, davlat imtiyozlari ko‘rinishida amalga oshirib kelinmoqda.

Davlat ijtimoiy muhofazasi tarkibiga kiruvchi yordam turlarini quyidagicha tasniflash mumkin:

1. Davlat pensiyalari;
2. Davlat nafaqalari;
3. Davlat moddiy yordami;
4. Kam ta'minlangan, yakka-yolg'iz qariya yoki nogironlarga natural (oziq-ovqat mahsulotlari, ro'zg'or buyumlari va chorva mollarini bepul berish va boshqalar);
5. Yakka-yolg'iz qariya va nogironlarni davlat ijtimoiy ta'minot muassasalarida saqlash va ularni davlat hiobidan moddiy va ijtimoiy ta'minlab turish;
6. Nogironlarni davolash, rehabilitatsiya qilish, ularga qulay mehnat va turmush sharoitlarini davlat mablag'lari hisobidan tashkil qilish;
7. Nogiron va pensionerlarni sihatgoh va oromgohlarda davolash, dam oldirish;
8. Ota-ona parvarishidan mahrum bo'lib qolgan bolalarni davlat ijtimoiy muassasalarida moddiy-ijtimoiy ta'minlash, ularni o'qitish, kasb-hunar o'rgatish;
9. Fuqarolarning muhtoj tabaqalariga tibbiy-farmatsevtika xizmatlarini davlat mablag'lari hisobidan ko'rsatish;
10. Fuqarolarga qonun hujjatlarida nazarda tutilgan ijtimoiy va iqtisodiy imtiyoz hamda yengilliklarni davlat mablag'lari hisobidan ta'minlab berish va boshqalar.

Bugungi kunda ijtimoiy imtiyozlar tarkibi, berilish shartlarini qayta ko'rib chiqish ishlari amalga oshirilmoqda va bu tadbirlar ijtimoiy himoya sohasida amalga oshirilayotgan islohotlarimizning muhim jihati tashkil qiladi. Avvalgi vaqtlarda asossiz ravishda belgilangan imtiyoz va yengilliklar bozor munosabatlarining bugungi talablari asosida, bozor sharoitida boqimandalik va boshqalar hisobidan asossiz qulayliklarga ega bo'lishga toqat qilib bo'lmasligi nuqtayi nazaridan qayta ko'rib chiqilishi lozim. O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Senatining to'rtinchi yalpi majlisidagi muzokaralar chog'ida qayd etilganidek, bugun Budjetdan tashqari Pensiya jamg'armasiga Respublikaning bor-yo'g'i 42 foiz mehnatga yaroqli aholisigina badal to'lamoqda, qolgan 58 foizining salmoqli qismi badal to'lashdan ozod qilingan. 700 mingdan ko'proq fuqarolar imtiyozli pensiya bilan ta'minlanganlar va bu ko'rsatkich jami

pensionerlarning 26 foizidan ko‘proqni tashkil etadi. Bunday vaziyat o‘nglanishi zarur va bu jamiyatimizda ijtimoiy adolat tamoyili mustahkamlanishiga, har bir fuqaro qo‘shgan hissasiga mos ravishda ijtimoiy ko‘mak olishiga imkon beradi.

NAZORAT UCHUN SAVOLLAR

1. Ijtimoiy muhofaza va ijtimoiy siyosat o‘rtasida qanday bog‘liqlik mavjud?
2. Ijtimoiy ehtiyojmand aholi deganda kimlar nazarda tutiladi?
3. Ijtimoiy ehtiyojmand shaxslarni aniqlash qanday mezonlar bilan belgilanadi?
4. Ijtimoiy ehtiyojmandlar davlat va jamiyatning qanday himoya choralaridan foydalanadilar?
5. Ijtimoiy himoyani amalga oshiruvchi davlat organlari jumlasiga qaysi organlar kiradi?
6. Nodavlat ijtimoiy muhofazasi deganda nimalar nazarda tutiladi?
7. Aholining muhoj qatlamlarini ijtimoiy muhofazalashda mahalla fuqarolar yig‘ini qanday o‘rin tutadi?

VI BOB.
IJTIMOY MUHOFAZANING MUHIM SHAKLI
SIFATIDA PENSIYALAR

***4.1. Davlat pensiya ta'minoti sohasida amalga oshirilayotgan
huquqiy va tashkiliy islohotlar, ularning maqsadi va mohiyati.
Pensiyalar tushunchasi, ijtimoiy himoyalashdagi
ahamiyati va ularning tasnifi***

Davlat yo'li bilan aholining ijtimoiy ta'minoti amalga oshirilishi shakllaridan biri – davlat pensiyalari hisoblanadi. Davlat pensiyalari, bu – fuqaroning avvalgi davrlardagi mehnat va boshqa ijtimoiy ahamiyatga ega foydali faoliyati hisobga olingani holda davlat moliyaviy jamg'armalari hisobidan unga butun umrga yoxud mehnat layoqati tiklanguniga qadar tirikchilik o'tkazishning asosiy manbasi sifatida tekinga, qonunda nazarda tutilgan miqdordan kam bo'lmagan holda muntazam amalga oshiriladigan pul to'lovlaridan iboratdir.

Keyingi yillarda amalga oshirilayotgan pensiya sohasidagi islohotlarimizning asosiy maqsadi va yo'nalishi – pensiya ta'minoti uchun ajratilayotgan mablag'lardan tejimli va samarali foydalanishga, asossiz holda berilgan imtiyozlarga barham berish orqali ijtimoiy adolatni qaror toptirish, boqimandalikka barham berishga qaratilgandir.

Davlat pensiyalarining quyidagi turlari mavjud:

1. Yoshga doir pensiyalar;
2. Nogironlik pensiyalari;
3. Boquvchisidan judo bo'lganlik pensiyasi.

Bulardan tashqari, mamlakatimizda 2005-yil 1-yanvardan boshlab jamg'arib boriladigan pensiya ta'minoti yo'lga qo'yilgan bo'lib, uning manbasi – xodimlar tomonidan o'z oylik maoshlaridan bir foiz miqdorida jamg'arib boriladigan pensiya jamg'armasiga o'tkazib turiladigan mablag'lar sanaladi.

Harbiy xizmatchilarning pensiya ta'minoti ham davlat pensiya ta'minoti shakllaridan bo'lsa-da, davlat budget mablag'lari hisobidan alohida shartlar va tartiblarda amalga oshirilishi tufayli umumiy davlat pensiyalaridan farq qiladi.

Biz quyida davlat pensiyalarining har bir turiga umumiy tavsif berishga va ularning o'ziga xos xususiyatlarini tavsiflashga harakat qilamiz.

Keksa yoshdagi fuqarolarni ijtimoiy ta'minlashning asosiy shakllaridan biri – yoshga doir pensiyalar sanaladi. 2011-yil 1-yanvar holatiga ko'ra O'zbekistonda 2,7 mln.dan ko'proq pensioner bor va ularning 2 milliondan ortig'ini yoshga doir pensiya oluvchi shaxslar tashkil etadi.

Yoshga doir pensiya fuqaroning mehnat qobiliyati yo'qolishi yoki pasayishi bilan bog'lanmagan bo'lib, muayyan yoshga yetishi va qonunda nazarda tutilgan hajmdagi ish staji mavjudligi asosida butun umrga tayin etiladigan davlat ta'minoti turlaridan biri hisoblanadi. Yoshga doir pensiya aslida fuqaroning o'tgan davrlardagi mehnat faoliyati, jamiyat boyliklari ko'payishiga qo'shgan hissasi uchun jamiyat unga beradigan moddiy ta'minot, mamlakat milliy daromadining taqsimlanishidagi hissasidan iboratdir.

«Fuqarolarning davlat pensiya ta'minoti to'g'risida»gi Qonunga muvofiq, yoshga doir pensiyalarning quyidagi turlari nazarda tutilgan:

1. Umumiy asoslardagi yoshga doir pensiya;
2. Imtiyozli shartlar bilan tayinlanadigan yoshga doir pensiya;
3. To'liqsiz ish staji bilan tayinlanadigan yoshga doir pensiya;
4. Muddatidan oldin tayinlanadigan yoshga doir pensiya;
5. Harbiy xizmatchilarning uzoq yillik xizmat uchun pensiyalari.

O'zbekiston Respublikasining «Fuqarolarning davlat pensiya ta'minoti to'g'risida»gi Qonunining 1-moddasiga ko'ra:

Fuqarolarda pensiya olish huquqi paydo bo'lganida (muayyan yoshga yetgan va ish stajiga ega bo'lganda) istagan paytda pensiya so'rab murojaat qilish huquqi berilgan yoki bu huquqdan voz kechganlari holda o'zlari xohlagan vaqtgacha mehnat faoliyatlarini davom ettirishlari mumkin.

Yoshga doir pensiya olish huquqiga:

erkaklar – 60 yoshga to‘lganda va ish stajlari kamida 25 yil bo‘lgan taqdirda;

ayollar – 55 yoshga to‘lganda va ish stajlari kamida 20 yil bo‘lgan taqdirda ega bo‘ladilar.

Yoshga doir pensiya tayinlash paytida O‘zbekiston Respublikasi «Fuqarolarning davlat pensiya ta’minoti to‘g‘risida»gi Qonunining 37-moddasida sanab ko‘rsatilgan barcha faoliyat turlari mehnat stajiga qo‘shib hisoblanadi. Ammo, bunda haqiqiy ishlagan davrga ko‘ra hisoblanadigan mehnat staji bilan shartli ravishda e‘tiborga olinadigan mehnat staji (bolalar parvarishi bilan mashg‘ul bo‘lgan davr, amalda ishlamagan bo‘lsa-da, qonun hujjatlariga ko‘ra ish stajiga qo‘shib hisoblanadigan boshqa davrlar) o‘rtasidagi o‘zaro nisbat nazarda tutilgan.

Fuqarolarga ularning kasbi, mehnat sharoitlarining xususiyatlari va boshqa omillar e‘tiborga olingani holda odatdagidan afzalroq shartlarda yoshga doir pensiya tayinlash nazarda tutilgan. Imtiyozli shartlarda yoshga doir pensiya tayinlanishi aslida shaxs noqulay, zararli yoki ruhiy-fiziologik jihatdan tang sharoitlarda ishlaganligi, shu orqali o‘z sog‘lig‘i va hayotini xavf ostida qoldirgani holda jamiyatga ko‘proq foyda keltiruvchi faoliyat turi bilan shug‘ullanganligi uchun jamiyat tomonidan tovon to‘lanishidan iboratdir.

«Fuqarolarning davlat pensiya ta’minoti to‘g‘risida»gi Qonunning 14-moddasida xodimlarning soni qisqartirilishi yoki korxonalar, muassasalar va tashkilotlar tugatilishi munosabati bilan bo‘shatilgan va ishsiz maqomiga ega bo‘lgan shaxslar:

erkaklar – 58 yoshga to‘lganda va ish staji kamida 25 yil bo‘lgan taqdirda;

ayollar – 53 yoshga to‘lganda va ish staji kamida 20 yil bo‘lgan taqdirda pensiya olish huquqiga ega bo‘ladilar.

Shuningdek, O‘zbekiston Respublikasining 1998-yil 1-mayda qabul qilingan «Aholini ish bilan ta’minlash to‘g‘risida»gi Qonuniga ko‘ra: «Texnologiyadagi, ishlab chiqarish va mehnatni tashkil qilishdagi o‘zgarishlar, xodimlar soni (shtati) yoki ish xususiyatining o‘zgarishiga olib kelgan ishlar hajmining qisqarganligi yoxud korxonaning tugatilganligi munosabati bilan ishdan ozod etilgan va ishsiz deb e‘tirof etilgan, pensiya ta’minoti to‘g‘risidagi qonun hujjatlariga muvofiq pensiyaga

chiqish uchun talab etiladigan umumiy mehnat stajiga ega bo'lgan shaxslarga muddatidan oldin (qonun hujjatlarida belgilangan umumiy asoslarga ko'ra pensiya tayinlash muddatidan ikki yil oldin) pensiyaga chiqish huquqi beriladi».

Bugungi kunda O'zbekistonda aholining nochor, ijtimoiy himoyaga muhtoj qatlami sifatida nogironlar davlatning alohida muhofazasiga olingan.

Fuqarolarni nogironlik pensiyasi bilan ta'minlashning huquqiy asosi O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi (39-moddasi), O'zbekiston Respublikasi «Fuqarolarning davlat pensiya ta'minoti to'g'risida»gi Qonuni (III bob, 15–18-moddalari) «O'zbekiston Respublikasida nogironlarni ijtimoiy himoya qilish to'g'risida»gi Qonun¹ va boshqa qonun hujjatlari² sanaladi.

«Nogiron» shaxs atamasining rasmiy ta'rifi «O'zbekiston Respublikasida nogironlarni ijtimoiy himoya qilish to'g'risida»gi Qonunning 1-moddasida bayon etilgan. Unga ko'ra:

«Jismoniy yoki aqliy nuqsonlari borligi tufayli turmush faoliyati cheklanganligi munosabati bilan ijtimoiy yordam va himoyaga muhtoj bo'lgan shaxs, nogiron hisoblanadi.

Shaxsning turmush faoliyati cheklanganligi uning o'z-o'ziga xizmat qilish, yurish, yo'lni topa bilish, muloqot qilish, o'z xatti-harakatlarini nazorat qilish, shuningdek, mehnat faoliyati bilan shug'ullanish qobiliyati yoki imkoniyatini to'la yoki qisman yo'qotganligida ifodalanadi».

Nogironlarga tegishli asoslar mavjud bo'lganida nogironlik pensiyalari, boshqa hollarda esa nogironlik nafaqalari tayinlanadi.

Nogironlik pensiyasi mehnatda mayib bo'lish yoki kasb kasalligiga chalinish tufayli nogiron bo'lgan shaxslarga ish staji miqdoridan qat'i nazar, turmushda jarohatlanish yoki umumiy kasalliklardan nogiron bo'lib qolgan shaxslarga esa yoshga mutanosib keluvchi mehnat staji-

¹O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi palatalarining Axborotnomasi. 2008. 7-son, 353-modda.

²O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2008-yil 8-avgustdagi 175-sonli «Tibbiy-mehnat ekspertiza xizmati boshqarish tuzilmasini va faoliyatini tashkil etishni takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida»gi qarori. O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to'plami, 2008. 33-son, 314-modda.

ga ega bo‘lganlarida tayinlanadi. Belgilanganidan kam mehnat stajiga ega bo‘lgan umumiy kasallik yoki turmushdagi jarohatlanish (maishiy jarohat) oqibatida nogiron bo‘lib qolgan shaxslarga to‘liq bo‘lmagan miqdordagi nogironlik pensiyasi tayinlanadi.

Demak, nogironlik pensiyalari nogironlik sabablariga ko‘ra ikki turga bo‘linadi:

1. Mehnatda mayiblangan yoki kasb kasalligiga duchor bo‘lgan shaxslarga tayinlanadigan nogironlik pensiyalari;

2. Umumiy kasallik va turmushdagi jarohatlanish oqibatidagi nogironlik pensiyalari.

Pensiya hajmiga ko‘ra:

– to‘liq miqdordagi nogironlik pensiyalari;

– ish staji to‘liq bo‘lmagan chog‘da tayinlanadigan nogironlik pensiyalari.

Nogironlik sabablari tasnifiga muvofiq ham nogironlik pensiyalarini yana bir qator turlarga bo‘lish hollari uchrab turadi (masalan, harbiy xizmatchilarning nogironlik pensiyalari, Chernobil atom elektr stansiyasi halokati oqibatlarini bartaraf etishda qatnashgan shaxslarga tayinlanadigan nogironlik pensiyalari va hokazolar).

Nogironlik yuz berganligi fakti va uning yuz berish sabablari hamda muddati qonun hujjatlarida belgilangan tartibda aniqlanadi.

Voyaga yetmagan bolalar, bolalikdan nogiron bo‘lgan shaxslar va mehnat stajiga ega bo‘lmagan shaxslarga belgilangan tartibda va miqdorda nogironlik nafaqalari tayinlanishi ko‘zda tutilgan.

Nogironlik pensiyalari tayinlash paytida qonunchilik va ijtimoiy adolatni ta’minlash shartlaridan biri – o‘z vaqtida, to‘g‘ri, xolisona yondashgan holda nogironlik yuz berganligi faktining belgilanishidir.

Nogironlik pensiyalari tayinlash uchun nogironlikni, uning sabablari, yuz bergan muddatini belgilash vakolati maxsus organ – tibbiy mehnat ekspertizasi komissiyasi (TMEK)ga berilgan¹.

¹Qarang: O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2008-yil 8-avgustdagi 175-sonli «Tibbiy-mehnat ekspertiza xizmati boshqarish tuzilmasini va faoliyatini tashkil etishni takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida»gi qarori. O‘zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to‘plami. 2008. 33-son, 314-modda.

Nogironlik pensiyalariga chiqish huquqiga ikki xil sababga ko'ra nogiron bo'lib qolgan va belgilangan tartibda nogiron ekanligi tasdiqlangan fuqarolar ega bo'ladilar.

Bular: birinchidan, mehnatda mayiblanish yoki kasb kasalligiga chalinish, ushbu sabablarga tenglashtirilgan holdagi (urush nogironlari, harbiy xizmat burchini bajarish paytida yuz bergan) va boshqa sabablarga ko'ra sodir bo'lgan nogironliklar bo'lsa;

ikkinchidan, turmushda olingan jarohatlar (maishiy sabablarga ko'ra mayiblanish) yoki umumiy kasalliklar (ish bilan bog'liq bo'lmagan) oqibatidagi nogironliklardan iboratdir.

Ishlab chiqarishdagi jarohatlanish yoki kasb kasalliklari tufayli nogironlik yuz berganida nogiron shaxsning mehnat staji va uning miqdoridan qat'i nazar pensiya to'liq miqdorda tayinlanaveradi.

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2011-yil 1-iyun 195-sonli qarorida nogironlik mehnatda mayiblanish oqibatida kelib chiqqan deb hisoblanadigan nogironlik sabablari ro'yxati ko'zda tutilgan¹.

Nogironlikning yuz berish sabablari ishlab chiqarishda yuz bergan voqea-hodisalar bilan qay darajada bog'liqligini aniqlash paytida yuqorida keltirilgan ro'yxatdan tashqari, Vazirlar Mahkamasining 1994-yil 1-fevraldagi qarori bilan tasdiqlangan «Xodimlarga ularning mehnat vazifalarini bajarish bilan bog'liq holda jarohatlanishi, kasb kasalliklariga chalinishi yoki salomatligining boshqa xil shikastlanishi tufayli yetkazilgan zararni ish beruvchi tomonidan to'lash qoidalari»ga² hamda O'zbekiston Respublikasi hukumatining 1997-yil 6-iyundagi qarori bilan tasdiqlangan «Ishlab chiqarishdagi baxtsiz hodisalarni va xodimlar salomatligining boshqa xil zararlanishini tekshirish va hisobga olish to'g'risida»gi Nizom talablariga³ amal qilinmog'i lozim bo'ladi.

Nogironlik kasb kasalligi oqibatida yuz bergan deb hisoblanishi uchun xodimga ishlab chiqarishning zararli ta'sir ko'rsatuvchi omillari (shovqin, radiatsiya, ximiyaviy, fizik, biologik va boshqa ta'sirlar) oqibatida kasallik kelib chiqqan, vaqt o'tishi bilan kuchaygan bo'lishi lozim.

¹O'zbekiston Respublikasi Qonun hujjatlari to'plami. 2011. 27-son, 283-modda.

²Qarang: O'zbekiston Respublikasi Hukumatining qarorlari to'plami, 1994. 2-son, 7-modda.

³Qarang: O'sha manba, 1997. 6-son, 21-modda.

Urush nogironlari va ularga tenglashtirilgan shaxslar ham pensiya ta'minoti sohasida ishlab chiqarishdagi baxtsiz hodisalar yoki kasb kasalligi yuz berishi oqibatida nogiron bo'lgan shaxslar bilan teng huquqlarga egadirlar.

Urush nogironlari tushunchasi ta'rifi va urush nogironlariga tenglashtirilgan shaxslar doirasi Vazirlar Mahkamasining 2011-yil 8-sentabrdagi 252-sonli qarori bilan tasdiqlangan «Davlat pensiyalarini tayinlash va to'lash tartibi to'g'risida»gi Nizomning tegishli ilovalarida nazarda tutilgan¹.

II Jahon urushi va boshqa urushlarda harakatdagi armiya tarkibida harbiy xizmatni o'tagan, O'zbekiston Respublikasini himoya qilishda yaralangan, kontuziya bo'lib qolgan, mayiblanish yoki kasallanish natijasida nogiron bo'lib qolgan harbiy xizmatchilar urush nogironlari hisoblanadilar.

Urush nogironi sanalmasalar-da, ammo nogiron bo'lib qolish holatlari va sabablariga ko'ra ularga tenglashtirilgan shaxslarning ro'yxati tarkibiga 9 ta sababga ko'ra nogiron bo'lib qolgan harbiylar va harbiy xizmatchi sanalmaydigan boshqa shaxslar kiritilgan.

«Sog'lig'i yoki mehnat qobiliyatini yo'qotganlik darajasiga qarab, nogironlikning uch guruhi aniqlanadi.

Nogironlik sabablari va guruhlari, shuningdek, nogironlik boshlangan vaqt va nogironlikning qancha muddatga belgilanishi O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tasdiqlaydigan Nizom asosida ishlovchi tibbiy-mehnat ekspert komissiyalari (TMEK) tomonidan aniqlanadi».

Tibbiy mehnat ekspert komissiyalari nogironlik guruhini belgilash paytida obyektiv mezonlarga asoslanadi va I guruh nogironi deb topish uchun tana funksiyasi jiddiy buzilgan va bemor o'ziga-o'zi xizmat qila olmasligi, boshqa shaxslarning doimiy parvarishi va ko'magiga muhtoj bo'lishi lozim bo'ladi.

Shaxs II guruh nogironi deb e'tirof etilish uchun kishi organizmi, uning a'zolari funksiyasi birmuncha buzilgan bo'lishi, mehnat qilish qobiliyati barqaror tarzda doimiyga yoki uzoq muddatga yo'qolgan,

¹O'zbekiston Respublikasi Hukumatining qarorlari to'plami. 43–44-betlar.

jiddiy ravishda pasaygan bo‘lishi lozim. II guruh nogironi deb topilgan shaxslar maxsus yaratilgan mehnat sharoitida mehnat qilishlari mumkin bo‘ladi.

Umumiy kasalliklar yoki turmushdagi maishiy jarohatlar natijasida nogiron deb topilgan fuqarolarga nogironlik pensiyasi tayinlash uchun talab etiladigan mehnat staji miqdori quyidagi jadvalga ko‘ra aniqlanadi:

Yoshi	Ish staji (yil hisobida)
23 yoshga qadar	2
23 yoshdan 26 yoshga qadar	3
26 yoshdan 31 yoshga qadar	5
31 yoshdan 36 yoshga qadar	7
36 yoshdan 41 yoshga qadar	9
41 yoshdan 46 yoshgacha	11
46 yoshdan 51 yoshgacha	14
51 yoshdan 56 yoshgacha	17
56 yosh va undan oshganda	20

Turmushdagi jarohatlanish (maishiy mayiblanish) yoki umumiy kasallik tufayli nogironlik yuz berganida nogironlik pensiyasi muayyan shartlar mavjud bo‘lgani holda tayinlanishi mumkin.

Bunday shartlardan eng birinchisi – nogiron shaxs yoshiga mutanosib ravishdagi mehnat stajiga ega bo‘lishi lozimligidir.

«Fuqarolarning davlat pensiya ta’minoti to‘g‘risida»gi Qonunning 17-moddasiga muvofiq:

Mehnatda mayiblanganda yoki kasb kasalligiga uchraganda beriladigan nogironlik pensiyalari ish stajidan qat’i nazar tayinlanadi.

Umumiy kasallik tufayli beriladigan nogironlik pensiyalari nogironlik boshlangan paytgacha qadar quyidagicha ish stajiga ega bo‘lgan taqdirda tayinlanadi:

20 yoshga to‘lgunga qadar umumiy kasallik tufayli ish davrida yoki ishlash to‘xtatilgandan keyin nogiron bo‘lib qolgan shaxslarga pensiyalar ish stajidan qat’i nazar tayinlanadi.

Mehnatda mayiblanganda yoki kasb kasalligiga uchraganda beriladigan nogironlik pensiyasidan umumiy kasallik tufayli beriladigan nogironlik pensiyasiga o'tkazilganda zarur staj nogironlik dastlab belgilangan vaqtdagi yoshga qarab aniqlanadi.

20 yoshga kirguniga qadar nogiron bo'lib qolgan fuqarolarga umumiy kasallik tufayli nogiron bo'lib qolganlarida nogironlik pensiyasi tayinlanishi paytida mehnat staji talab etilmaydi. Biroq, bu shaxslar ishga kirganlaridan keyin yoki muayyan muddat ishlab, so'ngra ishdan bo'shagach, nogiron bo'lib qolgan bo'lsalargina nogironlik pensiyasi tayin etilishi mumkin.

Umumiy kasallik (maishiy jarohatlanish) tufayli nogiron bo'lib qolgan va yoshiga mos ravishda talab qilinadigan ish stajiga to'liq ega bo'lmagan fuqarolarga (masalan, 25 yoshda nogiron bo'lib qolgan shaxs 3 yillik mehnat staji o'rniga bor-yo'g'i 1 yillik stajga ega bo'lsa) nogironlik pensiyasi ularning mavjud mehnat stajiga mutanosib ravishda tayinlanadi.

Bunda nogironlik pensiyasi faqat I va II guruh nogironi deb topilgan shaxslargagina tayinlanadi.

Ish staji to'liq bo'lmaganda nogironlik pensiyasi to'lanishi chog'ida har qanday mehnat staji ham (bolalarni parvarishlash davri, o'qish davri va hokazo) qonun hujjatlarida belgilangan tartibda hisobga olinaveradi.

«Fuqarolarning davlat pensiya ta'minoti to'g'risida»gi Qonunning, 19-moddasiga binoan vafot etgan boquvchining qaramog'ida bo'lib kelgan mehnatga qobiliyatsiz oila a'zolariga boquvchisini yo'qotganlik pensiyasi tayinlanishi mumkin.

Ammo marhum boquvchining farzandlariga hamda yoshidan va mehnat qobiliyatidan qat'i nazar, ota va onadan biri yoki er (xotin) yoxud buva, buvi, aka-uka yoki opa-singil, agar u vafot etgan boquvchining bolalari, ukalari, singillari yoki nabiralarini ular uch yoshga yetgunlariga qadar boqish (parvarishlash) bilan mashg'ul bo'lsalar, marhum bilan birga yashagan-yashamaganliklaridan qat'i nazar, boquvchisini yo'qotganlik pensiyasi tayinlanaverishi nazarda tutilgan.

Boquvchisini yo'qotganlik pensiyasi fuqarolarni ijtimoiy ta'minlash, pensiya ta'minotini amalga oshirish shakllaridan biri bo'lib, unga ko'ra moddiy ta'minlagan, turmush kechirishning asosiy manbayi bo'lib kelgan shaxsni vafot etishi munosabati bilan uning qaramog'idagi shaxslarga qonun hujjatlarida belgilab qo'yilgan tartibda, shartlarda va

miqdorlarda ular voyaga yetgunlariga qadar, mehnat qilish qobiliyatlari qayta tiklangunicha yoki bo'lmasa tegishli hollarda butun umrga davlat ijtimoiy ta'minot mablag'lari hisobidan tayin etiladigan, qaytarib olinmaydigan, haq olinmaydigan, muntazam ravishda to'lab boriladigan pul to'lovlaridan iborat.

1) Ishlab chiqarishda yuz bergan baxtsiz hodisalar, ishda olingan jarohatlar yoki kasb kasalligiga chalinish oqibatida vafot etgan shaxslarning qaramog'idagilarga tayinlanadigan boquvchisini yo'qotganlik pensiyasi;

2) ishlab chiqarishdagi sabablarga ko'ra vafot etgan shaxslarga tenglashtirilgan holatlarda (urush harakatlari, harbiy burchni bajarish, fuqarolik burchini bajarish paytlarida va hokazo) vafot etganlarning oila a'zolariga tayinlanadigan boquvchisini yo'qotganlik pensiyalari;

3) umumiy kasallikdan (turmushdagi jarohatlarning oqibatida) vafot etgan shaxslarning oila a'zolariga tayinlanadigan boquvchisini yo'qotganlik pensiyasi kabilar o'zaro farqlanadi;

4) yuqorida ko'rsatib o'tilgan dastlabki ikki holat tufayli vafot etgan marhumlarning qaramog'ida bo'lib kelgan mehnatga yaroqsiz oila a'zolariga marhumning mehnat staji miqdoridan qat'i nazar pensiya tayinlanaveradi.

Pensiyalarni tayinlash pensiya tayinlash vakolatiga ega bo'lgan organlar tomonidan qonun hujjatlarida belgilab qo'yilgan tartib va muddatlarda amalga oshiriladi.

Pensiya tayinlash huquqiga hozirgi paytda quyidagi organlar haqlidirlar:

1. Budjetdan tashqari Pensiya jamg'armasining tuman (shahar) bo'limlari;

2. Mudofaa vazirligi, Ichki ishlar, Favqulodda vaziyatlar vazirliklari, Milliy xavfsizlik xizmati pensiya tayinlash hamda to'lashni amalga oshiruvchi organlar sanaladilar.

4.2. Davlat pensiyalarini tayinlash va to'lash shartlari va tartiblari

Barcha fuqarolarga, shu jumladan, muddatli harbiy xizmatdagi harbiy xizmatchilarga pensiyalar Budjetdan tashqari Pensiya jamg'armasining tuman (shahar) bo'limlari tomonidan tayinlanadi.

Ofitserlar tarkibidan bo'lgan shaxslar, praporshiklar, michmanlar va boshqa muddatidan tashqari xizmatni o'tayotgan harbiy xizmatchilar, ichki ishlar, Milliy xavfsizlik xizmati, Favqulodda vaziyatlar vazirligi boshliqlar hamda oddiy askarlar tarkibidan bo'lgan harbiy xizmatchilariga mudofaa vazirligi yoki boshqa vazirlik, idoraning pensiya bo'limlari tomonidan belgilangan tartibda tayinlanadi.

Fuqarolarga pensiya tayinlash tartibi O'zbekiston Respublikasi «Fuqarolarning davlat pensiya ta'minoti to'g'risida»gi Qonunining 43-moddasida hamda ushbu norma asosida Vazirlar Mahkamasining 2011-yil 8-sentabrdagi 252-son qarori bilan tasdiqlangan «Davlat pensiyalarini tayinlash va to'lash tartibi to'g'risida»gi Nizom asosida belgilab qo'yilgandir¹. Unga ko'ra:

xodimlarga va ularning oila a'zolariga (boquvchisini yo'qotgan taqdirda) pensiya tayinlash to'g'risidagi ariza oxirgi ish joyidagi korxonaga, muassasa, tashkilot ma'muriyati orqali beriladi.

Kooperativlarning a'zolari va ularning oilalariga pensiya tayinlash to'g'risidagi ariza jamoa xo'jaligi (kooperativ) boshqaruvi orqali beriladi.

Ma'muriyat (boshqaruv) ariza tushgan kundan e'tiboran 10 kunlik muddat ichida staj va ish haqi to'g'risidagi zarur hujjatlarni rasmiylashtiradi hamda ularni berilgan ariza va o'z taqdimnomasi bilan birga arizachi istiqomat qiladigan Budjetdan tashqari Pensiya jamg'armasining tuman (shahar) bo'limlariga yuboradi. Basharti pensiya tayinlashni so'rab murojaat etgan xodimga pensiya tayinlashga tavsiya etish rad qilinsa, unga rad etish sabablari ko'rsatilgan holda yozma xabar qilinadi.

Pensiya tayinlashni so'rab murojaat etgan shaxs ma'muriyatning (boshqaruvning) pensiya tayinlashga tavsiya etishni rad etgan qaroriga rozi bo'lmagan hollarda, u pensiya tayinlanishini so'rab bevosita Budjetdan tashqari Pensiya jamg'armasining tuman (shahar) bo'limlariga ariza berishi mumkin.

Dehqon (fermer) xo'jaliklari a'zolariga, yakka tartibdagi mehnat faoliyati bilan shug'ullanuvchi shaxslarga, boshqa fuqarolarga va ularning oila a'zolariga pensiya tayinlash to'g'risidagi arizalar bevosita arizachilarning istiqomat qiladigan joyidagi Budjetdan tashqari Pensiya jamg'armasining tuman (shahar) bo'limlariga beriladi.

¹O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to'plami. 2011. 37-son, 377-modda.

Budjetdan tashqari Pensiya jamg'armasining tuman (shahar) bo'limlari pensiyalar tayinlash masalalari yuzasidan tushuntirish va ma'lumotlar berishlari, shuningdek, arizachiga zarur hujjatlarni olishida ko'maklashishlari shart.

Budjetdan tashqari Pensiya jamg'armasining tuman (shahar) bo'limlari korxonalar, tashkilotlar va ayrim shaxslardan tegishli hujjatlarni talab qilish, zarur hollarda esa ularning berilishi asoslilikini tekshirish huquqiga egadirlar.

Korxonalar va tashkilotlar pensiya uchun (pensiya qayta hisoblanishi uchun) hujjatlarni o'z vaqtida taqdim etmaslik yoki ishonchsiz ma'lumotlari bo'lgan hujjatlarni taqdim etish oqibatida pensionerga yetkazilgan zarar uchun uning oldida qonun hujjatlarida belgilanganidek javobgar bo'ladilar.

Korxonalar yoki pensioner tomonidan ma'lumotlari ishonchsiz hujjatlarni taqdim etilishi oqibatida davlatga zarar yetkazilgan taqdirda, yetkazilgan zarar Ijtimoiy sug'urta jamg'armasiga to'lanadi. Bunda korxonalar tomonidan yetkazilgan zarar ijtimoiy Budjetdan tashqari Pensiya jamg'armasining tuman (shahar) bo'limlaridan tegishli xabarnoma olingan kundan boshlab bir oy ichida pensioner tomonidan yetkazilgan zarar esa belgilangan tartibda pensiyadan chegirib qolish orqali qoplanadi.

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2011-yil 8-sentabrdagi 252-son «Davlat pensiyalarini tayinlash va to'lash tartibi to'g'risida»gi Nizom tasdiqlangan bo'lib, unga ko'ra pensiya tayinlash haqidagi arizaga qo'shib taqdim etiladigan hujjatlar ro'yxati, hujjatlarni ko'rib chiqish, tayyorlash muddatlari va tartiblari belgilab qo'yilgan.

Mazkur Nizomda har xil pensiya uchun talab etiladigan hujjatlar nazarda tutilgan.

Pensiya tayinlash uchun zarur hujjatlarning asl nusxasi ham yoki ularning notarial tartibda yoxud korxonalar, tashkilotlar, Budjetdan tashqari Pensiya jamg'armasining tuman (shahar) bo'limlariga bevosita o'zi tomonidan tasdiqlangan nusxalari ham topshirilishi mumkin.

Mehnat stajini tasdiqlovchi hujjat (mehnat daftarchasi, ma'lumotnoma va boshqalar)ning faqat asl nusxasi topshirilishi talab qilinadi.

Nizomga ko'ra, mulkchilik va tadbirkorlik shaklidan qat'i nazar, barcha korxonalar va tashkilotlarning ish beruvchilari har yilning boshida kelayotgan

yilda pensiya yoshiga yetadigan barcha xodimlar, shirkat, dehqon (fermer) xo'jaligi a'zolari ro'yxatini tuzib chiqishi, pensiyaga chiqish yoshiga yetadigan kundan kechikmasdan xodimga bu haqda xabar berishi, xodim pensiyaga chiqish istagini bildirsa, uning arizasi asosida zarur hujjatlarni tayyorlash va 10 kun ichida o'z tavsiyanomasi bilan birga Budjetdan tashqari Pensiya jamg'armasining tuman (shahar) bo'limlariga taqdim etishi lozim bo'ladi.

Budjetdan tashqari pensiya jamg'armasining tuman (shahar) bo'limlari taqdim etilgan hujjatlarni qabul qilib oladi. Agar ular noto'g'ri rasmiylashtirilgan bo'lsa, u holda kamchiliklarini ko'rsatib, arizachiga qaytarib beradi. Basharti kamchiliklar 5 kun ichida bartaraf etilib, qayta taqdim etilsa, u dastlab ariza berilgan kundan boshlab qabul qilib olingan hisoblanadi va ariza 10 kun ichida ko'rib hal etilmog'i lozim.

Pensiyalar miqdorini hisoblab chiqarish paytida ish haqi miqdori va mehnat staji hajmi muhim o'rin tutadi.

«Fuqarolarning davlat pensiya ta'minoti to'g'risida»gi Qonunning 25-moddasiga ko'ra pensiyalarning qat'iy miqdori uch tarkibiy qism:

- a) pensiyaning tayanch miqdori;
- b) ish staji uchun pensiyaning oshirilishi;
- v) pensiyaga qo'shiladigan ustama haqlardan tashkil topadi.

Ushbu uch tarkibiy qismning aniqlanishi turli pensiya turlarida bir-muncha o'ziga xos xususiyatlarga ega bo'lsa-da, hisoblab chiqarilishda ular asos qilib olinadi.

Ishlab turgan pensionerlarga pensiya to'lash. Ishlab turgan pensionerlarga pensiya to'lashning alohida qoidalari O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi tomonidan 2011-yil 30-aprelda 2222-son bilan ro'yxatga olingan «Ishlovchi pensionerlarga pensiya to'lash tartibi to'g'risidagi Nizom»da nazarda tutilgan¹.

4.3. Harbiy xizmatchilarga pensiyalar tayinlash va to'lash

Harbiy xizmatchilarga pensiyalar tayinlashda davlat ijtimoiy ta'minot organlari bilan bir qatorda harbiy organlar ham ishtirok etishlari nazarda tutilgan.

¹O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to'plami. 2011. 18-son, 183-modda.

O‘zbekiston Respublikasining «Fuqarolarning davlat pensiya ta‘minoti to‘g‘risida»gi Qonuni 5-moddasiga ko‘ra: «Harbiy xizmatchilarni, shuningdek, ichki ishlar organlarining boshliqlar va oddiy xodimlar tarkibidan bo‘lgan shaxslarni hamda ularning oila a‘zolarini pensiya bilan ta‘minlash shartlari, normalari va tartiblari O‘zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari bilan belgilanadi». Harbiy xizmatchilarga, shuningdek, umumiy asoslarda fuqarolik pensiyasi olishni tanlash huquqi ham berilgan.

«Harbiy xizmatchilarning pensiya ta‘minoti to‘g‘risida»gi 1990-yil 28-apreldagi sobiq SSSR qonuniga ko‘ra (1991-yil 1-yanvardan amalga kiritilgan) muddatli harbiy xizmatchi va ularning oila a‘zolari o‘zlari yashab turgan tuman (shahar) ijtimoiy ta‘minot bo‘limlariga pensiya so‘rab murojaat qiladilar. Ofitserlar, praporshchiklar, michmanlar, muddatidan tashqari harbiy xizmatchilar, ichki ishlar, Milliy xavfsizlik xizmati, chegara qo‘shinlari davlat qo‘mitasi, Favqulodda vaziyatlar vazirligi harbiy xizmatchilari tegishli vazirlik yoki davlat komitetining pensiya bo‘limlariga murojaat qilishlari lozimligi belgilangan. «Harbiy xizmatchilarning pensiya ta‘minoti to‘g‘risida»gi Qonunning 52-moddasiga ko‘ra ofitserlar, praporshchiklar, michmanlar, muddatidan tashqari harbiy xizmatni o‘tayotgan harbiy xizmatchilarga pensiya tayinlash organi Mudofaa vazirligi yoki boshqa vazirlik va davlat qo‘mitasi pensiya bo‘limlari hisoblanadilar.

Ushbu qonun asosida harbiy xizmatchi xizmatni o‘taydigan tegishli vazirliklar (Mudofaa, Ichki ishlar, Favqulodda vaziyatlar vazirliklari), davlat qo‘mitalari (Davlat bojxona xizmati, Milliy xavfsizlik xizmati) tomonidan o‘z idoralari xodimlariga pensiyalar tayinlash va to‘lash masalalarini belgilab beruvchi normativ-huquqiy hujjatlar qabul qilinadi va shu asosda ushbu idoralar harbiy xizmatchilariga pensiyalar tayinlanadi hamda to‘lanadi¹.

Harbiy organlarning pensiya ta‘minoti bo‘limlarining yuridik

¹ Qarang: 1991-yil 3-yanvardagi «O‘zbekiston Respublikasi Ichki qo‘shinlar harbiy xizmatchilarini hamda ichki ishlar organlari boshliqlari va oddiy xodimlarini, ularning oila a‘zolarini pensiya bilan ta‘minlash ishlarini tashkil etish to‘g‘risida»gi Yo‘riqnoma. Shuningdek: O‘zbekiston Respublikasi Adliya vazirligida 1999-yil 21-dekabrda ro‘yxatga olingan «O‘zbekiston Respublikasi Ichki ishlar vazirligi pensionerlariga pensiya to‘lashning vaqtinchalik tartibi».

maqomi, vakolatlari va ish olib borish tartibi tegishli idoraviy normativ hujjatlarga binoan belgilab qo'yiladi.

Harbiy xizmatchilarga va ularning oila a'zolariga uzoq yillik xizmat davri uchun pensiya tayinlanadi va bunda ularning harbiy xizmatni o'tagan vaqti va muddati e'tiborga olinadi.

Harbiy xizmatchilar xizmatni o'tash vaqtida jarohat olishlari yoki kasb kasalliklariga chalinishlari tufayli nogiron bo'lib qolganlari taqdirda ularga nogironlik pensiyalari tayinlanadi. Bunda tayinlanadigan pensiya miqdori nogironlik sabablari va xizmatni o'tash muddatiga bog'liq bo'ladi.

Harbiy xizmatchi xizmatni o'tash chog'ida jarohatlar yoki kasalliklar oqibatida vafot etgan taqdirda uning qaramog'ida bo'lib kelgan mehnatga yaroqsiz oila a'zolariga boquvchisini yo'qotganlik pensiyasi tayinlanishi mumkin.

Harbiy xizmatchilarga va ularning oila a'zolariga pensiya tayinlash shartlari va tartiblari «Fuqarolarning davlat pensiya ta'minoti to'g'risida»gi Qonunda belgilanganidan birmuncha farq qiladi va uning miqdorini aniqlash tartibi ham o'ziga xosdir.

NAZORAT UCHUN SAVOLLAR

1. Pensiya deganda nimalar nazarda tutiladi ?
2. Davlat pensiyalarining turlari va qonunchilik asoslari haqida so'zlab bering.
3. Yoshga doir pensiyalar va ularning tayinlanish shartlari qanday ?
4. Nogironlik va nogironlik pensiyalari haqida gapirib bering.
5. Boquvchisini yo'qotganlik pensiyalari kimlarga tayinlanadi ?
6. Davlat pensiyalarini tayinlash va to'lash qoidalari haqida so'zlab bering.
7. Jamg'arib boriladigan pensiya nima va uning huquqiy asoslari qanday?

V BOB.
NAFAQALAR VA ULARNING FUQAROLARNI IJTIMOIIY
MUHOFAZALASHDAGI AHAMIYATI

5.1. Nafaqalar tushunchasi, turlari va ularning pensiyalardan farqi

Aholining aniq yo‘naltirilgan ijtimoiy qo‘llab-quvvatlashni kuchaytirishga qaratilgan qonunchilik faoliyati tobora kuchayib borayotgani va o‘zining zaruriy huquqiy bazasiga, bugungi kun talablarini o‘zida aks ettiruvchi qonunchilik tizimiga ega ekani bilan diqqatga sazovordir. Bunda, ayniqsa, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 1996-yil 10-dekabrda «Bolali oilalarni davlat tomonidan qo‘llab-quvvatlashni yanada kuchaytirish to‘g‘risida»gi Farmoni va uning asosida qabul qilingan hukumat qarorlari, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 1999-yil 13-yanvardagi «Aholini aniq yo‘naltirilgan ijtimoiy madad bilan ta‘minlashda fuqarolarning o‘zini o‘zi boshqarish organlari rolini oshirish to‘g‘risida»gi Farmoni, 2002-yil 25-yanvardagi «Aholining ijtimoiy himoyaga muhtoj qatlamlarini aniq yo‘naltirilgan tarzda qo‘llab-quvvatlashni kuchaytirish to‘g‘risida»gi Farmoni alohida o‘rin tutadi.

Keyingi yillar davomida ham aholini ijtimoiy ta‘minlash va ijtimoiy muhofaza qilish shakli sifatida nafaqalarning ahamiyatini oshirishga e‘tibor qaratib kelinmoqda.

Nafaqa ijtimoiy ta‘minot huquqiga oid kategoriya sifatida fuqarolarga yoki oilaga davlat ijtimoiy sug‘urtasi mablag‘lari, davlat budjeti hamda boshqa maxsus manbalardan pul shaklida, muntazam ravishda yoki bir marta ko‘rsatiladigan ijtimoiy yordamdan iborat bo‘lib, pensiyalardan farq qiladi va odatda yordamchi xususiyatga ega bo‘ladi hamda fuqaro turmush kechirishining asosiy manbayi bo‘lib hisoblanmaydi. Pensiyalarga xos bo‘lgan asosiy xususiyatlar – pul shaklida berilishi, qaytarib olinmaslik sharti bilan va tekinga berilishi kabilar nafaqalarga ham xosdir.

Pensiyalardan farqli o‘laroq, nafaqa vaqtinchalik xususiyatga ega, turmush darajasini ta‘minlashning qo‘shimcha manbai bo‘lib sanaladi va tayinlanishida nafaqa oluvchining avvalgi mehnat faoliyati va mehnat staji har doim ham unchalik katta ahamiyatga ega bo‘lmaydi.

To‘lanish manbalariga ko‘ra nafaqalar quyidagi turlarga bo‘linadi:

1. Davlat ijtimoiy sug‘urtasi mablag‘laridan (Budjetdan tashqari Pensiya jamg‘armasi mablag‘laridan) to‘lanadigan;
2. Davlat budjet mablag‘laridan to‘lanadigan;
3. Boshqa manbalardan to‘lanadigan.

5.2. Davlat ijtimoiy sug‘urtasi yo‘li bilan tayinlanadigan va to‘lanadigan nafaqalar tavsifi

Davlat ijtimoiy sug‘urtasi bo‘yicha tayinlanadigan va to‘lanadigan nafaqalar fuqarolarni ijtimoiy-moddiy ta‘minlashda yetakchi o‘rin tutadi.

Ijtimoiy ta‘minotning ushbu shakli fuqarolarga O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasida nazarda tutilgan muhim huquqlarning amalga oshirilishini kafolatlaydi.

O‘zbekiston Respublikasining Mehnat kodeksi (XVI bob, 282–294-moddalar)¹; O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2001-yil 24-avgustdagi qarori bilan tasdiqlangan «Yuridik shaxs bo‘lmasdan tadbirkorlik faoliyati bilan shug‘ullanuvchi jismoniy shaxslarning mehnat stajini hisobga olish va Budjetdan tashqari Pensiya jamg‘armasiga badallar to‘lash tartibi» hamda «Dehqon xo‘jaligi a‘zolari ijtimoiy sug‘urtasi va ijtimoiy ta‘minoti to‘g‘risida»gi Nizom² va nihoyat O‘zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi tomonidan 2002-yil 14-may kuni ro‘yxatga olingan «Davlat ijtimoiy sug‘urtasi bo‘yicha nafaqalar tayinlash va to‘lash tartibi to‘g‘risida»gi Nizom bilan³ va boshqa bir qator me‘yoriy hujjatlar bilan tartibga solinadi.

Davlat ijtimoiy sug‘urtasi bo‘yicha nafaqa olishga talabgor fuqaroning (yoki uning oila a‘zosini) mehnat faoliyati bilan, uning uchun ish

¹Qarang: O‘zbekiston Respublikasining Mehnat kodeksi. – T.: «Adolat», 1999.

²Qarang: O‘zbekiston Respublikasining qonun hujjatlari to‘plami. 2001. 16-son, 109-modda.

³Qarang: O‘zbekiston Respublikasi vazirliklari, davlat qo‘mitalari, idoralari me‘yoriy hujjatlari Axborotnomasi. 2002. 9-son.

beruvchilar tomonidan yoki bevosita o'zi tomonidan Budjetdan tashqari Pensiya jamg'armasiga ijtimoiy sug'urta badallari o'z vaqtida, to'liq va muntazam ravishda to'lab berilganligi bilan bog'liq qilib qo'yilgan. Ya'ni ijtimoiy sug'urta badallari to'lanmaydigan ish faoliyati bilan shug'ullanish yoki sug'urta badallarini muntazam to'lamaganligi odatda ijtimoiy sug'urta bo'yicha nafaqa olish huquqining paydo bo'lmasligiga sabab bo'ladi, «Sug'urta badallari to'lamagan bo'lsa nafaqa ham tayinlanmaydi» degan tamoyil amal qiladi. Ammo O'zbekiston Respublikasi Mehnat kodeksining 284-moddasi, ikkinchi qismiga ko'ra: «Ish beruvchining davlat ijtimoiy sug'urtasi uchun badal to'lamaganligi sug'urta qilingan xodimni davlat ijtimoiy sug'urtasi mablag'lari hisobidan ta'minlanish huquqidan mahrum qilmaydi». Korxonalar ixtiyoriy to'lamagan yoki kechiktirgan sug'urta badallari soliq boqimandalariga tenglashtirilgani holda moliyaviy sanksiyalar qo'llanilib, keyinchalik majburiy tarzda undirib olinadi.

Davlat ijtimoiy sug'urtasi bo'yicha nafaqa sug'urtalangan xodimlarga, O'zbekiston Respublikasi qonunchiligida ko'zda tutilgan hollarda, boshqa fuqarolarga ham beriladi. Umumiy qoidaga ko'ra xodim ish beruvchi bilan mehnat munosabatlarida (sinov davrida ham) bo'lgan davrda unda nafaqa olish huquqi paydo bo'ladi. Ayrim hollarda, ya'ni mehnat shartnomasi alohida asoslarga ko'ra bekor qilingandan (Mehnat kodeksining 67-moddasi) keyin bir oy ichida vaqtincha mehnatga qobiliyatsizlik yoki homiladorlik va tug'ish ta'tili boshlangan bo'lsa, nafaqa yashash joyidagi tuman (shahar) ijtimoiy ta'minot bo'limi tomonidan to'lanadi.

Nafaqa, mehnat qobiliyati tiklangan, nogironlik belgilangan, homiladorlik va tug'ish ta'tili tugagan, vafot etgan yoki bola tug'ilgan kundan boshlab 6 oy muddat ichida murojaat qilinganda to'lanadi. Bunda, vaqtincha mehnatga qobiliyatsizlik nafaqasi uni olish uchun murojaat qilingan kungacha bo'lgan 12 oydan oshmagan davr uchun beriladi.

Vaqtincha mehnatga qobiliyatsizlik (homiladorlik va tug'ish ta'tili) kunlari xodimning ishdan noqonuniy bo'shatilgani to'g'risida nizo ko'rilayotgan davrga to'g'ri kelgan hollarda, u ishga tiklangan taqdirdagina (barcha mehnatga qobiliyatsiz kunlar uchun) nafaqa olish huquqiga ega bo'ladi.

«Davlat ijtimoiy sugʻurtasi boʻyicha tayinlash va toʻlash tartibi toʻgʻrisida»gi Nizomning 1-bandiga koʻra Budjetdan tashqari Pensiya jamgʻarmasi mablagʻlari hisobidan ijtimoiy sugʻurta boʻyicha quyidagicha beriladi:

- homiladorlik va tugʻish uchun;
- bola tugʻilgani uchun;
- qoʻshimcha dam olish kuni uchun;
- dafn etish marosimi uchun.

2007-yil 1-yanvardan boshlab vaqtinchalik mehnatga layoqatsizlarga nafaqa toʻlash bilan bogʻliq xarajatlar budjet tashkilotlari tomonidan mehnat haqi jamgʻarmasiga ajratiladigan budjet mablagʻlari doirasida;

– Xoʻjalik yurituvchi subyektlar tomonidan foyda soligʻini hisoblashda mazkur xarajatlar soliqqa tortiladigan bazadan chiqarib tashlangan holda shaxsiy mablagʻlari hisobidan amalga oshiriladi. (Oʻzbekiston Respublikasi Mehnat va aholini ijtimoiy muhofaza qilish vazirining 2007-yil 25-iyundagi «Davlat ijtimoiy sugʻurtasi nafaqalarini tayinlash va toʻlash tartibi toʻgʻrisida»gi Nizomga oʻzgartirish kiritish toʻgʻrisidagi M–31-sonli buyrugʻi.)

Endi ushbu nafaqalarni tayinlashning oʻziga xos xususiyatlarini batafsilroq koʻrib chiqamiz.

1. Vaqtincha mehnatga qobiliyatsizlik nafaqasi.

Vaqtincha mehnatga qobiliyatsizlik paytida beriladigan nafaqa turli sabablar bilan (kasalligi, yosh bolalar yoki boshqa bemor oila aʼzolarini parvarishlash va boshqalar) tufayli toʻlash va ish haqi olish imkoniyatidan mahrum boʻlib qolgan xodimlar va ularning oila aʼzolarini moddiy qoʻllab-quvvatlashning muhim shakli sanaladi.

«Vaqtincha mehnatga qobiliyatsizlik» tushunchasi qonun hujjatlarida keng maʼnoda talqin etiladi va kasallik yoki jarohat olish tufayli mehnat layoqati vaqtincha yoʻqolib qolishdan boshqa bir qator holatlarni ham oʻz ichiga qamrab oladi.

«Davlat ijtimoiy sugʻurtasi boʻyicha tayinlash va toʻlash tartibi toʻgʻrisida»gi Nizomning 9-bandiga koʻra quyidagi hollarda vaqtincha mehnatga qobiliyatsizlik yuz berishi nazarda tutilgan:

a) vaqtincha mehnat qobiliyatini yoʻqotish bilan bogʻliq kasallikda (shikastlanishda);

- b) sanatoriy-kurortlarda davolanganda;
- v) kasallangan oila a'zosini parvarishlash zarur bo'lganda;
- g) karantinda;
- d) sil yoki kasb kasalligi tufayli vaqtincha boshqa ishga o'tkazilganda;

e) mehnat qobiliyatini tiklash yoki yasama a'zo (protez) qo'ydirish uchun rehabilitatsiya muassasalariga yotqizilganda.

Demak, vaqtincha mehnatga qobiliyatsizlik tushunchasi ancha keng ma'noga ega.

Vaqtincha mehnatga qobiliyatsizlik nafaqasi faqat belgilangan tartibda, berilgan vaqtincha mehnatga layoqatsizlik varaqasi (kasallik varaqasi) asosidagina tayinlanishi mumkin.

«Ishlayotgan fuqarolarning va o'quvchilarning vaqtincha mehnatga layoqatsizligini O'zbekiston Respublikasi davolash-profilaktika muassasalarida ekspertizadan o'tkazish to'g'risida»gi Nizom O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligida 2000-yil 19-yanvarda ro'yxatga olingan bo'lib¹, unga asosan nogiron bo'lmasa-da, muayyan mehnat sharoitiga muhtoj shaxslar uchun tavsiya etiladigan ishlar; uzoq yoki doimiyga mehnat qobiliyatini yo'qotgan shaxslarni aniqlash va ularni tekshirish uchun TMEKlarga yuborish; davolash-diagnostika jarayonlarini to'g'ri tashkil etish, mehnatga layoqatsizlik sabablarini tahlil qilish va ularni bartaraf etish yuzasidan tavsiyalar berish kabi tadbirlar amalga oshiriladi. Mazkur Nizomga ko'ra vaqtincha mehnatga qobiliyatsizlikni ekspertizadan o'tkazishga vakolatli bo'lgan davolash-profilaktika organlari, ularning vakolatlari, huquqlari va majburiyatlari hamda javobgarliklari belgilab berilgan.

O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi tomonidan 2000-yil 19-yanvar kuni «Mehnatga qobiliyatsizlik varaqalari va ma'lumotnomalarini berish tartibi to'g'risida»gi Yo'riqnomada ro'yxatga olingan².

Ushbu Yo'riqnomada ko'rsatilishicha, mulkchilik shakli, xo'jalik mansubligi, xo'jalik faoliyatining turidan qat'i nazar, barcha korxonalar, muassasa, tashkilotlarda yollanib ishlovchi, yakka tadbirkorlik bilan shug'ullanuvchi, dehqon xo'jaliklarida mehnat qiluvchi barcha xodimlarning vaqtincha mehnatga qobiliyatsizligi O'zbekiston

¹Qarang: O'zbekiston Respublikasi vazirliklari, davlat qo'mitalari va idoralari uchun me'yoriy hujjatlari Axborotnomasi. 2000. 2-son.

²Qarang: o'sha manba.

Respublikasi Sogʻliqni saqlash vazirligi tomonidan tasdiqlangan shakllardagi mehnatga qobiliyatsizlik varaqasi, tegishli hollarda esa ma'lumotnoma bilan tasdiqlanadi.

Ishlamayotgan, ish haqi saqlanmagan holdagi ta'tilda bo'lgan shaxslar, harbiy xizmatchilar (erkin yollanganlardan tashqari), attestatsiya qilingan Ichki ishlar vazirligi xodimlariga vaqtincha mehnatga qobiliyatsizlik varaqasi berilmaslik ko'zda tutilgan.

Mehnatga qobiliyatsizlik nafaqasi bilan quyidagi holatlar tasdiqlanadi:

a) xodimning o'z ishidan ozod etilganligi;

b) vaqtincha mehnatga layoqatsizlik paytida nafaqa olishga bo'lgan huquqi;

v) kasallik yuz berganligi fakti hisobga olinganligi.

Mehnatga qobiliyatsizlik nafaqasi o'rniga ma'lumotnoma berilganida uning vositasida:

a) xodimning ishdan ozod etilganligi;

b) kasallik yuz berganligi fakti hisobga olinganligi tasdiqlanadi.

Mehnatga qobiliyatsizlik varaqasi yoki bu haqdagi ma'lumotnoma vakolat berilgan davlat-profilaktika muassasalari tomonidan, istisno tariqasida va maxsus tartibga ko'ra nodavlat tibbiyot muassasalari tomonidan berilishi mumkin bo'ladi.

«Mehnatga qobiliyatsizlik varaqasi va ma'lumotnomasini berish tartibi to'g'risida»gi Yo'riqnomaning 8-bandiga muvofiq mehnatga layoqatsizlik varaqasi quyidagi hollarda beriladi:

a) vaqtincha mehnatga qobiliyatsiz bo'lib qolgan holda kasal bo'lib qolish (jarohat olish);

b) homiladorlik va tug'ish ta'tili boshlanganda;

v) bemor oila a'zosini parvarishlashi zarur bo'lib qolganida;

g) sanatoriy-kurort (ambulatoriya-kurort)da davolanish paytida;

d) sil kasalligi yoki kasb kasalligi tufayli vaqtincha boshqa ishga o'tkazilganda;

e) karantin yuz berganida;

j) statsionar protez-ortopediya korxonasi protezlash amalga oshirilganida.

Ambulatoriya-poliklinika sharoitida davolanganida mehnatga qobiliyatsizlik nafaqasi davolovchi vrach tomonidan 5 kungacha muddatga berilishi mumkin. 5 kun o'tgach, har safar 10 kungacha muddatga

davolovchi vrach tomonidan bo‘lim boshlig‘i bilan birgalikda, bo‘lim boshlig‘i bo‘lmaganida esa vrachlar maslahat komissiyasi (VKK) raisi bilan birgalikda bemor sog‘ayguniga qadar yoki u tibbiy mehnat ekspert komissiyasiga yuborilguniga qadar uzaytirilishi mumkin.

Uzoq vaqt kasal bo‘lgan shaxslar mehnatga qobiliyatsizlik boshlangan kundan boshlab uzog‘i bilan 3 oy ichida (bir xil kasallik bilan 12 oy davomida, jami bo‘lib 4 oy mehnatga qobiliyatsiz bo‘lib qolganda) TMEKka jo‘natilishlari lozim.

Alkogolli ichimlik iste‘mol qilishi oqibatida kasal bo‘lgan yoki jarohat olgan shaxslarga mehnatga qobiliyatsizlik varaqasi o‘rniga ma‘lumotnoma beriladi.

Vaqtincha mehnatga qobiliyatsizlik varaqasini rasmiylashtirish, uni berish tartiblari, shartlari yuqorida aytib o‘tilgan Yo‘riqnomada belgilab qo‘yilgan.

O‘zbekiston Respublikasi Budjetdan tashqari Pensiya jamg‘armasi mehnat qobiliyatini yo‘qotganlik varaqasi rasmiylashtirilishining to‘g‘ri yuritilishi, uning yuzasidan moliya operatsiyalarining amalga oshirilishi, ushbu varaqalarning hisobga olinishi ular yuzasidan hisobotlar to‘g‘riligi ustidan nazorat olib boradi.

Vaqtincha mehnatga layoqatsizlik varaqasi yo‘qolgan hollarda, nafaqa, uning o‘rniga takroriy berilgan vaqtincha mehnatga layoqatsizlik varaqasi (dublikat) asosida beriladi.

Vaqtincha mehnatga qobiliyatsizlik bo‘yicha nafaqa mehnat qobiliyati yo‘qolgan birinchi kundan to u tiklangunga qadar yoki tibbiy-mehnat ekspertiza komissiyasi (TMEK) tomonidan nogironlik belgilangunga qadar, hatto bu davrda xodim bilan mehnat shartnomasi bekor qilingan hollarda ham beriladi.

Oliy, o‘rta maxsus, kasb-hunar ta‘lim muassasalarini, magistratura, aspirantura, klinik ordinatura, doktoranturani tamomlagan va belgilangan tartibda ishga yuborilgan shaxslarga nafaqa ular ishga chiqishi lozim bo‘lgan kundan boshlab beriladi.

Ish haqi, sutkalik va ko‘chish bo‘yicha xarajatlarni olish huquqiga ega bo‘lgan xodimga ish joyiga borayotgan davrda boshlangan mehnatga qobiliyatsizlik kunlari uchun nafaqa to‘lanadi.

Xodimning mehnatga qobiliyatsizlik kunlari yillik (asosiy va qo‘shimcha) ta‘til davriga to‘g‘ri kelgan hollarda, vaqtincha mehnatga

layoqatsizlik varaqasida ko'rsatilgan barcha kunlar uchun nafaqa to'lanadi.

Sanatoriy-kurortda davolanishda, agar asosiy va qo'shimcha ta'til xodimning sanatoriyda davolanishi uchun yetarli bo'lmasa, nafaqa beriladi. Bunday holda sanatoriy-kurortda davolanishning barcha davri uchun (yo'llanma, davolanish muddati) sanatoriyga borish-kelish vaqtini qo'shib, ammo xodimning yillik ta'tilini chiqarib tashlagan holda nafaqa beriladi.

Asosiy va qo'shimcha ta'tildan sanatoriyga borishdan oldin foydalangan bo'lsa ham nafaqa uni chiqarib tashlagan holda beriladi. Bunda ish beruvchi ta'tilning yetmaydigan vaqti uchun xodim bilan kelishib, unga ish haqi saqlanmagan ta'til beradi.

Ikkinchi jahon urushi nogironlariga, baynalmilal jangchilarga, Chernobil AES falokati oqibatlarini tugatishda qatnashgan shaxslarga, shuningdek, sanatoriyga davolanishni davom ettirish uchun davolash muassasalaridan o'tkir miokard infarkti bilan kasallangan, jarrohlik uslubi bilan yurakning aortakoronar shuntrovkasi va anevrizmlari, oshqozonning yarali kasalligi, o'n ikki barmoq ichak kasalligidan davolangan va o't pufagini olib tashlashdan keyin bevosita yuborilgan xodimlarga, shuningdek, sil kasalligi bilan og'riqlariga nafaqa sanatoriyda bo'lgan barcha vaqt uchun beriladi.

O'n olti yoshgacha bo'lgan nogiron bolani tarbiyalayotgan otalardan biriga (homiya yoki vasiya), nogiron bolaning sanatoriyda davolangan barcha davri uchun (sanatoriyga borib-kelish vaqtini hisobga olib) unga yakka tartibda parvarish zarurligi to'g'risidagi tibbiy xulosa mavjud bo'lganda nafaqa beriladi.

Uch yoshgacha bo'lgan bolani yoki 16 yoshgacha bo'lgan nogiron bolani parvarishlashda band bo'lgan ona kasal bo'lib, bolani parvarishlashga qurbi yetmay qolgan hollarda, parvarish bilan band bo'lgan ishlayotgan boshqa oila a'zolari yoki qarindoshlariga (mehnatga layoqatsizlik varaqasiga asosan) nafaqa beriladi.

Uch yoshgacha bo'lgan bolani yoki 16 yoshgacha bo'lgan nogiron bolani parvarishlashda band bo'lgan ona kasal bo'lib, bolani parvarishlashga qurbi yetmay qolgan hollarda, parvarish bilan band bo'lgan ishlayotgan boshqa oila a'zolari yoki qarindoshlariga (mehnatga layoqatsizlik varaqasiga asosan) nafaqa beriladi.

Oilaning kasal bo'lgan a'zosiga qarash bo'yicha vaqtincha mehnatga layoqatsizlik varaqasi bemor bironing parvarishiga muhtoj bo'lgan, lekin 7 kalendar kunidan oshmagan davr uchun beriladi.

O'n to'rt yoshga yetmagan bemor bolaga qarash uchun vaqtincha mehnatga layoqatsizlik varaqasi bolaga parvarish kerak bo'lgan, ammo 14 kalendar kunidan oshmagan davr uchun beriladi.

Agarda xodim karantin vaqtida sanitariya-epidemiologiya xizmati organlari tomonidan atrofidagi shaxslar orqali yuqumli kasallikka chalinish xavfining oldini olish maqsadida ishdan chetlatilgan bo'lsa, vaqtincha mehnatga layoqatsizlik varaqasi beriladi.

Mavsumiy va vaqtinchalik ishlarda band bo'lgan xodimlarga mehnatda mayiblanish yoki kasb kasalligi oqibatida vaqtincha mehnatga qobiliyatsizlik, homiladorlik va tug'ish bo'yicha nafaqa umumiy asoslarda, boshqa sabablar oqibatidagi vaqtincha mehnatga qobiliyatsizlik bo'yicha nafaqa mavsumiy yoki vaqtinchalik ish to'g'risida tuzilgan mehnat shartnomasida ko'rsatilgan ish kunlari doirasida to'lanadi.

Ishlayotgan nogironlarga vaqtincha mehnatga qobiliyatsizlik bo'yicha nafaqa mehnatda mayiblanish hodisalari yoki kasb kasalligidan tashqari, ketma-ket ikki oydan va kalendar yilda uch oydan oshmagan muddatga beriladi.

Ishlayotgan Ikkinchi jahon urushining nogironlariga va imtiyozlari jihatdan ularga tenglashtirilgan boshqa nogironlarga, Chernobil AES-dagi falokat yoki uning oqibatlarini bartaraf etish bo'yicha ishlarni bajarish bilan bog'liq sabablarga ko'ra nogiron bo'lgan shaxslarga vaqtincha mehnatga qobiliyatsizlik nafaqasi (mehnatda mayiblanish hodisalari yoki kasb kasalligidan tashqari) ketma-ket to'rt oygacha yoki kalendar yilda besh oygacha beriladi.

Agar ishlovchi nogironning vaqtinchalik mehnatga qobiliyatsizligi mehnatda mayiblanish yoki kasb kasalligi tufayli yuz bersa, nafaqa u to'la sog'aygunga yoki mehnatda mayiblanish yoxud kasb kasalligi bilan bog'liq nogironlik guruhi qayta ko'rib chiqilgunga qadar to'lanadi.

Sil kasalligi oqibatida vaqtincha mehnatga qobiliyatsizlik bo'yicha nafaqa shaxs to'la sog'aygunga qadar, lekin ko'pi bilan 10 oyga beriladi.

Xodim sil kasalligi bilan qayta kasallanganda yoki sil kasalligi oqibatida nogiron deb topilganda nafaqa ko'pi bilan 6 oyga beriladi.

Vaqtincha mehnatga qobiliyatsizlik quyidagi davrlarga to'g'ri kelganda nafaqa to'lanmaydi:

- ish haqi saqlanmagan ta'til;
- bolani parvarishlash bo'yicha ta'til;
- ish vaqtincha to'xtatilgan;
- xodim ishdan (lavozimdan) chetlashtirilib, ish haqi to'lash to'xtatib qo'yilganligi sababli ishlamagan;
- harbiy o'quv yoki tekshiruv yig'ini;
- ishlab chiqarishdan ajralmagan holda o'quv yurtlarida tahsil olish munosabati bilan berilgan qo'shimcha ta'til.

Bu davrlarda boshlanib, davom etayotgan mehnatga qobiliyatsizlik nafaqasi xodim ishga chiqishi (lavozimga tiklanishi) lozim bo'lgan kundan boshlab beriladi.

Vaqtincha mehnatga qobiliyatsizlik nafaqasi quyidagi hollarda berilmaydi:

- ishdan yoki boshqa vazifalardan bo'yin tovlash maqsadida o'z salomatligiga ataylab ziyon yetkazgan yoxud o'zini kasallikka solganda;
- giyohvandlik yoki mastlik bilan bog'liq harakatlar oqibatida, shuningdek, spirtli va giyohvandlik moddalarini iste'mol qilish natijasida kasallikka chalinganda (jarohatlanganda);
- jinoyat sodir qilish vaqtida jarohatlanganda;
- sud qarori asosida majburiy davolanishga yuborilganda (ruhiy kasallardan tashqari);
- hibsda bo'lgan davrda;
- sud-tibbiyot ekspertizasidan o'tish davrida.

Vaqtincha mehnatga qobiliyatsizlik boshlanishidan oldin uzrsiz sabablarga ko'ra ishga kelmagan, ular uchun shifokor belgilagan tartibni buzgan, yoki uzrsiz sabablarga ko'ra belgilangan muddatda shifokor ko'rigiga yoki tibbiy-mehnat ekspertiza komissiyasiga (TMEK) kelmagan xodimlar qoidani buzish ro'y bergan kundan boshlab korxonaning ijtimoiy sug'urta bo'yicha komissiyasi belgilaydigan muddatga nafaqadan mahrum qilinadilar.

Yuridik shaxs bo'lmasdan tadbirkorlik faoliyati bilan shug'ullanuvchi shaxslar hamda dehqon xo'jaligi a'zolari, Budjetdan tashqari Pensiya jamg'armasiga sug'urta badallarini to'lamagan, shifokor belgilagan tartibni buzgan yoki uzrsiz sabablarga ko'ra belgilangan muddatda shifokor

ko'rigiga yoki TMEKka kelmagan hollarda, buzilish sodir bo'lgan kundan boshlab Budjetdan tashqari Pensiya jamg'armasi tuman(shahar) bo'limi tomonidan belgilangan muddatga nafaqadan mahrum qilinadilar.

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2002-yil 28-fevraldagi 71-sonli «Vaqtinchalik mehnatga layoqatsizlik bo'yicha nafaqalar to'lash chegarasini takomillashtirish to'g'risida»gi qaroriga ko'ra, 2002-yil 1-martdan boshlab vaqtinchalik mehnatga layoqatsizlik bo'yicha nafaqalar:

– Ikkinchi jahon urushi qatnashchilaridan bo'lgan xodimlarga, baynalmilalchi jangchilarga va ularga tenglashtirilgan shaxslarga, qaramog'ida 16 yoshga (o'quvchilar uchun – 18 yosh) to'lmagan uch nafar va undan ko'p farzandi bo'lgan xodimlarga, Chernobil AESdagi avariya oqibatlarini tugatishda qatnashgan xodimlarga, Chernobil AESdagi avariya natijasida radioaktiv ifloslanish zonasidan evakuatsiya qilingan va ko'chirilgan, qon hosil qiluvchi organlar kasalliklari (o'tkir leykoz), qalqonsimon bez (adenoma, rak) va xavfli o'smalar bilan bog'liq kasalliklarga chalingan xodimlarga, yadro poligonlarida va boshqa radiatsiya-yadro obyektlarida harbiy xizmatni o'tagan pensiya yoshidagi nogiron xodimlarga, shuningdek, xodim ishda shikastlanish va kasb kasalliklari oqibatida vaqtinchalik mehnat qobiliyatini yo'qotganda oylik ish haqining to'liq miqdorida;

– ijtimoiy ahamiyatga ega kasalliklar bo'yicha hisobda turuvchi xodimlarga, ular tomonidan davlat ijtimoiy sug'urtasiga badallar to'lab kelinishi muddatiga (umumiy ish stajiga) qarab oylik ish haqining 60 foizidan 100 foizigacha miqdorda;

– qolgan hollarda, ular tomonidan davlat ijtimoiy sug'urtasiga badallar to'lab kelinishi muddatiga (umumiy ish stajiga) qarab oylik ish haqining 60 foizidan 80 foizigacha miqdorda to'lanadi.

Vaqtincha mehnatga qobiliyatsizlik bo'yicha nafaqa barcha hollarda belgilangan eng kam ish haqidan kam bo'lmasligi va nafaqa hisoblab chiqarilgan ish haqidan yuqori bo'lmasligi lozim.

Nafaqa miqdori vaqtincha mehnatga qobiliyatsizlik boshlangan kungacha, mehnat daftarchasi yoki uning o'rniga berilgan boshqa hujjat, shuningdek, ijtimoiy ta'minot bo'limlari tomonidan berilgan ma'lumotnoma asosida hisoblangan umumiy ish stajiga muvofiq aniqlanadi.

2. Homiladorlik va tug'ish bo'yicha nafaqa.

Ishlayotgan ayollarga 70 kalendar kundan iborat homiladorlik ta'tili va bola tug'ilgach 56 kalendar kun (egizak bola tug'ilsa yoki tug'ish og'ir kechgan hollarda 70 kalendar kun) miqdorida homiladorlik va tug'ish ta'tili beriladi. Ushbu ta'til davrida ayolning ish joyi (lavozimi) saqlab qolinadi hamda ularga ushbu davr uchun davlat ijtimoiy sug'urtasi mablag'lari hisobidan nafaqa beriladi.

«Davlat ijtimoiy sug'urta bo'yicha tayinlash va to'lash tartibi to'g'risida»gi Nizomga muvofiq homiladorlik va tug'ish bo'yicha nafaqani tayinlash va to'lash uchun belgilangan tartibda berilgan mehnatga layoqatsizlik varaqasi asos bo'ladi.

Homiladorlik va tug'ish bo'yicha berilgan vaqtincha mehnatga layoqatsizlik varaqasi yo'qolgan hollarda nafaqa uning o'rniga takroriy berilgan vaqtincha mehnatga layoqatsizlik varaqasi (dublikat) asosida beriladi.

Homiladorlik va tug'ish bo'yicha nafaqa (shu jumladan, homila tushgan hollarda) vaqtincha mehnatga layoqatsizlik varaqasida ko'rsatilgan barcha davr uchun to'lanadi.

Xodim ishdan bo'shatilishining noto'g'riligi haqida nizo ketayotgan davrda homiladorlik va tug'ish bo'yicha ta'til berilganda, nafaqa u ishga qayta tiklangan taqdirda beriladi. Bunda homiladorlik va tug'ish bo'yicha nafaqani ayolni ishga qayta tiklash to'g'risida qaror chiqqandan so'ng, nafaqa to'lanmagan barcha mehnatga qobiliyatsiz kunlar uchun to'lanadi.

Oliy, o'rta maxsus, kasb-hunar ta'lim muassasalarini, magistratura, aspirantura, klinik ordinatura, doktoranturani tamomlagan va belgilangan tartibda ishga yuborilgan ayollarga ishni boshlagunga qadar homiladorlik va tug'ish bo'yicha berilgan mehnatga layoqatsizlik varaqasi asosida nafaqa ayol ishga kelishi lozim bo'lgan kundan boshlab beriladi.

Ishni vaqtinchalik to'xtatish yoki ishlab chiqarishdan ajralmagan holda o'quv yurtlarida tahsil olish munosabati bilan berilgan qo'shimcha ta'til davrida homiladorlik va tug'ish bo'yicha ta'til berilgan holda, nafaqa ko'rsatilgan davr tugagandan keyin ayol chiqishi lozim bo'lgan kundan boshlab beriladi.

Xodim yillik (asosiy va qo'shimcha) ta'tilda va bolani parvarishlash uchun ta'tilda bo'lgan vaqtda homiladorlik va tug'ish bo'yicha ta'til

berilganda, nafaqa homiladorlik va tug‘ish bo‘yicha ta‘tilning vaqtincha mehnatga layoqatsizlik varaqasida ko‘rsatilgan barcha kunlari uchun beriladi. Bolani parvarishlash bo‘yicha ta‘til davri uchun nafaqa tarif stavkasidan (lavoziim maoshidan) va ta‘til boshlanishidan oldingi 12 oy mobaynida olingan mukofotlarning o‘rtacha oylik summasidan hisoblab chiqariladi. Bunda vaqtincha mehnatga layoqatsizlik varaqasi ochilgan kuniga bo‘lgan tarif stavkasi joylarda belgilangan tuman koeffitsienti va ustamalarni hisobga olgan holda olinadi.

Ish haqi to‘lash to‘xtatilib, ishdan (lavoziimdan) chetlashtirish oqibatida ayol ishlamagan davrda homiladorlik va tug‘ish bo‘yicha ta‘til uchun mehnatga layoqatsizlik varaqasi berilgan holda nafaqa to‘lanmaydi. Agar homiladorlik va tug‘ish bo‘yicha ta‘til ishga qo‘yilgandan keyin ham davom etadigan bo‘lsa, nafaqa u ishga chiqishi lozim bo‘lgan kundan boshlab beriladi.

Homiladorlik va tug‘ish bo‘yicha nafaqa ish haqining 100 foizi miqdorida beriladi.

3. Bola tug‘ilganda beriladigan nafaqa (suyunchi puli). Bola tug‘ilganda beriladigan bir martalik nafaqa O‘zbekiston Respublikasi hududida belgilangan eng kam oylik ish haqining ikki baravari miqdorida beriladi.

Ish haqiga koeffitsient qo‘llaniladigan tumanlarda nafaqa ushbu koeffitsientlarni hisobga olgan holda belgilanadi.

Ishlayotgan ayollarga hamda ishlab chiqarishdan ajralgan holda oliy, o‘rta maxsus, kasb-hunar ta‘lim muassasalarida, magistratura, aspirantura, klinik ordinatura, doktoranturada tahsil olayotgan ayollarga bola tug‘ilganda beriladigan bir martalik nafaqa tegishlicha ish yoki o‘qish joyidan to‘lanadi.

Bolaning onasi ishlamaydigan va o‘qimaydigan hollarda nafaqa bolaning ishlaydigan yoki ishlab chiqarishdan ajralgan holda o‘qiydigan otasi yoki ota-ona o‘rnini bosuvchi shaxslarga to‘lanadi.

Ishlamaydigan va o‘qimaydigan ota-onalarga bola tug‘ilganda nafaqa ijtimoiy ta‘minot bo‘limlari tomonidan tayinlanadi va to‘lanadi.

Farzandlikka olingan bolalarga bola tug‘ilganda beriladigan bir martalik nafaqa umumiy asoslarda beriladi.

Agar ayol homiladorlik bo‘yicha ta‘til davrida ishdan bo‘shab, shu davr mobaynida homiladorlik va tug‘ish bo‘yicha nafaqa olgan bo‘lsa,

bir martalik nafaqa umumiy asoslarda beriladi. Bola o'lik tug'ilgan hollarda nafaqa to'lanmaydi.

4. Qo'shimcha dam olish kuni uchun nafaqa

O'zbekiston Respublikasi Mehnat kodeksining 230-moddasiga ko'ra, «Nogiron bolasini tarbiyalayotgan ota-onaning biriga (vasiyga, homiyga) bola o'n olti yoshga to'lgunga qadar davlat ijtimoiy sug'urtasi mablag'lari hisobidan bir kunlik ish haqi miqdorida haq to'lanadi hamda oyiga qo'shimcha bir dam olish kuni beriladi».

«Davlat ijtimoiy sug'urtasi bo'yicha nafaqalarni tayinlash va to'lash tartibi to'g'risida»gi Nizomning 84-bandiga ko'ra esa «Nogiron bolasini tarbiyalayotgan ishlovchi ota-onaning biriga (vasiyga, homiyga) bola o'n olti yoshga to'lgunga qadar davlat ijtimoiy sug'urtasi mablag'lari hisobidan bir kunlik ish haqi miqdorida haq to'lagan holda oyiga qo'shimcha bir dam olish kuni beriladi.

Nogiron bolalarni tug'ruq bo'limlari (chaqaloqlar, bolalar uylari)dan farzandlikka olgan shaxslarga ham ushbu nafaqa tayinlanaveradi.

5. Dafn etish marosimi uchun beriladigan nafaqa.

O'zbekiston Respublikasi Mehnat kodeksining 288-moddasiga muvofiq: «Sug'urta qilingan xodim yoki uning oila a'zosi vafot etganda qonun hujjatlarida belgilangan miqdorda va tartibda dafn etish marosimi uchun nafaqa to'lanadi».

«Davlat ijtimoiy sug'urtasi bo'yicha nafaqalarni tayinlash va to'lash tartibi to'g'risida»gi Nizomga, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2001-yil 14-iyundan «Dafn etishga nafaqa tayinlash va to'lash tartibi to'g'risida»gi Nizomga ko'ra, dafn etish marosimi uchun nafaqa xodim yoki uning qaramog'ida bo'lgan quyidagi oila a'zolari vafot etganda beriladi:

a) turmush o'rtog'i;

b) 18 yoshga to'lmagan yoki vaqtincha mehnatga qobiliyatsiz (yoshidan qat'i nazar) bolalari, aka-ukalari va opa-singillari;

v) ota-onasi;

g) bobosi yoki buvisi.

Xodim vafot etganda dafn etish marosimi uchun nafaqa uning oila a'zolariga yoki dafn o'tkazishni o'z zimmasiga olgan shaxslarga beriladi.

Oilaning vafot etgan a'zosini dafn etish marosimi uchun nafaqa ishlovchi xodimga beriladi.

Ayolning homilasi tushgan hollarda dafn etish marosimi uchun nafaqa berilmaydi.

Dafn etish marosimi uchun nafaqa eng kam oylik ish haqining uch baravari miqdorida beriladi.

Ishlamaydigan pensioner vafot etgan taqdirda dafn etish marosimi uchun nafaqa uning oilasiga yoki pensionerning dafn marosimini o'tkazgan shaxsga ikki oylik pensiya miqdorida, lekin eng kam oylik ish haqining ikki hissasidan kam bo'lmagan miqdorda, ijtimoiy ta'minot bo'limi tomonidan to'lanadi.

Ish haqiga rayon koeffitsienti belgilangan joylarda dafn etish marosimi uchun nafaqa miqdori ishlab chiqarish bilan bog'liq bo'lmagan tarmoqlar uchun beriladigan tuman koeffitsientini hisobga olgan holda aniqlanadi.

Muddatli harbiy xizmatga chaqirilgan xodim yoki uning oila a'zosi vafot etgan taqdirda dafn etish marosimi uchun nafaqa, agar unga so'nggi ish haqi to'langan kundan bir oydan ko'p vaqt o'tmagan bo'lsa beriladi.

Oliy, o'rta maxsus, kasb-hunar ta'lim muassasalarida, magistraturada, aspiranturada, klinik ordinaturada, doktoranturada tahsil olayotgan shaxslar, shuningdek, ularning oila a'zolari vafot etgan taqdirda, dafn etish marosimi uchun nafaqa umumiy asoslarda to'lanadi.

Maktablar, kurslarning (kadrlar malakasini oshirish, qayta tayyorlash va tayyorlash bo'yicha), shuningdek, malaka oshirish institutlari o'quvchilari va tinglovchilari yoki ularning oila a'zolari vafot etganda, agar ular kurslarga, maktablarga, institutlarga korxon tomonidan yuborilgan bo'lsalar va ularning o'qish davridagi ish haqi to'la yoki qisman saqlanib qolgan bo'lsa, dafn etish marosimi uchun nafaqa umumiy asoslarda beriladi.

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2002-yil 1-maydagi qarori bilan «Keksalar va mehnatga yaroqsiz fuqarolar, nogiron bolalar va bolalikdan nogironlarning dafn marosimi uchun bir yo'la beriladigan tayinlash va to'lash tartibi to'g'risida»gi Nizom tasdiqlandi¹.

¹Qarang: O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to'plami. 2002. 9-son, 65-modda.

O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2011-yil 7-apreldagi qarori bilan tasdiqlangan «Bolalikdan nogironlarga nafaqalar tayinlash va to‘lash tartibi to‘g‘risida»gi Nizomga ko‘ra hayot chog‘ida nafaqa olgan yolg‘iz keksalar, mehnatga layoqatsiz fuqarolar, nogiron bolalar va bolalikdan nogiron shaxslar vafot etganlarida, ularning oila a‘zolariga yoki ularni dafn etishni amalga oshirgan shaxslarga belgilangan eng kam oylik ish haqining ikki barobari miqdorida dafn qilish nafaqasi beriladi. Nafaqa Budjetdan tashqari Pensiya jamg‘armasi hisobidan beriladi.

Bir yo‘la beriladigan nafaqani olish uchun marhumning oila a‘zolari yoki boshqa shaxslar marhum vafotidan boshlab 6 oy ichida vafot etgan shaxs nafaqa oluvchi sifatida hisobda turgan tuman (shahar) ijtimoiy ta‘minot bo‘limiga murojaat qilishlari lozim.

Bunday nafaqani olish uchun:

a) vafot etganlik haqidagi ma‘lumotnoma (asl nusxasi);

b) dafn etish arizachi tomonidan amalga oshirilgani haqida fuqarolar yig‘ini ma‘lumotnomasi taqdim etiladi.

Bir yo‘la beriladigan dafn qilish nafaqasi berish haqidagi arizani ijtimoiy ta‘minot organlari tomonidan ko‘rib chiqish tartiblari, muddatlari, arizani rad etish asoslari, ijtimoiy ta‘minot bo‘limining arizani rad etish to‘g‘risidagi qarori ustidan shikoyat berish tartibi qonun hujjatlarida belgilangan. Dafn qilish nafaqasidan soliq olinmaydi.

«Davlat ijtimoiy sug‘urtasi bo‘yicha nafaqalarni tayinlash va to‘lash tartibi to‘g‘risida»gi Nizomda belgilab qo‘yilganidek: nafaqa xodimning asosiy ish joyidan korxonaning Ijtimoiy sug‘urta bo‘yicha komissiyasi yoki shu ish uchun vakil qilingan komissiya a‘zosi tomonidan tayinlanadi. Komissiya tarkibi, a‘zolari soni va raisi korxonaga rahbarining buyrug‘i yoki boshqaruvining qarori bilan tasdiqlanadi.

Komissiya mehnatda mayiblanganlarga, kasb kasalligiga chalinganlarga nafaqa tayinlash, nafaqa to‘lashni rad etish, nafaqadan (to‘liq yoki qisman) mahrum etish va nafaqa olish huquqi yuzasidan kelib chiqqan nizolarni, vaqtincha mehnatga layoqatsizlik varaqasi va boshqa hujjatlarning asosli ravishda va to‘g‘ri berilganligini ko‘rib chiqish huquqiga ega. Qolgan barcha hollarda nafaqani komissiyaning shu ishga vakil qilingan a‘zosi tayinlaydi.

Komissiyalar bo‘lmagan korxonalarda, ish beruvchi tomonidan shu ishga buyruq bilan vakil qilingan shaxs tomonidan tayinlanadi.

Yuridik shaxs bo‘lmasdan tadbirkorlik faoliyati bilan shug‘ullanuvchi shaxslar, dehqon xo‘jaligi a‘zolariga, shuningdek, ayrim fuqarolarnikida shartnoma asosida ishlayotganlarga nafaqa ijtimoiy ta‘minot bo‘limlari tomonidan tayinlanib, Budjetdan tashqari Pensiya jamg‘armasi mablag‘lari hisobidan to‘lanadi.

O‘quvchi, talaba va aspirantlarga nafaqa mazkur Nizomning 80–91-bandlariga binoan o‘qish joylarida tayinlanadi va to‘lanadi.

Qurolli kuchlar safidan ozod etilgandan keyin vaqtincha mehnatga qobiliyatsiz bo‘lib qolgan sobiq harbiy xizmatchilarga nafaqa mazkur Nizomning 5-bandiga binoan tuman (shahar) ijtimoiy ta‘minot bo‘limlari tomonidan tayinlanadi.

Xodimlar vaqtincha mehnatga qobiliyatsizlik muddati tugaganidan so‘ng chiqishining birinchi kunidayoq korxonaga vaqtincha mehnatga layoqatsizlik varaqasini taqdim etadilar. Mehnatga qobiliyatsizlik davom etayotgan hollarda, navbatdagi ish haqi berilishi vaqti kelganda topshirilishi mumkin.

Korxonada vaqtincha mehnatga layoqatsizlik varaqasining «Tabelchi tomonidan va kadrlar bo‘limi tomonidan to‘ldiriladi» degan bo‘limlariga zarur ma‘lumotlar yoziladi va vaqtincha mehnatga layoqatsizlik varaqasi (bemor haqidagi ma‘lumotlar yozib, imzo qo‘yiladi) ijtimoiy sug‘urta komissiyasiga topshiriladi.

Mehnatda mayiblanish tufayli vaqtincha mehnatga qobiliyatsizlik boshlanganda nafaqa ishlab chiqarishda baxtsiz hodisa sodir bo‘lganlik haqidagi (N-1-shaklda) dalolatnoma asosida tayinlanadi.

Agar baxtsiz hodisa boshqa sharoitlarda ro‘y bersa (uyda ishga borish yoki ishdan qaytishda, davlat yoki jamoatchilik burchini bajarayotgan paytda), nafaqa ro‘y bergan baxtsizlik sabablari ish beruvchi tomonidan o‘rganib chiqilgandan keyingina tayinlanadi.

Nafaqa olish huquqi ijtimoiy sug‘urta bo‘yicha komissiya yoki vakil qilingan komissiya a‘zosi har bir vaqtincha mehnatga layoqatsizlik varaqasi bo‘yicha to‘lov amalga oshirilishi lozim bo‘lgan kunlar sonini va ish haqiga nisbatan belgilanadigan nafaqa foizi miqdorini belgilaydi. Nafaqa foizi miqdori nafaqa belgilash bayonnomasida va komissiya rai-

si yoki vakil qilingan komissiya a'zosining imzosi qo'yilgan vaqtincha mehnatga layoqatsizlik varaqasida qayd qilinadi.

Mehnatda mayiblanish tufayli vaqtincha mehnatga qobiliyatsizlik bo'yicha nafaqa komissiya tomonidan (jarohatlangan xodimning ahvoli komissiya majlisiga kelishga imkon bergan taqdirda uning ishtirokida) tayinlanadi. Nafaqadan mahrum etish, nafaqadan to'liq yoki qisman rad etish masalasi nafaqa oluvchining ishtirokida ko'rib chiqiladi.

Xodim vaqtincha mehnatga layoqatsizlik varaqasi bo'yicha nafaqa olish huquqiga ega bo'lmagan taqdirda, komissiya nafaqa bermaslik to'g'risida qaror chiqaradi va rad etish sabablarini vaqtincha mehnatga layoqatsizlik varaqasiga qayd etadi.

Nafaqa tayinlangandan so'ng komissiya yoki vakil qilingan komissiya a'zosi korxonaning hisob-kitob bo'limiga nafaqa chiqarish va to'lash uchun belgilangan tartibda rasmiylashtirilgan vaqtincha mehnatga layoqatsizlik varaqasini topshiradi.

To'lanadigan va to'lanmaydigan vaqtincha mehnatga layoqatsizlik varaqalari, shuningdek, nafaqa olish uchun taqdim etilgan barcha boshqa hujjatlar korxonada buxgalteriyasida pullik hujjatlarga teng holda, barcha xarajat hujjatlaridan alohida holda saqlanadi.

Homiladorlik va tug'ish nafaqasi tug'ishdan oldin amalda foydalanilgan kunlarning sonidan qat'i nazar, ta'tilning to'liq davri uchun bir yo'la to'lanadi.

Bola tug'ilganda bir yo'la to'lanadigan nafaqani olish uchun ota yoki ona komissiyaga Fuqarolik holati dalolatnomalarini yozish (FHDYO) bo'limi tomonidan berilgan bolaning tug'ilganlik haqidagi ma'lumotnomasini topshirishi lozim. Berilgan hujjatlar asosida vakillik qiluvchi komissiya a'zosi nafaqa olish huquqini belgilaydi va belgilangan miqdorda uni tayinlash to'g'risida qaror chiqaradi va tayinlash bayonnomasiga yozadi. Shundan so'ng hujjatlar korxonaning hisob-kitob qilish bo'limiga topshiriladi.

Bola tug'ilganligi haqidagi ma'lumotnoma yo'qotilgan taqdirda, bir yo'la to'lanadigan nafaqa FHDYO bo'limlari tomonidan berilgan bola tug'ilganligi haqidagi takroriy ma'lumotnomaning hamda otaning ish joyidan (o'qish joyidan) nafaqa olmaganligi haqidagi ma'lumotnoma topshirilganidan so'ng beriladi.

Xodimning vafoti tufayli uni dafn etish marosimini o'tkazish nafaqasini olish uchun ijtimoiy sug'urta komissiyasiga FHDYO bo'limi tomonidan berilgan vafot etganlik to'g'risidagi ma'lumotnoma topshiriladi. Oila a'zosi vafot etganda esa vafot etganligi haqidagi ma'lumotnomadan tashqari uy-joydan foydalanish idorasi (binodan foydalanish direksiyasi, mahalliy o'zini o'zi boshqarish organlari) tomonidan vafot etgan shaxsning xodim bilan qarindoshlik aloqalari borligi va u xodimning qaramog'ida bo'lganligi to'g'risida ma'lumotnoma ham topshirilishi lozim.

Topshirilgan hujjatlar asosida vakil qilingan komissiya a'zosi nafaqa olish huquqini, uning miqdorini belgilaydi va nafaqa tayinlash haqida qaror chiqaradi va nafaqa tayinlash bayonnomasiga yozib qo'yadi.

Yuridik shaxs bo'lmasdan tadbirkorlik faoliyati bilan shug'ullanuvchi shaxs, dehqon xo'jaligi a'zosi, shuningdek, ayrim fuqarolarnikida shartnoma asosida ishlayotganlar nafaqa olish uchun vaqtincha mehnatga layoqatsizlik varaqalarini, bola tug'ilganlik haqidagi ma'lumotnomani va vafot etganlik to'g'risidagi ma'lumotnomani ijtimoiy ta'minot bo'limiga topshiradilar. Topshirilgan hujjatlar asosida Budjetdan tashqari Pensiya jamg'armasi daromadlari va xarajatlari sho'balari tomonidan nafaqa tayinlash (tayinlamaslik) va uning miqdorlari masalasi ko'rib chiqilib, ijtimoiy ta'minot bo'limi boshlig'ining qarori chiqariladi va belgilangan tartibda rasmiylashtiriladi. Fuqarolarning foizsiz shaxsiy hisobi raqamiga nafaqa summasini o'tkazish yo'li bilan bank orqali to'lanadi.

Xodimning vafoti kunigacha olinmay qolgan vaqtincha mehnatga qobiliyatsizlik hamda homiladorlik va tug'ish nafaqasi u bilan birga yashagan oila a'zolariga, shuningdek, uning qaramog'ida bo'lganlarga beriladi.

Xodimning vafot etgan kuniga qadar olinmagan nafaqa vafot etgan xodim bilan qarindosh va birga istiqomat qilganlik yoki vafot etganning qaramog'ida bo'lganlikni tasdiqlovchi dalil bo'lgan hujjat topshirilgandagina berilishi mumkin.

Bola tug'ilganda bir yo'la to'lanadigan nafaqani olish huquqiga ega bo'lgan ona vafot etganda mazkur nafaqa otaga yoki bolani o'z tarbiyasiga olgan boshqa shaxsga beriladi.

Budjetdan tashqari Pensiya jamg'armasi mablag'idan beriladigan nafaqa belgilangan tartibda rasmiylashtirilgan ishonchnoma bo'yicha

to‘lanishi, fuqarolarning arizasiga binoan bank muassasalaridagi hisob raqamiga o‘tkazilishi hamda aloqa bo‘limi orqali jo‘natilishi mumkin.

Nafaqani jo‘natish bilan bog‘liq bo‘lgan chiqimlar nafaqa summasidan ushlab qolinadi.

Nafaqalar xodimning asosiy ish joyidan korxonaning Ijtimoiy sug‘urta bo‘yicha komissiyasi yoki shu ish uchun vakil qilingan komissiya a‘zosi tomonidan tayinlanadi. Komissiya tarkibi, a‘zolari soni va raisi korxonah rahbarining buyrug‘i yoki boshqaruvining qarori bilan tasdiqlanadi.

Komissiya mehnatda mayiblanganlarga, kasb kasalligiga chalinganlarga nafaqa tayinlash, nafaqa to‘lashni rad etish, nafaqadan (to‘liq yoki qisman) mahrum etish va nafaqa olish huquqi yuzasidan kelib chiqqan nizolarni, vaqtincha mehnatga layoqatsizlik varaqasi va boshqa hujjatlarning asosli ravishda va to‘g‘ri berilganligini ko‘rib chiqish huquqiga ega. Qolgan barcha hollarda nafaqalarni komissiyaning shu ishga vakil qilingan a‘zosi tayinlaydi.

Yuridik shaxs bo‘lmasdan tadbirkorlik faoliyati bilan shug‘ullanuvchi shaxslar, dehqon xo‘jaligi a‘zolari, shuningdek, ayrim fuqarolarnikida shartnoma asosida ishlayotganlarga nafaqalar ijtimoiy ta‘minot bo‘limlari tomonidan tayinlanib, Budjetdan tashqari Pensiya jamg‘armasi mablag‘lari hisobidan to‘lanadi.

Mehnatda mayiblanish tufayli vaqtincha mehnatga qobiliyatsizlik boshlanganda nafaqa ishlab chiqarishda baxtsiz hodisa sodir bo‘lganlik haqidagi (N-1-shaklda) dalolatnoma asosida tayinlanadi.

Xodim vaqtincha mehnatga layoqatsizlik varaqasi bo‘yicha nafaqa olish huquqiga ega bo‘lmagan taqdirda, komissiya nafaqa bermaslik to‘g‘risida qaror chiqaradi va rad etish sabablarini vaqtincha mehnatga layoqatsizlik varaqasiga qayd etadi.

Korxonah tugatilganda, Nizomga muvofiq nafaqa olish huquqiga ega bo‘lgan fuqarolarga, vaqtincha mehnatga qobiliyatsizlik hamda homiladorlik va tug‘ish nafaqasi tugatilgan korxonahning huquqiy vorisi yoki tugatish komissiyasi tomonidan beriladi.

Tugatish komissiyasi ishni yakunlagan (yakuniy balans topshirilgan) hollarda, nafaqa ijtimoiy ta‘minot bo‘limlari tomonidan tayinlanadi va to‘lanadi. Bunda vaqtincha mehnatga qobiliyatsizlik hamda homiladorlik va tug‘ish nafaqasini tayinlash uchun qo‘shimcha hujjatlar, ya‘ni tugatish

komissiyasi tomonidan to‘langan nafaqa (komissiya tomonidan yakuniy balans topshirilib, barcha hisob raqamlar yopilganligi) to‘g‘risidagi ma‘lumotnoma taqdim etiladi.

Ortiqcha to‘lab yuborilgan nafaqa summasi, agar ortiqcha to‘lash sanashda (arifmetik) adashish yoki nafaqa oluvchining qalbaki ma‘lumotnoma taqdim qilishi (hujjatlarga o‘zgartirish kiritish va hokazolar) tufayli sodir bo‘lgan bo‘lsa, nafaqa oluvchidan undirib olinadi.

Korxonaning bosh buxgalteri komissiya bilan bir qatorda nafaqa to‘lash bo‘yicha mablag‘larning to‘g‘ri sarflanishi uchun javobgardir.

Nafaqalarni noto‘g‘ri hisoblash va belgilash hamda to‘lash ustidan shikoyat tuman, shahar sudiga berilishi mumkin.

5.3. Budget hisobidan tayinlanadigan nafaqalar tasnifi, tavsifi va ularning fuqarolar ijtimoiy muhofazasidagi o‘rni

Muayyan hollarda davlat tomonidan fuqarolarni mehnat faoliyati bilan shug‘ullanmaganliklari va mehnat staji bor-yo‘qligidan qat’i nazar, moddiy jihatdan ta‘minlash amalga oshiriladi.

Bunday ijtimoiy yordamning amalga oshirilishida quyidagi tamoyil-larga amal qilinadi:

- ijtimoiy adolat qoidalariga qat’iy amal qilish;
- oshkoralikni ta‘minlash;
- katta yoshdagi mehnatga layoqatli aholi o‘rtasida boqimandalikka, o‘zining iqtisodiy faolligi hisobiga emas, balki davlat yordami hisobiga yashashga intilishga yo‘l qo‘ymaslik;
- bolalar tarbiyasi uchun oila mas’uliyatini kuchaytirish, ularga jismoniy, aqliy va ma’naviy-axloqiy rivojlanish uchun zarur shart-sharoitlar yaratish;
- davlat tomonidan qo‘llab-quvvatlashsiz daromadlarini jiddiy oshirishning aniq imkoniyati mavjud bo‘lmagan, kam daromadli oilalarga nafaqalar berish.

Ana shu maqsadda budget hisobidan ijtimoiy nafaqalar va moddiy yordamlar to‘lash ko‘zda tutilgan bo‘lib, ular oila (shaxs)ning moddiy sharoitlari yoki bolalar parvarish qilinayotganligi va boshqa sabablarga ko‘ra tayinlanishi hamda to‘lanishi mumkin.

Ijtimoiy yordamning ushbu shakli ijtimoiy himoyani aniq manzilli va ehtiyojmandlarga qaratilganligini yaqqol ko'rsatib turadi.¹

Quyida ushbu nafaqalarning qisqacha tavsifi, tayinlanish asoslari, shartlari, to'lanish tartiblarini ko'rib o'tamiz.

Voyaga yetmagan bolalari bo'lgan oilalarga tayinlanadigan va to'lanadigan nafaqalar.

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 1996-yil 10-dekabrda 437-son qarori bilan tasdiqlangan Nizom asosida mazkur nafaqa tayinlanadi.

Nafaqa ushbu nafaqani olishga muhtoj bo'lgan, tug'ilgan, bolalikka va homiylikka (vasiylikka) olingan 16 yoshgacha (umumta'lim maktablarida, akademik litseylar va kasb-hunar kollejlari ta'lim olayotgan 16 yoshdan 18 yoshgacha) bolalari bo'lgan oilalarga tayinlanadi va to'lanadi.

Nafaqa ota-onalardan birining shaxsiy arizasi asosida 6 oy muddatga tayinlanadi va to'lanadi, ushbu muddat tugagach, arizachi yangi muddatga nafaqa to'lashni davom ettirish to'g'risida ariza bilan murojaat qilish huquqiga ega. Nafaqa har oyda to'lanadi va undan soliq olinmaydi.

Doimiy yashash joyidagi fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organiga nafaqa tayinlash to'g'risida yozma ariza bilan murojaat qilgan oilalarga, alohida hollarda esa ushbu organning raisi (oqsoqoli) taqdimnomasiga binoan tayinlanadi.

Nafaqa tayinlash to'g'risidagi ariza bolalarning ota-onasidan biri tomonidan oilaning yashash joyidagi fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish tegishli organining raisi nomiga beriladi..

Oilaga nafaqa:

– bir bolali oilalar uchun – eng kam oylik ish haqining 50 foizi miqdorida;

– ikki bolali oilalar uchun – 100 foizi miqdorida;

– uch bolali oilalar uchun – 140 foizi miqdorida;

– to'rt va undan ko'p bolali oilalar uchun – 175 foizi miqdorida belgilanadi.

¹Qarang: O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2012-yil 7-iyundagi 165-sonli «Ijtimoiy nafaqalar tayinlash tartibini yanada takomillashtirish hamda oilalarning jami daromadlari yanada to'liq hisobga olinishini ta'minlash to'g'risida»gi qarori. O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to'plami. 23–24-son, 259-modda.

Agar belgilangan tartibda nafaqa belgilangan davr mobaynida eng kam oylik ish haqi miqdori o'zgarsa, nafaqa miqdori eng kam oylik ish haqi miqdori o'zargan oydan boshlab tegishli ravishda ko'payadi.

– nogiron chaqaloqli (bolali) oilalar;

– ota-onaning ikkalasi ham bo'lmagan, bolalar tarbiyasi bilan esa qarindoshlari shug'ullanadigan oilalar;

– bolalarning ota-onasidan biri yoki ikkalasi ham nogiron bo'lgan oilalar;

– ota-onadan biri yoki ikkalasi ham ishsiz bo'lgan, Bandlikka ko'maklashish markazlarida ish qidiruvchi sifatida hisobda turgan oilalar nafaqa bilan ta'minlanishda imtiyozli huquqdan foydalanadilar.

Bolalari to'liq davlat ta'minotida bo'lgan oilalar. Agar oiladagi bolalarning hammasi ham to'liq davlat ta'minotida bo'lmasa, u holda nafaqa davlat ta'minotida bo'lmagan bolalarni hisobga olgan holda to'lanadi;

– ota-onasi qonunchilikda belgilangan tartibda ota-onalik huquqlaridan mahrum etilgan oilalarga;

– moddiy boyligi (daromadi) bolalarining jismoniy, aqliy va ma'naviy-axloqiy jihatdan maqbul rivojlanishini ta'minlash imkonini beradigan oilalarga nafaqa tayinlanmaydi.

Oilalarga nafaqa tayinlash va to'lash to'g'risidagi qaror shaharcha, qishloq, ovul fuqarolar yig'ini (vakillar yig'ilishi) yoki fuqarolar yig'ini tomonidan shunday masalalarni hal etish uchun vakil qilingan Komissiya tomonidan qabul qilinadi.

Nafaqa tayinlashni so'rab berilgan arizaga quyidagi hujjatlar qo'shib topshiriladi:

a) oila a'zolarining tarkibi to'g'risida yashash joyidan ma'lumotnoma;

b) bolalarning tug'ilganlik to'g'risidagi guvohnomalari nusxasi;

v) vasiylik (homiylilik)da bo'lgan bolalarga nafaqa tayinlash chog'ida vasiylik (homiylilik) huquqini belgilovchi organning qaroridan ko'chirma;

g) fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organi talabiga ko'ra, oila a'zolarining daromadlari haqida ma'lumotnoma;

d) 16 dan 18 yoshgacha bo'lgan bolalarga mazkur shaxs haqiqatan ham o'quv yurtida o'qiyotganligi va stipendiya olmasligi to'g'risida o'quv yurtidan ma'lumotnoma.

Zarur bo'lgan hujjatlarning asl nusxalari yoki belgilangan tartibda tasdiqlangan ko'chirma nusxalari taqdim etilishi mumkin.

Arizalarni ro'yxatdan o'tkazish maxsus ro'yxatga olish daftarida fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organi raisi (oqsoqoli)ning kotibi tomonidan amalga oshiriladi

Oilaning nafaqaga muhtojligini aniqlash uchun fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organi huzurida maxsus komissiya tuziladi, uning tarkibi fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organi raisi (oqsoqoli) tomonidan tasdiqlanadi.

Komissiya tarkibiga o'zini o'zi boshqarish organining maslahatchilari va kotibi, tuman (shahar) hokimligi tomonidan vakil qilingan, nafaqalar tayinlash va ularni to'lashda fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organiga amaliy yordam ko'rsatuvchi tuman (shahar) Bandlikka ko'maklashish markazi xodimi, shuningdek, zarurat bo'lganda tuman (shahar) soliq va moliya organlarining vakillari kiradi.

Maxsus komissiya nafaqa olish uchun murojaat qilgan oilaning moddiy va mulkiy ahvolini ariza berilgan sanadan boshlab ikki hafta muddatda tekshiradi hamda ko'rib chiqish asosida nafaqa tayinlash to'g'risida yoki nafaqa tayinlashni rad etish haqida fuqarolar yig'iniga ikki hafta muddatda taklif kiritadi.

Oilaning moddiy va mulkiy ahvolini tekshirish natijalari yuzasidan tekshirish dalolatnomasi tuziladi va unda quyidagilar majburiy tartibda ko'rsatilishi kerak:

- tekshirilayotgan oilaning tarkibi;
- tekshirilayotgan oila umumiy daromadining miqdori;
- oila a'zolari daromadlari shakllanishining asosiy manbalari;
- katta yoshdagi (mehnatga layoqatli) oila a'zolarining ish bilan ta'minlanganligi to'g'risida ma'lumotnoma.

Har bir oila a'zosiga to'g'ri keladigan oilaning umumiy daromadini aniqlash uchun barcha turdagi daromadlar qo'shib chiqiladi va hosil bo'lgan summa oila a'zolari soniga taqsimlanadi (daromadlar deganda: soliq solinadigan daromadlar, pensiyalar, stipendiyalar va ijtimoiy xususiyatga ega bo'lgan boshqa to'lovlar, shuningdek, shaxsiy yordamchi xo'jalikdan olinadigan daromadlar hisobga olinadi). Ikki va undan ortiq oy uchun oila a'zolarining daromadlari hisobga olinishi kerak bo'lgan hollarda hisobga olinishi kerak bo'lgan davr uchun oila a'zolarining

umumiy daromadi oila a'zolarining soniga va mazkur davrdagi oylar soniga taqsimlanadi.

Fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organi mezonlarini va nafaqa tayinlash uchun asoslarni o'zini o'zi boshqarish organi hisoblaridagi mablag'lar miqdoridan va nafaqaning belgilangan miqdorlaridan kelib chiqqan holda mustaqil ravishda belgilaydi

Nafaqa tayinlash to'g'risida qaror qabul qilish chog'ida arizachining fuqarolar yig'inida (Komissiya yig'ilishida) ishtirok etishi majburiydir. Arizachi uzrli sabab (kasallik yoki boshqa uzrli sabablar) bilan qatnashmagan hollarda fuqarolar yig'iniga oilaning balog'at yoshiga yetgan boshqa a'zosi qatnashishi shart. Arizachi yoki oilaning boshqa vakili qatnashmagan hollarda mazkur oilaga nafaqa tayinlash to'g'risidagi masala ko'rib chiqilmaydi va u fuqarolarning keyingi yig'inida (komissiya yig'ilishida) ko'rib chiqish uchun qoldiriladi.

Nafaqa tayinlash rad etilgan hollarda rad etish sababi ko'rsatilgan holda tegishli qaror qabul qilingandan so'ng 5 kun muddatda arizachi bu haqda yozma ravishda xabardor qilinadi.

Mehnat faoliyatidan bo'yin tovlab yurgan va jamiyatga xilof ravishda turmush kechirayotgan ota-onalarning qarovsiz qolgan bolalariga ota-onalarining yozma arizalarisiz fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organi raisi (oqsoqoli)ning taqdimnomasiga binoan fuqarolar yig'ini tomonidan nafaqa tayinlanishi mumkin. Bunday hollarda nafaqa natura shaklida berilishi mumkin. Bunda komissiya a'zolaridan hisob beruvchi shaxs tayinlanadi.

Tayinlangan, ammo o'z vaqtida talab qilib olinmagan (to'lanmagan) nafaqalar o'tgan vaqt uchun to'liq miqdorda to'lanadi. Bunday hollarda ushbu nafaqa olinmagan barcha davr uchun nafaqa biryola to'lanadi. Bunda agar arizachi mazkur nafaqaga zarurati bo'lmaganligidan uni o'z vaqtida olmaganligi aniqlansa, ya'ni oila nafaqaga muhtoj bo'lmasa, o'zini o'zi boshqarish organi raisi (oqsoqoli)ning taqdimnomasiga ko'ra, fuqarolar yig'ini yoki Komissiya bundan keyin nafaqa berishni bekor qilish to'g'risida qaror qabul qilishi mumkin.

Kam ta'minlangan oilalarga ko'rsatiladigan moddiy yordam. Ijtimoiy yordamning bu shakli O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 1994-yil 24-avgustdagi 434-son qarori bilan tasdiqlangan

«Kam taminlangan oilalarni hisobga olish, ularga moddiy yordam tayinlash va to‘lash tartibi to‘g‘risida»gi Nizomga muvofiq amalga oshiriladi.

Kam daromadli oilalarga har oylik moddiy yordam tayinlash va uning miqdorini belgilash to‘g‘risidagi qaror fuqarolarning o‘zini o‘zi boshqarish organlari – qo‘rg‘on, qishloq, ovul va shahar mahallalari fuqarolari yig‘inlari, yig‘inni o‘tkazish imkoni bo‘lmaganda ko‘chalar, turarjoylar, qishloq, ovul mahallalari fuqarolari vakillarining yig‘ilishi yoki fuqarolar yig‘ini tomonidan kam ta‘minlangan oilalarga moddiy yordam tayinlash va to‘lash to‘g‘risidagi masalalarni hal etish uchun vakil qilingan komissiya tomonidan qabul qilinadi.

Komissiya tarkibi fuqarolar yig‘ini (vakillar yig‘ilishi) tomonidan fuqarolar yig‘ini hududida istiqomat qiluvchi eng obro‘-e‘tiborli va hurmatga sazovor fuqarolar orasidan saylanadi. Unga fuqarolar yig‘inining raisi boshchilik qiladi. Komissiya a‘zolari 2 yil muddatga, fuqarolar yig‘ini raisi esa uning butun vakolati davriga saylanadi. Mazkur komissiya a‘zolarining tarkibi kamida 20 kishidan iborat bo‘lib, har yili ellik foizga yangilanadi.

Moddiy yordam oilaga olti oy muddatga tayinlanadi va to‘lanadi. Ushbu muddat tugagach, agar oilada moddiy ahvol yaxshilanmagan bo‘lsa, yordam yangi muddatga tayinlanishi mumkin.

Moddiy yordam fuqarolarning doimiy yashash joyidagi o‘zini o‘zi boshqarish organlariga yoki qo‘rg‘on, qishloq, ovul mahallasiga yozma ravishda ariza bilan yordam so‘rab murojaat qilgan oilalarga, ayrim hollarda esa fuqarolar yig‘ini raisi (oqsoqoli)ning tavsiyasiga binoan tayinlanadi.

Arizachining moddiy yordamga muhtojlik darajasini va unga beriladigan oylik moddiy yordamning miqdorini belgilash uchun fuqarolarning o‘zini o‘zi boshqarish organlari huzurida maxsus komissiyalar tuziladi, uning tarkibiga ushbu organlarning maslahatchilari, kotibi, shuningdek, zarurat bo‘lganda tuman (shahar) soliq hamda moliya organlarining Bandlikka ko‘maklashish markazlarining vakillari kiradilar.

Ariza berilgan kundan boshlab ikki hafta muddatda yordam so‘ragan oilaning moddiy va mulkiy ahvoli tekshiriladi.

Tekshiruv natijalari dalolatnoma bilan rasmiylashtiriladi, uni komissiyaning barcha a‘zolari imzolaydilar. Dalolatnomada quyidagi ma‘lumotlar aks ettiriladi:

– tekshirilayotgan oilaning tarkibi, unda birga yashovchilarning hammasi, qarindoshligi bo‘lgan va birga umumiy ro‘zg‘or yurituvchilar hisobga olinadi;

– oilaning doimiy daromad manbayiga ega bo‘lmagan va Bandlikka ko‘maklashish markazlarida ro‘yxatga olinmagan mehnatga qobiliyatli yoshdagi a‘zolari, bola ikki yoshga to‘lgunga qadar unga qarovchi ayollar, shuningdek, 18 yoshgacha bo‘lgan o‘quvchilar bundan mustasno;

– oilaning tekshirish vaqtidagi jami pul daromadlarining manbalari va miqdori;

– tomorqa uchastkasi maydoni va undan daromad olish imkoniyatlari;

– oila mol-mulkining qiymati (dala hovli, avtomobil, mototsikl va zeb-ziynatlarning mavjudligi);

– oilaning muhtojlik darajasi haqidagi komissiya xulosasi va har oyda beriladigan moddiy yordamning tavsiya qilinayotgan miqdori haqida komissiya xulosasi.

Oilaga moddiy yordam tayinlash haqida qaror qabul qilishda arizachining fuqarolar yig‘inida (yig‘ilishida) yoki Komissiya yig‘ilishida qatnashishi shart.

Moddiy yordam tayinlash rad etilgan taqdirda yig‘ilish bayonida uning asoslangan sabablari qayd etiladi va bu haqda fuqarolar yig‘ini (yig‘ilish) yoki Komissiya yig‘ilishi qarori ustidan shikoyat qilishga yo‘l qo‘yilmaydi.

Moddiy yordam to‘lash muddati tugaganda, yordam ko‘rsatilayotgan oilaning moddiy ahvoli o‘zgarganda, doimiy yashash joyi o‘zgarganda oilaga moddiy yordam to‘lash to‘xtatiladi.

Tarbiyalash (patronat) uchun oilalarga beriladigan yetim bolalarni kiyim-bosh, poyabzal bilan ta‘minlash hamda bolani o‘z tarbiyasiga olgan tutingan ota-onalarga har oylik nafaqa to‘lash.

Ijtimoiy yordamning bu turi O‘zbekiston Respublikasi Xalq ta‘limi vazirligi va Moliya vazirligining 2002-yil 21-oktabrdagi 87, 121- son qarori bilan tasdiqlangan «Tarbiyalash (patronat) uchun oilalarga beriladigan yetim bolalarni kiyim-bosh, poyabzal bilan ta‘minlash hamda bolani o‘z tarbiyasiga olgan tutingan ota-onalarga har oylik nafaqa to‘lash tartibi to‘g‘risida»gi Nizomga ko‘ra amalga oshiriladi.

Mazkur Nizomga ko‘ra, bolaning Xalq ta‘limi yoki Sog‘liqni saqlash

vazirligi tizimidagi tarbiyalash va davolash muassasalari, Mehnat va aholini ijtimoiy muhofaza qilish vazirligi tizimidagi muassasalardan olinishidan qat'i nazar, tutingan ota-onalarga o'z tarbiyasiga olgan har bir bola uchun eng kam oylik ish haqining 3 baravari miqdorida har oylik nafaqa to'lanadi.

Oilalarga tarbiyalash uchun beriladigan yetim bolalarni kiyim-bosh, poyabzal bilan ta'minlash normalari va uni amalga oshirish tartibi va muddatlari qonun hujjatlari bilan belgilanadi.

Ishlamaydigan onalarga bola ikki yoshga yetgunga qadar uni parvarish qilganligi uchun oylik nafaqa tayinlash va to'lash.

O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi tomonidan 2002-yil 14-martda 1112-son bilan ro'yxatga olingan «Ishlamaydigan onalarga bola ikki yoshga yetgunga qadar uni parvarish qilganligi uchun oylik nafaqa tayinlash va to'lash tartibi to'g'risida»gi Nizomga asosan bunday nafaqalar tayinlanishi va to'lanishi mumkin.

Bolani parvarish qilish nafaqasi qo'rg'on, qishloq, ovul, mahalla fuqarolari yig'ini yoki maxsus vakolatli komissiya tomonidan, ona yoki amalda bolani parvarish qilayotgan boshqa shaxs qo'rg'on, qishloq, ovul, mahalla fuqarolar yig'ini raisi nomiga beradigan arizasiga asosan tayinlanadi. Ariza hududida mazkur shaxs ro'yxatdan o'tkazilgan fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organiga beriladi.

Arizaga quyidagilar ilova qilinadi:

- a) bolaning tug'ilganlik haqidagi guvohnomasidan ko'chirma nusxa;
- b) mehnat daftarchasidan ko'chirma nusxa – ilgari ishlaganlar uchun;
- v) ariza topshirilgan oygacha oila a'zolarining oxirgi o'n ikki oydagi daromadlari to'g'risida ma'lumotnoma;
- g) bolaning nogironligi to'g'risida guvohlik beruvchi VKK xulosasining ko'chirma nusxasi (zarurat bo'lganda);
- d) nikohning bekor qilingani to'g'risida guvohnomaning ko'chirma nusxasi yoki tegishli sud qarorlaridan ko'chirmalar (zarurat bo'lganda);
- e) onasi bo'lmagan bolani amalda parvarish qiladigan shaxslar onasining yo'qligidan dalolat beruvchi hujjat – bolaning onasi vafot etganligi to'g'risida guvohnoma, onani onalik huquqidan mahrum qilish to'g'risida sud organlari tomonidan berilgan ma'lumotnomani yoki bolaning (bolalarning) onasi bolani parvarish qilish nafaqasini olmasligini tasdiqlaydigan boshqa hujjatlarni qo'shimcha ravishda taqdim etadilar.

Nafaqa tayinlash uchun zarur hujjatlar belgilangan tartibda tasdiqlangan nusxalarda taqdim etiladi.

Bolani parvarish qilish nafaqasini tayinlash uchun qo'rg'on, qishloq, ovul, mahalla fuqarolarining yig'inida yoki ushbu nafaqani tayinlash va to'lash masalalarini hal etish uchun fuqarolar yig'ini vakolat bergan komissiya tomonidan qabul qilingan qaror asos bo'lib hisoblanadi.

Bolani parvarish qilish nafaqasi oila daromadini hisobga olgan holda tayinlanadi.

Bolani parvarish qilish nafaqasini to'lashni to'xtatishga olib keluvchi holatlar to'g'risida nafaqa oluvchi o'zini o'zi boshqarish organlariga ma'lum qilishi shart.

Fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organi aybi bilan o'z vaqtida olinmagan bolani parvarish qilish nafaqasi o'tgan vaqt uchun biror-bir muddat bilan cheklashsiz to'lanadi. Ko'rsatilgan hollarda bolani parvarish qilish nafaqasining summolari bir vaqtda to'lanadi.

Tayinlangan, biroq o'z vaqtida talab qilinmagan (to'lanmagan) bolani parvarish qilish nafaqalari o'tgan vaqt uchun ushbu nafaqalar to'lanishi kerak bo'lgan davrda nazarda tutilgan miqdorlarda to'lanadi.

Atayin noto'g'ri yoki soxta (qalbaki) hujjatlar bo'yicha bolani parvarish qilish nafaqasini olish faktlari aniqlanganda bunday hujjatlarni taqdim etgan shaxs javobgarlikka tortiladi, ortiqcha to'langan summalar esa belgilangan tartibda undirilishi kerak.

Ishlayotgan onalarga bola ikki yoshga yetgunga qadar uni parvarish qilganligi uchun oylik nafaqa tayinlash.

O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi tomonidan 2002-yil 14-martda 1113-son bilan ro'yxatga olingan «Ishlayotgan onalarga bola ikki yoshga yetgunga qadar uni parvarish qilganligi uchun oylik nafaqa tayinlash va to'lash tartibi to'g'risida»gi Nizomga muvofiq bola ikki yoshga to'lgunga qadar uni parvarishlash uchun har oylik nafaqa tug'ilgan, farzandlikka yoki vasiylikka olingan bola ikki yoshga to'lgunga qadar uni parvarishlayotgan shaxslarga, ya'ni onaga, otaga, farzandlikka olgan shaxsga, vasiyga yoki boshqa qarindoshlarga tayinlanadi va to'lanadi.

Budjet sohasida mehnat qilayotgan onalarga ushbu Nizom asosida emas, balki, O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi tomonidan 2002-yil 14-martda 1112-son bilan ro'yxatga olingan «Ishlamaydigan onalarga bola ikki

yoshga yetgunga qadar uni parvarish qilganligi uchun oylik nafaqa tayinlash va to'lash tartibi to'g'risida»gi Nizomga asosan amalga oshiriladi¹.

Ishlayotgan (ishlab chiqarishdan ajralgan holda o'qiyotgan, xizmatni o'tayotgan) onalarga (ona o'rnini bosuvchi shaxslarga) bolani parvarish qilish bo'yicha nafaqa ish (o'qish, xizmat) joyidan tayinlanadi. Bunda davlat budjetidan ta'minlanuvchi muassasa va tashkilotlarning xodimlariga nafaqa mahalla fuqarolar yig'ini tomonidan tayinlanishi va to'lanishi mumkin.

Ishlayotgan onalar (ona o'rnini bosuvchi shaxslar) bir vaqtning o'zida bola parvarishlash uchun nafaqa bilan birga to'liq bo'lmagan ish vaqti rejimida yoki ish beruvchi bilan kelishib uyda ishlagan davridagi ish haqini olish huquqiga egadirlar

Bolani parvarish qilish bo'yicha nafaqa tayinlash uchun quyidagi hujjatlar taqdim qilinadi:

- a) bolani parvarish qilish bo'yicha nafaqa tayinlash haqidagi ariza;
- b) bola tug'ilganligi to'g'risidagi guvohnoma nusxasi.

Bolaning onasi o'rniga bolani parvarish qilish bo'yicha nafaqani oluvchi shaxslar qo'shimcha ravishda onaning yo'qligini tasdiqlovchi hujjat – bola (bolalar) onasi o'limi to'g'risidagi guvohnoma, onaning onalik huquqidan mahrum etilganligi haqida sud organlari bergan ma'lumotnoma yoki bolaning (bolalarning) onasi bolani parvarish qilish bo'yicha nafaqani olish imkoniyati yo'qligini tasdiqlovchi boshqa hujjatlarni taqdim etadilar.

Bolani parvarish qilish bo'yicha nafaqa to'lovi quyidagi hollarda bekor qilinadi:

- a) parvarish qilinayotgan bola ikki yoshga to'lganda;
- b) bola ixtisoslashtirilgan muassasaga (go'daklar uyiga) to'liq davlat ta'minotiga joylashtirilganda;
- v) bola vafot etganda;
- g) oila, bola bilan birgalikda, doimiy yashash uchun O'zbekiston Respublikasi hududidan tashqariga chiqib ketganda.

Bolani parvarish qilish bo'yicha nafaqa to'lovi bekor qilinishiga olib keluvchi holatlar haqida nafaqa oluvchi shaxs, nafaqa to'lovini amalga oshirayotgan organni xabardor qilishi shart.

¹Qarang: O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi tomonidan 2008-yil 28-fevralda 1113-1-son bilan ro'yxatga olingan o'zgartirish. O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to'plami. 2008. 8–9-son, 52-modda.

Nafaqa oluvchi shaxs vafot etganda yoki ota-onalik huquqidan mahrum bo'lganda yoxud bola vasiylikdan olib qo'yilgan hollarda nafaqa amalda bolani parvarishlayotgan shaxsga ushbu nafaqa to'langan so'nggi oyning keyingi oyidan boshlab tayinlanadi.

Bolani parvarish qilish bo'yicha nafaqa bila turib noto'g'ri yoki qalbaki (soxta) hujjatlar bo'yicha olinganligi aniqlangan hollarda, bunday hujjatlarni taqdim qilgan shaxslar javobgarlikka tortiladilar, ortiqcha to'langan summalar belgilangan tartibda undirib olinadi.

Bolani parvarish qilish bo'yicha nafaqa to'lovi bekor qilinishiga olib keluvchi holatlar haqida o'z vaqtida xabar berilmaganda, to'lovni amalga oshirayotgan organning qarori bo'yicha ortiqcha to'langan summalar belgilangan tartibda nafaqa olgan shaxsdan undiriladi

Bola parvarishlash uchun nafaqa to'lovi korxonalarda (tashkilotlarda) ishlayotgan onalar (ona o'rnini bosuvchi shaxslar) uchun ushbu korxonalarining (tashkilotlarning) o'z mablag'lari hisobidan amalga oshiriladi.

Mehnat stajiga ega bo'lmagan fuqarolarni ijtimoiy ta'minlash maqsadida nafaqalar tayinlash O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2011-yil 7-aprel 107-sonli «Pensiya tayinlash uchun zarur bo'lgan ish stajiga ega bo'lmagan qariyalarga va mehnatga layoqatsiz fuqarolarga nafaqalar tayinlash va to'lash tartibi to'g'risida»gi qarori bilan nazarda tutilgan¹. Ushbu qarorga binoan ish staji mavjud bo'lmagan hollarda qarilik, nogironlik va boquvchisini yo'qotganlik nafaqalarini tayinlash va to'lash shartlari hamda tartiblari belgilab berilgan.

Yuqoridagi qaror bilan tasdiqlangan «Pensiya tayinlash uchun zarur bo'lgan ish stajiga ega bo'lmagan qariyalarga va mehnatga layoqatsiz fuqarolarga nafaqalar tayinlash va to'lash tartibi to'g'risida Nizom» qarilik, nogironlik va boquvchisiz qolganlik nafaqalarini tayinlashni nazarda tutadi.

Yosh bo'yicha nafaqa. Yosh bo'yicha nafaqa ish stajiga va Oila kodeksiga ko'ra ularni boqishga majbur bo'lgan qarindoshlari bo'lmagan shaxslarga tayinlanadi:

- erkaklarga – 65 yoshga yetganlarida;
- ayollarga – 60 yoshga yetganlarida.

Moliya vazirligi huzuridagi Budjetdan tashqari Pensiya jamg'armasi tuman bo'limi tomonidan amalga oshirilgan tekshiruv natijalariga ko'ra,

¹O'zbekiston Respublikasi Hukumati qarorlari to'plami. 1994. 6-son, 33-modda.

nafaqa so‘rab murojaat etgan shaxs qarindoshlarining moddiy nochorligi aniqlangan hollarda nafaqa o‘zlarining keksa qarindoshlariga moddiy yordam ko‘rsata olmaydigan qarindoshlar bor bo‘lgan taqdirda ham tayinlanishi mumkin.

Nogironlik nafaqasi. Nogironlik bo‘yicha nafaqa nogironlik sodir bo‘lgan hollarda, ya‘ni mehnat qobiliyati doimiy yoki uzoq muddatga yo‘qotilganda, faqat birinchi va ikkinchi guruh nogironlariga tayinlanadi va to‘lanadi.

Fuqarolarning mehnat qobiliyatlarini yo‘qotganlik darajasini aniqlash uchun tibbiy tekshirishni faqat tibbiy-mehnat ekspert komissiyalari (TMEK) ular haqidagi Nizom asosida shahar yoki tuman Budjetdan tashqari Pensiya jamg‘armasi yo‘llanmasi bo‘yicha amalga oshiradilar.

Ishlab turgan yoki yashashning boshqa manbalariga ega bo‘lgan I va II guruh nogironlariga nafaqa tayinlanmaydi.

Boquvchisini yo‘qotganlik bo‘yicha nafaqa. Pensiya tayinlash uchun zarur bo‘lgan ish stajiga ega bo‘lmagan shaxs vafot etgan taqdirda uning qaramog‘ida bo‘lgan oila a‘zolari nafaqa olish huquqiga egadirlar.

Oilaning mehnatga layoqatsiz a‘zolari qatoriga O‘zbekiston Respublikasi «Fuqarolarning davlat pensiya ta‘minoti to‘g‘risida»gi Qonunining 19-moddasida ko‘rsatilgan shaxslar kiritiladilar.

Vafot etganing oila a‘zolariga nafaqalar miqdori quyidagicha belgilanadi:

a) oilaning uch va undan ortiq mehnatga layoqatsiz a‘zosiga – vafot etgan fuqaro olgan yoki olish huquqiga ega bo‘lgan yoshga doir nafaqaning 100 foizi;

b) oilaning mehnatga layoqatsiz ikkita a‘zosiga – nafaqaning 75 foizi;

v) oilaning mehnatga layoqatsiz bir a‘zosiga – nafaqaning 50 foizi

Ijtimoiy ta‘minot nafaqasi(nafaqalari)ni olish huquqiga ega bo‘lgan fuqarolar shu huquq paydo bo‘lgandan so‘ng muddat bilan cheklashsiz istalgan vaqtda uning tayinlanishi uchun murojaat qilishlari mumkin

Nafaqa tayinlash va to‘lash shahar yoki tuman Budjetdan tashqari Pensiya jamg‘armasi tomonidan amalga oshiriladi.

Nafaqa tayinlash to‘g‘risidagi arizani qabul qilib olgan ijtimoiy ta‘minot bo‘limi tomonidan ariza beruvchiga ariza qabul qilingan sana

ko'rsatilgan holda ariza va unga ilova qilingan hujjatlar qabul qilinganligi haqida tilxat beriladi.

Ariza barcha zarur hujjatlar bilan birgalikda qabul qilib olingan kun nafaqa tayinlash to'g'risida murojaat qilingan kun deb hisoblanadi (mazkur Nizomning 4-bandi).

Agar nafaqa tayinlash to'g'risidagi ariza pochta orqali yuborilsa hamda barcha zarur hujjatlar taqdim etilsa, ariza jo'natilgan joyning pochta shtempelida ko'rsatilgan sana nafaqa tayinlash to'g'risida murojaat qilingan kun deb hisoblanadi.

Arizaga barcha zarur hujjatlar ilova qilinmagan hollarda qanday hujjatlarni qo'shimcha ravishda taqdim etish kerakligi ariza beruvchiga ma'lum qilinadi. Agar bu hujjatlar qo'shimcha hujjatlarni taqdim etish zarurligi to'g'risida bildirish olingan kundan boshlab 3 oydan kechikmay taqdim etilsa, nafaqa tayinlash to'g'risida ariza qabul qilib olingan kun nafaqa tayinlash to'g'risida murojaat qilingan kun deb hisoblanadi.

Nafaqa tayinlash to'g'risidagi ariza barcha zarur hujjatlar bilan birgalikda taqdim etilgandan keyin 10 kundan kechikmay ko'rib chiqiladi.

Nafaqa tayinlash to'g'risida murojaat qiluvchi nafaqa tayinlashni rad etish haqidagi qaror ustidan yuqori turuvchi organga shikoyat qilishi mumkin, javobdan qoniqmagan taqdirda esa sudga shikoyat qilish huquqiga ega.

Tayinlangan, biroq oluvchi tomonidan o'z vaqtida talab etib olinmagan nafaqa summasi nafaqa olish uchun murojaat qilingandan oldingi o'tgan vaqt uchun ko'pi bilan uch yilga to'lanadi.

Nafaqa tayinlangan yoki nafaqa to'layotgan organning aybi bilan o'z vaqtida olinmagan nafaqa summasi o'tgan vaqt uchun biror-bir muddat bilan cheklashsiz to'lanadi. Ko'rsatib o'tilgan holda nafaqaning 12 oyga tegishli bo'lgan summasi bir yo'la to'lanadi, qolgan qismlari esa har oyda nafaqaning joriy qismiga qo'shimcha tarzda oylik nafaqadan oshmaydigan teng ulushlarda to'lanadi.

Tayinlangan nafaqa oilaning nafaqa tayinlashda hisobga olinadigan son tarkibi:

- ish haqining eng kam miqdori o'zgargan;
- rayon koeffitsienti belgilangan (bekor qilingan) yoki uning miqdori o'zgargan;

– aholi daromadlari indeksatsiya qilingan hollarda qayta hisoblab chiqiladi.

Nafaqalarni to‘lash har oyda ijtimoiy ta‘minot bo‘limlari tomonidan belgilangan muddatlarda, biroq nafaqa to‘lanadigan oydan keyingi oyning 5-kunidan kechikmay amalga oshiriladi.

Ishonchnoma bo‘yicha nafaqa davlat pensiyalarini ishonchnoma bo‘yicha to‘lash uchun belgilangan tartibda to‘lanadi.

Nafaqa oluvchi O‘zbekiston Respublikasidan tashqariga ko‘chib ketganda nafaqa to‘lash to‘xtatiladi

Bolalikdan nogironlarga nafaqalar tayinlash. Bolalikdan nogironlarga nafaqa tayinlash va to‘lash Vazirlar Mahkamasining 2011-yil 7-apreldagi 107-sonli Qarori bilan tasdiqlangan shu haqdagi Nizomi bilan belgilangan tartibda amalga oshiriladi.

Har oylik nafaqalarni olish huquqiga Tibbiy-mehnat ekspert komissiyalari (TMEK) tomonidan bolalikdan I yoki II guruh nogironlari deb tan olingan ish stajiga ega bo‘lmagan 16 yoshdan katta bo‘lgan shaxslar, shuningdek, 16 yoshgacha bo‘lgan nogiron bolalar nafaqa olish huquqini beruvchi tibbiy ma‘lumotlar¹ mavjud bo‘lgan taqdirda ega bo‘ladilar

Nafaqa tayinlash to‘g‘risidagi ariza bolalikdan I yoki II guruh nogironi bo‘lgan shaxslar tomonidan yashash joyidagi tuman (shahar) ijtimoiy ta‘minot bo‘limiga beriladi.

Mehnatga layoqatsiz deb topilgan I yoki II guruh bolalikdan nogironiga, shuningdek, nogiron bolaga nafaqa tayinlash to‘g‘risidagi ariza ota-onalardan biri, vasiy tomonidan yashash joyi bo‘yicha beriladi.

Vasiy ariza bilan murojaat qilgan hollarda vasiylik organining vasiy qilib tayinlash to‘g‘risidagi qarorining bir nusxasi ilova qilinadi.

Pensiya jamg‘armasining tuman (shahar) bo‘limi I yoki II guruh bolalikdan nogironning arizasiga ular tomonidan tibbiy Mehnat-ekspert komissiyasidan olingan tekshirish dalolatnomasidan ko‘chirmani ilova qiladi.

Nogiron bolaga nafaqa tayinlash chog‘ida sog‘liqni saqlash muas-

¹Qarang: «16 yoshgacha bo‘lgan bolalarni nogiron deb topish haqida tibbiy xulosa berish tartibi to‘g‘risida»gi Nizom. O‘zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to‘plami. 2009. 38-son, 419-modda.

sasalari tomonidan belgilangan tartibda beriladigan tibbiy xulosa taqdim etiladi.

Ariza barcha zarur hujjatlar bilan birgalikda qabul qilib olingan kun nafaqa tayinlash to'g'risida murojaat qilingan kun deb hisoblanadi.

Agar nafaqa tayinlash to'g'risidagi ariza pochta orqali yuborilsa hamda barcha zarur hujjatlar taqdim etilsa, ariza jo'natilgan joyning pochta shtempelida ko'rsatilgan sana nafaqa tayinlash to'g'risida murojaat qilingan kun deb hisoblanadi.

Arizaga barcha zarur hujjatlar ilova qilinmagan hollarda qanday hujjatlarni qo'shimcha ravishda taqdim etish kerakligi ariza beruvchiga ma'lum qilinadi. Agar bu hujjatlar qo'shimcha hujjatlarni taqdim etish zarurligi to'g'risida bildirish olingan kundan boshlab 3 oydan kechikmay taqdim etilsa, nafaqa tayinlash to'g'risida ariza qabul qilib olingan kun nafaqa tayinlash to'g'risida murojaat qilingan kun deb hisoblanadi.

Ariza barcha zarur hujjatlar bilan birgalikda taqdim etilgandan keyin 10 kundan kechikmay ko'rib chiqiladi.

Murojaat qiluvchi nafaqa tayinlashni rad etish haqidagi qaror ustidan yuqori organga shikoyat qilishi mumkin. Ariza beruvchi javobdan qoniqmagan taqdirda nizo belgilangan tartibda sud orqali hal etiladi.

Nafaqa murojaat qilingan kundan boshlab tayinlanadi.

I va II guruh bolalikdan nogironlarga nafaqa nogironlikning butun davriga tayinlanadi. Nogiron bolalarga nafaqa tibbiy xulosada belgilangan muddatga tayinlanadi.

Nafaqa I yoki II guruh bolalikdan nogironning yoxud nafaqa tayinlangan nogiron bolalarning ota-onalari yashaydigan joy bo'yicha Pensiya jamg'armasining tuman (shahar) bo'limi tomonidan tayinlanadi va to'lanadi. Vasiylarga nafaqa ularning yashash joylari bo'yicha to'lanadi.

Nafaqalarni to'lash har oyda ijtimoiy ta'minot bo'limlari tomonidan belgilangan muddatlarda, biroq nafaqa to'lanadigan oydan keyingi oying 5-kunidan kechikmay amalga oshiriladi.

Ishonchnoma bo'yicha nafaqa davlat pensiyalarini ishonchnoma bo'yicha to'lash uchun belgilangan tartibda to'lanadi.

I yoki II guruh bolalikdan nogiron yoxud nogiron bola tomonidan nogironlikni qayta tekshirishdan o'tkazish muddati kechiktirib yuborilganda nafaqa nogironlarga davlat pensiyalari tayinlash uchun nazarda tutilgan tartibda amalga oshiriladi

Nafaqa oluvchi O‘zbekiston Respublikasi hududi doirasida doimiy yashash uchun boshqa tuman (shahar)ga ko‘chganda nafaqani to‘lash yangi yashash joyi bo‘yicha tegishli Pensiya jamg‘armasining tuman (shahar) bo‘limi tomonidan nafaqa oluvchining shaxsiy hujjatlar yig‘majildi olingandan keyin mana shu tuman (shahar)da davom ettiriladi. Bunday holda nafaqa to‘lash ilgarigi yashash joyi bo‘yicha nafaqa to‘lash to‘xtatilgan vaqtdan boshlab davom ettiriladi

Nafaqa to‘lash to‘xtatilishi yoki qayta tiklanishiga olib kelgan boshqa holatlar (I va II guruh bolalikdan nogiron yoki nogiron bola internat-uyga to‘liq davlat ta‘minotiga o‘tkazilganda yoki undan qaytarib yuborilganda va shu kabilar) paydo bo‘lganda nafaqa to‘lash shu holat paydo bo‘lgan oydan keyingi oyning 1 kunidan boshlab to‘xtatiladi yoki tiklanadi.

Tayinlangan, biroq oluvchi tomonidan o‘z vaqtida talab etib olinmagan nafaqa summasi nafaqa olish uchun murojaat qilingandan oldingi o‘tgan vaqt uchun ko‘pi bilan uch yilga to‘lanadi.

Nafaqa tayinlangan yoki nafaqa to‘layotgan organning aybi bilan o‘z vaqtida olinmagan nafaqa summasi o‘tgan vaqt uchun biror-bir muddat bilan cheklashsiz to‘lanadi. Ko‘rsatib o‘tilgan holda nafaqaning 12 oyga tegishli bo‘lgan summasi bir yo‘la to‘lanadi, qolgan qismlari esa har oyda nafaqaning joriy qismiga qo‘shimcha tarzda oylik nafaqadan oshmaydigan teng ulushlarda to‘lanadi.

Tayinlangan nafaqa I yoki II guruh bolalikdan nogironlarga u olayotgan ish haqi, stipendiya, aliment yoki daromadlarning boshqa turlaridan qat‘i nazar to‘lanadi.

Nogiron bolaga tayinlangan nafaqa u tomonidan (uning uchun) boshqa nafaqalar olinishidan qat‘i nazar to‘lanadi.

Tayinlangan nafaqa I yoki II guruh bolalikdan nogiron yoki nafaqa tayinlangan nogiron bola to‘liq davlat ta‘minotida bo‘lgan vaqt uchun to‘lanmaydi.

Leprozoriylarda bo‘lgan I va II guruh bolalikdan nogironlarga, shuningdek, nogiron bolaga nafaqa leprozoriylarda bo‘lgan vaqt uchun to‘lanadi.

Bolalikdan nogironlarga nafaqalarni to‘lash, yetkazib berish va yuborish xarajatlari respublika budjeti hisobidan amalga oshiriladi.

5.4. Mehnat munosabatlari bilan bog‘liq ravishdagi nafaqalar. Ishsizlik nafaqasi

Fuqarolarga qonun hujjatlariga ko‘ra, boshqa bir qator nafaqalarning ham to‘lanishi nazarda tutilgan. Ular aholini ijtimoiy jihatdan himoya qilishning, muayyan voqea-hodisalar bilan bog‘liq tarzda yuz bergan noqulay sharoitlarda moddiy jihatdan qo‘llab-quvvatlashning muhim shakllaridan hisoblanadi va ushbu nuqtayi nazardan qaraganda, mazkur nafaqa turlarini ham qisqacha ko‘rib o‘tish, ularni tavsiflab o‘tish maqsadga muvofiq bo‘ladi.

Bunday nafaqalar qatoriga quyidagilarni kiritish mumkin:

- 1) Ishsizlik nafaqasi;
- 2) Ishdan bo‘shash paytida beriladigan nafaqa;
- 3) Yosh oilalarga beriladigan moddiy yordam;
- 4) Ishlab chiqarishda yuz bergan baxtsiz hodisalar tufayli halok bo‘lgan yoki sog‘lig‘iga shikast yetganda bir yo‘la beriladigan nafaqa.

Ishsizlik nafaqasi. O‘zbekiston Respublikasining 1998-yil 1-maydagi «Aholini ish bilan ta‘minlash to‘g‘risida»gi Qonunining 29-moddasiga ko‘ra tuman (shahar) mehnat bo‘limlari tomonidan belgilangan tartibda ishsiz shaxs deb e‘tirof etilgan fuqarolarga ishsizlik nafaqasi tayinlanadi.

Nafaqaning miqdori va to‘lanishininng eng uzoq muddati ham «Aholini ish bilan ta‘minlash to‘g‘risida»gi Qonunda belgilab qo‘yilgan.

Avval ishlagan, ishidan va ish haqi(mehnat daromadi)dan mahrum bo‘lgan shaxslarga ular ishlagan davridagi ish haqining ellik foizi miqdorida, ammo eng kam oylik ish haqidan kam bo‘lmagan hamda nafaqani hisoblash paytida O‘zbekiston Respublikasida tarkib topgan o‘rtacha ish haqidan ortiq bo‘lmagan miqdorda ishsizlik nafaqasi tayinlanadi.

Harbiy xizmatdan, ichki ishlar va Milliy xavfsizlik xizmatidan, boshqa harbiy organlardagi harbiy xizmatdan bo‘shatilgan shaxslar avval ishlagan bo‘lsalar, ish haqlarining 50 foizi miqdorida, avval ishlamagan shaxslarga ishsizlik nafaqasi eng kam oylik ish haqining 100 foizi miqdorida tayinlanadi.

Birinchi marta ish qidirayotgan va ishsizlik nafaqasi olish huquqiga ega bo‘lgan shaxslarga eng kam oylik ish haqining 75 foizi miqdorida ishsizlik nafaqasi tayinlanadi.

Ishsiz deb e‘tirof etilgan shaxslarga bir martalik moddiy yordam ham ko‘rsatilishi mumkin.

Ishsizlik nafaqasi birinchi marta ish qidirayotgan shaxslarga bir kalendar yil davomida 13 haftagacha, avval ishlagan shaxslarga esa yil davomida 26 haftagacha bo‘lgan muddat davomida to‘lanishi mumkin.

Ishsiz deb e’tirof etilgan shaxslarga ishsizlik nafaqasini tayinlash va to‘lash tartiblari O‘zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi tomonidan 1998-yil 23-noyabrda ro‘yxatga olingan «Ishsiz fuqarolarni ish bilan ta’minlashga ko‘maklashuvchi davlat jamg‘armasi mablag‘laridan ajratiladigan moddiy yordam ko‘rsatish tartibi, miqdori va shartlari to‘g‘risida»gi Nizomda ko‘rsatib qo‘yilgan.

Ishdan bo‘shatilayotgan xodimlarga beriladigan nafaqa. O‘zbekiston Respublikasining Mehnat kodeksida nazarda tutilgan bo‘lib, unga ko‘ra muayyan sabablar bilan ishdan bo‘shatilayotgan shaxslarga ishdan bo‘shatilayotganlarida bunday nafaqa berilishi belgilangan.

Mehnat kodeksining 89-moddasi 4-qismiga ko‘ra, xodim yangi mehnat shartlari asosida ishlashdan bosh tortganligi tufayli, 100-modda 2-qismining 1-(shtatlar qisqarishi, korxonaning tugatilishi), 2-(xodim egallab turgan vazifa ishga noloyiq bo‘lib qolishi), 5-(o‘rindoshlik bo‘yicha ishlayotgan shaxs boshqa doimiy xodim ishga qabul qilinishi tufayli ishdan bo‘shatilishi), 6-(korxonalar mulkdori almashganligi tufayli korxonalar rahbari, o‘rinbosarlari, bosh buxgalterining ishdan bo‘shatilishi) bandlari bilan ish beruvchi tashabbusiga ko‘ra ishdan bo‘shatilgan shaxslarga Mehnat kodeksining 109-moddasiga binoan o‘rtacha oylik ish haqidan kam bo‘lmagan miqdorda ishdan bo‘shatish nafaqasi beriladi.

Ishdan bo‘shatish nafaqasi ishdan bo‘shatish paytida ishga joylasha olmaganligi tufayli o‘rtacha oylik ish haqining saqlab qolinishi bilan hamda foydalanilmagan mehnat ta’tili uchun beriladigan yoki ishdan bo‘shatish haqida oldindan ogohlantirish o‘rniga to‘lanadigan kompensatsiya puli bilan almashtirib yuborilmasligi lozim. Ishdan bo‘shatish nafaqasi yuqoridagi to‘lovlar berilgan-berilmaganligidan qat’i nazar to‘lanaverishi lozim.

Yosh oilalarga beriladigan moddiy yordam. O‘zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi tomonidan 1999-yil 7-mayda davlat ro‘yxatiga olingan «Moddiy jihatdan qo‘llab-quvvatlashga muhtoj bo‘lgan yosh oilalarga ko‘rsatiladigan mablag‘larni tashkil toptirish va sarflash tartibi to‘g‘risida»gi Nizom asosida ko‘rsatiladi.

Ushbu Nizomga ko‘ra yosh oilalarga bir martalik qaytarib olinmay-

digan moddiy yordam shaklida, foiz olinmaydigan qarz berib turish tarzida yoki boshqa shakllarda moddiy ko‘mak berilishi mumkin. Ko‘rsatiladigan beg‘araz yordam miqdori, beriladigan foizsiz qarz, undan foydalanish tartibi va muddatlari yuqoridagi Nizom asosida fuqarolarning o‘zini o‘zi boshqarish organlari tomonidan belgilanadi.

Bunday yordamni olishda kelin yoki kuyov nogiron bo‘lsa, qarindoshlari va boshqa yordam beruvchi yaqinlari bo‘lmasa, kambag‘al oilalardan bo‘lsa, kelin yoki kuyov fuqarolar yig‘ini faoliyatida muntazam ishtirok etsa, afzallikdan foydalanadilar.

Yosh oila tomonidan moddiy yordam ko‘rsatishni so‘rab berilgan ariza fuqarolar yig‘ini tomonidan belgilangan muddatda va tartibda ko‘rib chiqiladi.

5.5. Stipendiyalar. Ularning aholi ijtimoiy muhofazasidagi ahamiyati

Stipendiyalar ta‘lim olish, kasb o‘rganish yoki o‘z malakasini oshirish bilan band bo‘lgan shaxslarni ta‘lim olish davri davomida moddiy ta‘minlashning asosiy shakli sanaladi va odatda davlat budjeti mablag‘lari hisobidan, qonun hujjatlariga muvofiq maxsus jamg‘armalar yoki ish beruvchilar hisobidan amalga oshiriladi.

Xayriya yordami sifatida yuridik yoki jismoniy shaxslar tomonidan iste‘dodli yoshlarni, fan va san‘at namoyondalarini moddiy qo‘llab-quvvatlash hamda rag‘batlantirish maqsadida stipendiya to‘lash jamg‘armalari tashkil etilishi (metsenatlik). Ammo, bugungi kunda talantli shaxslarni moddiy qo‘llab-quvvatlashning bu shakli keng tarqalgan emas. Jamiyatimizning taraqqiy topa borishi bilan uyg‘un ravishda boy va marhamatli shaxslarni, o‘z xalqi kelajagi hamda Vatani taraqqiyoti uchun sidqidildan qayg‘uradigan insonlarning ko‘payib borishi bilan ijtimoiy himoyalashning ushbu shakli keng quloq yozib borishi aniq.

Tuman (shahar) Bandlikka ko‘maklashish markazlarida ro‘yxatga olingan va ishsiz deb e‘tirof etilgan shaxslarni kasbga tayyorlash, qayta tayyorlash, malakasini oshirish ishsiz shaxslarga berilgan muhim ijtimoiy kafolatlardan sanaladi.

Ishsiz shaxslarni kasbga tayyorlash, qayta tayyorlash va malakasini oshirish davrida ular moddiy jihatdan qo‘llab-quvvatlanadilar.

Bunday qo‘llab-quvvatlashning asosiy shakli ularga o‘quv markazida yoxud boshqa o‘quv yurtlarida o‘qish davri davomida stipendiya to‘lab turishdan iboratdir. Bu davrda ularga stipendiya tayinlash va to‘lash O‘zbekiston Respublikasi Mehnat vazirligining 1999-yil 24-apreldagi 2/6-sonli qarori bilan tasdiqlangan (O‘zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi tomonidan 1999-yil 3-iyulda 763-son bilan ro‘yxatga olingan) «Mehnat organlarida ro‘yxatga olingan va ishsiz deb e’tirof etilgan shaxslarni kasbga tayyorlash va qayta tayyorlash, ularning malakasini oshirish davrida stipendiyalar to‘lash tartibi to‘g‘risida»gi Nizom talablariga ko‘ra amalga oshiriladi.

Bu toifadagi shaxslarga tayinlanadigan stipendiya miqdori individual tartibda belgilanadi va avval ishlagan, qaramog‘ida mehnatga yaroqsiz shaxslar bo‘lganlarga ishlagan davrida olgan ish haqining 75 foizi, qaramog‘ida mehnatga yaroqsiz shaxslar bo‘lmaganida esa, 50 foizi (ammo respublikada ana shu davrda tarkib topgan o‘rtacha ish haqidan ko‘p bo‘lmagan miqdorda) miqdorda belgilanadi.

Uzoq tanaffusdan keyin (bir yildan ortiq ishlamasdan yurgan) ishsiz deb topilgan yoki avval ishlamagan shaxslar uchun tayinlanadigan stipendiya shu davrdagi eng kam ish haqi miqdoridan kam bo‘lmasligi kerak.

Korxonalar yoki tashkilot tugatilishi, shtatlar soni yoxud ish o‘rinlari qisqartirilishi sababli ishdan bo‘shatilgan shaxslarga o‘qish davrida ular ishlagan korxonalar hisobidan uch oyga qadar o‘rtacha ish haqi miqdorida nafaqa to‘lab turiladi va shu muddat tamom bo‘lganidan keyin ularga yuqoridagi qoidalarga muvofiq stipendiya tayinlanishi mumkin.

Oliy ta’lim muassasalarida ishlab chiqarishdan ajralgan holda (kunduzi) ta’lim oluvchi shaxslarga stipendiya to‘lash O‘zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi tomonidan 2004-yil 16-aprelda 1339-son bilan ro‘yxatga olingan «Oliy ta’lim muassasalarida talabalariga stipendiyalar tayinlash va to‘lash tartibi to‘g‘risida»gi Yo‘riqnomaga ko‘ra amalga oshiriladi¹.

Ushbu Yo‘riqnomaga ko‘ra stipendiya deganda oliy ta’lim muassasalarining davlat grantlari bo‘yicha va pulli-kontrakt asosida kunduzi

¹O‘zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to‘plami. 2004. 15-son, 184-modda.

o'qiydigan, davomati yaxshi bo'lgan talabalariga (bundan chet ellik talabalar mustasno), O'zbekiston Respublikasining qonun hujjatlarida nazarda tutilgan boshqa to'lovlardan qat'i nazar, to'lanadigan oylik pul ta'minoti (nafaqa) tushuniladi va chuqur kasbiy bilimlarni egallash, davomatni oshirishda talabalarni rag'batlantirish, mutaxassislarni tayyorlash sifatini yanada yuqori ko'tarish uchun zarur sharoitlar barpo etish maqsadini ko'zlaydi.

Oliy ta'lim muassasalarida talabalarga stipendiyalar tayinlash o'quv ishlari bo'yicha prorektor raisligida bir o'quv yiliga fakultetlarning dekanlari, kasaba uyushmasi va yoshlar tashkilotlari, akademik guruhlar, buxgalteriya vakillaridan iborat tarkibda oliy ta'lim muassasasining rektori buyrug'i bilan tasdiqlaydigan komissiya tomonidan amalga oshiriladi.

Talabalarga ularning davomat va o'zlashtirish darajasi e'tiborga olinib, miqdori tabaqalangan holda stipendiya tayinlanadi.

Davlat grantlari bo'yicha va pulli-kontrakt asosida o'qiyotgan bakalavriat va magistratura birinchi kursining talabalariga stipendiya miqdori birinchi o'quv semestrda stipendiyaning bazaviy miqdoridan 0,5 koeffitsientini qo'llagan holda belgilanadi. Ikkinchi va undan keyingi semestrlarda stipendiya tabaqalangan koeffitsientlarni qo'llagan holda talabalarning davomati (reytingi)ga bog'liq ravishda tayinlanadi.

Ulgurayotgan talabalarga stipendiya tayinlash o'quv yilida ikki marotaba o'tkaziladi va stipendiya har bir o'quv semestri oyining birinchi kunidan boshlab to'lanadi.

O'quv semestri uchun reyting nazorati natijalari bo'yicha uzrsiz sabablarga ko'ra akademik qarzga (bir yoki undan ko'p fanlar bo'yicha 55% dan kam reytingga) ega bo'lgan oliy ta'lim muassasalarining talabalari keyingi o'quv semestri oyining birinchi kunidan boshlab stipendiya olish huquqidan mahrum bo'ladilar.

Belgilangan tartibda akademik qarzini bartaraf etgan (tegishli fanlar bo'yicha 55 va undan ko'p foiz to'plagan) talabalarga stipendiya akademik qarz topshirilganidan keyingi oyning 1-kunidan boshlab, keyingi o'quv semestriga qadar 0,5 koeffitsientini qo'llagan holda tayinlanadi.

Tegishli hujjatlar bilan tasdiqlangan kasalligi yoki boshqa uzrli sabablarga ko'ra akademik qarzga ega bo'lgan talabalar, oliy ta'lim muassasasining rektori belgilaydigan individual muddatlarda akademik qarzlarini bartaraf etmagunlariga qadar stipendiya olishdan bekor qilinmaydi.

Pensiya oladigan talabalarga stipendiya umumiy asoslarda tayinlanadi.

Talabalarga akademik ta'til davrida stipendiya to'lanmaydi.

Talaba akademik ta'tildan qaytganidan keyin unga stipendiya to'lash avvalgi miqdorlarda joriy o'quv semestrining oxiriga qadar tiklanadi.

Ilgari ma'muriyat tashabbusi bilan oliy ta'lim muassasasidan chiqarilgan talabalar o'qishga tiklanganda mazkur o'quv semestri uchun stipendiya, stipendiya bazaviy miqdoridan 0,5 koeffitsientini qo'llagan holda tayinlanadi.

Homiladorlik va tug'ish ta'tili davri uchun talabalarga stipendiya qonun hujjatlari bilan belgilangan muddatlar mobaynida to'liq miqdorda to'lanadi.

Oliy ta'lim muassasasining rektori iste'dodli va jamoat hayotida faol bo'lgan talabalarga Vasiylik va Ilmiy kengashlar tavsiyalari bo'yicha, tegishli yil uchun oliy ta'lim muassasasining xarajatlar smetasida tasdiqlangan stipendiya fondi doirasida Oliy ta'lim muassasasining shaxsiy stipendiyalarini belgilashga haqlidir. Oliy ta'lim muassasasi talabasi-ning shaxsiy stipendiyasi miqdori reyting nazorati bo'yicha eng yuqori ballarga ega bo'lgan talabalarning stipendiyasidan 10 foiz ko'p qilib belgilanadi. Talabalarning stipendiyalaridan ushlab qolishlarga yo'l qo'yilmaydi.

Stipendiyani to'g'ri tayinlash va to'lash ustidan oliy ta'lim muassasasining stipendiya komissiyasi nazoratni amalga oshiradi.

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2008-yil 13-oktabrdagi 226-sonli «O'zbekiston iqtidorli yoshlarini taqdirlash va moddiy rag'batlantirish to'g'risida»gi qarorida «Qobiliyatli yoshlarni rag'batlantirish tizimini yanada takomillashtirish, ularni faol yaratuvchilik faoliyatiga keng jalb etish, iqtidorli o'quvchilarni, talabalar va aspirantlarni qo'llab-quvvatlash hamda munosib taqdirlash, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining «Yoshlar yili» davlat dasturi to'g'risida» 2008-yil 29-fevraldagi PQ-805-son qarorida qo'yilgan vazifalarni

amalga oshirish maqsadida talabalar uchun O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining davlat stipendiyalari va nomli davlat stipendiyalari tayinlash tartibi takomillashtirildi¹.

Mazkur qaror bilan «Talabalar uchun O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining davlat stipendiyalari va ularni tayinlash tartibi to‘g‘risida»gi Nizom tasdiqlandi va unga binoan O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining davlat stipendiyalari O‘zbekiston Respublikasi fuqarolari bo‘lgan davlat oliy ta‘lim muassasalari (bakalavriat va magistratura bo‘yicha alohida) talabalariga O‘zbekiston Respublikasi Oliy va o‘rta maxsus ta‘lim vazirligi tomonidan o‘tkaziladigan tanlov natijalariga binoan tayinlanadigan bo‘ldi. Bunda talabgor talaba O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining davlat stipendiyalarini tayinlash uchun belgilangan mezonlarga javob berishi kerakligi belgilab qo‘yildi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining davlat stipendiyasiga nomzodlar ko‘rsatish, talabgorlar nomzodlarining o‘qishdagi va ilmiy (ijodiy) faoliyatdagi muvaffaqiyatlari ommaviy ravishda muhokama qilingandan so‘ng, davlat oliy ta‘lim muassasalarining ilmiy kengashlari tomonidan amalga oshiriladi. Nomli davlat stipendiyalari va ularni tayinlash tartibi shu haqdagi Nizomga muvofiq amalga oshiriladi hamda Beruniy, Ibn Sino, Navoiy, Ulug‘bek va Imom al-Buxoriy nomidagi davlat stipendiyalari O‘zbekiston Respublikasi davlat oliy ta‘lim muassasalarining bakalavriat bo‘yicha o‘qiyotgan oxirgi ikki kurs talabalariga tayinlanadi. Stipendiyalarni tayinlash uchun belgilangan mezonlarni bajarish kerak bo‘ladi.

Nomli davlat stipendiyalarini tayinlash uchun nomzodlar ko‘rsatish davlat oliy ta‘lim muassasalari ilmiy kengashlari tomonidan, talabgorlarning o‘quv va ilmiy faoliyatlarini ommaviy muhokama qilish asosida amalga oshiriladi.

O‘zbekiston Respublikasi Oliy va o‘rta maxsus ta‘lim vazirligi stipendiyalar tayinlash haqidagi tavsiyanomalarni yiliga bir marta ko‘rib chiqadi.

Nomli davlat stipendiyalariga sazovor bo‘lgan talabalar bakalavriatni tugatganidan so‘ng bir yil mobaynida, tegishli mutaxassislik bo‘yicha magistraturaga kirish imtihonlarisiz, grant asosida qabul qilinadilar.

¹O‘zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to‘plami. 2008. 42-son, 422-modda.

NAZORAT UCHUN SAVOLLAR

1. Nafaqalar haqida nimalarni bilasiz va ular pensiyalardan qanday farqlanadi?
2. Nafaqalarning qanday turlari bor?
3. Davlat ijtimoiy sugʻurta nafaqalari toʻgʻrisida gapirib bering.
4. Davlat ijtimoiy sugʻurta nafaqalarining qanday turlari bor?
5. Vaqtincha mehnatga layoqatsizlik varaqasi nima va u kim tomonidan beriladi?
6. Sotsial nafaqalar nima va ular kimlarga tayinlanadi?
7. Stipendiyalarning ijtimoiy muhofazalashdagi ahamiyati qanday?

VI BOB.
O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI MOLIIYA
VAZIRLIGI HUZURIDAGI BYUDJETDAN TASHQARI
PENSIYA JAMG‘ARMASI

***6.1. Budjetdan tashqari Pensiya jamg‘armasi, uning tuzilishi,
asosiy vazifalari va vakolatlari***

Aholini pensiya ta’minoti sohasida amalga oshirilayotgan huquqiy va tashkiliy islohotlar pensiya ta’minoti tizimlarini yana ham takomillashtirish, pensionerlar huquqlari kafolatlarini kuchaytirishga qaratilganligi bilan diqqatga sazovordir.

Bu sohada 2005-yildan buyon amalga oshirib kelinayotgan yangilash va o‘zgartirishlarning mohiyati aynan mablag‘lardan manzilli va o‘rinli foydalanish, pensiya ta’minoti tizimi samaradorligini oshirishga qaratiladi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2009-yil 30-dekabrda PF-4161-sonli «Fuqarolarning pensiya ta’minoti tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida»gi Farmoni qabul qilinishi pensiya islohotlari yangi bosqichga kirganini ko‘rsatdi va ushbu Farmonga ko‘ra aholini ijtimoiy himoya qilish bo‘yicha chora-tadbirlarni amalga oshirishda aniq yo‘naltirilgan va tabaqalashgan yondashuvni yanada kuchaytirish, kam ta’minlangan oilalarni zarur moddiy yordam ko‘rsatish orqali qo‘llab-quvvatlashni ta’minlash, ijtimoiy xizmat ko‘rsatish tizimi xodimlari mehnatini rag‘batlantirish va haq to‘lash mexanizmini takomillashtirish, shuningdek, aholini ijtimoiy himoya qilish muassasalarining moddiy-texnika bazasini mustahkamlash maqsadida O‘zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi, Mehnat va aholini ijtimoiy muhofaza qilish vazirligi, Qoraqalpog‘iston Respublikasi Vazirlar Kengashi, viloyatlar va Toshkent shahar hokimliklarining viloyatlar, shaharlar va tumanlarda O‘zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi

huzuridagi Budjetdan tashqari Pensiya jamg'armasi bo'linmalarini tashkil etish to'g'risidagi taklifiga ko'ra ijtimoiy ta'minot, pensiyalar, shuningdek, ijtimoiy kompensatsiya va boshqa to'lovlarni tayinlash, moliyalashtirish, ularning to'lanishini hisobga olish va monitoringini yuritish 2010-yilning 1-yanvaridan boshlab Pensiya jamg'armasining tegishli hududiy bo'linmalari tomonidan amalga oshiriladi.

O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi huzuridagi Budjetdan tashqari Pensiya jamg'armasi zimmasiga qo'shimcha ravishda quyidagi asosiy vazifalar va funksiyalar yuklansin:

– fuqarolarning davlat pensiya ta'minotini tashkil qilish, fuqarolarga pensiyalar, ijtimoiy, kompensatsiya va boshqa to'lovlarni tayinlash, qonun hujjatlarida belgilangan tartibda pensiyalar hamda boshqa to'lovlarning miqdorlari qayta hisoblab chiqilishini ta'minlash;

– pensiyalar hamda boshqa to'lovlarni to'liq hajmda moliyalashtirish va to'lanishini tashkil qilish, ular bo'yicha hisob va hisobotni yuritish;

– pensiyalar tayinlanishi va qayta hisoblab chiqilishini tizimli asosda doimiy tahlil qilish va monitoringini olib borish, fuqarolarning pensiya ta'minotiga yo'naltiriladigan mablag'lardan qat'iyan maqsadli foydalanilishini ta'minlash;

– mehnat mayibliги yoki kasb kasalligi oqibatidagi nogironlik bo'yicha tayinlangan pensiyalarni to'lashga mablag'larni da'volar bo'yicha aybdor yuridik va jismoniy shaxslardan belgilangan tartibda undirib olishni tashkil qilish;

– tibbiy-mehnat ekspertizasi xizmati faoliyatini tashkil etish.

O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi huzuridagi Budjetdan tashqari Pensiya jamg'armasi o'z faoliyatini O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2010-yil 19-fevraldagi 30-son Qarori bilan tasdiqlangan «O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi huzuridagi Budjetdan tashqari Pensiya jamg'armasi to'g'risida»gi Hizomga asosan amalga oshiradi¹.

Jamg'armaning pensiyalar, nafaqalar, kompensatsiya to'lovlari va boshqa to'lovlarni tayinlash, to'lash, moliyalashtirish, moliyaviy resurslarni jamlash, belgilangan maqsadlarga yo'naltirish, monitoringini

¹O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to'plami. 2010. 8-son, 62-modda.

amalga oshirish, shuningdek, tibbiy-mehnat ekspertiza xizmatini tashkil etish yuzasidan asosiy vazifalari, funktsiya va vakolatlari ushbu Nizomga binoan belgilangandir.

Jamg'arma o'z faoliyatida O'zbekiston Respublikasi Bosh vaziri o'rinbosari – Moliya vaziriga hamda jamg'arma kuzatuv kengashi raisiga bo'ysungani holda boshqa davlat organlari va tashkilotlari bilan o'zaro aloqada ish yuritadi.

Jamg'arma tarkibi:

Qoraqalpog'iston Respublikasi, viloyatlar va Toshkent shahridagi boshqarmalari;

- tuman (shahar) bo'limlari;
- respublika tibbiy-ijtimoiy ekspertiza inspeksiyasi;
- tibbiy mehnat ekspertiza xizmatining tuman, tumanlararo, shahar, ixtisoslashgan xizmatlari kiradi.

O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi huzuridagi Budjetdan tashqari Pensiya jamg'armasi (keyingi o'rinlarda Jamg'arma deb ataladi) ijtimoiy ta'minot tizimida davlat kafolatlarini amalga oshirishga yo'naltiriladigan maqsadli moliyaviy resurslarni jamlaydi.

Majburiy ajratmalar, badallar va boshqa to'lovlarning yig'ilishini ta'minlash, shuningdek, ushbu mablag'larning Jamg'armaga to'liq tushishini nazorat qilish O'zbekiston Respublikasi Davlat soliq xizmati organlari tomonidan amalga oshiriladi.

Jamg'arma yuridik shaxs hisoblanadi, O'zbekiston Respublikasi Markaziy bankida mustaqil balansga, hisob raqamlariga, shu jumladan xorijiy valutadagi hisob raqamlariga, O'zbekiston Respublikasi Davlat gerbi tasviri tushirilgan gerbli muhrga ega bo'ladi.

Majburiy ajratmalar, badallar va boshqa to'lovlardan tushgan mablag'larni jamlash yo'li bilan ijtimoiy ta'minot tizimida davlat kafolatlarini amalga oshirish, shuningdek, mablag'larning pensiyalar va kompensatsiyalarni to'lashga maqsadli va samarali sarflanishi ustidan nazoratni kuchaytirish Jamg'arma faoliyatining maqsadi hisoblanadi.

Quyidagilar Jamg'armaning asosiy vazifalari hisoblanadi:

- fuqarolarning ijtimoiy ta'minotga va ijtimoiy sug'urtaga bo'lgan davlat tomonidan kafolatlangan huquqlarini amalga oshirish;

- respublikada pensiya ta’minotini yanada takomillashtirish;
- majburiy ajratmalar, badallar va boshqa to‘lovlarni Jamg‘armaning budjetdan tashqari maxsus hisob raqamida markazlashtirilgan tartibda jamlash;
- pensiyalar va kompensatsiyalarni to‘lashga xarajatlarni moliyallashtirish;
- Jamg‘arma mablag‘larining maqsadli va samarali sarflanishi ustidan nazoratni ta’minlash;
- Jamg‘arma mablag‘larini ko‘paytirishni tashkil etish;
- davlat ijtimoiy sug‘urtasi sohasida xalqaro aloqalarni amalga oshirish, chet el tajribasini o‘rganish va undan foydalanish.

Tarkibi O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan tasdiqlanadigan Jamg‘armaning Kuzatuv kengashi Jamg‘armani boshqarishning yuqori organi hisoblanadi.

Jamg‘armaning Kuzatuv kengashi majlislari har yarim yilda kamida bir marta o‘tkaziladi.

Jamg‘armaning Ijro etuvchi direktori O‘zbekiston Respublikasi Moliya vazirining taqdimnomasiga binoan O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan tayinlanadi va vazir o‘rinbosariga tenglashtiriladi.

Budjetdan tashqari Pensiya jamg‘armasining Ijro etuvchi direktori, zarurat bo‘lganda, Ijro etuvchi direksiya tuzilmasiga xodimlarning umumiy soni doirasida o‘zgartirishlar kiritish huquqiga ega.

6.2. Budjetdan tashqari Pensiya jamg‘armasi mablag‘lari va ularning shakllantirilishi. Yagona ijtimoiy to‘lov

Pensiya jamg‘armasiga yuridik va jismoniy shaxslar tomonidan to‘lanadigan boshqa majburiy badallar Budjetdan tashqari Pensiya jamg‘armasining yillik daromadlari va xarajatlarining moliyaviy ko‘rsatkichlari har yili qayta ko‘rib chiqiladi va O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Makroiqtisodiy ko‘rsatkichlar istiqbollari va O‘zbekiston

Respublikasi davlat budjetining kelgusi yil uchun asosiy parametrlari to'g'risidagi Qarori bilan belgilanadi¹.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining yuqorida qayd etilgan qarorida Budjetdan tashqari Pensiya jamg'armasining 2012-yil uchun daromadlari 6 145 mlrd so'm va xarajatlari 6 030,0 mlrd so'm qilib belgilangan va bu ko'rsatkich aholi ijtimoiy ta'minoti va ijtimoiy muhofazasini amalga oshirilishida Pensiya jamg'armasi qay darajada katta o'rin tutishini yaqqol ko'rsatadi.

Jamg'arma daromadlari quyidagi manbalar hisobiga shakllantiriladi:

– mulkchilik shakllaridan qat'i nazar, yuridik shaxslarning mehnatga haq to'lash fondidan yagona ijtimoiy to'lov tushumlarining belgilangan miqdori;

– alohida yuridik shaxslarning ijtimoiy sug'urta badallari;

– yuridik shaxs bo'lmasdan tadbirkorlik faoliyati bilan shug'ullanuvchi jismoniy shaxslarning ijtimoiy sug'urta badallari;

– fuqarolarning ish haqidan sug'urta badallari;

– qo'shilgan qiymat solig'i va aksiz solig'i chiqarib tashlangan holda korxonalar, muassasalar va tashkilotlarning tovarlar sotish (ishlar, xizmatlar ko'rsatish) hajmidan ajratmalari, shuningdek, kommunal xo'jalik tizimi korxonalari uchun faoliyat xususiyatiga ko'ra issiqlik energiyasi, suv va tabiiy gazning xarid qiymati hajmlari chiqarib tashlangan holda. Bunda uzoq muddatli aktivlar va o'zi foydalanadigan boshqa mol-mulki sotish majburiy mablag' ajratish obyektiga kiritilmaydi.

Jamg'arma mablag'lari qonun hujjatlarida nazarda tutilgan boshqa majburiy va ixtiyoriy to'lovlar, regress tartibida qaytarib olingan mablag'lar hisobidan ham shakllanadi.

Yagona ijtimoiy to'lov Budjetdan tashqari pensiya jamg'armasini shakllantirishning asosiy manbayi sanaladi.

Yagona ijtimoiy to'lovni to'lovchilar quyidagilardir:

– yuridik shaxslar – O'zbekiston Respublikasi rezidentlari;

¹Jumladan, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2011-yil 30-dekabrda «Makroiqtisodiy ko'rsatkichlar istiqbollari va 2011-yil uchun O'zbekiston Respublikasi davlat budjeti asosiy parametrlari to'g'risida»gi PQ-1675-sonli Qarori. O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to'plami. 2011. 52-son, 561-modda.

– O‘zbekiston Respublikasida faoliyatni doimiy muassasa, chet ellik yuridik shaxslarning vakolatxonolari va filiallari orqali amalga oshiruvchi O‘zbekiston Respublikasi norezidentlari.

Jismoniy shaxslar – O‘zbekiston Respublikasi fuqarolari, shuningdek, O‘zbekiston Respublikasi hududida doimiy yashovchi va ishlovchi fuqaroligi bo‘lmagan shaxslar fuqarolarning Budjetdan tashqari Pensiya jamg‘armasiga sug‘urta badallari (bundan buyon matnda sug‘urta badallari deb yuritiladi) to‘lovchilardir.

Sug‘urta badallarini hisoblash va ushlab qolish majburiyati, shuningdek, ularning to‘g‘ri hisoblab chiqarilishi uchun javobgarlik ish beruvchi zimmasiga yuklatiladi

Ish haqi tarzidagi daromadlar yagona ijtimoiy to‘lovning va sug‘urta badallarining soliq solish obyektidir.

Yagona ijtimoiy to‘lov va sug‘urta badallari quyidagi to‘lovlarga nisbatan hisoblanmaydi:

1) kompensatsiya to‘lovlari;

2) xodimga hisoblanadigan va uning roziligi bilan tegishli budjet yoki xayriya jamg‘armalarga (shanbaliklar, yakshanbaliklar va shu kabi- lar uchun) o‘tkaziladigan ish haqi tarzidagi daromadlar;

3) xodimning muhim sanasi, uzoq yillik xizmati, jamoat faoliyatida erishgan yutuqlari munosabati bilan unga beriladigan rag‘batlantirish tarzidagi to‘lovlar;

4) xodimga tabiiy ofat, boshqa favqulodda holatlar munosabati bilan to‘lanadigan to‘lovlar;

5) yosh mutaxassislariga oliy o‘quv yurtini tamomlaganlaridan so‘ng ta‘til vaqti uchun yuridik shaxslar hisobidan to‘lanadigan to‘lovlar.

Yagona ijtimoiy to‘lov va sug‘urta badallari har oyda soliq solinadigan bazadan hamda belgilangan stavkalardan kelib chiqqan holda hisoblab chiqariladi.

Yagona ijtimoiy to‘lov yuridik shaxslarning mablag‘lari hisobidan to‘lanadi, sug‘urta badallari esa xodimlarning ish haqidan ushlab qolinadi va soliq agentlari tomonidan o‘tkaziladi.

Yagona ijtimoiy to‘lovning hisob-kitobi soliq bo‘yicha hisobga olish joyidagi davlat soliq xizmati organlariga soliq to‘lovchi tomonidan ortib boruvchi yakun bilan:

Sug'urta badallarining hisob-kitobi ro'yxatdan o'tkazilgan joydagi davlat soliq xizmati organlariga soliq to'lovchi tomonidan ortib boruvchi yakun bilan yilning har choragida hisobot davridan keyingi oyning 25-kunidan kechiktirmay taqdim etiladi.

Yakka tartibdagi tadbirkorlar hamda yuridik shaxs tashkil etgan va tashkil etmagan holda tuzilgan dehqon xo'jaliklarining a'zolari sug'urta badallari miqdorini oyiga eng kam ish haqidan kam bo'lmagan miqdorda, qoramollarni yetishtirish bilan shug'ullanuvchi dehqon xo'jaliklarining a'zolari esa oyiga eng kam ish haqining 50 foizidan kam bo'lmagan miqdorda belgilaydi. Dehqon xo'jaliklarining a'zolari sug'urta badallarini ixtiyoriy ravishda to'laydi.

Yagona ijtimoiy to'lov va Pensiya jamg'armasiga majburiy ajratmalarning stavkalar har yili kelgusi yil uchun makroiqtisodiy ko'rsatkichlar va Davlat budjeti parametrlari tasdiqlanishi chog'ida belgilab beriladi. Jumladan, 2012-yil uchun yagona ijtimoiy to'lov stavkasi ish haqi fondining 25 foyizi, shundan 24,5 foyizi Budjetdan tashqari Pensiya jamg'armasiga to'lanishi nazarda tutilgan¹.

6.3. Budjetdan tashqari Pensiya jamg'armasiga yagona ijtimoiy to'lov va boshqa majburiy badallarni to'lashdan bo'yin tovlaganlik uchun iqtisodiy va huquqiy javobgarlik

Budjetdan tashqari Pensiya jamg'armasiga belgilangan badallar va boshqa majburiy to'lovlarni to'lash yuzasidan yuridik va jismoniy shaxslar zimmasiga yuklatilgan moliyaviy majburiyatlar qonun hujjatlarida belgilab qo'yilgan muddatlarda, tartiblarda va to'la hajmda bajarilishi shart bo'lib, bu majburiyatni aybli ravishda bajarilmasligi yoki har qanday shaklda uni bajarishdan bo'yin tovlash qonun buzganlik xatti-harakati sifatida baholanadi.

Jamg'armaga badallar va boshqa majburiy to'lovlarni to'lash yuzasidan majburiyatlar bajarilmagani taqdirda korxonalar va tashkilotlarga nis-

¹Qarang: O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2011-yil 30-dekabrda tasdiqlagan «O'zbekiston Respublikasining 2012-yilga Asosiy makroiqtisodiy ko'rsatkichlari va davlat budjeti parametrlari to'g'risida»gi PQ-1675 -sonli Qarori.

batan moliyaviy sanksiyalar (iqtisodiy jazo choralari), ularning rahbarlari va boshqa mansabdor shaxslariga, shuningdek, yakka tadbirkorlik bilan mashgʻul boʻlgan shaxslarga moliyaviy taʼsir choralari hamda huquqiy taʼsir koʻrsatishning qonunda nazarda tutilgan boshqa choralari koʻrilishi koʻzda tutilgan. Chunki, Jamgʻarma daromadlarining tegishli parametrlar doirasida oʻz vaqtida va toʻla hajmda shakllantirilishi aholining ehtiyojmand tabaqalarini ijtimoiy himoyalash, pensiya va nafaqalarning oʻz vaqtida toʻlanishi, boshqa ijtimoiy muhofaza davlat tadbirlarining amalga oshirilishi uchun zarurdir.

Hozirgi moliya qonunchiligi tizimi bu sohadagi huquqbuzarliklarning oldini olish, bunday qonunbuzarliklarga yoʻl qoʻyilgani holda esa aybdorlarni aniqlash, jazoning muqarrarligini taʼminlashga qaratilgan muhofaza mexanizmlarini nazarda tutadi. Shuningdek, moliya, maʼmuriy, jinoyat huquqi normalari bilan ham Pensiya jamgʻarmasi moliyaviy manfaatlari muhofaza etilishi nazarda tutilgan.

Huquqiy javobgarlik – shaxs tomonidan aybli ravishda (qasd yoki ehtiyotsizlik, harakat yoxud harakatsizlik oqibatida) sodir etgan huquqqa xilof, ijtimoiy xavfli, zararli xatti-harakati uchun davlat majburlovi choralari qoʻllanilishidan iborat. Bunday davlat majburlovi jinoyatchilikni oldini olish, huquqbuzarlik sodir etgan shaxsni jazolash, buzilgan huquqlarni qayta tiklash, davlat, jamiyat va ayrim fuqarolarning qonun bilan qoʻriqlanadigan huquqlari va manfaatlarini muhofaza etishdan iborat.

Moliyaviy javobgarlik ikki asosiy funksiyani bajaradi. Ular:

– jazolash funksiyasi. Yaʼni moliya sohasidagi oʻz majburiyatlarini bajarishdan boʻyin tovlagan toʻlovchiga davlat moliyaviy manfaatlarini muhofaza qilish yoʻlida huquqiy zoʻrlilik choralari qoʻllash;

– moliya qonunchiligi talablari buzilishi (tegishli yagona ijtimoiy toʻlov badal summasini yoki majburiy toʻlovni) oqibatida davlat xazinasiga (Pensiya jamgʻarmasi budjetiga) yetkazilgan moliyaviy zarar oʻrnini qoplash, davlatning buzilgan moliyaviy huquqlarini tiklash kabilardan iborat.

NAZORAT UCHUN SAVOLLAR

1. Moliya vazirligi huzuridagi Budjetdan tashqari Pensiya jamg'armasining faoliyat maqsadi nimalardan iborat?
2. Pensiya jamg'armasi faoliyatini tartibga soluvchi qonun hujjatlari haqida so'zlab bering.
3. Pensiya jamg'armasining tashkiliy tuzilishi qanday?
4. Pensiya jamg'armasi mablag'lari qanday manbalar hisobiga shakllantiriladi?
5. Yagona ijtimoiy to'lov nima?
6. Yagona ijtimoiy to'lovni kimlar to'laydi va uni to'lash masalalari qaysi me'yoriy huquqiy hujjat bilan tartibga solinadi?
7. Pensiya jamg'armasiga majburiy badallar nima va ular kim tomonidan to'lanadi?
8. Yagona ijtimoiy to'lov va majburiy badallar to'lash qoidalarini buzganlik uchun qanday javobgarlik choralari belgilangan?
9. Pensiya jamg'armasi moliyaviy mablag'lari nima maqsadlar uchun sarflanadi?

VII BOB.

O'ZGALAR YORDAMIGA MUHTOJ QARIYALAR, NOGIRONLAR VA YOLG'IZ QOLGAN FUQAROLARGA IJTIMOIY YORDAM KO'RSATISH VA UNING SHAKLLARI

7.1. O'zgalalar yordamiga muhtoj shaxslar tushunchasi, ularga ko'rsatiladigan ijtimoiy yordamlar tasnifi va uning zarurligi

Aholi hayot kechirish darajasini shakllantirish, inson kapitalini qayta yaratish, ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish, ijtimoiy infratuzilmalarni barpo etish, ularning bir maromda faoliyat yuritishini ta'minlash sohasida davlat tomonidan olib borilayotgan muayyan ichki siyosat yo'nalishi ijtimoiy siyosatni tashkil qiladi.

Konstitutsiyaviy huquqlar davlat ijtimoiy siyosati orqali ro'yobga chiqariladi. Davlat tomonidan turli ijtimoiy dasturlar ishlab chiqilishi va ularning amalga oshirilishi, moliyalashtirish normativlarini belgilash, ijtimoiy-iqtisodiy andozalar, qonunlar, boshqa me'yoriy hujjatlar qabul qilish kabi vositalardan keng foydalaniladi.

Manzilli va ehtiyojmand aholi tabaqalarini moddiy va ijtimoiy muhofazalashga qaratilgan ijtimoiy muhofazalash siyosati obyektiv sabablarga ko'ra o'zini o'zi ta'minlay olmaydigan, o'ziga-o'zi xizmat qila olmaydigan fuqarolarni davlat va jamiyat himoyasiga olishni, ularga har tomonlama munosib hayot sharoitlarini ta'minlab berishni, jismoniy kamchiligi yoki boshqa to'siqlar tufayli jamiyatda kamsitilgan va qashshoq holda bo'lib qolishlariga yo'l qo'ymaslikni nazarda tutadi.

Fuqarolarning ijtimoiy muhofazaga muhtojliklarini aniqlash chog'ida bozor munosabatlari sharoitida boqimandalik, davlat va jamiyat hisobidan kun ko'rishga yo'l qo'yib bo'lmasligi nazarda tutilishi zarur va ijtimoiy muhofaza choralarini aniq manzilliligi va uning o'z egalariga yetib borishini to'la ta'minlashning nechog'lik muhimligi shundan ham ko'rinib turadi.

Ijtimoiy muhofaza yordami amalga oshirilayotganida qonun hujjatlarida nazarda tutilgan muhtojlikni aniqlash tamoyillari va mezonlariga qat'iy amal qilish, muhtojlarni yordamdan adolatsiz ravishda mahrum bo'lib qolishlariga yo'l qo'yib bo'lmaganidek, moddiy ta'minoti yaxshi shaxslarni aldov va adolatsizlik yo'li bilan noqonuniy ta'minot olishlariga ham yo'l qo'yib bo'linmasligi nazarda tutilmog'i kerak.

Ushbu talablarning bajarilishi va aholi muhtoj tabaqalarini aniq yo'naltirilgan holda kuchli ijtimoiy muhofaza etilishi sohasidagi davlat siyosatining ro'yobga chiqarilishi, jamiyatda ijtimoiy adolat va ma'naviy sog'lom muhit qaror toptirilishida ijtimoiy muhofaza va ijtimoiy yordamni bevosita amalga oshirilishi sohasida ish olib borayotgan davlat organlari, fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish idoralari va ularda band bo'lgan mansabdor shaxslar muhim rol o'ynashlari e'tiborda saqlanmog'i lozim.

7.2. Yolg'iz keksalar va nogironlarga o'z uylarida ijtimoiy xizmat ko'rsatish

O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi tomonidan 2000-yil 23-fevralda 900-son bilan ro'yxatga olingan «Yolg'iz keksalarga, pensionerlar va nogironlarga ijtimoiy yordam ko'rsatish tartibi»¹ haqidagi normativ hujjatga ko'ra, fuqarolarning yolg'iz keksa, yolg'iz pensioner yoki yolg'iz nogiron ekanligini aniqlash tartibi, ularga ijtimoiy yordam ko'rsatish masalalari belgilab berilgan. Doimiy parvarishga muhtoj va O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 1991-yil 27-maydagi 212-sonli «O'zgarlar parvarishiga muhtoj yolg'iz pensionerlarni ijtimoiy himoyalash yuzasidan qo'shimcha tadbirlar to'g'risida»gi Farmonida nazarda tutilgan asoslarga ko'ra imtiyozdan foydalanuvchilarga mazkur tartib qo'llanilmasligi nazarda tutilgan.

Yuqoridagi tartibning 1-bandiga ko'ra pensiya yoshiga yetgan (erkaklar 60 yoshga, ayollar 55 yoshdan oshgan) yoki yoshidan qat'i nazar belgilangan tartibda I yoki II guruh nogironi deb topilgan va farzandlari (shu jumladan, o'gay farzandlari), ota-onasi, eri yoki xotini, homiysi yoki vasiysi bo'lmagani holda alohida uy, xonadon yoki yotoqxonada

¹Qarang: O'zbekiston Respublikasi vazirliklari, davlat qo'mitalari va idoralari-ning me'yoriy hujjatlari Axborotnomasi. 2000. 4-son.

istiqomat qiladigan fuqarolar «yolg'iz keksalar, pensionerlar va nogironlar» deb e'tirof etilishlari mumkin.

Yolg'iz keksa, pensioner yoki nogironga ijtimoiy yordam ko'rsatilishi uchun ular yashaydigan ma'muriy hudud (mahalla, shaharcha, ovul) tashqarisida yashovchi yaqin qaridoshlari bo'lsa-da, ammo ular doimiy moddiy yordam ko'rsatish imkoniyatiga ega bo'lmasalar;

ularning farzandlari yoki ota-onasi uzoq muddatli davolanishda yoki ozodlikdan mahrum qilish joylarida jazoni o'tayotgan bo'lsalar;

yolg'iz keksa, pensioner yoki nogiron er-xotin fuqarolar birgalikda yashasalar-da, ammo yaqin qarindoshlari bo'lmasa;

basharti ular nogiron farzand bilan birga yashayotgan bo'lsalar amalga oshiriladi.

Yolg'iz keksa, yolg'iz pensioner va yolg'iz nogironlar Bandlikka ko'maklashish va aholini ijtimoiy muhofaza qilish markazlari va fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari (mahalla va qishloq fuqarolar yig'inlari) tomonidan aniqlanadi va hisobga olib boriladi.

Ularni yolg'iz keksa, yolg'iz pensioner yoki yolg'iz nogiron deb topilishlari uchun quyidagi hujjatlar talab etiladi:

– yolg'iz keksa, yolg'iz pensioner yoki yolg'iz nogiron fuqaroning bu haqdagi arizasi yoki mahalla oqsoqolining tavsiyanomasi;

– yakka-yolg'iz fuqaroning turarjoy, maishiy va moddiy sharoitlari haqida tuzilgan dalolatnoma;

– zarurat bo'lganida Bandlikka ko'maklashish va aholini ijtimoiy muhofaza qilish markazlari tomonidan yakka-yolg'iz fuqaroning uyida ijtimoiy xizmatlar ko'rsatilishiga muhtoj ekanligi yuzasidan Tibbiy maslahat komissiyasi (VKK) yoxud Tibbiy mehnat ekspertiza komissiyasi (TMEK)ning xulosasi olinishi mumkin.

Yakka-yolg'iz fuqaro mavjudligi ma'lum bo'lib qolgani taqdirda mahalla (qishloq) fuqarolar yig'ini tuman Ishga joylashtirishga ko'maklashish va aholini ijtimoiy muhofaza qilish bo'limi xodimi bilan birgalikda zudlik bilan uning turarjoy, maishiy va moddiy turmush sharoitini o'rganishga kirishadi va natijalarini yakka-yolg'iz fuqaroga ma'lum qiladi. Yakka-yolg'iz shaxs ushbu qarordan norozi bo'lgan taqdirda tuman (shahar) hokimiyatiga shikoyat qilishi mumkin va bunday holda 10 kunlik muddatda qayta tekshirish amalga oshiriladi.

Yakka-yolg'iz fuqaro oila a'zolari tarkibi o'zgarishi tufayli u o'z maqomidan ayrilgani taqdirda yoki ijtimoiy yordam olishdan bosh tortish

haqida ariza bergani, boshqa hududga ko‘chib ketgani yoxud vafot etgani taqdirda ijtimoiy yordam ko‘rsatish bekor qilinadi.

Yakka-yolg‘iz fuqarolarga ijtimoiy yordam ko‘rsatish tartibi. Ijtimoiy yordam mintaqaviy (tuman yoki shahar mintaqasidagi) dasturlar doirasida Bandlikka ko‘maklashish va aholini ijtimoiy muhofaza qilish markazlari tomonidan belgilanadigan shakllarda davlat budjeti mablag‘lari, korxonalar va tashkilotlar, homiylik tashkilotlari mablag‘lari hisobidan amalga oshiriladi. Shuningdek, homiy tashkilotlar va savobtalab fuqarolar tomonidan Pensiya jamg‘armasi tuman (shahar) bo‘limi ishtirokida yakka yolg‘iz fuqarolarga bevosita amalga oshirilishi ham mumkin bo‘ladi.

Xorijiy davlatlar va xalqaro xayriya tashkilotlaridan yuborilgan insonparvarlik yordamlari belgilangan tartibda tuzilgan ro‘yxatlarga ko‘ra Bandlikka ko‘maklashish va aholini ijtimoiy muhofaza qilish markazlari tomonidan taqsimlanadi.

7.3. Pensionerlar va nogironlarni sihatgoh va oromgohlarda dam olishlarini tashkil etish

Qariyalar va nogironlarga ko‘rsatiladigan ijtimoiy yordam shakllaridan biri sifatida ularni sihatgoh va oromgohlarga yo‘llash va shu yo‘l bilan salomatliklarini tiklash, kasal bo‘lishlarini oldini olish ishlari amalga oshiriladi.

O‘zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi tomonidan 2005-yil 6-iyulda 1489-son bilan ro‘yxatga olingan «Nogironlar va pensionerlarni sanatoriy-kurort sihatgoh yo‘llanmalari bilan bepul ta‘minlash tartibi to‘g‘risida»gi Yo‘riqnomaga asosan ishlamaydigan nogironlar va pensionerlar Budjetdan tashqari Pensiya jamg‘armasining tuman (shahar) bo‘limlari tomonidan bepul yo‘llanmalar bilan ta‘minlanadilar.

Bunday ijtimoiy yordamdan foydalanish huquqiga ega shaxslar jumlasiga quyidagilar kiradi:

- Ikkinchi jahon urushi nogironlari hamda Ikkinchi jahon urushi qatnashchilari va ularga tenglashtirilgan shaxslar, shuningdek, I guruh nogironini kuzatib boradigan fuqarolar;
- urush qatnashchilari va ularga tenglashtirilgan shaxslar, shuningdek, I guruh nogironini kuzatib borayotgan shaxslar;

- vafot etgan harbiy xizmatchilarning oila a'zolari;
- respublika miqyosidagi shaxsiy pensiya oluvchi shaxslar;
- front ortidagi mehnat frontida halol xizmati va harbiy xizmati uchun sobiq SSSR davlati orden va medallari bilan taqdirlanganlar;
- Chernobil atom elektr stansiyasidagi falokatni bartaraf etishda qatnashgan va nogiron deb topilganlar;
- yadro poligonlari va boshqa yadro-radiatsiya obyektlarida harbiy xizmatni o'tagan shaxslar.

Shuningdek, bo'sh joylar bo'lgani taqdirda sanatoriy va dam olish uylariga yo'llanma yolg'iz pensionerlarga, I va II guruh nogironlariga, ko'zi ojiz I guruh nogironini kuzatib boruvchi shaxslarga, yosh bo'yicha pensiya oluvchilarga berilishi mumkin.

Bunda Ikkinchi jahon urushi nogironlari hamda Ikkinchi jahon urushi nogironlariga tenglashtirilgan shaxslar, shuningdek, ushbu toifadagi I guruh nogironini kuzatib boruvchi shaxslar va ularga tenglashtirilgan shaxslar, shuningdek, I guruh nogironini kuzatib boradigan fuqarolar; Respublika ahamiyatiga ega shaxsiy pensiya oluvchilar navbat asosida har yili yo'llanma olish huquqiga ega bo'ladilar.

Urush qatnashchilari va ularga tenglashtirilgan shaxslar, shuningdek, front ortidagi mehnat frontida halol xizmati va harbiy xizmati uchun sobiq SSSR davlati orden va medallari bilan taqdirlanganlar; vafot etgan harbiy xizmatchining oila a'zolari navbat asosida ikki yilda bir marta sanatoriy va kurortga yo'llanma olishga haqli bo'ladilar.

Yolg'iz pensionerlar, I va II guruh nogironlari, ko'zi ojiz I guruh nogironini kuzatib boruvchilar, yoshga doir pensiya oluvchilar bo'sh joylar bo'lgani taqdirda sanatoriy yoki dam olish uylariga yuborilishlari mumkin.

Sihatgoh va oromgohlarga, dam olish uylariga yuborish xarajatlari davlat budjeti hamda homiylar mablag'lari hisobidan qoplanadi.

Yo'llanmalar belgilangan tartibga ko'ra taqsimlanadi va pensioner nogiron shaxs arizasiga ko'ra navbat bilan sanatoriy yoki kurortda davolanishga ehtiyoj mavjudligi haqidagi tibbiy xulosa asosida beriladi.

Urush qatnashchilari va nogironlariga hamda ularga tenglashtirilgan shaxslarga yo'llanma birinchi navbatda uning amal qilishi boshlanishidan kamida 10 kun avval beriladi. Yo'llanma berilgan muddati uchun haqiqiy

bo‘lib, uning muddatini o‘zgartirish, o‘tib ketgan kunlarni qayta tiklash mumkin emas.

Foydalanilmagan yo‘llanma qaytarilgani taqdirda (pensioner yoki nogironning vafot etishi, kasal bo‘lib qolganlik, oilaviy sharoitlar va hokazo) Pensiya jamg‘armasi tuman (shahar) bo‘limi tomonidan sababi ko‘rsatilgani holda dalolatnoma tuziladi va bu haqda tegishli organga xabar beriladi.

Berilgan yo‘llanmalar va ulardan foydalanish ahvoli maxsus tartibda hisobga olib boriladi va bunday hisob yuritish qoidalarining buzilishi, shuningdek, yo‘llanmalar berish yuzasidan belgilangan tartibning buzilishi mansabdor shaxslarning qonun asosida javobgarlikka tortilishlariga olib keladi.

Ishlab chiqarish jarohati yoki kasb kasalligiga chalinish oqibatida nogiron bo‘lib qolgan xodimlar ish beruvchi hisobidan sanatoriy yoki dam olish uylariga yo‘llanmalar beriladi.

Bunda jabrlanuvchining sanatoriy-kurortda davolanishga muhtojligi haqida TMEK xulosasi mavjud bo‘lgan taqdirda, unga har yilgi mehnat ta‘tilidan tashqari davolanish uchun qo‘shimcha ta‘til beriladi. Davolanish uchun berilgan ta‘til vaqti uchun to‘lov har yilgi ta‘til to‘lovi uchun belgilangan qoidalarga muvofiq amalga oshiriladi. Davolanish davridagi zararni to‘lash umumiy asoslarda amalga oshiriladi.

O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2011-yil 23-avgustdagi 240-sonli «O‘zbekiston Respublikasi Mehnat va aholini ijtimoiy muhofaza qilish vazirligining tibbiy-ijtimoiy muassasalari to‘g‘risidagi nizomlarni tasdiqlash haqida»gi Qarori bilan ijtimoiy muhofazaga muhtoj fuqarolarga yordamlar ko‘rsatishni takomillashtirish va samaradorligini oshirish choralari ko‘rildi¹.

7.4. Pensionerlar va nogironlarni protez-ortopediya hamda reabilitatsiya texnika buyumlari, tibbiy va farmatsevtika vositalari bilan ta‘minlash

Nogironlarni reabilitatsiya qilish, ular o‘zlarini jamiyatning teng huquqli va to‘laqonli a‘zolari deb his qilishlari uchun imkon yaratish

¹O‘zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to‘plami, 2011. 34-35-son, 348-modda.

shakllaridan biri – protez-ortopediya buyumlari (sun'iy organlar) hamda reabilitatsiya-texnika vositalari bilan ta'minlashdan iborat.

O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi tomonidan 2003-yil 27-martda 1229-son bilan ro'yxatga olingan O'zbekiston Respublikasining «Muhtoj fuqarolarni protez-ortopediya buyumlari hamda reabilitatsiya-texnika vositalari bilan ta'minlash tartibi to'g'risida»gi Yo'riqnoma¹ga ko'ra, protez-ortopediya buyumlariga ehtiyojmand fuqarolar bepul (ishlab chiqarishdagi jarohat yoki kasb kasalligi tufayli nogiron bo'lib qolganlarida ish beruvchi hisobidan) ta'minlanadilar.

Shuningdek, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2009-yil 17-iyundagi 166-son qarori bilan tasdiqlangan «Sotib olingan reabilitatsiya texnik vositasi yoki ko'rsatilgan xizmatlar uchun kompensatsiya to'lash tartibi to'g'risida»gi Nizom²ga ko'ra «O'zbekiston Respublikasining Nogironlarni ijtimoiy himoya qilish to'g'risida»gi Qonuniga muvofiq nogironlarga qonun hujjatlarida belgilangan tartibda bepul berilishi kerak bo'lgan, ammo ular o'z hisobiga sotib olingan reabilitatsiya texnik vositasi yoki ko'rsatilgan xizmatlar uchun kompensatsiya to'lash tartibi nazarda tutilgan.

Yo'riqnomaga ko'ra quyidagi toifaga mansub fuqarolar protez-ortopediya buyumlari bilan ta'minlanishda imtiyozga egadirlar:

– Ikkinchi jahon urushi nogironlari va ularga tenglashtirilgan shaxslar;

– umumiy kasalliklardan nogironlar;

– mehnat jarohati tufayli nogiron bo'lib qolganlar;

– kasb kasalligiga chalinish oqibatida nogiron bo'lib qolganlar;

– harbiy xizmat burchini bajarish bilan bog'liq holda kasal bo'lish, jarohat olish, shikastlanish, kontuziya bo'lish tufayli nogiron bo'lib qolganlar;

– fuqarolik burchini bajarishi oqibatidagi jarohat, kontuziya oqibatida nogiron bo'lganlar;

– Chernobil AES halokatini bartaraf etishda qatnashib nogiron bo'lganlar;

– bolalikdan nogironlar;

– 16 yoshga to'lmagan nogiron bolalar.

¹O'zbekiston Respublikasi vazirliklari, davlat qo'mitalari va idoralarning me'yoriy hujjatlari Axborotnomasi. 2003. 5–6-son.

²O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to'plami. 2009. 25-son, 286-modda.

O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2005-yil 11-fevraldagi 60-sonli qarori bilan tasdiqlangan «Xodimlarga ularning mehnat vazifalarini bajarish bilan bog‘liq holda jarohatlanishi, kasb kasalliklariga chalinishi yoki salomatlikning boshqa xil shikastlanishi tufayli yetkazilgan zararni to‘lash qoidalarini»ning 2-bandiga ko‘ra: «Ish beruvchi ish beruvchining hududida va uning tashqarisida, shuningdek, ish beruvchi bergan transportda ishga kelish yoki ishdan ketish vaqtida xodimning sog‘lig‘iga mehnat jarohati bilan yetkazilgan zarar uchun moddiy javobgar bo‘ladi»¹.

Protez-ortopediya buyumlari va rehabilitatsiya-texnika vositalarini berish chog‘ida TMEK belgilangan mezonlar va ko‘rsatkichlarga muvofiq ravishda xulosa beradi.

Nogiron fuqarolarni protez-ortopediya buyumlari va rehabilitatsiya-texnika vositalari bilan ta‘minlash tartibi, arizalarni ko‘rib chiqish hamda qanoatlantirish, bunday buyumlar berilishini rasmiylashtirish tartiblari qonun hujjatlari bilan belgilanadi.

Nogiron fuqarolar qonun hujjatlari bilan belgilangan tartibda dori-darmon va tibbiy-farmatsevtika vositalari bilan bepul yoki imtiyozli shartlarda ta‘minlanadilar.

7.5. Keksalar, nogironlar va o‘zgalar parvarishiga muhtoj yolg‘iz fuqarolarni «Saxovat» va «Muruvvat» uylariga joylashtirish va u yerda moddiy-ijtimoiy ta‘minlash.

Yolg‘iz qariyalar, kimsasiz nogironlar, yetim bolalar haqida amalda g‘amxo‘rlik qilish ahvoliga qarab jamiyatning, uning a‘zolarining, davlatning madaniy hamda ma‘naviy-axloqiy saviyasiga baho beriladi va ushbu ko‘rsatkichlar insonparvarlik darajasini belgilovchi muhim mezonlardan hisoblanadi.

Mamlakatimizda ana shu tamoyillarga amal qilingani holda qariyalar, nogironlar, yetim-yesirlar haqida alohida g‘amxo‘rlik qilib kelinmoqda. 2002-yilni «Qariyalarni qadrlash yili», 2007-yilni «Ijtimoiy himoya yili», 2010-yilni «Barkamol avlod yili» deb e‘lon qilinishi, avvalgi yil-

¹O‘zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to‘plami. 2005. 5–6-son, 35-modda.

larning nogironlar, ayollar, bolalarga, qishloq ahlini ijtimoiy qo‘llab-quvvatlashga bag‘ishlanganligi hamda shu munosabat bilan zarur davlat dasturlari ishlab chiqilib, hayotga tatbiq etib kelinayotganligi davlatimiz va jamiyatimizda inson va uning manfaatlarini oldingi o‘rinlarda turishini ko‘rsatadi.

Bugungi kunda respublikamizda tashkil qilingan 11 ta nogironlarni reabilitatsiya qilish markazlarida har yili 16 mingdan ziyod nogiron moslashish ko‘nikmalariga ega bo‘lib, tibbiy-ijtimoiy amaliyotni o‘tamoqda. Shuningdek, 7 ta urush va mehnat faxriylari sanatoriylarida har yili 20 mingdan ziyod keksalar, pensionerlar va nogironlar o‘z salomatliklarini tiklamoqdalar. Har yili 15 mingdan ziyod nogiron fuqarolar protez-ortopediya buyumlari va reabilitatsiya-texnika vositalari bilan ta‘minlanmoqda. Hozirgi paytda 28 ta mehribonlik uylari, 85 ta maxsus ixtisoslashgan maktab-internatlar faoliyat yuritmoqda.

Biroq, mamlakatimizda 750 mingga yaqin nogiron fuqarolar borligi va ularning 125 mingga yaqini nogiron bolalar ekani, Ixtisoslashtirilgan bolalar «Muruvvat» uylarida yashayotgan 1284 bolaning bor-yo‘g‘i 5,4 foizigina ota-onasi yo‘q bolalar ekani, qolganlari esa ota-onasi bo‘laturib u yerga joylashtirilgani, aqliy rivojlanishda orqada qolgan 8042 bolalarning ta‘lim jarayoniga umuman jalb etilmasdan qolayotgani tashvishli holdir¹.

Yolg‘iz keksalar, pensionerlar va nogironlarni O‘zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi huzuridagi Budjetdan tashqari Pensiya jamg‘armasi tizimidagi Respublika urush va mehnat faxriylari pansionati, «Saxovat» va «Muruvvat» uylarida davlat ta‘minotiga olish O‘zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi tomonidan 2008-yil 30-iyulda 1848-son bilan ro‘yxatga olingan «Yolg‘iz keksalar, pensionerlar va nogironlarni O‘zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi huzuridagi Budjetdan tashqari Pensiya jamg‘armasi tizimidagi Respublika urush va mehnat faxriylari pansionati, «Saxovat» va «Muruvvat» uylariga rasmiylashtirish tartibi to‘g‘risidagi qoidalarga² ko‘ra amalga oshiriladi.

Vazirlar Mahkamasining 2011-yil 23-avgustdagi 240-son qaroriga

¹Qarang: Nogiron insonlarning huquqlarini himoya qilish masalalari. Ilmiy-amaliy qo‘llanma. –T.: infoCOM/ UZ MChJ nashriyoti. 2010. 36–37-betlar.

²O‘zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to‘plami. 2008. 35–36-son, 353-modda.

ko‘ra «Keksalar va nogironlar, urush va mehnat faxriylari uchun sanatoriylar to‘g‘risida Nizom» tasdiqlangan bo‘lib, mazkur hujjat bilan bu turdagi ijtimoiy yordamni ko‘rsatish chog‘ida ta‘minlanishi lozim bo‘lgan kafolatlar belgilangan¹.

Mazkur Qoidalariga ko‘ra Respublika urush va mehnat faxriylari pansionatiga:

- urush qatnashchisi, urush nogironlari va ularga tenglashtirilganlar;
- halok bo‘lgan jangchilarning yolg‘iz oila a‘zolari;
- qonun hujjatlarida belgilangan tartibda ro‘yxatga olingan o‘zgalar parvarishiga muhtoj yolg‘iz pensionerlar hamda I va II guruh nogironlari;
- Chernobil AES halokatini bartaraf etish qatnashchisi va nogironlari;
- terrorizmga qarshi kurashda halok bo‘lgan fuqarolarning yolg‘iz oila a‘zolari;
- mehnat faxriylari;
- davlat va jamiyat oldida alohida xizmatlari evaziga davlat mukofotlariga sazovor bo‘lgan yolg‘iz keksalar, pensionerlar va nogironlar joylashtiriladi.

«Saxovat» uylariga O‘zbekiston Respublikasi hududida doimiy yashaydigan yolg‘iz keksalar, pensioner va o‘zgalar yordamiga muhtoj 18 yosh va undan yuqori bo‘lgan I va II guruh nogironlari;

- «Muruvvat» uylariga uzluksiz davom etuvchi ruhiy kasallikka duchor bo‘lgan, mehnatga layoqatsiz, o‘zgalar parvarishiga va tibbiy nazoratga muhtoj bo‘lgan, 18 yoshdan oshgan I va II guruh nogironlari;
- bolalar «Muruvvat» uylariga aqliy rivojlanishida nuqsoni bo‘lgan, ruhiy kasal, ta‘lim olish va mehnat qilishga, kasb o‘rganishga layoqatsiz 4 yoshdan 18 yoshgacha bo‘lgan bolalikdan nogiron bolalar joylashtiriladi.

Yolg‘iz keksalar, pensionerlar va nogironlarni tibbiy-ijtimoiy muassasalarga joylashtirish uchun urush va mehnat faxriylari pansionati, «Saxovat» va «Muruvvat» uylariga rasmiylashtirish bo‘yicha Maxsus komissiya faoliyat yuritadi.

¹O‘zbekiston Respublikasi vazirliklari, davlat qo‘mitalari va idoralarning normativ huquqiy hujjatlari Axborotnomasi. 1999. 13-son.

Yolg'iz keksalar, pensionerlar va nogironlarni tibbiy-ijtimoiy muassasalarga rasmiylashtirish va joylashtirish uchun talab etiladigan hujjatlar hududiy bosh boshqarmalarga kelib tushgandan keyin ishchi guruhlar hujjatlarni 10 kun muddatdan kechiktirmasdan Maxsus komissiyaga taqdim etilishini ta'minlaydi.

Taqdim etilgan hujjatlar Maxsus komissiya tomonidan o'rganib chiqiladi va yolg'iz keksalar, pensionerlar va nogironlar (yoki qarindoshlari)ning istagi, shuningdek, tibbiy-ijtimoiy muassasalardagi bo'sh o'rinlar mavjudligi inobatga olingan holda tuzilgan tegishli dalolatnoma asosida belgilangan tartibda vazirlik buyrug'i bilan rasmiylashtiriladi.

Rasmiylashtirilgan hujjatlar, Maxsus komissiya dalolatnomasi va vazirlik buyrug'i nusxasi Maxsus komissiya tomonidan hududiy bosh boshqarmalarga yetkaziladi.

Hududiy bosh boshqarmalardagi Ishchi guruhlar bir oy muddatda yolg'iz keksalar, pensionerlar va nogironlarni doimiy qayd etilgan yashash joyidan ro'yxatdan chiqarilganlik varaqasi asosida ularni yo'llanma berilgan tibbiy-ijtimoiy muassasalarga joylashtirilishini tashkillashtiradi.

Yolg'iz keksalar, pensionerlar va nogironlarni vazirlik tizimidagi tibbiy-ijtimoiy muassasalarning biridan boshqasiga o'tkazish uchun asosli sabablar (u istiqomat qilayotgan hududning ob-havosi yolg'iz keksalar, pensionerlar va nogironlarning sog'lig'iga salbiy ta'sir qilishi to'g'risidagi tibbiy xulosa yoki ularning qarindoshlari bir hududdan boshqa hududga ko'chib o'tishi va boshqalar) mavjud bo'lgan taqdirda Maxsus komissiya tavsiyasiga muvofiq qabul qilingan vazirlik buyrug'i asosida amalga oshiriladi.

Yolg'iz keksalar, pensionerlar va nogironlarni O'zbekiston Respublikasi Mehnat va aholini ijtimoiy muhofaza qilish vazirligi tizimidagi Respublika urush va mehnat faxriylari pansionati, «Saxovat» va «Muruvvat» uylariga rasmiylashtirish chog'ida quyidagi hujjatlar talab etiladi:

1. «Saxovat» uyiga rasmiylashtiriladigan yolg'iz keksa, pensioner va I va II guruh nogironining o'zining turar manzilidagi tuman (shahar) ijtimoiy ta'minot bo'limi boshlig'i nomiga uni «Saxovat» uyiga rasmiylashtirishni so'rab yozgan arizasi;

– «Muruvvat» uylariga rasmiylashtiriladigan 14 yoshgacha bo'lgan

nogiron bolalar uchun ota-onalari tomonidan farzandini bolalar «Muruvvat» uyiga rasmiylashtirishni soʻrab yozilgan ariza;

– 14 yoshdan 18 yoshgacha boʻlgan ruhiy kasallikdan nogironlar uchun davlatning vakolatli idorasi (vasiylik yoki homiylik tayinlovchi organ) tomonidan tayinlangan homiy yoki vasiy tomonidan yozilgan ariza, nogiron tomonidan yozilgan ariza;

– 18 yoshdan yuqori boʻlgan ruhiy kasallikdan I va II guruh nogironlari uchun davlatning vakolatli idorasi (sud qarori bilan) tomonidan tayinlangan homiy yoki vasiy tomonidan yozilgan ariza, nogiron tomonidan yozilgan ariza.

2. Homiylik yoki vasiylik toʻgʻrisidagi hujjat.

3. Yolgʻiz keksa, pensioner va nogironning pasporti (asli va pasportning fuqaro toʻgʻrisidagi maʼlumotlar qayd etilgan va uning roʻyxatga qoʻyilganligi qayd etilgan varagʻi nusxasi), 16 yoshgacha bolalar uchun tugʻilganlik toʻgʻrisidagi guvohnomasi asli va nusxasi, nogiron bolalar ota va onasi pasportining fuqaro toʻgʻrisidagi maʼlumotlar qayd etilgan va uning roʻyxatga qoʻyilganligi qayd etilgan varagʻi nusxasi, pensiya guvohnomasi.

4. Nogironlik haqida Tibbiy mehnat ekspert komissiyasi maʼlumotnomasi (nogiron uchun), 16 yoshgacha bolalar uchun Tibbiy maslahat komissiyasi xulosasi.

5. Ambulator kartasidan yoki kasallik tarixidan koʻchirma (albat qon va siydik tahlili, qonning Vasserman reaksiyasi va Avstraliya antigeniga tahlili, koʻkrak qafasi flyurografiyasi, bolalar uchun ogʻiz-burun boʻshligʻining bakteriologik tahlili (Lyoffler surtmasi).

6. Ruhiy-asab kasalliklari dispanseri Tibbiy maslahat komissiyasi xulosasi.

7. Sil kasalliklari dispanseri xulosasi.

8. Onkologik dispanser xulosasi.

9. Teri-tanosil kasalliklari dispanseri xulosasi.

10. Yolgʻiz keksa, pensioner va nogironning 2 ta fotosurati (6 x 4 hajmda).

11. Turarjoyidan maʼlumotnoma.

12. Texnik inventarizatsiyalash byurosi (BTI) tomonidan yolgʻiz keksa, pensioner va nogironning uy-joyi toʻgʻrisidagi maʼlumotnoma (14 yoshgacha boʻlgan nogiron bolalar bundan mustasno).

13. Yolg'iz keksa, pensioner va nogironning pensiyasi (nafaqasi) to'g'risida ma'lumotnoma.

14. Yolg'iz keksa, pensioner yoki nogironning moddiy-maishiy ahvoli to'g'risidagi dalolatnoma (mazkur Qoidalarning 3-ilovasi).

15. «Saxovat» uyiga rasmiylashtiriladigan fuqaroning yolg'izligini tasdiqlovchi turar manzilidagi mahalla fuqarolar yig'ini komissiyasi dalolatnomasi.

16. «Saxovat» uyiga rasmiylashtiriladigan fuqaroning yolg'izligini tasdiqlovchi turar manzilidagi mahalla fuqarolar yig'ini komissiyasi yig'ilishi dalolatnomasi asosida tuman (shahar) hokimi tavsiya xati yoki yolg'iz keksa, pensioner va nogironning yolg'izlar ro'yxatiga olinganligi to'g'risida tuman (shahar) hokimi qarori.

17. Hududiy mehnat va aholini ijtimoiy muhofaza qilish bosh boshqarmalari ishchi guruhi dalolatnomasi.

O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi tomonidan 1999-yil 2-iyulda 761-son bilan ro'yxatga olingan «Voyaga yetmaganlarni qabul qilish, taqsimlash va ularga ijtimoiy yordam ko'rsatish to'g'risida Toshkent shahar Xalq ta'limi Bosh boshqarmasi maxsus muassasalarining Nizomi»ga muvofiq tarbiyasiz va ta'minotsiz qolgan, huquqbuzarlik sodir etishga moyil bo'lgan bolalarni Mehribonlik uylariga qabul qilish tartibi belgilangan¹.

Ijtimoiy yordam ko'rsatish, ta'lim-tarbiya jarayoniga jalb etish, davlat ta'minotiga olish maqsadida Mehribonlik uylariga quyidagi toifa o'smirlar joylashtirilishi mumkin: tashlab ketilgan; adashib qolgan; 18 yoshga to'lmagan, ota-onasi yoki ularning o'rnini bosuvchi shaxslari bo'lmagan, qarovsiz qolganlar; oilasidan o'zboshimchalik bilan ketgan 18 yoshga to'lmaganlar; ixtisoslashtirilgan o'quv-tarbiya yoki davolash-tarbiyalash hamda boshqa bolalar muassasalaridan o'zboshimchalik bilan ketganlar; 11–14 yoshida jamiyat uchun xavfli xatti-harakatlar sodir etgan, zudlik bilan jamiyatdan ajratib qo'yish zarurati bo'lganlar.

Toshkent shahridagi Mehribonlik uylariga faqat shu yerda yashaydigan voyaga yetmagan bolalar va o'smirlar qabul qilinadi. Bunda faqatgina ularni o'z vaqtida ota-onalariga, ular o'rnini bosuvchilarga

¹ O'zbekiston Respublikasi vazirliklari, davlat qo'mitalari va idoralariining normativ huquqiy hujjatlari Axborotnomasi. 1999. 13-son.

yoki shu ko'rsatilgan muassasalar vakillariga topshirish imkoniyati bo'lmagandagina Mehribonlik uylariga joylashtiriladi

Mehribonlik uylariga joylashtirish uchun voyaga yetmaganlarga xalq ta'limi idoralari yoki ichki ishlar idoralari boshliqlari va prokuror tomonidan tasdiqlangan qaror yoki shahar, tuman sudining, tuman voyaga yetmaganlar bilan ishlovchi komissiyalar qarori va boshqa tegishli hujjatlar asos bo'ladi.

Pensiya yoshiga yetgan, alohida uyda, xonadonda, yotoqxonada yashayotgan va farzandlari (shu jumladan, asrab olingan farzandlari), eri (xotini) bo'lmagan hamda qonun hujjatlariga muvofiq homiylik belgilanmagan yolg'iz keksalar, pensionerlar va I yoki II guruh nogironlari hamda yoshidan qat'i nazar, uzluksiz davom etuvchi ruhiy xastaligi oqibatida mehnatga layoqatsiz, o'zgarlar parvarishiga muhtoj bo'lgan I yoki II guruh nogironlari farzandlari (shu jumladan, asrab olingan farzandlari), eri (xotini) bo'lishi, qonun hujjatlariga muvofiq vasiylik yoki homiylik belgilanishidan qat'i nazar O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi huzuridagi Budjetdan tashqari Pensiya jamg'armasi tizimidagi Respublika urush va mehnat faxriylari pansionati, «Saxovat» va «Muruvvat» uylariga joylashtirilishi mumkin.

Yolg'iz keksalar, pensionerlar va nogironlarni tibbiy-ijtimoiy muassasalarga joylashtirish uchun vazirlik huzurida Respublika urush va mehnat faxriylari pansionati, «Saxovat» va «Muruvvat» uylariga rasmiylashtirish bo'yicha Maxsus komissiya tashkil etiladi.

«Saxovat» uyiga rasmiylashtiriladigan yolg'iz keksa, pensioner va I va II guruh nogironining o'zining turar manzilidagi tuman (shahar) ijtimoiy ta'minot bo'limi boshlig'i nomiga uni «Saxovat» uyiga rasmiylashtirishni so'rab yozgan arizasi asosida amalga oshiriladi.

«Muruvvat» uylariga rasmiylashtiriladigan 14 yoshgacha bo'lgan nogiron bolalar uchun ota-onalari tomonidan farzandini bolalar «Muruvvat» uyiga rasmiylashtirishni so'rab yozilgan ariza asos bo'ladi.

14 yoshdan 18 yoshgacha bo'lgan ruhiy kasallikdan nogironlar uchun davlatning vakolatli idorasi (vasiylik yoki homiylik tayinlovchi organ) tomonidan tayinlangan homiy yoki vasiy tomonidan yozilgan ariza, nogiron tomonidan yozilgan ariza asos bo'ladi.

18 yoshdan yuqori bo'lgan ruhiy kasallikdan I va II guruh nogironlari uchun davlatning vakolatli idorasi (sud qarori bilan) tomonidan tayin-

langan homiy yoki vasiy tomonidan yozilgan ariza, nogiron tomonidan yozilgan ariza asos bo'ladi.

Bulardan tashqari quyidagi hujjatlar ham talab etilishi lozim:

a) homiylik yoki vasiylik to'g'risidagi hujjat;

b) yolg'iz keksa, pensioner va nogironning pasporti (asli va pasportning fuqaro to'g'risidagi ma'lumotlar qayd etilgan va uning ro'yxatga qo'yilganligi qayd etilgan varag'i nusxasi), 16 yoshgacha bolalar uchun tug'ilganlik to'g'risidagi guvohnomasi asli va nusxasi, nogiron bolalar ota va onasi pasportining fuqaro to'g'risidagi ma'lumotlar qayd etilgan va uning ro'yxatga qo'yilganligi qayd etilgan varag'i nusxasi, pensiya guvohnomasi;

v) nogironlik haqida Tibbiy mehnat ekspert komissiyasi ma'lumotnomasi (nogiron uchun), 16 yoshgacha bolalar uchun Tibbiy maslahat komissiyasi xulosasi;

g) ambulator kartasidan yoki kasallik tarixidan ko'chirma (albat-ta qon va siydik tahlili, qonning Vasserman reaksiyasi va Avstraliya antigeniga tahlili, ko'krak qafasi flyurografiya, bolalar uchun og'iz-burun bo'shlig'ining bakteriologik tahlili (Lyoffler surtmasi);

d) ruhiy-asab kasalliklari dispanseri Tibbiy maslahat komissiyasi xulosasi;

e) sil kasalliklari dispanseri xulosasi;

j) onkologik dispanser xulosasi;

z) teri-tanosil kasalliklari dispanseri xulosasi;

i) yolg'iz keksa, pensioner va nogironning 2 ta fotosurati (6 x 4 hajmda);

k) turarjoyidan ma'lumotnoma;

l) texnik inventarizatsiyalash byurosi (BTI) tomonidan yolg'iz keksa, pensioner va nogironning uy-joyi to'g'risidagi ma'lumotnoma (14 yoshgacha bo'lgan nogiron bolalar bundan mustasno);

m) yolg'iz keksa, pensioner va nogironning pensiyasi (nafaqasi) to'g'risida ma'lumotnoma;

n) yolg'iz keksa, pensioner yoki nogironning moddiy-maishiy ahvoli to'g'risidagi dalolatnoma (mazkur Qoidalarning 3-ilovasi);

o) «Saxovat» uyiga rasmiylashtiriladigan fuqaroning yolg'izligini tasdiqlovchi turar manzilidagi mahalla fuqarolar yig'ini komissiyasi dalolatnomasi;

p) «Saxovat» uyiga rasmiylashtiriladigan fuqaroning yolgʻizligini tasdiqlovchi turar manzilidagi mahalla fuqarolar yigʻini komissiyasi yigʻilishi dalolatnomasi asosida tuman (shahar) hokimi tavsiya xati yoki yolgʻiz keksa, pensioner va nogironning yolgʻizlar roʻyxatiga olinganligi toʻgʻrisida tuman (shahar) hokimi qarori.

Ota-ona parvarishi va taʼminotidan mahrum boʻlib qolgan voyaga yetmagan bolalarni, yolgʻiz keksalar, yolgʻiz nogironlarni Mehribonlik, «Saxovat» va «Muruvvat» uylarida moddiy taʼminlash, ularga ijtimoiy xizmatlar koʻrsatish normalari va tartiblari ushbu muassasalar haqida tasdiqlangan Nizomlarga muvofiq amalga oshiriladi.

Bolalarni Mehribonlik uylarida moddiy-ijtimoiy taʼminlash va tarbiyalash ishlari Oʻzbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2012- yil 13-iyundagi 171-sonli qarori bilan tasdiqlangan «Bolalar uyi toʻgʻrisida»gi Nizom¹ asosida tashkil etiladi.

Mehribonlik uyi yetim bolalar va ota-onasining qarovisiz qolgan bolalar uchun davlat tarbiya muassasasi hisoblanadi.

Yetim bolalar va ota-onasining qarovisiz qolgan bolalarni (keyingi oʻrinlarda «tarbiyalanuvchilar» deb ataladi) tarbiyalash, kamol toptirish va qoʻllab-quvvatlash;

– tarbiyalanuvchilarni toʻliq ruhiy sogʻlomlashtirishga, ijtimoiy moslashtirishga va jamiyatga uygʻunlashtirishga koʻmaklashadigan, ularning sifatli taʼlim va tarbiya olishi, shuningdek, ularning ijodiy va intellektual qobiliyatlarini rivojlantirish uchun uy sharoitiga eng koʻp darajada yaqinlashtirilgan muhitni yaratish;

– tarbiyalanuvchilarning qonuniy huquq va manfaatleri ijtimoiy-huquqiy himoya qilinishini taʼminlash;

– tarbiyalanuvchilarning hayoti va sogʻligʻi, psixologik va jismoniy rivojlanishi himoya qilinishini taʼminlash kabilar Mehribonlik uyining asosiy vazifalari hisoblanadi.

Mehribonlik uyi Oʻzbekiston Respublikasi Xalq taʼlimi vazirligi bilan kelishgan holda, belgilangan tartibda Qoraqalpogʻiston Respublikasi Vazirlar Kengashi, viloyatlar va Toshkent shahar hokimliklari tomonidan tashkil etiladi.

Mehribonlik uylari quyidagi tiplarga boʻlinadi:

¹Oʻzbekiston Respublikasining qonun hujjatlari toʻplami. 2012 . 23–24-son. 265-modda.

a) maktabgacha Mehribonlik uyi (3 yoshdan 7 yoshgacha bo‘lgan bolalar uchun);

b) Mehribonlik uyi (maktabgacha va maktab yoshidagi yoki faqat maktab yoshidagi bolalar uchun);

v) maxsus korreksion Mehribonlik uyi (jismoniy yoki psixik rivojlanishida nuqsonlari bo‘lgan bolalar uchun).

Mehribonlik uyiga bolalarni qabul qilish. Bolalar (3 yoshdan 16 yoshgacha bo‘lgan bolalar) Mehribonlik uyiga yil mobaynida ota-onalari vafot etgan, ota-onalik huquqlaridan mahrum etilgan, ota-onalik huquqlari cheklangan, ota-onalar huquqiy layoqatsiz deb e’tirof etilgan, ota-onalar kasal bo‘lgan, ota-onalar uzoq muddat bo‘lmagan, ota-onalar bolalarni tarbiyalashdan yoki ularning huquq va manfaatlarini himoya qilishdan bosh tortgan, shu jumladan, ota-onalar o‘z bolalarini tarbiya muassasalaridan, davolash muassasalaridan, aholini ijtimoiy muhofaza qilish muassasalaridan va shunga o‘xshash muassasalardan olishni rad etgan, shuningdek, bolalar ota-onalarining qarovisiz qolgan boshqa hollarda qabul qilinishi kerak.

Jismoniy yoki psixologik jihatdan nuqsonlari bo‘lgan yetim va ota-onasining qarovisiz qolgan bolalar ixtisoslashtirilgan ta’lim muassasalariga (maktab-internatlarga) yoki maxsus korreksion Mehribonlik uylariga belgilangan tartibda yuboriladi.

Kam ta’minlangan, ko‘p bolali oilalarning bolalari, faqat otasi yoki onasi bor bo‘lgan bolalar ushbu oilalarni bir yilgacha muddatda ijtimoiy qo‘llab-quvvatlash maqsadida Mehribonlik uyiga vaqtinchalik qabul qilinishlari mumkin.

Mehribonlik uyiga yuboriladigan har bir bola uchun vasiylik va homiylik organi tomonidan, bir Mehribonlik uyidan boshqasiga o‘tkazishda esa – Mehribonlik uyi ma’muriyati tomonidan quyidagi hujjatlar taqdim etiladi:

a) Mehribonlik uyiga yo‘llanma;

b) tuman (shahar) hokimining bolani Mehribonlik uyiga joylashtirish haqidagi qarori (qarorda balog‘atga yetmagan bola, uning oilasi, turarjoy maydoni bolaga biriktirilganligi to‘g‘risidagi aniq qaydnoma bilan birgalikda turarjoy maydoni mavjudligi to‘g‘risidagi dalilli va to‘liq ma’lumotlar bo‘lishi kerak);

v) tug‘ilganlik to‘g‘risidagi guvohnoma, guvohnoma bo‘lmagan

taqdirida bolaning yoshini aniqlaydigan tibbiy ekspertiza xulosasi;

g) analizlar natijalari va tibbiy-psixologik-pedagogik xulosasi ilova qilingan holda bolaning psixik va jismoniy sog'lig'i haqidagi tibbiy hujjatlar (tibbiy tekshirishlar natijalari ilova qilingan holda);

d) ma'lumoti haqidagi hujjat (maktab yoshidagi bolalar uchun);

e) ota-onalar va ularning o'rnini bosuvchi shaxslar haqidagi ma'lumotlar (ota-onalarning pasportlari nusxalari yoki ularning vafoti haqidagi guvohnoma nusxasi, sudning hukmi yoki qarori, ota-onasining surunkali kasalligi yoki qidiruvda ekanligi haqidagi, ota-onasining yo'qligi yoki ularning o'z farzandlarini tarbiyalay olmasligi haqidagi boshqa hujjatlar, shuningdek, ota-onalarning yashash joyi to'g'risida ma'lumotnoma);

j) bolaning turmush sharoiti va tarbiyasi haqidagi tekshiruv dalolatnomasi;

z) bolaning yaqin qarindoshlari mavjudligi va ularning yashash joylari haqida ma'lumotnoma;

i) bolaning ota-onasidan qolgan mol-mulki (agar bor bo'lsa) ro'yxati, ushbu mol-mulkning qayerda joylashganligi, uni saqlash uchun qanday choralar ko'rilganligi va ularni saqlash uchun javobgar shaxslar haqidagi ma'lumot;

k) bolaga turarjoy biriktirilganligi to'g'risidagi hujjatlar (dalolatnoma, uy daftari, turarjoy chizmasi nusxalari, turarjoyning egasi va xususiyashtirilganligi holati to'g'risida tuman (shahar) yer resurslari va davlat kadastri bo'limidan ma'lumotnoma);

l) pensiya oluvchi bolalarning pensiya daftarchasi, bola foydasiga aliment undirish haqidagi sud qarori, omonat daftarchasi.

Bir oilaning a'zolari bo'lgan bolalar yoki qarindoshlar bir muassasaga yuboriladi. Tibbiy yoki boshqa sabablarga ko'ra ushbu bolalarni alohida tarbiyalash va joylashtirish kerak bo'lgan hollar bundan mustasno.

Mehribonlik uyi tarbiyalanuvchilari O'zbekiston Respublikasi Sog'liqni saqlash vazirligi tomonidan belgilangan tartibda tasdiqlangan Mehribonlik uylari tarbiyalanuvchilarining oziq-ovqat mahsulotlari iste'mol qilishining o'rtacha sutkalik maqbul me'yorlariga muvofiq oziq-ovqat, shuningdek, ushbu Nizomdan ilovaga muvofiq norma bo'yicha kiyim-bosh, poyabzal, yumshoq jihozlar bilan ta'minlanadilar.

Mehribonlik uyini mablag' bilan ta'minlash belgilangan tartibda:

- O‘zbekiston Respublikasi Davlat budjeti mablag‘lari;
- jismoniy va yuridik shaxslarning ixtiyoriy ehsonlari va maqsadli badallari;
- qonun hujjatlarida taqiqlanmagan boshqa manbalar hisobiga amalga oshiriladi.

Oilaviy bolalar uylari. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2007-yil 31-iyuldagi 158-son qarori bilan tasdiqlangan Nizomga¹ ko‘ra ota-onasining qarovisiz qolgan bolalarni tarbiyalash, o‘qitish, sog‘lomlashtirish, aqliy, psixologik va jismoniy rivojlantirish, ularni ijtimoiy moslashtirish va muhofaza qilish uchun qulay shart-sharoitlar yaratish, ular uchun oiladagiga yaqin zarur sharoitlar vujudga keltirish oilaviy bolalar uyining asosiy vazifalari hisoblanadi.

Oilaviy bolalar uyi tuman (shahar) hokimining qarori bo‘yicha tashkil etiladi, qayta tashkil qilinadi va tugatiladi. Oilaviy bolalar uyi tashkil etishni xohlovchi er-xotinning tegishli arizasi, vasiylik va homiylik organining, tuman va shaharlar hokimliklari huzuridagi balog‘atga yetmaganlar bilan ishlash komissiyasining (keyingi o‘rinlarda balog‘atga yetmaganlar bilan ishlash komissiyasi deb ataladi) er-xotinning tarbiyalovchi ota-onalar bo‘lishi va bolalarni tarbiyalash uchun olishi mumkinligi to‘g‘risidagi xulosasi tuman (shahar) hokimi qarori qabul qilinishi uchun asos hisoblanadi.

Oilaviy bolalar uyi muassasa shaklida tashkil etiladi va tegishli tuman (shahar) hokimligida yuridik shaxs sifatida ro‘yxatdan o‘tkaziladi.

Oilaviy bolalar uyi tashkil etishni xohlovchi er-xotin o‘zining yashash joyidagi vasiylik va homiylik organiga ariza bilan murojaat qilishadi.

Arizada er-xotinning familiyasi, ismi, otasining ismi, yashash joyi, bolalari (o‘zlariniki, farzandlikka olganlari) mavjud bo‘lgan taqdirda ularning soni va yoshi ko‘rsatiladi.

Arizaga quyidagilar ilova qilinishi kerak:

- ma‘lumoti to‘g‘risidagi hujjatlarning, nikohdan o‘tganlik to‘g‘risidagi guvohnomaning belgilangan tartibda tasdiqlangan nusxalari;

- ish va o‘qish joyidan ma‘lumotnoma (ishlamayotgan yoki

¹Qarang: O‘zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to‘plami. 2007. 31–32-son, 318-modda.

belgilangan tartibda ishsiz deb e'tirof etilganlar uchun – mahalliy mehnat organlarining yoki yashash joyidagi o'zini o'zi boshqarish organlarining ma'lumotnomasi);

- mehnat daftarchasidan ko'chirma (ish staji mavjud bo'lsa);
- oila a'zolari ko'rsatilgan holda yashash joyidan ma'lumotnoma;
- er-xotinda sanitariya qoidalari va normalariga muvofiq bo'lgan mulk huquqi, ijara shartlarida (ijaraga olingan) yoki boshqa qonuniy asoslarda turarjoy mavjudligini tasdiqlovchi hujjat (tegishli turarjoy mavjud bo'lmagan taqdirda arizada xizmat turarjoyi bilan ta'minlash zarurligi ko'rsatiladi);

- tibbiy-maslahat komissiyasining er-xotinning sog'lig'i to'g'risidagi xulosasi, psixiatriya va narkologiya muassasalari, teri-tanosil kasalliklari dispanseri ma'lumotnomalari.

Arizani topshirish vaqtida er-xotinning shaxsini tasdiqlovchi hujjat ko'rsatiladi.

Agar boshqacha tartib nazarda tutilmagan bo'lsa, O'zbekiston Respublikasining nikohdan o'tgan, 35 yoshdan 50 yoshgacha bo'lgan fuqarolari tarbiyalovchi ota-ona bo'lishlari mumkin.

Quyidagi shaxslar tarbiyalovchi ota-ona bo'lishlari mumkin emas:

- tarbiyalashga olinayotgan bolalar bilan qarindoshligi bo'lganlar;
- belgilangan tartibda muomalaga layoqatsiz yoki muomalaga layoqatli cheklangan deb e'tirof etilganlar;
- ota-onalik huquqlaridan mahrum etilganlar yoki ota-onalik huquqi cheklanganlar;
- o'zlariga yuklangan majburiyatlarni zarur darajada bajarmaganlik uchun vasiylik (homiylilik) majburiyatidan chetlashtirilganlar;
- agar farzandlikka olish ularning aybi bilan sud tomonidan bekor qilingan bo'lsa, sobiq farzandlikka olganlar;
- O'zbekiston Respublikasi Sog'liqni saqlash vazirligi tomonidan belgilanadigan kasalliklar ro'yxatiga muvofiq bolalarni tarbiyalashga olishi taqiqlanadigan kasalligi mavjud bo'lganlar;
- qasddan qilgan jinoyati uchun sudlanganlar.

Bolalarni oilaviy bolalar uyiga tarbiyalash uchun berish, tarbiyalovchi ota-onalar va tarbiyalanuvchi bolalarning huquq va majburiyatlari, oilaviy bolalar uyi ta'minoti va uni moddiy-texnik ta'minlash normalari

va tartiblari hamda boshqa masalalar yuqorida qayd etilgan Nizomga muvofiq belgilanadi.

SOS – O‘ZBEKISTON BOLALAR MAHALLALARI. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 1997-yil 31-dekabrda 585-sonli «SOS – O‘zbekiston bolalar mahallalari» uyushmasini tashkil etish to‘g‘risida»gi qarori¹ga ko‘ra, yetim bolalarni uyg‘un rivojlantirish va tarbiyalash uchun qulay sharoitlar yaratish maqsadida «Sog‘lom avlod uchun» hukumatga qarashli bo‘lmagan xalqaro xayriya jamg‘armasi, O‘zbekiston xotin-qizlar qo‘mitasi va Toshkent shahar hokimligining «SOS – Kinderdorf Interneshnl» xalqaro jamiyati (Avstriya) bilan birgalikda «O‘zbekiston bolalar mahallalari» («SOS – Detskie derevni Uzbekistana») uyushmasini tashkil etish va Toshkent shahrida Bolalar mahallasini («SOS-Detskaya derevnya») qurishga qaror qilindi.

Uyushmaning asosiy vazifasi – jamoatchilik va davlat tuzilmalarining yetim bolalarni jismoniy, intellektual va ma‘naviy rivojlantirish uchun qulay shart-sharoitlar yaratishga, ularni ijtimoiy va huquqiy qo‘llab-quvvatlashni ta‘minlashga qaratilgan sa’y-harakatlarini muvofiqlashtirish;

– yetim bolalarni O‘zbekistonda qabul qilingan an‘anaviy pedagogika tamoyillarini hisobga olgan holda tarbiyalash. Tarbiyachi onalarni va xodimlarni tanlash, ular uchun pedagogik va boshqa zarur tayyorgarlikni tashkil etish;

– «SOS – Kinderdorf Interneshnl» jamiyati a‘zolari bo‘lgan tashkilotlar bilan «SOS – O‘zbekiston bolalar mahallalari» va ular bilan bog‘liq SOS – loyihalari bolalar bog‘chalari, maktablar, o‘qitish, sport va dam olish markazlari qurish va ularni to‘liq jihozlashni tashkil etishda vositachi sifatida hamkorlik qilish;

– davlat, jamoat va xususiy tuzilmalarni uyushma faoliyatiga faol jalb qilish ekanligi belgilandi.

«SOS – O‘zbekiston bolalar mahallalari» uyushmasi to‘g‘risidagi Nizomga muvofiq uyushma faoliyatining asosiy maqsadi va yo‘nalishlari sifatida jamoat va davlat tuzilmalarining yetim bolalarni jismoniy, intellektual va ma‘naviy rivojlantirish uchun qulay sharoitlar yaratishga, ularni ijtimoiy muhofaza qilish va huquqiy qo‘llab-quvvatlashni ta‘minlashga yo‘naltirilgan sa’y-harakatlarini muvofiqlashtirish;

¹O‘zbekiston Respublikasining Qarorlari to‘plami. 1997. 12-son, 40-modda.

– yetim va tashlab ketilgan bolalarni tarbiyalashni hamda ularga yordam berishni ta'minlashga, ular uchun oilalardagi kabi hayot sharoitlari yaratishga yo'naltirilgan loyiha va dasturlarni amalga oshirishga moliyaviy yordam berish;

– barcha bolalarga, ayniqsa, yetim bolalarga, shuningdek, yetim bolalarni tarbiyalayotgan onalarga yordam berish;

O'zbekiston Respublikasida SOS – bolalar mahallalari hamda bolalar bog'chalari, maktablar, o'quv, sport va dam olish markazlari, klinikalar va shu kabi ular bilan uzviy bog'liq insonparvarlik SOS – loyihalarni qurishni hamda asbob-anjomlar bilan to'liq jihozlashni tashkil etish kabilar nazarda tutildi.

Uyushmaning tashkiliy-huquqiy, mulkiy maqomi, unga a'zolik, uni boshqarish kabi masalalar ham uning Nizomida belgilab qo'yilgan.

Shuningdek, Vazirlar Mahkamasining 2008-yil 22-maydagi 104-son qarori bilan «Ota-onasining qarovisiz qolgan va to'liq davlat ta'minotida bo'lgan bolalar uchun Bolalar shaharchalari to'g'risida Nizom» tasdiqlangan bo'lib¹, bu Nizom ota-onasining qarovisiz qolgan va to'liq davlat ta'minotida bo'lgan bolalar uchun bolalar shaharchalari maqomini, ularning faoliyatini tashkil etish tartibini, ushbu muassasalar xodimlarining hamda bunday muassasalarga tarbiyalash uchun berilgan bolalarning (tarbiyalanuvchilarning) huquq va majburiyatlarini belgilaydi.

NAZORAT UCHUN SAVOLLAR

1. Davlat ijtimoiy siyosati deganda nima nazarda tutiladi?
2. Aholini ijtimoiy muhofaza qilish tamoyillari qanday?
3. Aholini ijtimoiy muhofaza qilish qaysi davlat organlari orqali amalga oshiriladi?
4. Yakka-yolg'iz keksa fuqarolar, pensionerlar, nogironlar deganda kimlar ko'zda tutiladi?
5. Yakka-yolg'izlarga qanday davlat ijtimoiy muhofaza choralari qo'llaniladi?

¹O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to'plami. 2008. 22-23-son, 199-modda.

6. «Muruvvat» va «Saxovat» uylariga joylashtirish tartibi haqida gapirib bering.

7. Mehribonlik uylariga kimlar va qanday tartibda joylashtiriladi?

8. Oilaviy bolalar uyi haqida nimalarni bilasiz?

9. SOS – bolalar mahallasi nima?

VIII BOB.
EHTIYOJMAND FUQAROLARGA BERILADIGAN
IJTIMOY-IQTISODIY IMTIYOZLAR

***8.1. Ijtimoiy iqtisodiy imtiyozlar tushunchasi, tasnifi
va zarurligi***

Turli-tuman ijtimoiy va moddiy imtiyoz hamda yengilliklar berish aholining muayyan tabaqalarini davlat tomonidan qo‘llab-quvvatlash hamda muhofazalashning ko‘rinishlaridan bo‘lib sanaladi.

Bu imtiyozlar ulardan foydalanishga haqli bo‘lgan shaxslar doirasiga, imtiyoz turlari va ularning ijtimoiy mohiyatiga hamda boshqa xususiyatlariga ko‘ra guruhlarga ajratilishi mumkin. Davlat budjeti hisobidan fuqarolarga beriladigan ijtimoiy yordamni amalga oshirish shakli sifatida ular fuqarolar kundalik turmushida muhim o‘rin tutmoqda. Shuni qayd etish kifoyaki, bugungi kunga kelib imtiyoz va yengilliklarning umumiy soni yuzdan ortiq shaklda amalga oshirilmoqda.

Imtiyoz va yengilliklar nafaqat muhtoj fuqarolarni qo‘llab-quvvatlashga, balki ayrim shaxslarning davlat va jamiyat oldidagi ulkan xizmatlari uchun taqdirlashga, bu xizmatlarni jamiyat tomonidan e‘tirof etilishini namoyish qilishga ham qaratiladi.

Biroq, bozor munosabatlari sharoitida boqimandalik, davlat va jamiyat hisobiga yashash, o‘z jismoniy va aqliy salohiyatini ishga solishdan bo‘yin tovlashga toqat qilish mumkin emas. Shu sababli O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 18-moddasi, 2-qismiga ko‘ra: «Imtiyozlar faqat qonun bilan belgilab qo‘yilgan hamda ijtimoiy adolat prinsiplariga mos bo‘lishi shart».

Ijtimoiy qo‘llab-quvvatlash maqsadidagi imtiyozlar va yengilliklardan foydalanish huquqiga ega bo‘lgan shaxslar doirasi pensionerlar, nogironlar, yolg‘iz qariyalar, ko‘p bolali va kam ta‘minlangan oilalar bilangina cheklanib qolmasdan, ijtimoiy ahamiyati katta bo‘lgan muay-

yan kasb va vazifalarda band bo‘lgan shaxslarni (pedagoglar, vrachlar va boshqalar) hamda boshqa toifadagi fuqarolarni ham o‘z ichiga qamrab olgandir.

Imtiyoz va yengillik berilishi obyektlari ham xilma-xil bo‘lib, turarjoy-kommunal xizmatlar, tibbiy xizmatlar, farmatsevtika ta’minoti, transport-aloqa xizmati, soliq va boj to‘lovlari kabilarni o‘z ichiga olgan.

Imtiyoz va yengilliklar hajmi turli toifadagi fuqarolar uchun turlicha belgilangan bo‘lib, bunda uning davlat va jamiyat oldidagi xizmati, moddiy-ijtimoiy ahvoli va boshqa ko‘rsatkichlar e‘tiborga olingan.

Imtiyozlardan foydalanish asoslari va shartlari ham turlicha bo‘lib, fuqaroning avvalgi davrdagi xizmati yoki bugungi kunda bajarib kelayotgan vazifasi, oilaviy ahvoli kabilardan iborat bo‘lishi mumkin.

Imtiyoz va yengilliklardan foydalanishning umumiy tartibiga ko‘ra, imtiyozdan foydalanish huquqiga ega bo‘lgan fuqaro yoki oila shunday imtiyoz yoki yengillikni berishi lozim bo‘lgan davlat yoki jamoat organiga, korxonatashkilotga yozma ariza bilan murojaat qilishi hamda imtiyozdan foydalanish huquqini tasdiqlovchi zarur hujjatlarni taqdim etishi lozim.

Imtiyozdan foydalanish huquqi bekor bo‘lganida yoki o‘zgarganida foydalanuvchi shaxs bu haqda belgilangan muddat ichida imtiyoz beruvchi organi, tegishli hollarda – boshqa organlarni xabardor qilib qo‘yishi shart.

Soxta hujjatlar asosida yoki noto‘g‘ri ma’lumotlar taqdim etgan holda imtiyozdan foydalanayotgan shaxslar qonun hujjatlariga muvofiq ma’muriy yoki jinoiy javobgarlikka tortiladilar hamda noto‘g‘ri berilgan imtiyoz tarzidagi zararlar ulardan to‘liq undirib olinadi.

Endi fuqarolarga beriladigan imtiyozlar va yengilliklarning asosiy guruhlarini qisqacha tavsif hamda tahlil etishga harakat qilamiz.

8.2. Tibbiy va farmatsevtika xizmatlari ko‘rsatish bilan bog‘liq imtiyozlar

Bunday imtiyozlar beriladigan fuqarolarning toifalari tegishli qonun hujjatlarining o‘zida nazarda tutib qo‘yiladi va ushbu hujjatlarda belgilangan tartibda beriladi.

Tibbiy xizmat ko'rsatish va dori-darmon vositalari bilan ta'minlash yuzasidan imtiyozlar. O'zbekiston Respublikasining «Fuqarolar sog'lig'ini saqlash to'g'risida»gi Qonuni (qonunning 17-moddasi) hamda uning asosida qabul qilinadigan me'yoriy hujjatlarga binoan beriladi¹ va shifokorning doriqog'ozi bo'yicha va doriqog'ozsiz beriladigan dori-darmonlar ro'yxati O'zbekiston Respublikasi Sog'liqni saqlash vazirligi tomonidan tasdiqlanadi.

Dori vositalari deganda kelib chiqishi tabiiy va sun'iy bo'lgan bir yoki bir nechta dori moddalari (substansiyalar) hamda yordamchi moddalar asosida hosil qilingan, kasallikning oldini olish, tashxis qo'yish va davolash uchun qo'llashga ruxsat etilgan vositalar nazarda tutiladi.

Dori-darmonlar va yakka tartibda foydalaniladigan tibbiyot buyumlari bilan imtiyozli asoslarda ta'minlanadigan fuqarolarning toifalari O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan belgilab qo'yiladi. Davlat sog'liqni saqlash tizimining davolovchi shifokorlari fuqarolarning dori-darmonlar bilan imtiyozli asoslarda ta'minlanishi uchun doriqog'oz yozib berish huquqiga ega.

Jumladan, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 1997-yil 2-dekabrda 532-sonli «Davolash-profilaktika muassasalarini mablag' bilan ta'minlash tizimini takomillashtirish to'g'risida»gi qaroriga ko'ra,² ijtimoiy ahamiyatga ega bo'lgan ayrim kasallik turlariga chalingan bemorlar turg'un davolash-profilaktika muassasalarida ovqatlanish to'lovidan ozod qilinadilar (qarorning 1-ilovasi). Bunday kasalliklar qatoriga:

1. Onkologik kasalliklar.
2. Sil kasalligi.
3. Ruhiy kasalliklar.
4. Ixtisoslashtirilgan muassasalarda giyohvandlik.
5. Moxov kasalligi.

¹Qarang: O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 1993-yil 8-yanvardagi «Aholini dori-darmon vositalari bilan ta'minlashga doir qo'shimcha choratadbirlar to'g'risida»gi 15-sonli, O'zbekiston Respublikasi Hukumatining qarorlari to'plami. 1-son, 1-modda.

²O'zbekiston Respublikasi Hukumatining Qarorlari to'plami. 1997. 12-son, 57-modda.

6. Nurlanish kasalligiga chalingan bemorlar.

7. Yuqumli kasalliklar.

8. Sifilis.

9. OIV kasalligini yuqtirganlar (OITS).

10. Shoshilinch tibbiy yordam ko'rsatish chog'ida bemorlarning shifoxonada bo'lishi cheklangan muddatlarining tasdiqlangan standartlari bo'yicha reanimatsiya tadbirlarini va intensiv terapiyani talab etuvchi holatlar.

11. Darajasidan qat'i nazar kamqonlik kasalligiga chalingan homilador ayollar va tuqqan ayollar.

12. Endokrinologik kasalliklar kiritilgan. Pullik kasalxonalar va pullik bo'limlarda bu imtiyoz amal qilmaydi.

Shuningdek, turg'un davolash-profilaktika muassasalarida kasallikning turidan qat'i nazar ovqatlanish to'lovidan ozod qilinadigan aholi toifalari ham belgilangan bo'lib, ular jumlasiga (pullik kasalxonalar va bo'limlardan tashqari) quyidagi toifadagi fuqarolar kiritilganlar:

1. Bolalikdan nogironlar.

2. Chin yetimlar.

3. I va II guruh nogironlari.

4. 1941–1945-yillardagi urush qatnashchilari va nogironlari hamda ularga tenglashtirilgan shaxslar.

5. Ijtimoiy ta'minot bo'limlarida hisobda turuvchi yolg'iz nafaqaxo'rlar.

6. 1941–1945-yillardagi urush yillari mehnat fronti qatnashchilari.

7. Chernobil AESidagi halokat oqibatlarini tugatishda qatnashgan nogiron shaxslar.

8. Baynalmilalchi jangchilar.

9. 17 yoshgacha bo'lgan bolalar va o'smirlar.

10. Mudofaa ishlari bo'limlarining yo'llanmalari bo'yicha 18–27 yoshli chaqiriq yoshidagilar. Yuqorida qayd etib o'tilgan qarorning 4-ilovasida ambulatoriyada davolashda dori-darmonlar bepul beriladigan kasalliklar va shaxslar ro'yxati ham nazarda tutilgan va ular qatoriga quyidagilar kiradi:

1. Onkologik kasalliklar.

2. Sil kasalligi.

3. Moxov kasalligi.
4. Endokrinologik kasalliklar.
5. Ruhiy kasalliklar.
6. OIV kasalligini yuqtirganlar (OITS).
7. Yurak klapanlarini protezlash va organlarni almashtirish bo'yicha operatsiyalardan keyin.
8. O'zgalor yordamiga muhtoj yolg'iz nafaqaxo'rlar.
9. 1941–1945-yillardagi urush davrida mehnat fronti qatnashchilari.
10. 1941–1945-yillardagi urush qatnashchilari va nogironlari hamda ularga tenglashtirilgan shaxslar.
11. Chernobil AESidagi halokat oqibatlarini tugatishda qatnashgan nogiron shaxslar.
12. Baynalmilalchi jangchilar.
13. Yadro poligonlarida va boshqa radiatsiya-yadro obyektlarida harbiy xizmatni o'tagan pensiya yoshidagi shaxslar.

8.3. Chernobil halokatidan ziyon ko'rgan O'zbekiston Respublikasida istiqomat qiluvchi fuqarolarni ijtimoiy himoyalash

O'zbekiston Respublikasi Oliy Kengashi Rayosati va O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Vazirlar Mahkamasining 1992-yil 6-apreldagi 170-sonli qarori asosida¹ Chernobil halokatidan ziyon ko'rgan O'zbekiston Respublikasida istiqomat qiluvchi fuqarolarga beriladigan haq-huquqlar, kompensatsiya puli va imtiyozlar nazarda tutilgan.

Chernobil AES halokatidan ziyon ko'rgan fuqarolarning quyidagi toifalariga imtiyoz va kompensatsiyalar berish ko'zda tutilgan:

1) Chernobil AES halokati oqibatida nurlanish kasalligiga chalingan va uni boshidan kechirgan shaxslar, shuningdek, Chernobil halokati sababli nogiron bo'lib qolganlar:

a) Chernobil AESda ishlagan yoki halokat natijasida zararlangan zonada halokat oqibatlarini tugatish ishlarida ishtirok etgan (shu jumladan, vaqtincha ishga yuborilgan yoki xizmat safariga jo'natilgan) shaxslar;

¹O'zbekiston Respublikasi Hukumati qarorlari to'plami. 1992. 4-son, 10-modda.

b) maxsus yigʻinlarga chaqirilgan va halokat oqibatlarini tugatish bilan bogʻliq zararlangan zonadagi ishlarni bajarishga jalb etilgan mud-datli yoki kadr harbiy xizmatchilar.

Chernobil halokatidan ziyon koʻrgan fuqarolarga beriladigan imtiyozlar quyidagilardan iborat:

1) dori-darmonlarni bepul olish (vrachlarning retsepti boʻyicha), har yilgi sanatoriy va kurortda bepul davolanishni taʼminlash yoki kurort yoʻllanmasi oʻrtacha qiymati miqdorida kompensatsiya pullarini olish, turarjoydan davolanish, dispanserlik, ambulatoriya yoki klinik kuzatuv joyigacha transportda bepul (taksidan tashqari) borish va kelish;

2) yasama tishlarni bepul tayyorlash va tuzatish (qimmatbaho metallardan tayyorlangan yasamalar bundan mustasnodir);

3) mehnatga vaqtincha layoqatsizligi tufayli, uzluksiz ish faoliyatidan qatʼi nazar, oylik maoshining 100 foizi miqdorida nafaqa olish;

4) mehnatga vaqtincha layoqatsizligi tufayli surunkasiga 4 oygacha yoki kalendar yilda 5 oygacha nafaqa olish, agar ular ishlovchi nogironlar boʻlib hisoblansalar;

5) imtiyozlilar orasida turarjoy sharoitini yaxshilashga muhtoj deb topilgan taqdirda ustun darajada turarjoy maydoni yoki alohida xona koʻrinishidagi qoʻshimcha turarjoy maydoni bilan taʼminlanish;

6) davlat turarjoy fondidagi oʻzlari yashab turgan turarjoylarni tekinga shaxsiy mulk qilib olish;

7) tibbiy koʻrsatmalarga binoan kam ish haqi toʻlanadigan ishga oʻtkazilganda oldingi ish haqi bilan yangi joydagi ish haqi oʻrtasidagi farqni olish. Bu farq ish qobiliyati tiklangunga yoki nogironlik belgilangunga qadar korxonalar, muassasalar va tashkilotlar tomonidan toʻlanadi;

8) Chernobil AES halokati oqibatida kasallanganligi yoki shikastlanganligi sababli qonunchilik hujjatlariga muvofiq belgilanadigan haqiqiy yetkazilgan zararni qoplaydigan miqdorda nogironlik nafaqasi tayinlanadi.

Bunday shaxslarga kompensatsiya toʻlovlari, pensiya taʼminoti sohasidagi imtiyozlar va boshqa bir qator imtiyoz va yengilliklar berish ham koʻzda tutilgan.

8.4. Soliqlar va boshqa majburiy to'lovlar yuzasidan beriladigan imtiyozlar

Aholining muhtoj tabaqalarini soliqlar va boshqa majburiy to'lovlardan ozod qilish yoki ularning miqdorini kamaytirish ijtimoiy himoyaga muhtoj shaxslar turmush ko'rsatkichlarini yuksaltirilishda muhim ahamiyat kasb etuvchi moddiy qo'llab-quvvatlash choralaridan bo'lib sanaladi.

O'zbekiston Respublikasining Soliq kodeksida ana shunday imtiyoz va yengilliklarning ko'pgina shakllari aholining muhtoj qatlamlari uchun nazarda tutilgandir. Bu imtiyoz va yengilliklar turli soliqlar va majburiy to'lovlarni to'lash bilan bog'liq holda berilishi mumkin.

Jumladan, O'zbekiston Respublikasining Soliq kodeksiga ko'ra¹ Fuqarolarning turli toifalariga ko'pgina soliqlar va boshqa majburiy to'lovlar yuzasidan imtiyozlar berilgan va bunda ularning mehnat la-yoqati, yoshi, salomatligi ahvoli va boshqa jihatlari nazarga olingan.

Daromad solig'i yuzasidan imtiyozlar. Fuqarolarga daromad solig'i bo'yicha imtiyozlar soliq solinmaydigan daromadlar doirasini belgilash, soliqdan butunlay ozod qilish yoki chegirmalar berish yo'li bilan amalga oshiriladi.

O'zbekiston Respublikasi Soliq kodeksining 179-moddasiga ko'ra, jismoniy shaxslarning quyidagi daromadlariga soliq solinmaydi:

1) moddiy yordam summolari:

– favqulodda holatlar munosabati bilan beriladigan moddiy yordam summolari – to'laligicha;

– vafot etgan xodimning oila a'zolariga yoki oila a'zosi vafot etganligi munosabati bilan xodimga beriladigan moddiy yordam summolari – eng kam ish haqining yigirma baravarigacha miqdorda;

boshqa hollarda – soliq davri uchun eng kam ish haqining o'n ikki baravarigacha miqdorda.

2) yo'llanmalar qiymatini yuridik shaxslar tomonidan to'liq yoki qisman qoplash summolari, turistik yo'llanmalar bundan mustasno:

¹Qarang: O'zbekiston Respublikasining Soliq kodeksi. O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi palatalarining Axborotnomasi. 2007. 12-son, 1-ilova (qo'shimcha va o'zgartirishlari bilan).

O‘zbekiston Respublikasi hududida joylashgan sanatoriy-kurort va sog‘lomlashtirish muassasalariga yo‘llanmalar qiymatini nogironlarga, shu jumladan mazkur korxonada ishlamaydigan nogironlarga to‘liq yoki qisman qoplash summalari;

3) o‘z xodimlariga va ularning bolalariga ambulatoriya va (yoki) stasionar tibbiy xizmat ko‘rsatilganligi uchun ish beruvchi tomonidan to‘langan summalar, shuningdek, yuridik shaxsning davolash va tibbiy xizmat ko‘rsatganlik, nogironlik profilaktikasi va nogironlarning salomatligini tiklashga doir texnik vositalarni olish uchun qilingan xarajatlari. Xodimlarni davolaganlik, ularga tibbiy xizmat ko‘rsatganlik uchun yuridik shaxslar tomonidan sog‘liqni saqlash muassasalariga naqd pulsiz haq to‘langan taqdirda, shuningdek, sog‘liqni saqlash tashkilotlari tomonidan yozib berilgan hujjatlar asosida ushbu maqsadlar uchun mo‘ljallangan naqd pul mablag‘lari bevosita xodimga, xodim yo‘qligida uning oila a‘zolariga, ota-onalariga berilgan yoki mazkur maqsadlar uchun mo‘ljallangan mablag‘lar xodimning bankdagi hisobvarag‘iga kiritilgan taqdirda, ushbu daromadlar soliq solishdan ozod qilinadi;

4) vaqtinchalik bir martalik ishlarni bajarishdan olingan daromadlar, agar bunday ishlarga yollash vaqtinchalik bir martalik ish bilan ta‘minlash markazlari ko‘magida amalga oshirilayotgan bo‘lsa;

5) O‘zbekiston Respublikasining davlat mukofotlari va davlat pul mukofotlariga sazovor bo‘lgan jismoniy shaxslar olgan bir yo‘la beriladigan davlat pul mukofoti yoki shunga teng bahodagi esdalik sovg‘alarining qiymati, shuningdek, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining yoki O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qarori asosida bir yo‘la beriladigan pul mukofoti;

6) xalqaro sport musobaqalarida sovrinli o‘rinlarni egallaganligi uchun sportchilar olgan bir yo‘la beriladigan pul mukofoti;

7) donorlik uchun pul mukofotlari, shuningdek, qon yiqqanlik uchun tibbiyot muassasalari xodimlari oladigan summalar;

8) ilgari mazkur yuridik shaxsning xodimlari bo‘lgan ishlamayotgan pensionerlar va mehnat qobiliyatini yo‘qotgan shaxslar, vafot etgan xodimning oila a‘zolari tomonidan olingan sovg‘alar va boshqa turlardagi yordam.

Jismoniy shaxslarning daromadlariga solinadigan soliqni to‘lov man-

basida hisoblab chiqarish, ushlab qolish va to‘lash majburiyati yuridik shaxslar, faoliyatni O‘zbekiston Respublikasida doimiy muassasa orqali amalga oshirayotgan O‘zbekiston Respublikasi norezidentlari hamda chet el yuridik shaxslarining vakolatxonalari zimmasiga yuklatiladi.

8.5. Bank-kredit va sug‘urta xizmatlari ko‘rsatish sohasidagi imtiyozlar

Fuqarolarni ijtimoiy himoyalashning zamonaviy shakllaridan biri–turli maqsadlar ko‘zlangani holda ularga tijorat banklari tomonidan imtiyozli shartlarda kredit berilishi mumkin. Bunday kreditlar berilishidan maqsad yosh oilalarni qo‘lab-quvvatlash, o‘zini o‘zi ish bilan ta‘minlashlariga ko‘maklashish kabilardan iboratdir.

Imtiyozli kreditlarning turli shakllari mavjud bo‘lib, ularning huquqiy rejimi turli-tumandir.

Yosh oilalarga imtiyozli asosda kreditlar berish. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining «Yosh oilalarni moddiy va ma‘naviy qo‘llab-quvvatlashga doir qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida» 2007-yil 18-maydagi PF–3878-son Farmoniga muvofiq O‘zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi tomonidan 2007-yil 18-iyulda 1697-son bilan «Tijorat banklari tomonidan yosh oilalarga imtiyozli asosda kreditlar berish tartibi to‘g‘risida Nizom»¹ ro‘yxatga olingan.

Yosh oila – har biri 30 yoshdan oshmagan, birinchi marta rasmiy nikohdan o‘tgan shaxslardan iborat. Kreditlar tijorat banklari tomonidan qaytarishlik, to‘lovlilik, ta‘minlanganlik, maqsadli foydalanish va mudatlilik shartlari asosida beriladi.

Yosh oilalarga eng kam oylik ish haqining 1000 baravaridan oshmaydigan miqdorda tadbirkorlik faoliyatini amalga oshirish uchun, sotib olinayotgan ko‘chmas mulkni garovga olish orqali uy-joy qurish, rekonstruksiya qilish va sotib olish uchun kredit berilishi mumkin. Ipoteka kreditlari yosh oilalarga 15 yildan kam bo‘lmagan muddatga beriladi. Yakka tartibdagi uy-joyning qurilishi va sotib olish uchun – qonun hujjatlarida belgilangan eng kam oylik ish haqining 3000 baravarigacha;

¹O‘zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to‘plami. 2007. 41–42-son, 425-modda.

– yakka tartibdagi uy-joyni rekonstruksiya qilish, shuningdek, ko‘p kvartirali uydagi kvartirani sotib olish uchun – qonun hujjatlarida belgilangan eng kam oylik ish haqining 2500 baravarigacha.

Tijorat banklari tomonidan yosh oilalarga moliyaviy iste‘mol kreditlari berish, monitoring qilish va qaytarish tartibi O‘zbekiston Respublikasining «Iste‘mol krediti to‘g‘risida»gi Qonuni bilan belgilangan xususiyatlar hisobga olingan holda tartibga solinadi.

Tijorat banklari tomonidan Ish bilan ta‘minlashga ko‘maklashish davlat jamg‘armasi mablag‘lari hisobidan shaxsiy yordamchi va dehqon xo‘jaliklariga chorvachilikni rivojlantirish uchun imtiyozli maqsadli mikro kreditlar berish.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2006-yil 23-martdagi «Shaxsiy yordamchi, dehqon va fermer xo‘jaliklarida chorva mollarini ko‘paytirishni rag‘batlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida»gi PQ–308-sonli qarori asosida O‘zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi tomonidan 2006-yil 2-mayda 1567-son bilan ro‘yxatga olingan «Tijorat banklari tomonidan Ish bilan ta‘minlashga shaxsiy yordamchi va dehqon xo‘jaliklariga chorvachilikni rivojlantirish uchun imtiyozli maqsadli mikro kreditlar berish tartibi to‘g‘risida Nizom»¹ga muvofiq qishloq, ovul va qo‘rg‘onlarda yashovchi fuqarolarga meros qilib qoldiriladigan umrbod egalik qilishga uy-joy qurish uchun berilgan uchastkalarining bir qismi – tomorqada oila a‘zolarining shaxsiy mehnati asosida oila ehtiyojlari uchun dehqonchilik va chorvachilik mahsulotlari yetishtirish hamda oila ehtiyojidan ortiqchasini dehqon bozorlarida sotish bilan shug‘ullanadigan oilaviy xo‘jalik faoliyati yoki dehqon xo‘jaligi – oila a‘zolarining shaxsiy mehnati asosida, meros qilib qoldiriladigan umrbod egalik qilish uchun oila boshlig‘iga berilgan tomorqa yer uchastkasida qishloq xo‘jaligi mahsuloti yetishtiradigan va realizatsiya qiladigan, yuridik shaxsni tashkil etgan va tashkil etmagan holda faoliyat yuritadigan oilaviy mayda tovar xo‘jaligi yuritish uchun ushbu turdagi imtiyozli kredit beriladi.

Bunday kreditni berish shartlari, tartiblari va imtiyozlar hajmi yuqoridagi Nizomda nazarda tutilgan.

¹O‘zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to‘plami. 2006. 18-son, 156-modda.

Sugʻurta xizmatlari koʻrsatish bilan bogʻliq ravishda pensionerlar, nogironlar va boshqa ayrim toifadagi fuqarolarga imtiyozlar berish nazarda tutilgan.

Shahar yoʻlovchilar transportidan bepul foydalanish. Bu sohadagi imtiyozlar Oʻzbekiston Respublikasining 1996-yil 30-avgustda qabul qilingan «Shahar yoʻlovchilar transportidan bepul foydalanishni tartibga solish toʻgʻrisida»gi Qonuni¹ bilan belgilangan boʻlib, mazkur qonunning 1-bandiga koʻra shahar yoʻlovchilar transportidan (taksidan tashqari) bepul foydalanish huquqi faqat:

– 1941–1945-yillardagi urush qatnashchilari jumlasidan boʻlmish harbiy xizmatchilar;

– 1941–1945-yillardagi urush nogironlari va urushning I guruh nogironiga hamrohlik qiluvchi shaxs;

– 1941–1945-yillardagi urush davrida front ortida fidokorona mehnati va benuqson harbiy xizmati uchun orden va medallar bilan taqdirlangan shaxslar;

– Afgʻoniston Respublikasida va boshqa mamlakatlarning hududidagi jangovar harakatlarda qatnashgan sobiq baynalmilalchi jangchilar jumlasidan boʻlmish fuqarolar;

– haqiqiy muddatli harbiy xizmatni oʻtayotgan harbiy xizmatchilar va kontrakt boʻyicha oddiy askarlar hamda serjantlar tarkibidagi harbiy xizmatchilar;

– Chernobil AES halokati oqibatida nurlanish kasalligiga chalingan va uni boshdan kechirgan shaxslar;

– koʻzi ojiz nogironlar va koʻzi ojiz nogironga hamrohlik qiluvchi shaxs uchun saqlab qolingan.

Oliy oʻquv yurtlarida toʻlov-kontrakt asosida oʻqish uchun taʼlim kreditlari berish. Oʻzbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2001-yil 26-iyuldagi 318-conli «Oliy oʻquv yurtlarida toʻlov-kontrakt asosida oʻqish uchun taʼlim kreditlari berish toʻgʻrisida Nizom» qaroriga koʻra² taʼlim kreditlari Oliy taʼlim muassasalarida oʻqish davri hisobga olingan holda, bakalavriatga oʻqishga qabul qilingan talabalarga 10 yil-

¹Oʻzbekiston Respublikasi Oliy Majlis Axborotnomasi 1996. 9-son, 141-modda.

²Oʻzbekiston Respublikasi Hukumati qarorlari toʻplami. 2001. 7-son. 43-modda.

gacha, magistraturaga o'qishga qabul qilingan talabalarga 5 yilgacha bo'lgan muddatga beriladi.

Tijorat banklari tomonidan berilgan ta'lim kreditlari bo'yicha:

– chin yetimlarga, Mehribonlik uylarida tarbiyalanganlarga hamda bolalikdan I va II guruh nogironlariga nol foiz stavkasi (foizsiz kredit);
– talabalarning qolgan toifalariga O'zbekiston Respublikasi Markaziy bankining amaldagi qayta moliyalash stavkasidan yuqori bo'lmagan o'zgaruvchi foiz stavkalari belgilanadi.

Kam ta'minlangan oilalardan bo'lgan talabalar uchun kredit bo'yicha qo'shilgan foizlarning 50 foizi tuman Bandlikka ko'maklashish markazlari tomonidan Ish bilan ta'minlashga ko'maklashish davlat jamg'armasi mablag'laridan to'lanadi.

8.6. Fuqarolarning ayrim toifalariga beriladigan kompensatsiyalar va ularning mohiyati

Amaldagi qonun hujjatlari ayrim toifaga mansub bo'lgan fuqarolar uchun ijtimoiy kompensatsiyalar berish mexanizmini nazarda tutadi va uning maqsadi turli sabablarga ko'ra qilinadigan qo'shimcha natural va boshqa xarajatlar o'rnini davlat yo'li bilan qoplash orqali aholining ijtimoiy zaif va ko'makka muhtoj tabaqalarini iqtisodiy qo'llab-quvvatlash, ular turmush sharoiti ko'rsatkichlari pasayshiga yo'l qo'ymaslikdan iboratdir.

Aholini turli kompensatsiyalar berish orqali moddiy qo'llab-quvvatlash ijtimoiy muhofazalash usuli sifatida mustaqil taraqqiyotimizning dastlabki davrlarida keng qo'llanilgan edi.

Jumladan, O'zbekiston Respublikasi Oliy Kengashining navbatdan tashqari IV sessiyasi tomonidan 1991-yil 14-fevralda qabul qilingan qarorga muvofiq respublika aholisini, avvalo, uning kam ta'minlangan qatlamlarining ijtimoiy himoya qilinishini ta'minlash, serunum mehnatga qiziqishini kuchaytirish, xalq iste'moli mollari ishlab chiqarishni va xizmat ko'rsatishni ko'paytirish maqsadida, milliy an'analarni, yuzaga kelgan demografik vaziyatni hamda ishlab chiqarishning va iste'mol

strukturasiyining regional xususiyatlarini e'tiborga olib, maxsus qo'shma to'lovlar joriy etildi¹.

Keyinchalik kompensatsiya to'lash mexanizmi muntazam takomillashtirib borildi hamda yalpisiga ijtimoiy himoyalashdan bosqichma-bosqich manzilli, aholi muhtoj tabaqalariga aniq yo'naltirilgan ijtimoiy muhofazalashga o'ta borildi.

Bugungi kunda muhtoj aholi tabaqalariga ijtimoiy muhofaza maqsadlarida kompensatsiya to'lovlari to'lash birmuncha mukammal holda bo'lib, bozor tamoyillarini hamda boqimandalikka yo'l qo'yib bo'lmasligini hisobga olib belgilangan.

Quyida ularning eng muhim turlarini ko'rib o'tamiz.

1. Chernobil halokatidan ziyon ko'rgan O'zbekiston Respublikasida istiqomat qiluvchi fuqarolar, yadro poligonlarida va boshqa yadroviy-radiatsiya obyektlarida harbiy xizmatni o'tagan pensiya yoshidagi shaxslarga kompensatsiyalar. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2003-yil 27-martdagi PF – 3227-sonli «2003-yilning 1-apreldan boshlab uy-joy-kommunal xizmatlar haqini to'lash bo'yicha beriladigan imtiyozlar o'rniga kompensatsiya pul to'lovlarini joriy etish to'g'risida»gi Farmoniga ko'ra² yadro poligonlarida va boshqa yadroviy-radiatsiya obyektlarida harbiy xizmatni o'tagan pensiya yoshidagi shaxslar jumlasiga kiruvchi nogironlarga salomatlikni tiklash uchun I va II guruh nogironlariga – eng oz ish haqining uch karra miqdorida; III guruh nogironlariga – eng oz ish haqining ikki karra miqdorida kompensatsiya to'lash joriy qilindi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2002-yil 30-maydagi PF – 3079-sonli «Yadro poligonlarida va boshqa yadroviy-radiatsiya obyektlarida harbiy xizmatni o'tagan pensiya yoshidagi shaxslarni ijtimoiy qo'llab-quvvatlash to'g'risida»gi Farmoni bilan³ yadro poligonlarida va boshqa yadroviy-radiatsiya obyektlarida harbiy xizmatni

¹O'zbekiston SSJning Oliy Kengash Axborotnomasi. 1991. 4-son, 62- modda.

²O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Axborotnomasi. 2003. 3–4-son, 56-modda.

³O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Axborotnomasi. 2002. 4–5-son, 97-modda.

o'tagan pensiya yoshidagi shaxslar jumlasiga kiruvchi nogironlarga salomatlikni tiklash uchun kompensatsiya to'lovlari joriy qilindi va uning miqdori I va II guruh nogironlari uchun eng kam oylik ish haqining uch barabari, III guruh nogironlari uchun esa ikki barabari miqdorida belgilandi.

O'zgalar yordamiga muhtoj yolg'iz pensionerlar va nogironlarga umumiy foydalanishdagi shahar yo'lovchi tashish transportida (tak-sidan tashqari) va qishloq joylarda o'zlari yashaydigan ma'muriy rayon hududida umumiy foydalanishdagi avtotransportda bepul yurish huquqi, shifokorlar retsepti bilan beriladigan dorilar uchun haq to'lashdan ozod qilinganlar va belgilangan miqdordagi eng zarur mollar bepul berilishi tartibi joriy qilingan.

Bulardan tashqari, O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi tomonidan 1999-yil 15-fevralda 636-tartib raqami bilan ro'yxatga olingan «O'zgalar parvarishiga muhtoj yakka-yolg'iz pensionerlarni asosiy oziq-ovqat mahsulotlari bilan bepul ta'minlash to'g'risida»gi Nizomga ko'ra¹ Pensiya jamg'armasi tuman (shahar) bo'limi mahalla fuqarolar yig'ini bilan birgalikda ana shunday ijtimoiy yordamga muhtoj shaxslar ro'yxatini tuzadi va uni tasdiqlash uchun tuman (shahar) hokimiga taqdim etadi.

Bunday yordam ko'rsatilishi uchun yakka-yolg'iz fuqaroning belgilangan shakldagi arizasi, ijtimoiy-iqtisodiy va maishiy sharoiti haqida tuzilgan dalolatnoma, TMEK yoki VKKning yordamga muhtojlik haqidagi xulosasi, turarjoyidan ma'lumotnoma talab qilinadi.

Bunday toifadagi yolg'iz pensionerlarga har oyda belgilangan normalarda asosiy oziq-ovqat mahsulotlari beriladi:

Tarbiyalash (patronat) uchun oilalarga beriladigan yetim bolalarni kiyim-bosh, poyabzal bilan ta'minlash hamda bolani o'z tarbiyasiga olgan tutingan ota-onalarga har oylik nafaqa to'lash. O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi tomonidan 2002-yil 18-noyabrda 1189-son bilan ro'yxatga olingan «Tarbiyalash (patronat) uchun oilalarga beriladigan yetim bolalarni kiyim-bosh, poyabzal bilan ta'minlash hamda bolani o'z tarbiyasiga olgan tutingan ota-onalarga har oylik

¹ O'zbekiston Respublikasi vazirliklari, davlat qo'mitalari va idoralari normativ huquqiy hujjatlari Axborotnomasi. 1999. 3-son.

nafaqa to'lash tartibi to'g'risida»gi Nizomga ko'ra oilaga tarbiyaga olingan bolalarni kiyim-bosh va poyabzal bilan ta'minlash maqsadida tuman, shahar xalq ta'limi bo'limlari bolaning familiyasi, ismi-sharifi, yoshi, jinsi, kiyim-bosh va poyabzalining o'lchamlari ko'rsatilgan buyurtmani belgilangan norma va ro'yxatga muvofiq Qoraqalpog'iston Respublikasi Xalq ta'limi vazirligi, viloyatlar va Toshkent shahar xalq ta'limi boshqarmalariga beradilar.

To'liq davlat ta'minotidagi yetim bolalarni va ota-ona qarovisiz qolgan bolalarni pul nafaqalari hamda kiyim-bosh, poyabzal va anjomlar sotib olish uchun nafaqalar, shuningdek, transportda yurish kartochokalari bilan ta'minlash. O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi tomonidan 2002-yil 11-noyabrda 1187-son bilan ro'yxatga olingan «To'liq davlat ta'minotidagi yetim bolalarni va ota-ona qarovisiz qolgan bolalarni pul nafaqalari hamda kiyim-bosh, poyabzal va anjomlar sotib olish uchun nafaqalar, shuningdek, transportda yurish kartochokalari bilan ta'minlash tartibi to'g'risida»gi Nizomga ko'ra, belgilangan tartibda vasiylik va homiylik organlari tomonidan aniqlanib, tegishli ta'lim muassasalariga joylashtirilgan ota-onasi vafot etgan, ota-onalik huquqidan mahrum etilgan, ota-onalik huquqi cheklangan, muomalaga layoqatsiz deb topilgan, kasal bo'lgan, uzoq muddat bo'lmagan, bolalarni tarbiyalash yoki ularning huquq va manfaatlarini himoya qilishdan bo'yin tovlagan, shu jumladan tarbiya, davolash, aholini ijtimoiy himoyalash muassasalaridagi bolasini olishdan bosh tortgan ota-onalarning bolalari, shuningdek, boshqa hollarda ota-ona qaramog'idan mahrum bo'lgan bolalar to'liq davlat ta'minotidagi yetim bolalar va ota-ona qarovisiz qolgan bolalar deb hisoblanadi.

To'liq davlat ta'minotidagi yetim bolalar va ota-ona qarovisiz qolgan bolalarni ijtimoiy himoya qilish maqsadida ularga barcha turdagi umumta'lim maktablarini bitirib chiqayotganda va ishga joylashayotganda kiyim-bosh, poyabzal va anjomlar sotib olish uchun nafaqalar 2002-yilda eng kam oylik ish haqining 80 baravarigacha, 2003-yildan 100 baravarigacha miqdorida beriladi, shuningdek, 2002-yilda eng kam oylik ish haqi miqdorining 3 baravarigacha va 2003-yildan 5 baravarigacha miqdorda pul nafaqasi ham beriladi.

Mehribonlik uylari va maktab-internatlarda tarbiyalanayotgan, umumta'lim maktablari, akademik litsey yoki kasb-hunar kollejlari

o'qiyotgan to'liq davlat ta'minotidagi yetim bolalar va ota-ona qarovisiz qolgan bolalar o'qiydigan ta'lim muassasasi yashash joyidan 3 kilometrdan ziyod masofada joylashgan bo'lsa, ular jamoat transporti va o'quvchilar uchun transportda imtiyozli yurish kartochkalari muomalada bo'lgan shahar va aholi punktlarida imtiyozli transportda yurish kartochkalari bilan ta'minlanadilar, agar shaharda yoki aholi punktida bu turdagi kartochka tizimi bo'lmasa, u holda o'quvchilarga ushbu shaharda yoki aholi punktida transportda imtiyozli yurish huquqini beruvchi boshqa turdagi kartochka beriladi.

Yetim bolalar va ota-ona qaramog'idan mahrum bo'lgan bolalarni turarjoy bilan ta'minlash. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2010-yil 2-avgustdagi 164-sonli qaroriga ko'ra «Yetim bolalar va ota-ona qaramog'idan mahrum bo'lgan bolalarni turarjoylar bilan ta'minlash tartibi to'g'risida»gi Nizom tasdiqlangan bo'lib, mazkur Nizom bunday toifadagi bolalarni aniqlash, hisobga olish va ularni turarjoylar bilan ta'minlash shartlari, normalari va tartiblarini belgilaydi¹.

Mazkur qaror asosida O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirigi tomonidan 2010-yil 29-oktabrda 2150-tartib raqami bilan «Yetim bolalar va ota-ona qaramog'idan mahrum bo'lgan bolalarga turarjoy sotib olish uchun maqsadli transfertlar, shu jumladan, budjet transfertlarini berish tartibi to'g'risida»gi Nizom ro'yxatga olingan². Ushbu hujjatga ko'ra bunday toifadagi shaxslarga turarjoy sotib olish uchun transfertlar berish shartlari, tartiblari va ularning miqdorlari belgilab berilgan.

Kompensatsiya to'lovlari ijtimoiy ehtiyojmand fuqarolarning boshqa toifalariga ham berilishi mumkinligi tegishli qonun hujjatlarida nazarda tutib qo'yilgan bo'lishi mumkin.

NAZORAT UCHUN SAVOLLAR

1. Imtiyozlar nima?
2. Ijtimoiy muhofazaga muhtoj fuqarolarga imtiyoz berishning mohiyati nimada?

¹O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to'plami. 2010. 31-son, 260-modda.

²O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to'plami. 2010. 42–43-son, 375-modda.

3. Iqtisodiy sohadagi imtiyozlar deganda nimalar nazarda tutiladi?
4. Fuqarolarga imtiyoz berishda qanday mezonlarga amal qilinadi?
5. Pensionerlar va nogironlarga qanday imtiyozlar beriladi ?
6. Tibbiy-farmatsevtika ta'minoti sohasidagi imtiyozlar nimalardan iborat?
7. Pensionerlarga soliq majburiyatlari sohasida qanday imtiyozlar berilishi ko'zda tutilgan?
8. Chernobil Atom elektr stansiyasida yuz bergan halokat oqibatlarini bartaraf etishda qatnashgan fuqarolarga qanday imtiyozlar berish nazarda tutilgan?
9. Ikkinchi jahon urushi qatnashchilari va ularga tenglashtirilgan shaxslar deganda kimlar nazarda tutiladi?
10. Ijtimoiy ahamiyatga ega kasalliklar nima va unga chalinganlar qanday ijtimoiy muhofaza etiladi?
11. Ta'lim krediti nima?

IX BOB.
AHOLINI IJTIMOY MUHOFAZA QILISH SOHASIDA
QONUNLAR IJROSINING TA'MINLANISHI VA
HUQUQLARNI HIMOYALASH

***9.1. Aholini ijtimoiy muhofazalashga oid qonunchilik talablari-
ning bajarilishi ustidan davlat nazorati, uning shakllari va usullari***

Aholini ijtimoiy muhofaza qilish ijtimoiy siyosatimizning ustuvor yo'nalishi sifatida salmoqli miqdordagi moliyaviy resurslar sarflanishi, moliyaviy mablag'larning jamg'arilishi, taqsimlanishi hamda o'z egalariga aniq taqsimlanishi bilan bog'liq faoliyatdir. Bunda moliyaviy va boshqa moddiy resurslar to'planishi, taqsimlanishi va sarf-xarajat qilinishi ustidan samarali va shaffof davlat va jamoat nazoratining o'rnatilganligi muhim ahamiyatga ega bo'lib, fuqarolar haq-huquqlarining ta'minlanishi, himoyalaniishi va kafolatlanishida muhim o'rin tutishi shubhasizdir.

Aholini ijtimoiy muhofazalash chog'ida qonuniylik rejimini ta'minlash, qonun hujjatlariga amal qilinishni tekshirish orqali qonun talablari so'zsiz bajarilishi ta'minlanadi. Bu ish davlat va jamoat organlari tomonidan qonunda nazarda tutib qo'yilgan shakllarda va vositalar orqali amalga oshira boriladi.

Qonunning vazifalaridan biri – davlat, jamiyat, shaxs moddiy manfaatlarini turli suiiste'mol hamda tajovuzlardan himoya qilishdan iboratdir.

Agar 2009-yilda ijtimoiy soha va ijtimoiy muhofaza maqsadlari uchun ajratilgan va sarflangan mablag'lar davlat budjeti xarajatlarining 56,5 foizini tashkil etgan bo'lsa, bu ko'rsatkich 2010-yilda 59 foizni tashkil etdi.

Ma'lumotlarga ko'ra, 2010-yil dekabr oyi holatiga ko'ra, O'zbekistonda 3,4 million nafar pensioner bor bo'lib, Budjetdan tashqari Pensiya jamg'armasining daromadlari 5,326 trillion so'mni tashkil etdi.

Aholiga ijtimoiy yordam ko‘rsatish tizimiga mansub davlat organlari tizimi, fuqarolarning o‘zini o‘zi boshqarish idoralari va bu sohada faoliyat yuritadigan boshqa muassasalar amalga oshiradigan ishlar fuqarolarning ijtimoiy ta‘minot va ijtimoiy muhofazalanish huquqlarining ta‘minlanishiga qaratilgani tufayli bu sohada qonuniylik va ijtimoiy adolat tamoyillariga xilof ish yuritilishi jamiyatning moddiy-ijtimoiy eng nochor va zaif qatlamlari manfaatiga putur yetishiga olib keladi, ular uchun davlat va jamiyat tomonidan ajratilgan mablag‘lar talon-toroj etilishi, suiiste‘mollar avj olishi uchun shart-sharoit yaratadi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2009-yil 30-dekabrda PF-4161-sonli «Fuqarolarning pensiya ta‘minoti tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida»gi Farmonida qayd etilganidek, pensiya ta‘minoti tizimining tashkiliy tuzilmasini yanada takomillashtirish, pensiyalar va ijtimoiy nafaqalarni Budjetdan tashqari Pensiya jamg‘armasidan o‘z vaqtida moliyalashtirish hamda ularni to‘liq hajmda to‘lash, shuningdek, respublika fuqarolarining pensiya ta‘minotiga yo‘naltiriladigan mablag‘lardan maqsadli foydalanilishi ustidan nazoratni kuchaytirish maqsadida pensiya ta‘minoti tizimida o‘zgarish va yangilanishlar amalga oshirilmoqda.

Moliya vazirligining Bosh nazorat-taftish boshqarmasi tarkibida Budjetdan tashqari Pensiya jamg‘armasi mablag‘laridan maqsadli foydalanilishi ustidan nazorat boshqarmasi va uning hududiy bo‘linmalarida tegishli bo‘limlar tashkil qilindi va ularga:

– yangi tayinlangan pensiya va nafaqalarning hisoblab chiqilishi, shuningdek, qonun hujjatlarida nazarda tutilgan imtiyozlar qo‘llanilishi to‘g‘riligini, shu jumladan, fuqarolarning pensiyaga oid hujjatlar yig‘majildida birlamchi hujjatlarning to‘liqligi va ishonarliligini tekshirish yo‘li bilan yoppasiga tekshiruvlarni amalga oshirish;

– mulkchilik shaklidan qat‘i nazar, korxonalar, tashkilotlar, muassasalar tomonidan ishlovchi pensionerlarga pensiyalar hamda nafaqalarning hisoblab yozilishi va to‘lanishi to‘g‘riligini reja asosida tekshirib turish;

– fuqarolarga pensiya va nafaqalar, shu jumladan, bank va pochta muassasalari tomonidan o‘z vaqtida va to‘liq to‘lanishining tizimli monitoringini olib borish, qoidabuzarliklar aniqlanganda qonun hujjatlarida nazarda tutilgan choralarni ko‘rish;

– tibbiy-mehnat ekspert komissiyalari tomonidan berilgan tekshiruv hujjatlari va xulosalarni, zarurat tug‘ilganda, mustaqil ekspertlarni jalb etgan holda takroriy ekspertizalarni o‘tkazish yuzasidan qo‘shimcha vazifalar yuklandi.

Ijtimoiy ta’minot sohasida qonunchilikka amal qilinishi ustidan davlat va jamoat nazorati olib boriladi hamda bunday nazoratning asosiy usullari va shakllari qonun hujjatlari bilan belgilab qo‘yilgan.

Qonunlar ijrosi ustidan nazoratni amalga oshirish vakolati Konstitutsiya va qonunlarga muvofiq O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining tegishli qo‘mitalari hamda komissiyalariga berilgan bo‘lib, ular joylarda tekshirishlar o‘tkazish, real ahvolni o‘rganish – tahlil qilish asosida o‘zlarining majlislarida ushbu soha uchun mutasaddi rahbarlar, mahalliy davlat hokimiyati organlari va boshqa idoralar hisobotlarini eshitish, zarur chora-tadbirlar ko‘rilishiga erishish orqali ushbu vakolatlarini amalga oshiradilar.

Prokurorlik nazorati ijtimoiy ta’minot sohasida qonuniylikni ta’minlashning eng samarali usullaridan bo‘lib, O‘zbekiston Respublikasining yangi tahrirdagi «Prokuratura to‘g‘risida»gi qonuni 20-moddasiga ko‘ra: «Vazirliklar, davlat qo‘mitalari, idoralar, fuqarolarning o‘zini o‘zi boshqarish organlari, jamoat birlashmalari, korxonalar, muassasalar, tashkilotlar hamda vazirliklar, davlat qo‘mitalari va idoralarning harbiy qismlari, harbiy tuzilmalari, hokimlar va boshqa mansabdor shaxslar tomonidan qonunlarning ijro etilishi, shuningdek, ular tomonidan qabul qilinayotgan hujjatlarning O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi va qonunlariga muvofiqligi nazorat predmeti hisoblanadi».

Prokuratura organlari qonun ijrosini tekshirish maqsadida tegishli mansabdor shaxslar tushuntirishlarini talab qilishi, hujjatlar va materiallar bilan tanishib chiqish, tekshirishlar o‘tkazishi va boshqa vakolatlarni amalga oshirishi mumkin.

Qonun buzilish holatlari aniqlangani taqdirda prokurorlik ta’siri o‘tkazishning huquqiy shakllari «Prokuratura to‘g‘risida»gi Qonunning 37–42-moddalarida nazarda tutilgan bo‘lib, ular protest keltirish, qaror chiqarish, taqdimnoma kiritish, da’vo arizasi yoki boshqa arizalar bilan sudga murojaat qilish, ogohlantirish kabilardan iboratdir.

O‘zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi to‘g‘risidagi Nizomga

ko‘ra budjetdan mablag‘ oluvchilarga davlat va mahalliy budjetdan ajratiladigan moliyaviy mablag‘lardan maqsadli hamda oqilona foydalanilishi ustidan davlat moliyaviy nazorati ushbu vazirlik tomonidan¹, uning tarkibiga kiruvchi Taftish-nazorat boshqarmasi hamda uning joylardagi organlari orqali amalga oshiriladi. Moliya vazirligining taftish-nazorat organlarining vakolatlari, vazifalari, faoliyat olib borish shakl hamda uslublari qonun hujjatlarida belgilab qo‘yiladi².

9.2. Aholiga ijtimoiy muhofaza yordamini ko‘rsatish bilan bog‘liq huquqbuzarliklar

Ijtimoiy ta‘minotga oid huquqiy munosabatlardagi javobgarlik yuridik javobgarlik ko‘rinishlaridan bo‘lib, «yuridik javobgarlik – sodir etilgan huquqbuzarlik uchun shaxsning davlat-hokimiyat xususiyatidagi ma‘lum mahrumliklarga duchor bo‘lishidir». Yuridik javobgarlik, bu – shaxsning aybli, huquqqa xilof harakati yoki harakatsizligi bilan sodir etilgan ijtimoiy zararli xulq-atvori uchun davlat ayblovi va davlat majburlovi qo‘llanilishidan iborat.

Ijtimoiy ta‘minot huquqida javobgarlik subyektlariga ko‘ra fuqarolarning javobgarligi va yuridik shaxs sanaluvchi korxonalar va tashkilotlarning javobgarligi farqlanadi.

Fuqarolarning jismoniy shaxslarning javobgarligi, o‘z navbatida, oddiy fuqarolar javobgarligi hamda mansabdor shaxslar javobgarligi shakllarida namoyon bo‘ladi. Yuridik shaxslar esa faqat iqtisodiy-moliyaviy huquqiy javobgarlikka tortilishlari mumkin.

Yuridik javobgarlik sifatida fuqarolar – jismoniy shaxslarga qo‘llaniladigan javobgarliklarning quyidagi turlari nazarda tutilgan:

- 1) fuqaroviy-huquqiy mulkiy javobgarlik;
- 2) ma‘muriy-huquqiy javobgarlik;
- 3) intizomiy javobgarlik;
- 4) jinoiy javobgarlik.

¹ O‘zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi to‘g‘risida»gi Nizom.

² O‘zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi «Taftish va nazorat boshqarmasi to‘g‘risida»gi Nizom.

Kim tomonidan javobgarlik qo‘llanilishiga ko‘ra ijtimoiy ta‘minot huquqidagi huquqiy javobgarliklar:

a) sud tomonidan qo‘llaniladigan;

b) ma‘muriy-boshqaruv organlari tomonidan qo‘llaniladigan javobgarliklarga bo‘linadi.

Oddiy fuqarolar – jismoniy shaxslarning ijtimoiy ta‘minotga oid huquqiy munosabatlardagi yuridik javobgarliklari qonunda maxsus ko‘rsatib qo‘yilgan g‘ayriqonuniy xatti-harakatlarni aybli ravishda sodir etishlari tufayli yuz beradi va ko‘pchilik hollarda fuqarolik huquqiy-ma‘muriy, fuqarolik huquqiy-jinoiy javobgarliklar tarzida vujudga keladi. Masalan: «Fuqarolarning davlat pensiya ta‘minoti to‘g‘risida»gi qonunning 65-moddasiga ko‘ra pensioner soxta hujjatlar taqdim etganlik, pensiya miqdoriga ta‘sir etuvchi (uning kamaytirilishiga sabab bo‘luvchi) holatlar haqida o‘z vaqtida ijtimoiy ta‘minot organlariga xabar bermaganlik tarzida suiiste‘mollarga yo‘l qo‘yishi oqibatida unga (oilaning boshqa a‘zolariga) ortiqcha to‘langan pensiya summasi ushlab qolinishi nazarda tutilgan. Ayni paytda ushbu xatti-harakatlari uchun fuqaro ma‘muriy-huquqiy (aytaylik, O‘zbekiston Respublikasi «Ma‘muriy javobgarlik to‘g‘risida»gi kodeksining 61-moddasiga ko‘ra) yoki jinoiy javobgarlikka (aytaylik, Jinoyat kodeksining 228-moddasi hujjatlarni soxtalashtirganlik); 167-moddasi (firibgarlik); 170-moddasi (aldov yoki suiiste‘mol qilish yo‘li bilan mulkiy zarar yetkazganlik va hokazo) tortilishi mumkin.

Ijtimoiy ta‘minot sohasidagi huquqbuzarliklar orasida mansabdor shaxslar tomonidan sodir etiladiganlari, ayniqsa, xavfli bo‘lib, moliyaviy mablag‘larni tasarruf etish vakolati berilgan, keng imkoniyatlarga ega bo‘lgan bunday shaxslar tomonidan qonunbuzarlikka yo‘l qo‘yilishi fuqarolar huquqlarining poymol etilishiga, beva-bechoralar uchun mo‘ljallangan davlat mablag‘larini talon-toroj qilinishi, maqsadsiz sarflanishiga, ijtimoiy adolat tamoyillarini oyoq osti qilinishiga, odamlarning davlat va uning organlaridan norozi bo‘lishlariga olib keladi. Shu sababli qonun mansabdor shaxs tomonidan sodir etilgan g‘ayriqonuniy xatti-harakat uchun birmuncha qattiq jazo choralarini nazarda tutadi.

Budjetdan tashqari Pensiya jamg‘armasi organlari, fuqarolar yig‘inlari va boshqa fuqarolarga ijtimoiy yordamni amalga oshiruvchi

davlat hamda jamoat organlarida ishlovchi rahbarlar va boshqa mansabdor shaxslar nojo‘ya xatti-harakatlari uchun ma‘muriy-huquqiy («Ma‘muriy javobgarlik to‘g‘risida»gi kodeksning 61, 157, 200, 209-moddalari) yoki jinoiy javobgarliklarga tortilishlari mumkin (O‘zbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksining 167, 205, 207, 209, 210, 214, 229 va boshqa moddalari).

Mansabdor shaxsning jinoiy yoki ma‘muriy javobgarlikka tortilganligi va unga jazo qo‘llanilganligi uning aybi bilan davlat mulkiga, fuqarolar mulkiga, boshqa mulkiy yoki nomulkiy manfaatlariga yetkazilgan zararni undan to‘la hajmda undirib olinishiga mutlaqo to‘sqinlik qilmaydi. Aksincha, mansabdor shaxs xatti-harakatining ma‘muriy nojo‘ya harakat deb tan olinganligi yoki jinoyat deb baholanganligi unga fuqarolik-huquqiy mulkiy javobgarlik yoxud mehnat huquqiga ko‘ra to‘liq moddiy javobgarlik qo‘llanilishi uchun shubhasiz dalil bo‘lib xizmat qilishi mumkin.

Iqtisodiy javobgarlik va moliyaviy jazo choralari ham huquqiy javobgarlikning bir turi sifatida, huquqiy muomala subyekti sanaluvchi yuridik shaxs tomonidan sodir etiladigan aybli, huquqqa xilof xatti-harakat uchun qo‘llaniladigan yuridik javobgarlik chorasi sifatida baholanmog‘i lozim. Chunki korxonalariga nisbatan qo‘llaniladigan iqtisodiy javobgarliklarda ham boshqa turdagi huquqiy javobgarliklarga xos bo‘lgan barcha asosiy xususiyatlar: a) qonun asosida qo‘llanilishi; b) vakolatli organ yoki mansabdor shaxs tomonidan qonun asosida qo‘llanilishi; v) yuridik shaxs uchun iqtisodiy va boshqa noqulay oqibatlarni yuzaga keltirishi kabilar mavjud bo‘ladi.

Ijtimoiy ta‘minotga oid huquqiy munosabatlarda yuridik shaxslarni iqtisodiy javobgar qilish va ularga nisbatan moliyaviy jazo qo‘llashning bir qancha hollari mavjud.

Yuridik shaxslarga nisbatan moliyaviy-iqtisodiy jazo choralari qo‘llanilishidan maqsad ular tomonidan qonun buzilish hollariga yo‘l qo‘ymaslik, ijtimoiy ta‘minotga oid vazifalarning bajarilishini ta‘minlash zarurligi bilan bog‘liqdir.

Ijtimoiy muhofaza yordamining amalga oshirilishi chog‘ida qonuniylik va ijtimoiy adolatni ta‘minlashning samarali vositalaridan biri – asossiz ravishda ijtimoiy ta‘minot, ijtimoiy yordam yoki imtiyoz

olgan shaxslardan bu ta'minot yoki yordam mablag'larini qaytarib undirilishidan iboratdir.

Xodimning sog'lig'iga ishlab chiqarish sabablari tufayli zarar yetkazilgan taqdirda to'langan pensiya miqdorini undirib olish uchun zarar yetkazishda aybdor bo'lgan korxonalar va fuqarolarga regress talabnomalari asosida da'vo qilish huquqi Budjetdan tashqari Pensiya jamg'armasi tuman (shahar) bo'limlariga berilgan va ushbu bo'lim rahbarlari zimmasiga yuklatiladi.

Regress talabnomalari bo'yicha ish olib borish va uni rasmiylashtirish Pensiya jamg'armasi tuman (shahar) bo'limlarining huquqshunoslari yoki huquqiy ishlar bo'yicha I toifa mutaxassislarining xizmat vazifasiga kiradi.

Regress talabnomalari bildirish uchun mehnatda mayib bo'lganlik yoki kasb kasalligiga chalinganligi tufayli nogironlik pensiyasi tayinlanganlik, umumiy kasallik bo'yicha nogironlik pensiyasi tayinlanib, pensiya ishidagi hujjatlar yoki boshqa ma'lumotlarga asosan xodimning salomatligiga yetkazilgan zarar korxonaga yoki fuqaroning aybi bilan sodir bo'lganligi, mehnatda mayib bo'lganlik, kasb kasalligiga chalinganligi yoki salomatligiga boshqa zarar yetganligi oqibatida vafot etganing oilasiga boquvchisini yo'qotganligi pensiyasi tayinlanganlik hamda bunda ish beruvchining yoxud zarar yetkazgan fuqaroning aybdor ekanligi asos bo'ladi.

Xodimga (fuqaroga) zarar yetkazilishida ish beruvchining (yoki fuqaroning) aybdor ekanini tasdiqlovchi hujjatlar sifatida quyidagi dalillar va hujjatlar e'tiborga olinishi mumkin:

1. Baxtsiz hodisa, xodim sog'lig'iga shikast yetishi tafsilotlarini bayon etuvchi ishlab chiqarishdagi baxtsiz hodisa haqida tuzilgan N-1 shakldagi dalolatnoma;

2. Ish beruvchining, Kasaba uyushmasi qo'mitasi yoki sudning jabrlanuvchi ko'rgan zarar o'rini qoplash haqidagi qarori, shuningdek, xo'jalik sudlarining regress da'volar bo'yicha (qayta da'vo qilingan hollarda) qarorlari;

3. Sud qarori va hukmi, prokuror qarori, tergov bo'limlari yoki dastlabki tergov bo'limlari qarorlari, agar ular tomonidan korxonaga aybi aniqlangan bo'lsa;

4. Mehnat bo'yicha texnik inspektor yoki mehnatni muhofaza qilish holatini va mehnat haqidagi qonunlarga amal qilinishini kuzatuvchi va nazorat qiluvchi mansabdor shaxslarning (bo'limlarning) xodim salomatligiga yetkazilgan zararning sabablari haqidagi xulosasi;

5. Davlat sanitariya xizmati tomonidan berilgan kasb kasalligiga chalinganlik haqidagi tibbiy xulosa;

6. Mehnatda mayiblanganliklari tufayli xodimga vaqtinchalik mehnatga layoqatsizlik sababli to'lanayotgan nafaqa pulining korxonada tomonidan ijtimoiy sug'urta jamg'armasi budjetiga qaytarilishi;

7. Isbotlash kuchiga ega bo'lgan boshqa hujjatlar.

Sudga murojaat etishdan avval to'langan pensiya miqdorini qaytarib olish haqidagi talabnoma bilan korxonada (fuqaroga) murojaat etilgan bo'lishi va zararni undirishga qaratilgan boshqa choralar ko'rilgan bo'lishi lozim.

Talabnoma (pretenziya talabi)ning to'liq yoki qisman tan olinishi tan olingan summani javobgar tomonidan ixtiyoriy ravishda to'lanishiga olib kelishi lozim.

Agar javobgar tan olgan summa 20 kun muhlat davomida to'lanmasa, bank muassasasiga O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi huzuridagi Budjetdan tashqari Pensiya jamg'armasiga tan olingan summani nizosiz tartibda o'tkazish haqidagi talabnoma taqdim etiladi. Talabnomaga javobgarning javob xati ilova qilinadi.

Zarar yetkazilgan korxonada (fuqaro) bir oy muddat ichida Budjetdan tashqari Pensiya jamg'armasi tuman (shahar) regress talabini qondirmasa zararni undirish haqida xo'jalik (fuqarolik ishlari bo'yicha tuman (shahar) sudiga da'vo arizasi taqdim etiladi. Bunday da'vo arizalari taqdim etish chog'ida pensiya jamg'armasi davlat boji to'lashdan ozod qilinadilar.

Aybini to'la yoki qisman bo'yniga olgan korxonada ixtiyoriy ravishda talab bildiruvchiga tan olgan summani to'laydi.

Budjetdan tashqari pensiya jamg'armasi tuman (shahar) bo'limlarining regress talabnomalari bo'yicha ish davlat, kooperativ va jamoat tashkilotlariga xususiy, qo'shma korxonalar hamda alohida ishbilarmonlarga nisbatan – xo'jalik sudlarida, fuqarolarga nisbatan esa – fuqarolik ishlari bo'yicha tuman, shahar sudlarida ko'rib chiqiladi.

NAZORAT UCHUN SAVOLLAR

1. Aholini ijtimoiy muhofazalash sohasida qonuniylik va ijtimoiy adolat deganda nimalar nazarda tutiladi?
2. Aholini ijtimoiy muhofazalashga oid qonunchilik ustidan davlat nazoratini kimlar amalga oshiradi?
3. Prokurorlik nazorati nima?
4. Aholini ijtimoiy muhofazalashga oid qonunchilik ustidan jamoat nazorati nima degani va kim tomonidan amalga oshiriladi?
